



Q.M.Hakimov, M.T.Mirkamilov

---

# TOPONIMIKA

Darslik



«Tafakkur avlod»  
nashriyoti

ISBN 978-9943-6891-1-6



9 789943 689116

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

HAKIMOV Q. M., MIRAKMALOV M.T.

# TOPONIMIKA

(DARSLIK)

TA'LIM YO'NALISHI: 5140600 – GEOGRAFIYA

Toshkent  
«Tafakkur avlod»  
2020

UO'K: 81'373.21(075.8)

KBK: 81.2-3-923

II 20

H 20 **Hakimov Q. M.,**

**Toponimika** [Matn]: o'quv qo'llanma/ Q.M. Hakimov,  
M.T.Mirakmatov. – Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020. –  
352 b.

Kitobda toponimika fanining asosiy tarkibiy qismlari bo'yicha hozirgi zamon tushunchalari bayon qilingan. Toponimikaning fanlar tizimida tutgan o'rni aniq belgilangan, sobaga oid ilmiy izlanishlar tarixi, fanning farqlovchi xususiyatlari va tadqiqot metodlari aniqlangan. Toponimlarning mavjud ilmiy klassifikatsiyasi turlari tahlil etilgan, hamda turli toponimik hodisa va jarayonlarning o'rni tadqiq qilingan. Kitobda fanning asosiy nazariy va metodologik jihatlari bilan birga respublika va viloyatlar toponimiyasining umumiy sharhi berilgan.

Darslik oliy o'quv yurtlarning "5140600-Geografiya" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallab tayyorlandi.

#### Taqrizchilar:

**A.Abdulqosimov** – Samarqand davlat universiteti professori,  
geografiya fanlari doktori,

**X.Mirzaaxmedov** – Namangan davlat universiteti, Geografiya  
kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent

UO'K: 81'373.21(075.8)

KBK: 81.2-3-923

ISBN 978-9943-6691-1-6

© Q.M. Hakimov, M.T.Mirakmatov

© «Tafakkur avlodi», 2020

#### SO'Z BOSHI


Har bir fan taraqqiyoti davomida turli rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Buning uchun jamiyatda zaruriy sharoit, talab va ehtiyoj paydo bo'lishi, mustahkam ilmiy poydevor yaratilishi shart. Geografik nomlarni o'rganadigan fan - toponimika ham barcha rivojlanish bosqichlarni bosib o'tib, alohida ilmiy yo'nalish sifatida XX asr boshida shakllandi va o'tgan davr mobaynida ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega fanlar qatoridan o'rin egalladi.

Toponimikaning tadqiqot obyekti bo'lgan geografik nom - serqirra horliq, hodisa va voqealar bo'lib, ayrim ijtimoiy va gumanitar fanlarning ham tadqiqot doirasiga kiradi. Albatta, har qaysi fan o'zining xususiyati va mohiyatiga ko'ra va har qanday tadqiqotchi o'z mutaxassisligidan kelib chiqib joy nomini tadqiq va tahlil qiladi.

Toponimika birinchi galda geografiyaning amaliy ehtiyojlari ta'sirida vujudga kelgan. Chunki, uning o'rganish obyekti bo'lgan toponim - geografik muhitning mahsuli sifatida, geografik obyektlarni bir-biridan farqlash uchun xizmat qiladi. Bundan tashqari, geografik nomlar kartaning muhim elementi va axborot manbai sifatida geografik muhitning o'ziga xos xususiyatlarini aks etib, inson va geografik obyekt orasida bog'lovchi vazifasini o'taydi. Demak, joy nomining asosiy vazifasi va bosh maqsadi - ma'lum bir geografik obyekt o'rni aniq belgilashdan iborat.

Toponimika ijtimoiy fan deyishga ham asos bor, chunki geografik nom ham so'z va u til qonuniyatlariga bo'ysunadi. Shuningdek, joy nomlari jamiyat tarixi bilan ham chambarchas bog'liq, ularda muayyan tarixiy voqea-hodisalar mujassam. Geografik obyektlarga qanday nom berish, eng avvalo jamiyatning muayyan bosqichdagi ehtiyojlari bilan belgilanadi. Binobarin, ishonch bilan aytish mumkinki, agar toponimikaning metodologik asosini geografiya tashkil qilsa, unda tarix - vaqtdagi shartli belgisi, filologiya - har ikkisini leksik ifodasidir.

Shunday qilib, majmuali xususiyatga ega bo'lgan geografik nomlar haqidagi fan toponimika - an'anaviy geografiya va millat nomi bilan ataladigan - geografiya, tarix va filologiya fanlarining



“simbioz”idir. Toponimika oʻtgan asrning ikkinchi yarimidan boshlab tez surʼatlar bilan rivojlandi. Bunga albatta, fanning ichki imkoniyatlari va “chegaraviy” fanlar bilan uygʻunlashib, ilmiy-tadqiqot ishlarini oqilona tashkil qilishi sabab boʻlgan. Demak, turli fanlarning oʻzaro taʼsiri bu - qonuniy jarayon. Ilmiy-tadqiqot ishlari ham aynan, bir necha fanlar manfaatlari tutashgan joyda samarali rivojlanmoqda. Geografik nomlarni oʻrganuvchi toponimika - ana shunday fanlar sirasiga kiradi.

Har qanday geografik nom - bu dunyoni anglash mahsuli, unda muayyan bir hududdagi kishilarning kundalik hayoti, turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini oʻz ifodasini topgan. Binobarin, ijtimoiy zarurat mahsuli boʻlgan nomlar insoniyatni geografik muhitdagi obyektiv hodisa-voqealarni qanchalik anglab olish jarayonini oʻzida aks etadi. Bu jarayon albatta, kishilarni ijtimoiy hayoti, milliy va maʼnaviy qadriyatlarini, mahalliy aholini etnik tarkibi, migratsiyasi, til tarixi hamda ularni oʻrab turgan tabiiy-geografik muhit bilan chambarchas bogʻliq.

Oʻzbekiston Prezidenti Sh.M.Murziyoyev taʼkidlaganidek, “... mamlakatimiz boy tarixi, uning betakror madaniyati va milliy qadriyatlarini keng targʻib qilish uchun zarur muhit va shart-sharoitlarni yaratishimiz kerak. Ana shu vazifani hal etishda turli darsliklar yaratish, ularni chop etish va moliyalashtirishda jiddiy toʻsiqlar boʻlmasligi lozim”.

Darhaqiqat, soʻnggi yillarda milliy qadriyatlarimizning muhim qatlamlaridan biri boʻlgan joy nomlari va uni oʻrganuvchi toponimika faniga jiddiy eʼtibor qaratilmoqda. Bunga oxirgi yillarda respublika oliy taʼlim muassisalari uchun nashr qilingan bitta darslik (Hakimov Q. Toponimika. -T.: 2016. -368 b.) va uchta oʻquv qoʻllanma (Gʻulomov P.N., Mirakmalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. Oʻquv qoʻllanma. -T.: Universitet, 2005.), (Qorayev S. Toponimika. -T.: 2006. -320 b.), (Nizomov A. Toponimika. -T.: 2012. -120 b.), yaqqol misol boʻladi. Oliy oʻquv yurtlarining 5140600-Geografiya mutaxassisligi boʻyicha tahsil olayotgan bakalavriat talabalari uchun yaratilgan mazkur darslik, yoʻnalishning oʻquv rejasi va fan dasturiga mos holda tayyorlandi. Uni yaratishda mualliflar soʻnggi

yillarda chop qilingan oʻquv adabiyotlarini tanqidiy-tahliliy oʻrgangan va ulardan lozim darajada foydalangan.

Darslik maqsadi - mavjud geografik, tarixiy va lingvistik maʼlumotlar negizida toponimika fani haqida ilmiy tushuncha hosil qilish. Darslik vazifasi - toponimikaning fanlar tizimidagi oʻrnini belgilash, toponimik tadqiqotlar tarixi va metodlari haqida bilimlarni shakllantirish, geografik nomlarning turlariga oid muammolarni oʻrganish, talabalarni turli zamonaviy toponimik fakt va hodisalar bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.

Kitobda toponimikaning hozirgi zamon muammolariga oid tushunchalar umumlashtirilgan va tizimli tadqiq qilingan. Fanning nazariy-metodologik asoslari bilan birga viloyatlar toponimiyasiga oid umumiy tavsif berilgan. Darslikning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, uning tarkibiy qismlari quyidagicha: birinchi bobda fanning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan, ikkinchi bob geografik nomlarning turlariga bagʻishlangan, uchinchi bobda toponimikaning amaliy ahamiyati yoritilgan, toʻrtinchi bob viloyatlar toponimiyasining hududiy tahliliga bagʻishlangan.

Mualliflar, qoʻlyozmani koʻrib chiqishda va uni nashrga tayyorlashda ishtirok etgan barchaga, ayniqsa masʼul muharrir g.f.n., dotsent P.Gʻulomov, taqrizchilar: g.f.d., professor A.Abdulqosimov, g.f.n., dotsent H.Mirzaaxmedovga kitobni mazmuni va tarkibiy qismlarini takomillashuvida bergan qimmatli maslahatlari uchun minnatdorlik bildiradilar.

## I BOB. TOPONIMIKANING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

### 1.1. KIRISH

#### ❖ *Reja:*

1. *Toponimika fani, tadqiqot obyekti va predmeti*
2. *Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi*
3. *O'quv fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi*

❖ *Mavzuning maqsadi:* *Toponimika fanining tadqiqot obyekti, maqsadi, vazifasi, fanlar tizimidagi o'rni va asosiy rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar berish.*

❖ *Tuyanch ibora va atamalar:* *Toponimika, majmuaviy ilmiy yo'nalish, geografik nom, so'z turlari, appelyativ, atoqli ot.*

**Toponimika fani, tadqiqot obyekti va predmeti.** Har qanday fanning nazariy asoslari takomillashgan sari, uning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari ham aniqlashib boradi. Majmuaviy fan sifatida e'tirof etilgan toponimika (yunoncha, topos - joy, onyma - nom) geografik nomlarning paydo bo'lishi, yaratilish qonuniyatlari, shakllanishi va rivojlanishi, turlari, transformatsiyasi, hududiy tafovutlari, migratsiyasi, hozirgi holati, ma'no-mazmuni, talaffuzi va yozilishini o'rganib bora mustaqil fan hisoblanadi.

Mutaxassislar toponimika va toponimiyani bir-biridan farqlash kerak deyishadi. Toponimiya - deganda muayyan hududdagi geografik nomlarning yig'indisi tushuniladi. Demak, toponimiya - toponimika fanining o'rganish obyekti bo'lsa, toponim uning tadqiqot predmetidir. Majmuaviylik toponimikaning tabiatida mujassam, fan rivojlangan sari uning bu xususiyati yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Toponimikaning muhim bir xususiyati, ijobiy tomuni shundaki, tutash fanlar (lingvistika, tarix, geografiya) yutuqlari va usullaridan foydalanish imkoniyatiga, sintez qilish qobiliyatiga

ega. Majmuaviy yondoshuv toponimikani fan sifatida jadal sur'atlar bilan rivojlantiradi va uning ilmiy va amaliy ahamiyati yanada oshiradi. Shu bilan birga, fanning o'rganish obyekti bo'lgan toponimiyaga nisbatan turlicha yondoshish imkoniyati paydo bo'ladi.

Toponimik tizimning bir bo'laki bo'lgan nom turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu sababdan, nomlar majmuasining barcha o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tahlil qilinganda to'g'ri va samarali natijaga erishish mumkin. Demak, toponimik tizimdan ajratib olingan alohida nom ilmiy tahlil uchun asos bo'lolmaydi. Shuning uchun, toponimik tadqiqotlarda geografik nomi hudud toponimiyasi bilan birga tadqiq etish maqsadga muvofiq. Boshqacha aytganda, toponimik tadqiqotlarda ko'pincha yaxlit toponimik tizimga e'tibor qaratish kerak bo'ladi, chunki, nom hech qachon yagona, tanha emas, u o'sha tizimdagi uzun "zanjir"ning bir bo'g'ini hisoblanadi.

Shu bilan birga, joy nomlariga takroriylik xos, nom ba'zan murakkab tuzilishga ega bo'lsa, gah tarkibiy qismlarga bo'linib takrorlanadi. Ko'pincha nomning semantikasi, talaffuzi, lisoniy tuzilishi to'g'ri kefadi, ammo hamma vaqt ham uning barcha alomatlari birga kelmaydi. Binobarin, joy nomining barcha o'ziga xos xususiyatlari inobatga olib tadqiq qilinsa, tahlil to'g'ri va mahsuldor bo'ladi. Bu har qanday toponimik tizimga va har bir nomning paydo bo'lishi va ma'no-mazmunini aniqlashga taaluqlidir.

Agar, toponimik tadqiqotlarda tadqiqotchi o'z mutaxassisligini ustun qo'yib ish ko'radigan bo'lsa, unda ko'zlangan maqsadga erishishi qiyin bo'ladi. Chunki, lingvist uchun toponimiya - bu faqat geografik nomlar ru'yxati, tarixchi uchun toponimiya - bu tarixiy hujjatlar va so'nomalar ko'rsatgichi, geograf uchun toponimiya - bu geografik kartadagi nomlar yig'indisidir. Shuning uchun, muayyan qonuniyatlar asosida, ma'lum hududda tarixan shakllangan geografik nomlar majmui - toponimik landshaft toponimika uchun to'laqonli tadqiqot obyekti bo'la oladi.

Binobarin, har bir hudud, mintaqaning mavjud toponimik majmuasi, joy nomlari turli nuqtai-nazardan tahlil qilinishi kerak:

1) nomning geografik alomatlari: tog', daryo, dasht, cho'l, shahar, qishloq va hokazo; 2) paydo bo'lish vaqti va unga turtki bo'lgan sabablar; 3) qaysi tilga aloqadorligi va uning lisoniy xususiyatlari; 4) mazmuni va etimologiyasi (yunoncha, έρώπων - haqiqat, so'zning asl ma'nosi va λογος - ta'limot). 5) nomning tuzilishi, til qonuniyatlari va imlo qoidalariga to'g'ri kelishi; 6) nomning yaratilgan tilida va boshqa tillarda ilmiy jihatdan to'g'ri yozilishi; 7) nomning tarqalish hududi, areali, migratsiya yo'llari.

Shu masalaga e'tibor qaratgan belorus toponimika maktabining asoschisi V.A.Juchkevich shunday yozgan edi: "toponimik muammolarni tor mutaxassislik doirasida hal qilish, ishga zarar keltiradi va uning amaliy ahamiyatini pasaytiradi". Bundan xulosa shuki, har qanday toponimik tadqiqotlar aniq joy bilan bog'langan holda amalga oshirilsa, shunda o'rganilayotgan hudud toponimiyasining o'ziga xos shakllanish xususiyatlari kompleks tarzda tadqiq qilinadi.

Toponimik landshaft - geografik landshaft kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yaxlit hududiy toponimiyadir. Landschaft (nemischa, land - yer, shaft - manzara) - turli tabiiy geografik komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha, ya'ni tabiiy komponentlarining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaralarga ega bo'lgan hudud. Toponimik landshaft tushunchasini toponimik tadqiqotlarda yaxlit hududning muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan toponimiyasiga nisbatan qo'llash mumkin. V.A.Juchkevich toponimik landshaft - bu geografik landshaftning so'z bilan ifodasi deb ta'riflagan.

Ba'zan, toponimik landshaft nimasi bilan geografik landshaftdan farq qiladi degan savol paydo bo'ladi?. Farqi shundaki, geografik landshaft - yer qobig'ining tabiiy taraqqiyot davomida vujudga kelgan va boshqa joylardan farq qiladigan qismini bo'lsa, toponimik landshaft - tabiat va jamiyat aloqadorligini lisoniy ifodasi deyish mumkin. Yana ham soddaroq qilib aytganda, toponimik landshaft - geografik landshaft ichida mavjud bo'lgan har qanday real predmet va hodisalar o'rtasidagi munosabatlar haqida qo'shimcha tasavvur hosil qilish imkoniyatini beradi.

Umuman olganda, toponimik landshaft - toponimikaning o'rganish obyekti bo'lib, muayyan qonuniyatlar asosida, ma'lum hududda tarixan shakllangan geografik nomlar yig'indisidan iborat. Toponimik landshaft - toponimikani fan sifatida o'rnini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

**Fanning maqsudi va vazifalari.** Kishilar diqqatini jalb qilgan har qanday geografik obyekt ijtimoiy ehtiyoj tufayli nomlangan. Nom ularni bir-biridan farqlash uchun kerak bo'lgan. Shu sababdan, tildagi ko'pgina so'zlar (turdosh otlar) nomlarga (atoqli otga) aylangan. So'z bilan buyumlarni (kitob, stol, stul), mavjudodlarni (odam, qush, o'simlik), tasavvuriy tushunchalarni (quvonch, g'azab, go'zallik), sifat va xususiyatlarni (yaxshi, katta, chuqur) ifodalash mumkin. Bu so'zlarning har biri aniq bir predmetga tegishli emas, balki butun bir o'xshash predmetlarni belgilaydi.

Ular turdosh otlar, ya'ni, apellyativlar (lotincha, appellativum - "atoqli otni aksi") hisoblanadi. Shu bilan birga, tilda shunday so'zlar ham bor, ular faqat bitta predmet yoki obyektga tegishli va so'z uni boshqalardan farq qilishi uchun xizmat qiladi. Bunday so'z yoki so'zlar birikmasi atoqli ot deb ataladi. Atoqli ot - biron geografik obyektning boshqasidan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi, ya'ni "onim": Toshkent, Samarqand, Mirzacho'l, Farg'ona va hokazo.

Geografik nom (yunoncha, topos - "joy, makon"; onima - "nom", ism) oddiy atoqli ot emas, balki, uning eng takomillashgan turidir. Kishilar diqqatini tortgan har bir geografik obyektning o'z nomi bor, u joyning biron xususiyatini yoki obyekt bilan bog'liq tarixiy voqea-hodisalarni o'zida mujassam etgan, oddiy so'z bilan joyning ittifoqidir. Binobarin, joy nomlari «o'lik» so'zlar emas, balki zamirida xalq hayoti, tarixi, tili va shunga o'xshash boshqa ko'plab sirlarni asrayotgan ma'naviy xazina.

Toponimlar olami juda xilma-xil va qiziqarli. Inson paydo bo'lganidan buyon behisob va murakkab nomlar dunyosida yashaydi. Yer yuzida har xil davr va tilga mansub millionlab geografik nomlarning uyg'unligini ko'rish mumkin. Ularni har kuni radiodan eshitamiz, gazetada o'qiyamiz, teleekranlarda va

kompyuter monitorlarida ko'ramiz. Xususan, atlas va geografik kartalarni nomlarsiz tasavvur qilish qiyin. Hayotda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan ko'plab voqea-hodisalarni joy nomlari orqali anglab olish mumkin.

II.Hasanov ta'бири bilan aytganda, nomlarning o'z tarixi, xalq, qabila, tabiat, xo'jalik, hodisa va kashfiyotga mansubligi bor. Agar nomlar tarixi tilga kirsa, tog'lar va suvlarning xosiyati, o'simligi hayvonot turlari, savdo-sotiq, kasb-hunar, xazinalar, janglari e'tiqodlarimizning hammasi ayon bo'ladi. Demak, toponimlar kishilik jamiyati rivojlanishining muhim elementlardan biri, tabiat, tarix, hayot va insoniyat ko'zgusi hisoblanadi. Shunday ekan, hozirgi jamiyatni, zamonaviy sivilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Madaniyat va ilm-fanning rivojlanishi, tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar geografik nomlarni borgan sari ko'proq qo'llashni taqozo qilmoqda.

Ma'lum bir hududdagi joy nomlari yig'indisi shu hududda yashovchi xalqlarning asrlar davomida, nomlar yaratishdagi ijod mahsuli hisoblanadi. Shu bois, dunyoda qancha nom borligini hech kim aniq bilmaydi. Taxminiy hisoblarga ko'ra, butun yer sharida yarim milliarddan ortiq geografik nom bor. Holbuki, ular qatoriga soy, jilg'a, buloq, quduq, jar, qir, mahalla, guzar, ko'cha kabi mikrotoponimlar kirmaydi. Agar, yer yuzidagi barcha katta-kichik joy nomlarini hisobga olish imkoni bo'lganda, son-sanoqsiz raqam hosil bo'lar edi.

Geografik nomlar - bu mamlakat, shahar yoki hiron bir tabiiy obyekt bilan tanishishda uning tashrif yorlig'i vazifasini bajaradi. Demak, joy nomining yaratilishi sabablarini anglash, ularni shakllanishi, rivojlanishi, yashovchanligi, o'zgarishi, adreslik funksiyasi, axborot (informatsiya) tashishi va qanday ma'no kasb etishini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Yuqorida qayd qilgandek, ushbu masalalarni aniqlash bilan maxsus fan hisoblangan toponimika shug'ullanadi. Shu bilan birga, joy nomlari ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga mulik ekanligi tufayli, bir qator boshqa fanlar uchun ham o'rganish obyekti hisoblanadi.

### **Toponimikaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.**

Toponimika integral ilmiy yo'nalish, majmuaviy fan. U geografiya, filologiya (lingvistika) va tarix kabi fanlarning manfaatlari tutashgan joyda paydo bo'lib, ularni mujassamlashtirib rivojlanmoqda. Bu holat toponimikaning egallagan mavqei va fanlar tizimidagi o'rnini haqida turlicha qarashlarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Har holda shunisi aniqki, har qanday salmoqli toponimik manbalar har uchala fanning tadqiqot obyekti hisoblanadi. Shunisi diqqatga sazovorki, har bir tadqiqotchi tadqiqot obyektni o'zining mutaxassisligi nuqtai nazardan o'rganadi.

Geografik kartada keltirilgan boy va xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o'rin tutishi hamda joy nomining adreslik funksiyasi til - fakti va tarix - hodisasidan ko'ra muhimroq ekanligini hech bir mutaxassis inkor qilmaydi. Bunga, nom muhim ijtimoiy-siyosiy funksiyani bajarishi, hamda yer yuzasidagi barcha geografik obyektlar uchun oriyentir (mo'ljal) vazifasini bajarishi sabab bo'lgan.


Mazkur fikrni tasdiqlab taniqli toponimist olim I.Nafasov shunday yozgan: «...qadimiy geografiya fani bag'rida paydo bo'lgan yangi yo'nalishlardan biri toponimikadir. Toponimiya bilan azal-azaldan geograflar, geografiya fani shug'ullanib kelgan. So'ngra bu soha bilan tarixshunoslar, arxeologlar qiziqib, nomning tarixiy voqea-hodisalar bilan bog'liqligi, ularning ma'nosi, qaysi tilga mansubligi kabi masalalarni tadqiq qilishdi. Eng so'ngida toponimiya tilshunoslikning tadqiqot obyektiga aylandi».

Toponimikaning geografiya, tarix va filologiya fanlari manfaatlari tutashgan joyda paydo bo'lganligi, uning majmuaviy fan ekanligini quyidagi chizmada ham ko'rish mumkin. I-jadval.

To'g'ri, uzoq vaqtlar toponimikani geografik fan, geografiya ilmiga xos ilmiy yo'nalish degan qarash hukmron mavqeda bo'lgan. Bu albatta, o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablar bilan bog'liq. Joy nomi yer sharining ma'lum nuqtasida joylashgan geografik obyektning maxsus yorlig'idir. Dastlab, ularni aholi yashash maskanlari va turli landshaft komponentlarining nomi sifatida geograflar tadqiq qilishgan.



Shuning uchun filolog nomshunos olim E.Nafasov, "geografiya toponimikaning debuchasi va doyasi degan xulosani buyun qilgan.



Toponimlarning adreslik funksiyasi naqadar muhimligini rus toponimisti V.A.Nikonov aniq ta'riflagan: «Bir lahza faraz qilaylik, yer yuzidagi barcha geografik nomlar o'chirib tashlandi. Shaharlar, qishloqlar, daryolar, dengizlar, tog'lar, davlatlar, ko'chalar hammasi nomsiz. Natijada, transport izidan chiqqan, odamlar qayerga yurishini, yuklarni qayerga tushirishni, tez yordam mashinasi qayerga borishini bilmaydi, jahon xo'jaligi inqirozga, insoniyat esa ibtidoiy jamoa davriga tushib qolish xavfi paydo bo'lgan, buning hammasi kichkina bir geografik nom tufayli».

Toponimikaning fanlar tizimidagi o'rnini aniqlash maqsadida, A.M. Ryabchikov (1959), S.V. Kalesnik (1961) va I.Q. Nazarov (2013) geografiya fanlari klassifikatsiyasini yaratib, toponimikaga ham ular qatoridan joy ajratishgan. Buning asosiy sababi shuki, joy nomlarida ko'pincha geografik muhitning xususiyatlari - relief shakllari, suv obyektleri, o'simlik va hayvonot nomlari aks etgan bo'ladi. Shu bilan birga, ular har qanday lisoniy va tarixiy

toponimik tadqiqotlar faqat muayyan geografik hududda amalga oshirish mumkinligini hisobga olib, shu xulosaga kelishgan.

Toponimik tadqiqotlar bilan shug'ullanishni niyat qilgan har bir mutaxassis, eng avvalo geografik terminlarni o'rganmog'i zarur. Chunki, xalq ko'pincha tabiiy muhitda sodir bo'ladigan har qanday voqea-hodisalarni geografik terminlar yordamida ifoda etadi. Geografik terminlarni o'rganish uchun, albatta, geografiyadan yaxshi xabardor bo'lishi kerak. Muxtasar aytganda, geografiyani yaxshi bilmastan tarix toponimika bilan shug'ullanish ishonchli natijalar bermaydi.

Geografik nomlar har doim ham biron tarixiy sharoit taqozosi bilan dunyoga keladi va juda uzoq vaqt saqlanib qolishi bois, tarix fani uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Aniqroq qilib aytganda, har bir nomning o'z tarixi bor, unda muayyan tarixiy voqea-hodisalar mujassam. Shunday ekan, har bir nom ixcham bir tarix va ular aniq bir tarixiy voqe'alar bilan bog'liq hulda paydo bo'lgan. Ishonch bilan aytish mumkinki, toponimiyada aholi migratsiyasi, urushlar, etnik aloqalar o'z aksini topgan va har bir tarixiy davrning o'ziga xos toponimik qatlamlari mavjud.

Tarixchi olim A.Nabiyev toponimikaning tutgan o'rniga o'z munosabatini bildirib shunday yozgan edi: "... demak, toponimika o'lkashunoslikning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Hozirgi vaqtga kelib, o'lkashunoslik bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot ishlari bilan bir qatorda uning ajralmas qismi bo'lgan toponimika ham asta - sekin ijtimoiy fanlar qatorida rivojlanib bormoqda". Rus tarixchi olimi A.L.Popov "Toponimika - tarixiy fan" nomli asar yozganganligi ham ma'lum. To'g'ri, toponimika tarix fani bilan ham uzviy bog'liq, ammo tarix fanlari tizimiga kirmaydi.

Toponimika tilshunoslik (lingvistik) fani bilan ham uzviy bog'liq. Chunki, toponim - bu so'z, atqli ot, lingvistik kategoriya, til mahsuli, shu bois til qonuniyatlari bo'yso'nadi va filologlar tomonidan o'rganiladi. Nomlar tildagi muayyan qatlamning tarixi, shakllanishi, rivojlanishini o'zida aks etadi. Rus olimi E.M.Murzayev toponimikani fanlar tizimidagi o'rniga baho berib, bu masalada olimlar orasida ziddiyatli fikrlar mavjudligi va u hozirga qadar uzil-kesil hal bo'lmaganligini ta'kidlagan.

H.Hasanov ham bu masalada o'z munosabatini bildirib: «Toponimika aslida geografyaning bir tarmog'i bo'lib, tilshunoslik faniga ham, tarix faniga ham uzviy bog'langan. Toponimikani tilshunoslik yoki tarix fanining bir tarmog'i desak xato bo'lmaydi. Har bir fan sohibi toponimik tadqiqotlarda o'z mutaxassisligini ustun qo'yadi», deb yozgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa shuki, hech bir fan toponimik tadqiqotlarda "monopoliya"ga ega bo'lmashligi lozim. Toponimikaga lingvistik, tarixiy va geografik tadqiqot metodlaridan samarali foydalanadigan majmuaviy fan sifatida qarash kerak. Bir so'z bilan aytganda, toponimika - mustaqil "chegaraviy" fan. U alohida ilmiy yo'nalish sifatida geografiya, tilshunoslik va tarix fanlarining imkoniyatlaridan to'g'ri foydalansa katta yutuqlarga erishishi mumkin.

#### ☀ Savol va topshiriqlar:

1. *Fanning tadqiqot obyekti va predmeti hamda maqsad va vazifalari haqida gapirib bering.*

3. *Toponimikaning fonda tizimidagi o'rnini aniq belgilang.*

4. *Ilmiy toponimikaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni tizohlang.*

#### ⚡ Test topshiriqlari:

1. *Toponimika "integral" va "chegaraviy" fan degan tushuncha qanday ma'noqa ega?*

A. *Filologiya, tarix, etimologiya fanlari simbiozi*

B. *Geografiya, filologiya, tarix fanlari chegarasida paydo bo'lgan*

C. *Tarix, falsafa, iqtisodiyot fanlari majmuasi*

D. *Riologiya, falsafa va tarix fanlari qirrasida paydo bo'lgan*

2. *Toponimika so'zi qaysi til muhvoli?*

A. *Arab*

B. *Lotin*

C. *Grek*

D. *Fors*

#### 3. *Toponimiya nima?*

A. *Ma'lum hududidagi joy nomlari yig'indisi*

B. *Joy nomlarini o'rganadigan fan*

C. *Aholi turar joylari*

D. *Noma'lum nom*

4. *"Toponimika qadimiy geografiya bag'rida paydo bo'lgan" degan xulosa kimga tegishli?*

A. *T.Enazarov*

B. *S.Qarayev*

C. *T.Nafasov*

D. *M.Mirakamolov*

5. *Oykanim bu ...*

A. *Aholi manzilyo'ldari nomi*

B. *Shahar ichidagi obyektlar nomi*

C. *An'anaviy nom*

D. *G'orlar nomi*

## 1.2. TOPONIMIKA VA GEOGRAFIK TERMINSHUNOSLIK

### ☉ Reja:

1. *Toponimika va geografik terminshunoslikning bog'liqligi. Geografiyani o'rganishdagi ahamiyati.*
2. *Maxsus toponimik atamalar: Makro, mezo va mikrotoponimlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.*
3. *Toponimlarning geografik terminlarga o'tishi sabablari.*

☒ *Mavzuning maqsadi: Toponimika va geografik terminshunoslik, ularning o'zaro bog'liqligi va geografiyani o'rganishdagi ahamiyati, maxsus toponimik atamalar hamda makro, mezo va mikrotoponimlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ilmiy tushunchalar hosil qilishdan iborat.*

☉ *Tayanch ibora va atamalar: geografik termin, geografik metod, toponimik atama, xalq toponimikasi, makro, mezo va mikro toponim.*

**Toponimika va geografik terminshunoslikning bog'liqligi.** Geografik terminlar turli davr olimlarini o'ziga jalb qilgan va ushbu sohaga oid dastlabki asarlar taxminan ming yil oldin paydo bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy (X asr), Mahmud Koshg'ariy (XI asr) Zahiriddin Bobur (XV asr) kabi olimlar o'z asarlarida geografik terminlaridan foydalanib, ularning ma'no-mazmunini izohlashgan. Ular orasida Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarini terminshunoslikka oid eng yaxlit va mukammal tarixiy yuzma manba deyish mumkin. "Devonu lug'atit-turk" kitobi geografik terminshunoslik sohasida eng muhim ilmiy manba hisoblanadi. Eng muhimi kitobdagi ayrim geografik terminlar hozirgi vaqtda ham keng qo'llaniladi.

Keyingi davrlarda geografik terminlar mutaxassislar tomonidan maxsus tadqiq qilindi. Rossiyada L.S.Berg, E.M.Murzayev, A.P.Dulzon, Qozog'istonda - G.K.Konkashpayev, Ozarbayjonda - R.Yuzhashev, Qirg'izistonda - R.Umurzoqov, Turkmanistonda - M.Geldixanov, O'zbekistonda - H.Hasanov,


S.Qorayev, T.Nafasov, M.Mirakmalov. Tojikistonda - A.Z.Rozenfeld kabi toponimist olimlar geografik terminlar bilan alohida shug'ullanishgan. Masalan, M.Mirakmalov xalq tabiiy geografik terminlarini, Q.Xurramov esa Janubiy O'zbekiston relefini bildiruvchi o'zbek xalq geografik terminlarini maxsus tadqiq etishgan.

Toponimika fani uchun geografik terminlarni o'rganish juda muhim chunki, ularda hudud bilan bog'liq bo'lgan ko'plab ma'lumotlar mujassam. Shu bilan birga, toponimlar tarkibida terminlar nihoyatda ko'p uchraydi va ular geografik obyektning turini ifodalaydi. E'tiborli tomoni shuki, geografik termin va geografik obyekt orasidagi mavjud genetik aloqa toponimiyada o'z aksini topgan. Binobarin, joy nomi va geografik termin o'rtasidagi aloqadorlik toponimikaning universal qonuniyati hisoblanadi.

Joy nomlarining etimologiyasini aniqlashda geografik termin bilimdon qo'lida hammabur kalitga o'xshaydi. Geografik termin yordamida har qanday sodda va murakkab nomlar semantikasi va undagi mavjud axborotni aniqlash mumkin. Geografik terminlarni ilmiy asosda chuqur o'rgangan rus olimi E.M.Murzayev, toponimik tadqiqotlarda geografik terminlarning o'rni naqadar muhimligiga e'tibor qaratib, shunday yozgan edi: "har qanday toponimik tadqiqotlar geografik terminlarni o'rganishdan boshlanmog'i kerak".

Geografik nomlar tarkibida uchraydigan toponimik terminlar ifodalangan obyektini bildiruvchi so'zlar (turdosh otlardan tashkil topgan. Ularni ayrim ilmiy adabiyotlarda toponimik indikator deb ham atashadi. Ko'pincha, toponimik terminlar (jar, soy, buloq, tepa, quduq va boshq.) joy nomlarining asosini tashkil etadi va geografik obyektning turini bildiradi. Toponimik termin - turdosh ot, geografik nom esa atoqli odir.

Geografik terminlar yordamida voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarini tez va aniq ilg'ab olish mumkin, chunki terminlarda ularning ixcham tavsifi mujassam. Terminlar umumiy iste'mol so'zlardan aniq bir ma'noni ifoda etishi, emotsionallik xususiyatga ega emastigi kabi belgilar bilan farqlanadi. Ular qisqa, ixcham, aniq ma'noli, jarangdor, talaffuzda qiyinlik bilan ajratiladi.



turadi. Shu sababdan, geografik terminlar ko'p qo'llaniladi va uzoq muddat saqlanib qoladi.

An'anaviy geografiya va toponimikaning o'zaro bog'liqligi bir necha yo'nalishda ko'zga tashlanadi. Birinchidan, geografiya uchun nomning eng muhim vazifasi geografik obyektning joylashgan o'rnini aniq belgilashdan iborat. Masalan, Mo'ynoq nomini tilga olganda - Amudaryoning quyi oqimida joylashgan shahar tushuniladi. Shu bilan birga, geografik nomlar har qanday kartaning muhim elementi, karta esa, N.N.Baranskiy ta'бири bilan aytganda, "geografiyaning alfa va omegasi" dir. Binobarin, geografiyada nomning aniq joy bilan bog'liqligi va manzil belgilovchi xususiyati muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, toponimika va geografiya joy nomlarini geografik asoslarini izoblashda mushtarak qarashga ega, chunki toponimlar ko'pincha geografik muhitning xususiyatlari bilan bog'liq holda paydo bo'ladi. Boshqacha aytganda, joy nomlarida hududning tabiiy-geografik xususiyatlari o'z aksini topgan. Aniqrog'i, tabiiy-geografik omillar yordamida shakllangan toponimlar tarkibida geografik landshaftning turli komponentlari (relef, iqlim, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot olami) asos vazifasini bajargan.

Uchinchidan, geografiya ta'limida ham toponimika salmoqli hissa qo'shishi mumkin. Ma'lumki, geografiya ta'limida karta muhim o'rin egallaydi. Ko'pincha, o'quvchilar kartadagi notanish va ma'no-mazmuni noma'lum nomlarni eslab qolishda qiynaladi. Natijada, talabalar kartadagi nomlarni esdan chiqarishadi va ularda hududiy tasavvur shakllanmay qolishi mumkin. Shu sababdan, ko'zlagan maqsadga erishish uchun, ta'lim jarayoni quyidagicha kechishi kerak: nom - uning paydo bo'lishi - ma'nosi - hudud bilan bog'liqligi - eslab qolishi. Geografiya ta'limida o'quvchilar faqat shu yo'l bilan kartaning muhim elementi bo'lgan nom va u bilan bog'liq ma'lumotlarni yaxshi o'zlashtirishlari mumkin.

To'rtinchidan, geograflar geografik tadqiqotlarda joy nomlaridan ilmiy ma'lumotlar bazasi sifatida foydalanishadi. Toponimik ma'lumotlar yordamida qadimgi landshaft turlarini qayta tiklash, tarixiy yo'llarni aniqlash, hududning o'zlashtirish

jarayoni va xo'jalik yuritish tizimi, aholi punktlarning shakllanishi, aholining etnik tarkibi va ularning etnogeneci kabi ko'plab muammolarni tadqiq qilish imkoniyati paydo bo'ladi.

Umuman olganda, toponimika geografiya fanlari tizimida oraliq maqomini egallaydi va uning yutuqlaridan barcha geografiya fanlari foydalanishlari mumkin. Mutaxassislarining fikricha, geografik ehtiyoj tufayli paydo bo'lgan toponimika - tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlari bilan uzviy aloqadorlikda tez rivojlanayotgan fanidir.

**Maxsus toponimik atamalar.** Toponimikada ham boshqa fanlardagi kabi maxsus toponimik atamalar mavjud. Ularni yaxshi o'zlashtirish esa, fan sir-asrorlarini bilib olishni osonlashtiradi. Maxsus toponimik atamalarga ayrim misollar alifbo ketma-ketligida keltirildi:

Antroponim - (yunoncha, antropos - «odam») - atoqli otning bir turi. Antroponimika - antroponimlarni o'rganuvchi soha. Odanning ismi, familiyasi, taxallusi, laqabi. Masalan, Navoiy, Vashington, Oqsuqota, Hayitqultepa.

Atoqli ot - biron obyektning boshqa obyektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi, "onim". Masalan, Mirzacho'l, Qizilqum, Farg'ona, Parkent, So'qoq va boshqalar.

Geografik obyektlar - yerning hozirda yoki o'tmishda mavjud bo'lgan hamda muayyan o'rnatilgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun'iy bo'lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma'muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi obyektlari (temir yo'l stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari, vokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko'priklar, raz'ezdlar, yo'llar, kanallar, suv omborlari, to'g'onlar, dambalar); tabiiy obyektlar (daryolar, ko'llar, muzliklar, tekisliklar, tog'lar, tog' tizmalari, g'orlar, cho'llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan

tabiiy hududlar, yonbag'irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi;

Geografik termin - geografik obyektning turini bildiradigan so'zlar geografik terminlar hisoblanadi. Masalan, adir, qir, ko'l, cho'l, tog', quduq, soy, tekislik va boshqalar. Geografik terminlar turdosh otlar bo'lganida geografik nomdan keyin kichik harflar bilan alohida yoziladi. Ko'proq shevalarda ishlatiladigan terminlar mahalliy geografik terminlar yoki xalq geografik terminlari deyiladi.

Gibrid nom - ikki va undan ortiq tillarning leksik va morfologik unsurlaridan tarkib topgan nomlar. Masalan, Toshkamar, Ko'kgumbaz, Xayrobod, Yangikent va boshqalar.

Gidronim - (yunoncha, gidro - suv, onim - nom, ism) - toponimning bir turi. Tabiiy yoki inson tamonidan bunyod etilgan har qanday suv obyektlari - okeanlar, dengizlar, daryolar, kanallar, suv omburlari, soylar, quduqlar va boshqalar. Masalan, Atlantika, Baykal, Sangzor, Sirdaryo, Aydarko'l, Tuzkon.

Kalka- nomlar ayuan tarjima qilingan, ma'nosi bir bo'lsada ikki tilda ikki xil ataladigan nomlar. Qorasuv - Siyohob, Qizilsuv - Sursob.

Oykonim - (yunoncha, oykos - uy, turar joy, makon) - toponim turi, aholi yashaydigan har qanday joyning qishloq, ovul, shaharcha, shaharning nomi. Masalan, Toshkent, Nukus, Jizzax, Zomin, Marjonbuloq.

Oronim - (yunoncha, oros - «tog'») - tog'lar, qirlar, tepaliklar, dovonlar, daralar va boshqa bir qator orografik obyektlarning nomi. Masalan, And, Himolay, Alp, Pomir, Oloy.

Toponim - (yunoncha, topos - joy, makon, onima- nom, ism.) - har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi. Masalan, gidronim, oykonim, urbanim, agnonim.

Transkripsiya - (lotincha, transcriptio - «ko'chirib yozish») - boshqa tildagi geografik nomlar (fonemalar)ni o'z tilidagi grafemalar (harflar) bilan ifodalash, yozish. Transkripsiya deganda so'zlarni va matnlarni ularning talaffuzini hisobga olgan holda muayyan yozuv vositalari yordamida yozish, ifodalash usuli tushaniladi.

Furmant - (lotincha, formans - «hosil qiluvchi») - so'z yasaydigan, lekin, mustaqil ishlatilmaydigan unsur. Toponimlar tarkibida ayniqsa ko'p uchraydi. Masalan, kent- Nushkent, Yangikent; loq - Tushloq, Qumloq va boshqalar.

Etonim - (yunoncha, etnos - «xalq», onim - «ism, nom») - urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqa xil etnik uyushmalar nomi. Urug', qabila, xalq nomi o'zi tamonidan tanlangan yoki o'zgalar tamonidan berilgan bo'lishi mumkin. Masalan, barlos, nayman, qipchoq, jaloyir, laqay va boshqalar.

Etimon - (yunoncha, etimon - «haqiqat, so'zning asl ma'nosi») - muayyan nomning tatqiqotchilar aniqlagan dastlabki shakli, ma'nosi.

Haqiqiy toponim - bu karta, ma'lumotnomalarga tushgan, aslida mikrotoponimlardan kelib chiqqan tabiiy va sun'iy obyektlarning yakka nomi. Ular har xil xalq va turli tillar mahsulidir, juda ko'p ishlatiladi va o'zi joylashgan hududdan boshqa joylarda ham ma'lumdur.

Toponimika faniga oid maxsus atamalar, tayanch so'z va iboralar bilan, darstlikning glossariy qismida to'laroq tanishingiz mumkin.

**Toponimlarning geografik terminlarga o'tishi.** Toponimlarni geografik terminlarga o'tish jarayoni quyidagi holat bilan belgilanadi: ba'zi geografik obyektlar alohida ko'zga tashlanadigan belgilarga ega bo'lganligi bois, ularning atoqli otlari tipologik xususiyat kasb etadi va turdosh ot sifatida qo'llaniladi. Bunday holatni quyidagi misollar yordamida izohlasa bo'ladi. Masalan, geografiyada delta - daryoning quyilish joyida suvda oqib kelgan jinslarning cho'kib to'planishidan hosil bo'lgan tekislik. Deltada daryo suvi panjaga o'xshab yo'nalgan ko'pdan-ko'p tarmoqlarga bo'linib oqadi.

Qadimda Nil daryosi kelib quyiladigan joy ikki tarmoqqa (hozirda Dumyot va Rashid deb ataladi) bo'linib, uning shakli yunon alfavitidagi delta - Δ harfiga o'xshash holatni kasb etganligi bois delta deb nomlangan. Keyinchalik daryolarning shaklan o'xshash quyilish joylariga nisbatan ham ushbu geografik termin qo'llanilgan.

Geograflarga yaxshi ma'lum bo'lgan karst hodisasi, ya'ni suvda yaxshi criydigan tog' jinslari (ohaktosh, bo'r, dolomit, gips, tuzlar) ni yer osti suvlari eritib olib ketishi natijasida ro'y beradigan jarayonning nomi, Bolqon yarim orolidagi asosan ohaktoshlardan iborat bo'lgan Karst platosi nomi bilan bog'liq. Geyzer so'zining (islandcha geyzir - otilmoq, yer osti bo'shliq va yoriqlardan vaqt - vaqti bilan issiq suv va bug' otilib turishi) geografik termin sifatida paydo bo'lishida Islandiyadagi Geyzer deb ataluvchi issiq huloq nomi sabab bo'lgan.

Bir-biridan uncha uzoq bo'lmagan va odatda bir butun deb hisoblanadigan orollar to'dasiga nisbatan umumgeografik termini bo'lgan arxipelag (yunoncha, arxi - "dastlabki", pelago - "ochiq dengiz") - so'zi qo'llaniladi. Mutaxassislarining yozishicha, ilk o'rta asrlarda Egey dengizi Arxipelag deb nomlangan. Ma'lumki, bu dengiz orollar va orollar to'dasining ko'pligi bilan ajralib turadi. Dastlab har qanday orollarga boy dengiz arxipelag deyilgan. Keyinchalik esa bu geografik termin orollar to'dasiga nisbatan qo'llanilgan. Bir arxipelagga kiradigan orollar paydo bo'lishi, geologik tuzilishi, o'simliklari, hayvonot dunyosi jihatidan o'xshash bo'ladi.

Odatda nishabligi kichik bo'lgan tekisliklarda vujudga kelgan daryolarning egri-bugri, ilonizi shaklidagi o'zaniga nisbatan meandra termini qo'llaniladi. Meandra so'zi - Kichik Osiyo yarim orolida ilonizi o'zanti Menderes daryosi nomidan olingan. Toponimlarning geografik terminlarga o'tishi kam uchraydigan holat bo'lsa ham ularni toponimikada muayyan o'rni bor.

Mutaxassislar toponimlarni o'zi ifodalayotgan geografik obyektlarning katta-kichikligiga qarab quyidagi guruhlarga bo'lishgan: makro, mezo va mikrotoponimlar. Ammo, hozirgacha olimlar tomonidan ular orasidagi chegara aniqlanmagan va qanday geografik obyektlarni makro, mezo va mikrotoponimlar qatoriga kiritish to'g'risida ham aniq bir to'xtamga kelishmagan. Sohaga oid mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish uchun, qo'shimcha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish zarur bo'ladi.

**Makrotoponimlar.** Makrotoponimlar (yunoncha, macros - katta, yirik ma'nolarini bildiradi) - ma'lum va mashhur bo'lgan

tabiiy geografik obyektning atoqli oti, materiklar, qit'alar, okeanlar, eng katta tekisliklar, tog'lar, tabiiy geografik o'lkalar nomi. Masalan, Atlantika, Yevropa, Turon, Amerika, Osiyo, Oloy, Pomir. Ularga ko'pincha olimlar, sayyohlar tomonidan nom beriladi va rasmiylashtiriladi. Makrotoponimlar ha'zida yerli aholiga ko'p ham ma'lum bo'lmastiki mumkin, chunki, bir joyda muqim yashaydigan kishilar ko'pincha tevarak-atrofdagi mikrotoponimlardan foydalanishadi.

**Mezotoponimlar.** Mezotoponimlarga o'rtacha kattalikdagi obyektlar: shaharchalar, qishloqlar, yirik suylar va mahalliy masshtabdagi obyektlar kiritiladi. Mezotoponimlar - geografik nomlarning boshqa turlariga nisbatan kamroq bo'lishi mumkin. Ular hozirgacha mutaxassislar tomonidan kam o'rganilgan va alohida ilmiy-tadqiqot objekti bo'lgan emas. Shuning uchun, ular haqida yetarli ma'lumot to'planmagan va toponimikani alohida yo'nalishi sifatida e'tirof etilmaydi.

**Mikrotoponimlar.** Mikrotoponimlar (yunoncha, micros - kichik) - kichik geografik obyektlarning umumiy nomi. Ularni toponimikaning alohida yo'nalishi sifatida e'tirof etilgan mikrotoponimika o'rganadi. Mikrotoponimlarning yig'indisi mikrotoponimiya deyiladi. Hozirgacha mutaxassislar orasida qanday geografik obyekt mikrotoponim deyiladi, degan savolga uzil-kesil javob yo'q. Chunki, olimlar tomonidan hozirgacha mikrotoponimlarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy jihatdan tadqiq qilinmagan. Shuning uchun, ba'zi olimlar geografik obyektning hajmiga va katta-kichikligiga qarab, ularni mikrotoponim deyishgan. Bundan tashqari, "mikro-" so'zi ham obyektning kichik ekanligiga ishoradir.

Toponimika fanining nazariy masalalari bilan shug'ullangan rus olimi V.A.Nikonovning yozishicha, mikrotoponimlarga - yo'l, quduq, ko'prik, soy, jar, dala, maydon, aholi punktlarining ayrim tarkibiy qismlari, kabi kichik geografik obyektlar kiradi. Ammo ayrim tadqiqotchilar nomi tilga olingan barcha obyektlarni mikrotoponim deb hisoblashmaydi. Masalan, rus olimasi A.V.Superanskaya, ko'chalar nomini mikrotoponimlar qatoriga qo'shmagan. Olimaning fikricha, katta shaharlarda ko'chani

uzunligi va unda yashaydigan odamlarning soni ayrim aholi punktlardan ko'pligini hisobga olgan holda ularni toponimlar qatoriga qo'shish kerak.

Taniqli toponimist olim Suyun Qorayev fikricha, mikrotoponim – tevarak atrofda yashaydigan bir guruh kishilargagina ma'lum bo'lgan quduqlar, jarlar, qo'rg'ontepalar, tomorqalar, bog'lar, ko'priklar, qo'tonlar kabi kichik obyektlarning atoqli otlaridir. Olimning fikricha, makro va mikrotoponimlar orasida aniq bir chegara yo'q.

Mikrotoponimlar qatoriga turli xil kichik geografik obyektlar - suv manbalari, relef elementlari, aholi punktlarning ayrim qismlari, o'simliklar qoplamining nomlarini kiritish mumkin. Mikrotoponimlar orasida shaxslarning ism-shariflari, taxalluslari bilan bog'liq nomlar juda ko'p. Ularning ko'pchiligi zamon o'zgarishi bilan o'zgarib ketadi yoki yangi nomlar bilan almashtiriladi.

Mikrotoponimlarni quyidagi turlarga ajratsa bo'ladi: a) mikrotoponimlar - relef elementlari (topa, jar, pastlik, dara va boshqalar), b) mikrogidronimlar - kichik tabiiy va sun'iy suv manbalari (jilg'a, soy, quduq, buloq va hokazo), v) mikrofitonimlar - o'simlik qoplamining xususiyatlari bilan bog'liq nomlar (dala, bog', o'tloq, pichanzor va boshqalar), g) mikrooykonimlar - aholi punktlarning ayrim tarkibiy qismlarining nomi (guzar, maydon, ko'cha va hokazo).

Umuman olganda, mikrotoponim - muayyan hududda ma'lum bo'lgan kichik geografik obyektlarning atoqli otlari. Masalan, buloqlar, ko'priklar, jarliklar, quduqlar, bog'lar va boshqalar. Mikrotoponimlar uchun omonatlik, o'zgaruvchanlik, harakatchanlik xos, hamda ular nafaqat geografik tushuncha balki, ma'naviy tushuncha hamdir. Mikrotoponimlar odatda og'zaki nutqda qo'llaniladi, kamdan-kam yuzuv ma'lumotlarida ishlatiladi.

Tilning o'zgarishi bilan mikrotoponimlar ham o'zgaradi. Ularning ko'pchiligi yuqolib ketishi yoki qayta nomlanishi ham mumkin. Mikrotoponimlar ko'pincha ma'lum hududda yashovchilar orasida uchratiladi va uni yakka shaxs ham yaratishi mumkin. Mikrotoponimiya - bir til fakti va bir xalqning ijod

mahsulidir. Shunday qilib, hozirgacha funda mikrotoponimlarning toponimik sinf sifatida aniq mezonlari ishlab chiqilmagan. Ta'kidlash joizki, mikrotoponimlar kam o'rganilganligi bois, huzircha ularning yaqqol ko'zga tashlanadigan o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning imkoniyati yo'q.

Mikrotoponimlar - geografik nomlarning eng katta qismini tashkil qilsa ham, ular haqida yetarli ma'lumotlar to'planmagan va o'rganilmagan. Mikrotoponimlarni o'rganishning muhimligi shundaki, ularni tadqiq qilish jarayonida tarix va lingvistika fanlariga oid savollarga ham javob topish mumkin bo'ladi. Endilikda bajaraladigan eng muhim vazifalardan biri amalda qo'llanilayotgan mikrotoponimlar va mahalliy xalq geografik terminlarini kechiktirmasdan yozib olish kerak. Ularning etimologiyasi va hududiy tarqalish areallari, paydo bo'lishiga asos bo'lgan tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni ilmiy asosda tadqiq qilish zarur.

#### ☼ Savol va topshiriqlar:

1. *Toponimika va geografik terminshunoslikning o'zaro bog'liqligini misollar yordamida ko'rsatib bering.*
2. *Maxsus toponimik atamalarining ayrimlarini izohlab, ular qanday vazifalarni bajarishini tushuntiring.*
3. *Mikrotoponimlarning farqlovchi xususiyatlari nimalardan iborat?*

#### ☼ Test topshiriqlari:

1. *Joy nomi va geografik termin o'rtasidagi aloqadorlik .... hisoblanadi.*
  - A. *lingvistikaning universal qonuniyati*
  - B. *geografiyaning universal qonuniyati*
  - S. *toponimikaning universal qonuniyati*
  - D. *tarixni universal qonuniyati*
2. *Toponimlarning geografik terminlarga o'tishi .... uchraydigan holat.*
  - A. *ko'p*
  - B. *kam*

- C. tez-tez  
 D. uchramaydigan holat
3. Ikki va undan ortiq tillarning leksik va morfologik unsurlaridan tarkib topgan joy nomlari.  
 A. Murakkab nom  
 B. Soddâ nom  
 C. Gibrîd nom  
 D. Soxta nom
4. Rus geograf olimi N.N.Baranskiy ta'biri bilan aytganda, "geografiyaning alfa va omegasi" bu ...  
 A. geografik nom  
 B. geografik karta  
 C. geografik obyekt  
 D. geografik termin
5. Mikrotoponimlarga ... xos. Tiro'g'ri javobni qo'yib belgilang.  
 A. o'zgaruvchanlik  
 B. targ'urlik  
 C. o'rganilganlik  
 D. yashovchanlik

### 1.3. TOPONIMIKANING RIVOJLANISH TARIXI

#### ☼ Reja:

1. Qadimgi dunyo va o'rla asrlar olimlari asarlarida toponimik ma'lumotlar.
2. Ilmiy toponimikani fan sifatida paydo bo'lishi va rivojlanishi
3. O'zbekistonda toponimikaning hozirgi ahvoli, toponimik tadqiqotlar, toponimlarni geografik jihatdan tadqiq etilishi

☼ **Mavzuning maqsadi:** Toponimika fanining asosiy rivojlanish bosqichlari, ilmiy toponimikani fan sifatida paydo bo'lishi va o'zbek olimlarining mazkur fan rivojiga qo'shgan hissalarini haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar berish.

☼ **Tayanch ibora va atamalar:** appelyativ, atoqli ot, toponim, toponimiya, toponimik ma'lumot, ilmiy toponimika

Toponimika ilmiy yo'nalish sifatida asosan keyingi davrlarda shakllangan bo'lsa ham, ammo uning o'rganish obyekti bo'lgan joy nomlari juda qadimiy davrlarda paydo bo'lgan. Ularning soni shu qadar ko'pki, hammasini o'rganishning aslo iloji yo'q. Aytishadiki, nom qancha ko'na bo'lsa, uning etimologiyasini aniqlash shuncha qiyin. Shuning uchun, hamma nomlardan ma'no qidirib, mazmuni anglashilmagan nomlarni o'zgartirish minglab yillarning mahsuli bo'lgan ma'naviy yodgorlik ildiziga bolta urish demakdir.

Joy nomlarini xalq ma'lum bir hududda va zamonda yaratgan, ularga hududiylik va tarixiylik xos. Joy nomi zahirida yashirin ma'noni aniqlash uchun, nom yaratgan davr va hudud tarixini puxta o'rganmoq kerak, nom uchun asos bo'lgan tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, lisoniy omillarni aniqlash lozim. Faqat shundagina nomning mag'zi, asl ma'nosi, tarixi to'g'ri aniqlanadi.

Ma'lumki, kundalik hayotni joy nomlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir inson muqaddas ona yurtiga bo'lgan mehrini bir bo'laki sifatida, albatta o'z mahallasi, qishlog'i va shahrining nomi nega shunday atalgan, nima ma'no unda yashirin, bu nom



unga qachon va kimlar tomonidan berilganligi bilan qiziqib, aniqlik kiritishni xohlaydi.

Jamiyatning tez sur'atlar bilan rivojlanishi va xalqlar hamda mamlakatlar o'rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo'lmashligi bu yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish lozimligini ko'rsatmoqda. Xususan, mustaqillikdan keyin respublikada amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar va tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tadqiq qilishni dolzarb masalaga aylantirdi. Geografik nomlar ko'p qirrali va xilma-xil axborot manbai bo'lishi bilan birga, kishilik jamiyati uchun zarur va muhim bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vazifani, ya'ni adreslik funksiyasini ham bajaradi.

Binobarin, ijtimoiy ehtiyoj mahsuli bo'lgan joy nomlari orasida toponimlar alohida maqomga ega, chunki ular har qanday aholi punktlarning nomi sifatida tarixiy manbalarda ko'proq qayd etilgan. Ibtidoiy davrdan hoshlab odamlar tevarak-atrofnı kuzatib geografik obyektlarni bir-biridan farqlash maqsadida ularga nom berganlar. Obyektlarning tabiiy xususiyatlarini ifodalaydigan geografik nomlar jamiyatning dastlabki bosqichida ko'proq bo'lgan, keyinchalik esa tabiatga jamiyatning ta'sirini kuchayishi oqibatida ular asta-sekin kamayib borgan.

Dastlab tabiiy obyektlarga zaruriyat yuzasidan oddiy, sodda va tasodifiy nomlar berilgan bo'lsa, keyinchalik ijtimoiy ong rivojlangan sari tushunchalar soni ortib geografik nomlar ham murakkablashib borgan. Kishilik jamiyatining rivojlanishi va kundalik ehtiyojlarning ortib borishi yangi hududlarni va tabiatning tarkibiy qismlarini o'zlashtirishga olib kelgan, bu esa o'z navbatida joy nomlarining ko'payishiga sabab bo'lgan. Toponimlar aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lganligi sababli tabiat va jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlar ularga ta'sir qilmasdan qolmaydi, tarixiy davr, til va xalqlarning almashishi geografik muhitning o'zgarishiga olib kelishi aniq.

Joy nomlari tabiat va jamiyat aloqadorligi masalasini o'rganuvchi geografiya uchun ham ko'pgina ma'lumotlar beradi, chunki xalq turmush tarzining turli tamonlari geografik nomlarda

o'z aksini topgan. Masalan, toponimlarda mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti aks etgan, ular yordamida aholining qadimiy xo'jalik yuritish shakllari, ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlari, qazib olingan foydali qazilma joylari, o'tmishdagi karvon yo'llari, rivojlangan hunarmandchilik turlari, xalqlarning tarqalish areali kabi masalalarga oydinlik kiritish mumkin.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tarixiy manbalarda toponimiyanning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda aholi punktlari nomlari ko'proq qayd etilgan. Ularda mintaqa tabiatining xususiyatlari, jamiyat hayotida asrlar davomida ro'y bergan tarixiy, ijtimoiy va siyosiy hodisa va voqealar, aholining kasb-hunarlari nomlari, aholi punktiga asos solgan kishining ismi, unda qanday qavm vakillari yashaganı yoki yashayotganı o'z aksini topgan.

**Qadimgi dunyo va o'rta asrlar.** Geografik nomlar va ularning ma'no mazmuniga qiziqish kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlarida paydo bo'lgan. Shu bois, insoniyat tarixi qanchalik qadimiy bo'lsa, geografik nomlar ham shuncha qadimiydir. Kishilar dastlab har qanday geografik obyektı oddiy turdosh otlar - terminlar bilan atashgan, ya'ni, suv, tog', ko'l, tepa, jar va hokazo. Keyinchalik jamiyatning rivojlanishi bilan joy nomlari ham qat'iy lashib borgan, ya'ni, turdosh otlarni atoqli otga, toponimga aylanishiga sabab bo'lgan. Masalan, qadimgi turkiy xalqlar katta daryoni - o'kuz, edil, jayhun deb atashgan. Katta daryo ma'nosini anglatuvchi bu so'zlar keyinchalik daryo nomiga aylangan.

Ma'lumki, har qanday fan amaliyot talablari asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Toponimika birinchi galdı geografıyaning amaliy ehtiyojlari ta'sirida vujudga keldi. Dastlabki sayyohlar o'zlari kashf etgan yerlarga nom berdilar, uzoq o'lkalar va shaharlarning nomlarini hammaga ma'lum qilishdi. İlk bor geografik nomlarni to'plab o'rganganlar ham geograflar bo'lgan.

Toponimlarni izohlash, tasniflashga bag'ishlangan dastlabki harakatlarni qadimgi misr, yunon, xitoy, hind, fors, Vizantiya va Rim tarixchi va geograflari asarlarida hamda boshqa yozma manbalarida uchratish mumkin. Antik dunyoda esa tarixiy -

geografik asarlar yaratish bilan birga geografik nomlarni izohlash an'anasi paydo bo'lgan. Ammo, bu davrda toponimlarning etimologiyasi turlicha sharhlangan. Ko'pincha, joy nomlarining kelib chiqishi qandaydir afsonaviy syujetlar bilan bog'lagan. Shu bilan birga, geografik nomlar ba'zan to'g'ri talqin qilingan, unda ko'pincha obyektning real alomatlarini, geografik o'rni va hokazo inobatga olingan.

Qadimgi va dastlabki ma'lumotlarni Geradotni «Tarix», Strabonni «Geografiya», Arrian, Plutarx, Kvint Kursiy Ruf kabi qadimgi dunyo olimlari asarlarida uchratish mumkin. Masalan, Geradot o'z asarlarida mamlakatlarni, shaharlar, dengizlar, daryolar nomlarining ma'nosini tushuntirib berishga harakat qilgan. Antik dunyo mualliflari geografik nomlarni, kishi ismlarini mavjud bo'lgan nomlash qonuniyatlarini va ularning o'zaro aloqadorligini aniqlamasdan asosan etimologik jihatdan izohlashgan. Natijada, toponimik ma'lumotlar garchi qiziqarli bo'lsa ham, ammo, ilmiy asosga ega bo'lmagan.

Toponimik axborotni ishonchli manba sifatida, ilk bor milodiy I asrda ispan antik olimi Pomponiy Mela o'zining «Xorografiya» asarida ilmiy jihatdan tadqiq qilishga harakat qilgan. Zamonaviy toponimikani o'rta asrlarda yashab ijod qilgan O'rta Osiyolik olimlarning xizmatlarisiz tasavvur qilish qiyin. O'sha davrda O'rta Osiyoda yozilgan tarix, geografiya, tilshunoslikka oid asarlarda toponimikaga oid ma'lumotlarni ko'plab topish mumkin. Masalan, 982-983 yillarda, fors-tojik tilida, noma'lum muallif tomonidan yozilgan «Hudud ul-olam» tarixiy-geografik asarida Movarounnahr viloyatlari, shaharlari, tog'lari, daryolari va ularning nomlari, ayniqsa, hududning qadimiy toponimiyasi haqida talaygina ma'lumotlar topish mumkin.

Asarning to'la nomi "Kitob hudud ul-olam min al-mashriq ila l-mag'rib" ("Olamning mashriqdan mag'ribgacha bo'lgan chegaralari haqida kitob") bo'lib, fanda qisqacha "Hudud ul-olam" shaklida tanilgan. Kitob bir nusxadan iborat va uni 1892 yili Abulfazl Gulpaygoniy Samarqanddagi kitob do'konidan topgan. U orqali kitob rus sharqshunosi A.G.Tumanskiy qo'lga tushib, Sankt-Peterburgga olib ketilgan. Asar haqida dastlab

A.Gulpaygoniy, so'ngra A.G.Tumanskiy ilm ahliga axborot berishgan. Kitobda o'sha davrda ma'lum bo'lgan viloyatlar va podshohlklar, ularda yashovchi qavmlar ularning urf-odatlarini, rasm-rusumlari hamda har bir shaharning tabiiy-geografik sharoiti ta'riflangan. Masalan, So'g'd va Ustrushona sharqiy ellar orasida eng ubod joy, u yerda oqar suvlar ko'p, iqlimi bahavo, odamlari mehmondo'st va xushmuomala deb ta'rif berilgan.

O'rta Osiyo va O'zbekistondagi joy nomlariga oid yozma ma'lumotlarni Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig'», A.Beruniyning «Qonuniy Mas'udiy», «Hindiston», «Saydana», M.Narshaxiyning «Tarixi Buxori», Mirzo Ulug'bekning «To'rt ulus tarixi» kabi asarlarda uchratish mumkin. Chunonchi, Abu Rayhon Beruniy joy nomlariga izoh berib shunday yozgan: «...ammo, aksari mamlakatlarning nomlari hozirgi vaqtdagi nomlaridan farq qiladi. Xususan, tili boshqa bo'lgan qabilalar biron joyni egallaganlarida nomlar tez-tez o'zgarib turadi. Boshqa xalq mahalliy nomlarni buzib talaffuz etadi... Nomlarning ma'nosini boshqa tilga tarjima qilganda yoki talaffuzini osonlashtiradigan tovushlar bilan yozganda nomlar o'zgarib ketadi. Ko'pincha arablar chet el nomlarini, arabchalashtirib, shunday o'zgartiradilar va buzib aytadilar».

Turkiy xalqlar, jumladan o'zbeklar etnografiyasi va etnik tarixini o'rganishda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» nomli asari alohida o'rin egallaydi. Kitobda ayrim shahar va qishloqlar aholisining lingvistik va etnik tarkibi, ijtimoiy tuzumiga oid qisqa ta'rif, etnotoponimikasi va ayrim qabila hamda urug'larning joylanishi to'g'risida noyob ma'lumotlar keltirilgan. «Devonu lug'atit-turk»ni ayni vaqtda qimmatli toponimik asar ham deyish mumkin. Chunki, unda toponimlarning etimologiyasi, semantikasi, grammatik xususiyatlari, qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o'simlik va hayvonot nomlariga doir qiziqarli ma'lumotlarni topish mumkin.

S.Qorayev ma'lumotlariga ko'ra, asarda jami 160 dan ortiq toponim tilga olingan. H.Hasanov esa kitobni qimmatli geografik manba hisoblab u to'g'risida alohida asar yozgan. "Devon"da ko'pgina geografik terminlar berilganki, bu terminlar hozirgi

vaqtda ham keng qo'llaniladi. Ariq, ort (ort), botiq, bulut, yel, jar, kechik, kun, ko'k (osmon), muz, suv, tog', tun, tuman, ungur, qayir, qor, quduq, qum, qish va boshqalar shular jumlasidandir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, geografik nomlarni ilmiy asosda talqin qilishni Sharq o'rta asr olimlari ishlarida kuzatish mumkin.

XIII asr geografik ma'lumotlarini to'plab o'n jildlik «Mu'jam al-buldon» (Mamlakatlar lug'ati) nomli geografik lug'atni tuzgan olim Yoqut Hamaviydir. Rus sharqshunos olimi V.V.Bartoldning yozishicha, Yoqut Hamaviy o'sha davrdagi bir qator musulmon davlatlariga sayohat qilib, ularning shahar va qishloqlari haqida ko'p ma'lumotlar yozib qoldirgan. A.L.Xromov esa Yoqut Hamaviyni O'rta Osiyo va Sharq musulmon davlatlarining birinchi toponimisti deb ta'riflagan.

Yoqut Hamaviyning geografik nomlarni sharhlashda qo'llagan usuli hozirgi toponimikada joy nomlarini topoformantlar asosida izohlash usuliga juda o'xshaydi. Olim toponimlar tarkibida bir xil unsurlarning takrorlanishini birinchi bo'lib payqagan. Masalan, shahar va qishloq nomlari tarkibida keladigan «obod» unsurini, fors-tojik tilida aholi punkti ma'nosini bildiradi deb yozgan. «Obod» - unsuri hozirda ham geografik nomlar tarkibida keng qo'llaniladi. Bugungi kunda «obod» so'zi nafaqat aholi punkti ma'nosida qo'llaniladi balki, ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib joy nomini yasaydigan, obodonlashtirilgan, o'zlashtirilgan, gullab-yashnagan ma'nosidagi so'z hamdir.

O'rta Osiyo toponimiyasiga oid ma'lumotlarni Aburayhon Beruniy, Rashididdin, Sharofiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abro', Hofiz Tanish Buxuriy, Abulg'oziy Bahodirxon, Abu Tohirxo'ja, Ahmad Donish kabi alimlar asarlaridan topish mumkin. Mutaxassislar fikricha, X-XII asrlar Movarunnahr toponimiyasining katta qismini islomgacha bo'lgan davrdan meros qolgan sharqiy eroniy (so'g'd, baxtar, xorazmiy) tillarga xos toponimlar tashkil qilgan. Keyingi davr Movarounahr toponimiyasining shakllanish jarayoni turkiy qatlamning kuchayishi, natijada sharqiy eroniy toponimik qatlamning siqib chiqarishi bilan bog'liq.

O'rta Osiyo qadimiy turkiy toponimiyasini tadqiq etgan Sh.Kamoliddinovning ma'lumotlariga ko'ra, kelib chiqishi turkiy bo'lgan nomlar O'rta Osiyo hududida qadimdan mavjud bo'lgan va ular ilk o'rta asrlarda mintaqadagi joy nomlarining katta qismini tashkil qilgan bo'lsa, hozirda O'rta Osiyo toponimiyasining asosiy qismi turkiy toponimlardan iborat. Ilk o'rta asrlarda turkiy toponimlar, son jihatdan sharqiy eroniy tillarga xos nomlardan keyin ikkinchi o'rinda turgan, ammo o'rta asrlardan boshlab turkiy qatlamning kuchayishi natijasida ular O'rta Osiyo toponimiyasining eng baquvvat qatlamiga aylangan.

Qadimiy qo'lyozmalar bilan bir qatorda tarixiy-geografik asarlar ham toponimikaning muhim manbalaridan hisoblanadi. Ana shunday, O'rta Osiyoda yozilgan memuar asarlarning durdonasi hisoblangan «Boburnoma»da ham ko'pgina joy nomlariga doir qimmatbaho ma'lumotlar mavjud. Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining ko'rgan, kuzatgan boy ilmiy dalillari asosida chiqargan xulosalarini «Boburnoma» asariga jamlagan.

Fl.IIasanovning ta'kidlashicha, «Boburnoma»da mingga yaqin geografik nom tilga olingan. Kitobda keltirilgan, O'rta Osiyoga doir nomlarning ko'pchiligi hamon o'sha davrdagi kabi yoziladi va talaffuz etiladi. «Boburnoma»dagi geografik nomlarning aksariyatini hozirgi o'zbek va tojik tilida izohlash mumkin. Bir qancha toponimlarning etimologiyasini Boburning o'zi tushuntirib o'tgan. «Boburnoma»da geografik atamalar shu qadar ko'pki, ularning ko'pchiligi hozir ham mavjud, bir qanchalari faqat geografik nomlar tarkibida qolgan, ba'zi birlari butunlay iste'moldan chiqib ketgan.

O'rta asrlarda toponimik qonuniyatlarni aniqlash usullari kashf etilmaganligi bois, toponimlarning ma'no xususiyatlari ko'pincha farziyalarga asoslangan holda izohlangan. Qadimiy va o'rta asrlar manbalarida qayd qilingan toponimlar, geografik terminlar, o'simlik va hayvonot nomlari, etnonimlar, antroponimlar geografik jihatdan to'laroq o'rganilishi kerak.

**Ilmiy toponimikani paydo bo'lishi.** Joy nomlarini o'rganadigan ta'limotni ilmiy fan sifatida paydo bo'lishi ko'p jihatdan fanning amaliy ehtiyoji bilan bog'liq. XVIII-XIX asr

olimlari ilk bur obyektlarni o'rganish, tavsirlash, kartaga tushirish jarayonida geografik obyekt bilan birga nomlarini ham tadqiq qilishgan. Geografik nomlarni paydo bo'lishi, qaysi tilga mansubligi, shakllanishi, anglatgan ma'nosi, rivojlanishi tarixini ilmiy asosda o'rganish, xususan ularni klassifikatsiyalash XVIII asrning ikkinchi yarimidan boshlangan. Shu davrdan boshlab, joy nomlariga muhim ilmiy geografik ma'lumotlar manbai sifatida qaralgan.

Yer yuzining ma'lum hududi, qismini tasvirlashda uning nomi, qaysi tilga tegishli va qanday ma'no kasb etishni aniqlash muhim hisoblangan va geograflar tomonidan shu maqsadda ko'plab toponimik tadqiqotlar amalga oshirilgan. A.Gumbold, H.Vamberi, J.Fonnele, N.Nadejdin, A.Vostokov, A.Kastren, P.Semyonov-Tyaa-Shanskiy kabi olimlar ilmiy toponimika rivojiga katta hissa qo'shganlar. Masalan, akademik A.Vostokov 1812 yili yozgan "Etimologiya havaskorlariga mashq" nomli maqolasida geografik nomlarni old va oxirgi qo'shimchalarining o'xshashligiga qarab bir necha guruhga bo'lgan va bu hol tasodifiy emas, degan xulosaga kelgan.

Tushinishi qiyin bo'lgan bu qo'shimchalar hozirgi ilmiy tilda topoformantlar deb ataladi. Soha mutaxassislari A.Vostokovning xizmatlarini inobatga olib, uni toponimik ilmiy tadqiqotlarda qo'llaniladigan formantlar (lotincha, formans - hosil qiluvchi) usuli asoschisi deb e'tirof etishadi.

XIX asrda tilshunoslik, tarix, geografiya, kartografiya kabi fanlarning amaliy ehtiyojidan kelib chiqib toponimikaga qiziqish yanada kuchaydi. T.Nafasovning yozishicha, XIX asr o'rtalari, oxiri va XX asr boshlarida toponimik tadqiqotlar mazmunan boyidi, son va saviya jihatdan kengaydi. Toponimikaga bag'ishlangan maxsus asarlar paydo bo'ldi, geografik nomlarni o'rganadigan komissiyalar va jamiyatlar tashkil etildi. Masalan, G'arbiy Yevropa, jumladan, Fransiya, Angliya, Germaniya, Polshada barcha toponimik ishlarni muvofiqlashtiruvchi toponimik jamiyat yoki guruhlar paydo bo'ldi. AQSh da 1890 yili geografik nomlar byurosi, 1923 yilda esa toponimik jamiyat tashkil qilindi.

Rossiyada ham 1847 yili Rus geografiya jamiyati qoshida geografik terminologiyani o'rganish komissiyasi tashkil etildi va u toponimikaga katta ahamiyat berdi. Komissiya tarkibida qatnashgan A.Dal, N.Nadejdin kabi olimlar yordamida to'rt mingdan ortiq geografik terminlardan iborat lug'at tuzilgan. Rus olimi N.Nadejdinning toponimikaga bag'ishlangan itmiy ishlari diqqatga sazovor. U toponimikani xalq hayoti, turmushi, dunyoqarashi bilan bog'liq ekanligi, jamiyat tarixidagi muhim voqea-hodisalar joy nomlarida aks etishiga katta e'tibor bergan. "Toponimiya - yer tili, yer - insoniyat tarixi geografik nomlar bilan yozilgan kitobdir" degan ta'rif aynan unga tegishli.

Keyingi ikki asr davomida yozilgan tarixiy, lingvistik va xususan geografik asarlardan O'rta Osiyo va O'zbekiston toponimiyasiga oid ko'plab ma'lumotlar topish mumkin. Masalan, vengryalik olim A.Vamberi O'rta Osiyoga maxfiy sayohat qilib, tarixiy toponimikaga oid "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" kitobini yozgan. Asarning lug'at qismida 600 ga yaqin geografik nom va atamalarga alifbo tartibida ta'rif berilgan.

O'zbekistonning tarixiy geografiyasi, xususan, toponimiyasini o'rganishda XIX asrda ijod qilgan rus olimlari orasida V.Vyatkini alohida o'rni bor. Olimning Samarqand va Toshkent viloyatlariga bag'ishlangan va vaqf hujjatlari asosida yozilgan asarlarida joy nomlarning kelib chiqishi haqida qiziqarli ma'lumotlar topish mumkin. Umuman, olimning asarlari toponomik tadqiqotlarda, ayniqsa, joy nomlarining etimologiyasini aniqlashda muhim ahamiyat ega.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin N.Xanikov, N.Sitnyakovskiy, L.Sobolev, D.Lagofet, A.Xoroshxin kabi olimlar turli ekspeditsiyalar tarkibida O'rta Osiyoga kelib mahalliy xalqlarning tili, tarixi, etnografiyasini o'rganishgan. Ular yozgan asarlarda O'rta Osiyo joy nomlarining etimologiyasiga oid turli tarixiy-lingvistik fikrlar bildirilgan. XIX asr oxiri va XX asrning boshlaridagi O'rta Osiyo toponimiyasini o'rganishda, akademik V.Bartold asarlari alohida o'rni tutadi. V.Bartold garchi toponimikaga bag'ishlab alohida asar yozmagan bo'lsa ham,

ammo, uning asarlarini o'rganmasdan turib O'rta Osiyo toponimikasi bilan shug'ullanib bo'lmaydi.

Olim asarlarining toponimika uchun qimmatli shundaki, u rus va G'arbiy Yevropa tillaridagi adabiyotlarni arab, fors hamda turkiy tillardagi asarlar bilan taqqoslab tanqidiy o'rgandi. V.Bartold asarlarida arab va fors manbalarida qayd qilingan yuzlab joy nomlarining etimologiyasi sharhlangan va ama, ariq, yob, diz, g'ar, kent, rustoq, hisor, qal'a, qo'rg'on kabi ko'plab geografik terminlar ilmiy jihatdan izohlangan.

XVIII asrning ikkinchi yarimidan, to XX asrning birinchi yarinigacha toponimik tadqiqotlar mazmunan boyidi, soni ko'paydi, sifat va saviya jihatdan ancha oshdi. Zaruriy ma'lumotlar to'planib, toponimikaga bag'ishlangan bir qancha asarlar yaratildi. Ularda geografik obyektlarning nomlash qonuniyatlarini ayrim jihatlari aniqlanib ilmiy toponimik tadqiqotlarga asos solindi.

XX asrning 50-chi yillaridan boshlab toponimik tadqiqotlar keng quloq yozdi. Toponimik ma'lumotlarni to'plash va tadqiq qilish sohasida jiddiy ishlar boshlandi. Geografik nomlar bo'yicha maxsus mahkamalar, toponimik komissiyalar tuzildi hamda ularni o'rganishga katta ahamiyat berildi. O'sha davrda toponimik tadqiqotlar uchta asosiy yo'nalishda olib borildi.

1. Fanning nazariy masalalari va tadqiqotlar metodlari;
2. Mintaqalar toponimiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar;
3. Makromintaqalar va xorijiy mamlakatlar toponimikasi.

Ma'lumki, toponimikaning nazariy masalalarini hal qilmasdan turib toponimik tadqiqotlar bilan shug'ullanish ancha qiyin masala. Shu sababdan, toponimist olimlar, ayrim mintaqalar toponimiyasi bilan shug'ullanishdan tashqari, geografik obyektlarning nomlash qonuniyatlarini tadqiq etish, va geografik nomlarning klassifikatsiyasini yaratish kabi masalalarga ham katta e'tibor qaralishgan.

Toponimikaning ilmiy fan sifatida shakllanishida rus olimlarining xizmatlari katta. Bu sohada A.Dulzon, A.Matveyev, A.Popov, A.Superanskaya, V.Toropov, S.Tolstov, Y.Pospelov, O.Trubachev, R.Ageyeva kabi olimlarning asarlari ma'lum va

mashhur. Ular orasida geograf ulim E.Murzayevning xizmatlari alohida diqqatga sazovor. Olim yarim asrdan ko'proq vaqt davomida geografik nomlarni o'rgandi. O'rta Osiyo toponimlarining kelib chiqishi, transkripsiyasi, xususan, mahalliy geografik terminlari haqida ko'plab qimmatli asarlar, monografiyalar, lug'atlar, ilmiy maqolalar yozdi. E.Murzayev ko'p yillik ilmiy faoliyati davomida toponimikaning nazariy masalalari bilan birga, geografik terminlarga alohida ahamiyat berdi.

Olimning toponimika sohasidagi asarlaridan eng salmoqlilari xalq geografik terminlariga bag'ishlangan. Bu boradagi so'nggi va eng yirik asari, 1999 yilda Moskvada chop etilgan ikki jildli "Slovar narodnyx geograficheskix terminov" kitobidir. Olimning ta'kidlashicha, har qanday toponimik tadqiqotni geografik terminlarni o'rganishdan boshlash kerak, chunki toponimik terminlar nomlarning etimologiyasini aniqlashda universal kalit hisoblanadi.

E.M.Murzayevning sof toponimik ishlari ham kam emas. Uning "Ocherki toponimiki" nomli asari olimning joy nomlarini o'rganish sohasidagi ko'p yillik mehnati samarasidir. Mazkur kitobda, geografik nomlarni ijtimoiy hodisa ekanligi, jamiyatning ehtiyoji bilan bog'liqligini ta'kidlab, u shunday yozgan: «gazeta o'qiganda ham, radio tinglaganda ham voqea va hodisalarni ko'pincha geografik nomlarga bog'lab o'qib olamiz. Hozirgi zamon jamiyatini geografik nomlarsiz tasavvur etolmaymiz».

Sobiq ittifoqda toponimikani fan sifatida shakllanishiga V.A.Nikonov katta hissa qo'shgan. Olim geografik nomlarni tarix taqozosi bilan paydo bo'ladigan ijtimoiy hodisa ekanligini alohida ta'kidlaydi. V.A.Nikonov nom geografik obyektning xususiyatidan kelib chiqadi, degan fikrni g'alat va toponimika uchun juda xavfli deb hisoblaydi. Olimning yozishicha, geografik obyektga nom tanlashda uning o'ziga xos xususiyatlari asos bo'lishi mumkin, ammo, ana shu alomatni, belgini tanlash laqat jamiyat manfaatlari bilan bog'liq. Fikrini isboti sifatida, daryoni Qoradaryo yoki Oqdaryo deb nomlanishi daryo uchun muhim emas, u qanday atalishidan qat'iy nazar o'z vazifasini bajaraveradi, aksincha, nom tanlashda jamiyat manfaatlari ustunlik qiladi, deb yozgan. Hozirda,

mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan toponimik qonuniyatlar ham, ilk bor ana shu olim tomonidan aniqlanib fanga kiritilgan.

Shu narsa e'tiborga sazovorki, V.A.Nikonov geografik obyektlarga berilgan nomlar haqida fikr bildirib, uni nomlagan xalq yo'q bo'lib ketsa ham, ammo, joy nomi uzoq muddat hattoki, bir necha ming yilgacha, asl holida yoki shakli va talaffuzi o'zgarib, mavhumlashib saqlanib qolishi mumkinligini alohida ta'kidlagan. Masalan, V.A.Nikonov tomonidan keltirilgan bir rivoyat bu fikri isbotidir. Olimning yozishicha, konkistadorlar Janubiy Amerikadagi Orinoko daryosi bo'yida yashaydigan mahalliy hindu qabilasini qirib yuborishadi, ammo, ular tomonidan xonakilashgan to'ti qushlar uzoq muddat mahalliy hindu qabilasi tilida sayragan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tarkibidagi boshqa mamlakatlarda ham toponimikaga katta ahamiyat berib kelinadi. Geograf olimlardan beloruslik V.Juchkevich bu sohada ancha ishlar qilgan. Uning «Umumiy toponimika» nomli o'quv qo'llanmasi bir necha bor nashr etilgan. Ukrainalik olim Yu.Karpenko regional toponimiyani mukammal o'rganishidan tashqari toponimika nazariyasi va metodologiyasining umumiy masalalariga alohida ahamiyat bergan. Olimning fikricha, real hayotda nomning tug'ilishiga turki bo'lgan sababni aniqlash toponimika uchun nihoyatda muhimdir.

Markaziy Osiyo davlatlari olimlaridan Tojikistonda, Yag'nob toponimlarini mukammal o'rgangan A.Xromov. Pomir mikrotoponimlarini tadqiq qilishda R.Dodixudoyev, A.Rozenfeld asarlarining ahamiyati katta. Qozog'istonda joy nomlarini ham lingvistik, ham geografik nuqtai nazardan tadqiq etishda katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Respublikada toponimlarini xususan, mahalliy geografik terminlarini o'rganishda G.Konkashpayevning xizmatlarini alohida qayd qilish kerak. Qozog'istonlik A.Abdurahmanov, V.Popova, T.Januzaqov, Ye.Qo'yehiboyev kabi olimlarning ilmiy ishlarida toponimikaning umumiy masalalari bilan bir qatorda joy nomlarining etimologiyasiga katta o'rin berilgan.

Turkmanistonda toponimikaning rivojlanishi akademik S.Ataniyuzov nomi bilan bog'liq. Olim fanning metodologik masalalarini yoritish bilan birga, tadqiqotlarida ko'proq etnonimlarning kelib chiqishiga e'tibor qaratgan. Turkman geografik terminlarini yig'ish va izohlash bilan M.Geldixanov shug'ullangan. Qirg'iziston toponimikasining yutuqlari geograflardan S.Umurzoqov, tilshunoslardan Q.Qonqaboyev, D.Isayev nomlari bilan bog'liq. Ozarboyjonlik olimlar ham toponimika sohasida ancha jiddiy tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, respublika joy nomlari va mahalliy geografik terminlarini yig'ish hamda o'rganish bo'yicha R.Yuzhashev, S.Mullazoda, A.Aliyev, toponimikaning nazariy masalalarini tadqiq qilishda T.Ahmedovning xizmatlarini alohida ta'kidlash kerak.

O'tgan XX asr davomida xorijiy mamlakatlarda ham toponimik tadqiqotlar tez sur'atlar bilan rivojlandi. Natijada, bir qator mamlakatlarda toponimik maktablar paydo bo'ldi. Yer sharining turli hududlari geografik nomlarining o'rganishda J.Styuart, N.Xolmer, M.Barril (AQSh); A.Doza, (Fransiya); G.Kraye, M.Fesmer (Germaniya); E.Ekuoll, A.Smit, A.Rum, S.Mettyuz (Buyuk Britaniya); A.Profouz, V.Shmilauer (Chexiya); V.Tashitskiy, Y.Stashevskiy (Polsha); V.Georgiyev (Bolgariya); L.Kish (Vengriya), G.Dragu (Ruminiya); M.Olson (Shvetsiya); J.Armstrong (Kanada); A.Kardozu (Braziliya) kabi olimlarning xizmatlari katta.

**O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishi.** O'zbek olimlaridan birinchi bo'lib H.Hasanov toponimikaga murojaat qilgan. Olim joy nomlariga bag'ishlangan bir qator ilmiy maqola va kitoblar yozgan. Uning «Geografik nomlar imlosi» (1962), «O'rta Osiyolik geograf va sayyohlar» (1964), «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» (1965), «Yer tili» (1977), «Geografik nomlar siri» (1985) kabi asarlarida O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlari haqida muhim fikrlar, xulosalar bayon etilgan. O'zbek «Magellani» deb e'tirof etilgan olim joy nomlarining transkripsiyasi, etimologiyasi, tarixi, toponimlarning asosini tashkil etuvchi geografik terminlarga juda katta e'tibor bergan.

Toponimika faniga butun umrini bag'ishlagan olimlardan yana biri Suyun Qorayevdir. Olimning ilmiy faoliyatida mahalliy geografik terminlar alohida o'rin egallaydi. S.Qorayev joy nomlari tarkibida uchraydigan 120 dan ortiq geografik terminlarni atroflicha izohlagan. Ularning ko'pchiligi shu vaqtgacha geografik adabiyotlarda, hatto izohli lug'atda ham uchramaydigan, ilmiy muomalaga kiritilmagan chinakam mahalliy xalq terminlari hisoblanadi.

Geografik terminlar va joy nomlarini o'rganish sohasida samarali mehnat qilgan geograf olimlardan yana biri P.G'ulomovdir. Olim tomonidan "Geografiyadan qisqacha ruscha-uzbekcha atamalar va tushunchalar lug'ati" (1993), "Jug'rosiy atamaları va tushunchaları izohli lug'ati" (1994), "Toponimika va geografik atamashunoslik" (2005) kabi o'quv qo'llanmalar nashr etilgan. P.G'ulomov ilmiy ishlarida joy nomlari va atamalarning to'g'ri yozilishi, ularning tarjimai ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritilishi hamda toponimik savodxonlik masalalariga jiddiy e'tibor qaratgan.

So'ngi yillarda Q.Scytmiyazov (1998), Qoraqalpog'iston o'ng sohil shimoliy tumanlari toponimiyasi va Q.Hakimov (2010) tomonidan Jizzax viloyati toponimiyasi o'rganildi. Bajirilgan ishlarda geografik obyektlarni nomlash qonuniyatlari, joy nomlarini shakllanishida mintaqaning iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatlari, toponimlarni o'zbek va qoraqalpoq tillarda to'g'ri yozilishiga e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, yangi geografik obyektlarni nomlash bo'yicha tavsiyalar va toponimlar turlariga oid turli kurtalar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston toponimiyasini lingvistik aspektida o'rganish o'tgan asrning oltmishinchi yillarida boshlangan. Tilshunos toponimist olimlardan F.Begmatov, Z.Do'simov, T.Nafasov, T.Tuzarov, N.Ulug'ov, N.Oxunovlar respublika toponimiyasining yaratilish qonuniyatlari, leksik-semantik xususiyatlari, ularning tuzilishi, tasniflash masalalarini tadqiq qilishda katta hissa qo'shganlar. O'zbekistonda toponimika fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan biri T.Nafasov, respublikada

birinchi bo'lib toponimikadan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Xalq tabiiy geografik terminlari, ularning paydo bo'lishi, shakllanish xususiyatlari, tarqalish areallari, manbalari, ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillari kahi masalalar M.Mirakmalov tomonidan o'rganilgan. Keyinchalik hududiy toponimika sohasida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarildi. Masalan, T.Nafasov - Qashqadaryo toponimiyasini, Sh.Qodirova - Toshkent mikrotoponimlarini, Z.Do'simov - Xorazm, Ya.Xo'jamberdiyev - Surxondaryo, T.Rahmatov - Samarqand, S.Gubnyeva va N.Oxunov - Turg'ona vodiysi, A.Zokirov - Jizzax, K.Abdinuratov - Qoraqalpog'iston respublikasi, S.Naimov - Buxoro viloyati toponimiyasini tadqiq qilgan.

Oxirgi yillarda hajarilgan mintaqaviy toponimik tadqiqotlarning aksariyati geografik nomlarining dialektik, semantik, grammatik va lingvogeografik xususiyatlariga bag'ishlangan. Umuman olganda, joy nomlarining mintaqaviy xususiyatlarini tadqiq etish orqali har bir hudud toponimiyasining umumiy va xususiy jihatlari aniqlanib, ularning O'zbekiston toponimiyasida tutgan o'rni belgilanadi.

#### *IV. Savol va topshiriqlar:*

- 1. Qadimgi dunyo va o'rta asrlardagi toponimik ma'lumotlar haqida referat tayyorlang.*
- 2. Toponimikani fan sifatida rivojlanishida O'ria Osiyolik olimlarning xizmatlari nima uchun iborat?*
- 3. Ilmiy toponimikaning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan asosiy omillarni izohlang.*

#### *VI. Text topshiriqlari:*

- 1. XIII asr geografik ma'lumotlarini to'plab o'n jildlik «Ma'jam al-buldon» (Mamlakatlar lug'ati) nomi geografik lug'atni tuzgan olim kim?*

- A. Istazriy*
- B. Kaykovus*
- C. Yoqut Hamaviy*
- D. Abdurazzoq Samarqandiy*

2. Eratostfen greklarga ma'lum bo'lgan hududlarni qanday atagan?

- A. Klina
- B. Oykumena
- C. Skifena
- D. Period

3. Muallifi noma'lum bo'lgan "Hudud ul-olam" asari qachon, qayerdan topilgan va hozir qaysi shaharda saqlanmoqda?

- A. 1912 yilda Buxoroda topilgan, hozir Londonda.
- B. 1715 yilda Xivada topilgan, hozir Toshkentda.
- C. 1892 yilda Samarqanda topilgan, hozir Sankt-Piterburgda.
- D. 1970 yilda Jizzaxda topilgan, hozir Moskvada.

4. A.Xromov iborasi bilan aytganda, O'rta Osiyoning birinchi toponimisti bu... . Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni qo'yib belgilang.

- A. H.Hasanov
- B. M.Koshg'ariy
- C. Ibn Havqal
- D. Yo.Hamaviy

5. "Yer - insoniyat tarixi geografik nomlar bilan yozilgan kitobdir" degan ibora kimga tegishli?

- A. F.Muzoyev
- B. N.Nadejdin
- C. H.Hasanov
- D. S.Qorayev

## 1.4. TOPONIMIK TADQIQOTLAR

☼ *Reja:*

1. Toponimikning tadqiqot metodlari haqida umumiy tushuncha.
2. Toponimika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari tahlili.
3. Dala sharhida geografik nomlarni o'rganishni afzaliklari

☼ *Mavzuning maqsadi:* Toponimika fanining ilmiy-tadqiqot metodlari va ularni qo'llash imkoniyatlari haqida ilmiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

☼ *Tayanch ihora va atamalar:* geografik metod, topoformant, toponimik "yuk", geografik obyekt, umumiy va xususiy nom.

**Toponimikaning tadqiqot metodlari.** Toponimik tizimni bir bo'lagi bo'lgan nom turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin. Shu sababdan, nomlar majmuasining barcha o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tahlil qilinganda to'g'ri va samarali natijaga erishish mumkin. Demak, har qanday geografik obyekt nomining ma'no-mazmunini aniqlash uchun, uni har tomonlama o'rganish maqsadga muvofiq.

H.Hasanov bu masalaga e'tibor qaratib: «har bir joy nomining bamisoli ikki tomoni bor sirti va ichi. Sirtidan qaraganda har bir nom atoqli ot bo'lib ko'rinadi. Afrika, Grenlandiya, Xitoy, Misr, Parij singarilarning joy nomi ekanligi har kimga ham ayon. Ammo, nomning ichki tomoni ham bor, uni ko'rish uchun «rentgen»ga solish lozim: bu nom qayerda, nega shunday atalgan, qaysi tildan olingan? Joy nomining bu ichki xususiyatini har kim bilavermaydi, u faqat tadqiqotchiga muvassar bo'ladi», deb yozgan edi.

Boshqacha aytganda, toponimik tadqiqotlarda ko'pincha yaxlit manbalarga e'tibor qaratish kerak, chunki, geografik nomlarga takroriylik xos, ufar ba'zan to'la goho agar murakkab nom bo'lsa tarkibiy qismlarga bo'linib takrorlanadi. Ko'pincha nomning semantikasi, talaffuzi, lisoniy tuzilishi to'g'ri kelishi mumkin. ba'zan nomning hamma alomatlari birgalikda takrorlanadi. Nom



hech qachon yagona, tanho emas, u toponimik tizimdagi uzun zanjining bir bo'g'ini hisoblanadi. Binobarin, agar barcha geografik nomlarning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib tadqiq qilinsa, tahlil to'g'ri va mahsuldor bo'ladi. Bu har qanday toponimik tizimga va har bir geografik nomning paydo bo'lishi va ma'no-mazmunini aniqlashga taaluqlidir.

Demak, har bir hudud, regionning mavjud toponimik majmuasi, joy nomlari turli nuqtai-nazardan tahlil qilinishi kerak: 1) nomning geografik alomatlari: tog', daryo, dasht, cho'l, shahar, qishloq va hokazo; 2) paydo bo'lish vaqti va unga turtki bo'lgan sabablar; 3) qaysi tilga aloqadorligi va uning lisoniy xususiyatlari; 4) mazmuni va etimologiyasi (yunoncha, έρηνος - haqiqat, so'zning asl ma'nosi va λεινος - ta'limot). 5) nomning tuzilishi, til qonuniyatlari va imlo qoidalariga to'g'ri kelishi; 6) toponimning yaratilgan tilida va boshqa tillarda ilmiy jihatdan to'g'ri yozilishi; 7) tarqalish hududi, areali, migratsiya yo'llari.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, toponimning asl ma'nosini aniqlash uchun bitta metuddan foydalanish yaxshi samara bermasligi mumkin. Shu sababdan, toponimistning asosiy vazifasi - faning turli toponimik tadqiqot metodlaridan foydalanib haqiqiy ilmiy natijani qo'lga kiritishdan iborat. Yana shuni ham unutmash kerakki, toponimik tizimdan ajratib olingan alohida nom ilmiy tahlil uchun asos bo'lolmaydi. Aksincha, toponimik tadqiqotlarda geografik nomni hudud toponimiyasi bilan birga tadqiq etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, toponimist olimlarning say'-harakatlari bilan toponimika fanining tadqiqot metodlari shakllandi. Ular, birgalikda joy nomining asl ma'nosini soxtasidan ajratish imkonini beradi. Ammo, mavjud metodlarning qaysi biri eng muhimligini aytilish qiyin, chunki ularning har biri geografik nomga turlicha yondoshish imkonini beradi va toponimning mazmun va mohiyatini aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirda, mutaxassislar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarida qo'llanilayotgan toponimik tadqiqot metodlari quyidagilardan iborat:

*Geografik metod.* Toponimik tadqiqotlarda ushbu metod toponimik terminlarni qo'llanishiga asoslangan. Geografik nomlar

tarkibida uchraydigan toponimik terminlar ifodalangan obyektini bildiruvchi so'zlar (turdosh otlar)dan tashkil topgan. Ularni ayrim ilmiy adabiyotlarda toponimik indikator deb ham atashadi. Ko'pincha, toponimik terminlar (jar, soy, buloq, tepa, quduq va boshq.) joy nomlarining asosini tashkil etadi va geografik obyektning turini bildiradi.

Toponimik termin - turdosh ot, geografik nom esa aloqli otdir. Toponimik terminlarni o'zi ifodalayotgan obyektlarga qarab (geomorfologik, gidrologik, litologik, etnonimik, o'konomik va boshq.) aniqlash mumkin. Geografik nom va termin o'rtasidagi aloqadorlik toponimikaning universal qonuniyati hisoblanadi. Xalq termini va geografik obyekt orasidagi mavjud genetik aloqa toponimiyada o'z aksini topgan.

*Kartografik metod.* Nisbatan murakkab bo'lgan kartografik metod so'nggi vaqtda toponimik tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. Uning boshqa usullardan farqi va afzaligi shundaki, nomlarning o'rganilganlik darajasi, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisa va obyektlar bilan aloqadorligi, takroriyliigi va zichligini maydon birligiga aniq ko'rsatish imkonini beradi. Toponimik ma'lumotlarni aniqlash turli kartografik manbalardan foydalanishni talab qiladi. Turli davrdagi kartalar yordamida tabiiy hodisa va jarayonlarni rivojlanish bosqichlarini toponimiyaga ma'lumotlari asosida kuzatish va aniqlash mumkin.

Toponimik kartalar tuzish, ufardan foydalanish, umuman kartografik metodning imkoniyatlarini rus olimi Ye.M.Pospelov ilmiy jihatdan har tomonlama o'rgangan. Kartografik metod toponimistdan o'rganilgan umumiy ma'lumotlardan aniq xulosa chiqarishni talab qiladi. Shu sababdan, kartadagi ma'lumotlar matnga nisbatan yaqqol va aniq ko'zga tashlanadi hamda toponimik hodisa va qonuniyatlarni tushinish imkoniyatini beradi.

Ye.M.Pospelov ushbu metod yordamida toponimik qo'shimchalarning hudud bo'ylab tarqalishi, mintaq toponimiyasi tarkibidagi mavjud tillarning areallari, nomlarning maydon birligi bo'yicha zichligi va takrorlanishini aniq misollarda ko'rsatib bergan. Toponimik «yuki» bo'lgan kartalarni tuzish va ulardan samarali foydalanish uchun toponimlarning elektron bazasini

yaratish, zamonaviy axborot va GIS - texnologiyalarni qo'llash yaxshi natija beradi.

*Tarixiy metod.* Tarixiy tahlil metodidan foydalanib toponimni paydo bo'lgan davri, uning evolyutsiyasi va transformatsiyasi hamda yangi geografik nomning paydo bo'lishiga asos bo'lgan ijtimoiy muhitni aniqlash mumkin. Shu sababdan, har qanday toponimik faktni tadqiq va tahlil qilishda, aniq tarixiy voqelikni hisobga olib ish ko'rish, ulardan samarali foydalanish yaxshi natija beradi. Ko'pincha geografik nomlarning semantikasi o'ziga xos xususiyatlarga ega, ular uzoq tarixiy davr davomida shakllangan bo'lib, insonning tabiatga bo'lgan munosabatini ifoda etadi.

Nom doimo ijtimoiy ehtiyoj tufayli paydo bo'lganligi bois, hattoki, tabiiy-geografik terminlar ham toponimiyada geografik obyektning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi. Har bir geografik nom bu til orqali ifodalangan ixcham tarix, uning asosi muayyan tarixiy davrda yaratilgan. Tarixiy usul yordamida tadqiqotchi joy nomining geografik alomatlariga yana ham jiddiy e'tibor berishi mumkin.

Toponimik tadqiqotlarda tarixiy usulni qo'llash tarafdori bo'lgan A.I.Popov o'zining asarlarida aniq tarixiy sharoit va tarixiy manbalardan xabardor bo'lmasdan turib, geografik nomning kelib chiqishi haqida to'g'ri fikr bildirish mumkin emasligini bir necha bor ta'kidlagan. Chunki, toponimlar aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'ladi va kelib chiqishi jamiyat hayoti, hududda yashayotgan yoki qachonlardir yashagan xalqlar tili bilan chambarchas bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi.

Mutaxassislarning aniqlashicha, har bir tarixiy davr geografik nomlarning muayyan qatlamini hosil qilgan va ularda o'sha davrning o'ziga xos «izi» mavjud. Boshqacha aytganda, har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini o'sha davrning geografik nomlarida ham ko'rish mumkin. Shu sababdan, nomning asl ma'nosini aniqlashda uni tarixiy paydo bo'lgan davri bilan birga o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash joizki, tarixiy ma'lumotlar har doim ham nomlashning tarixiy jarayonini kuzatish va tiklash imkonini bermaydi. Shu sababdan, ko'pincha

toponimik ma'lumotlarni tarixiy voqea hodisalarni aniqlashda qo'shimcha ilmiy manba sifatida foydalanish yaxshi natija beradi.

*Lingvistik metod.* Geografik nomlarning hududiy tadqiq etish va formantlarga bo'lib o'rganishda olimlar tomonidan lingvistik usullar (etimologiyasi, toponimlar asosida, grammatik tuzilishi) keng qo'llaniladi. Nomlarning lisoniy tarkibi, so'z va qo'shimchalari, ularning ma'nolari va birikuvi, nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy-lisoniy omillar o'sha davr voqeligi bilan baholanishi, izohlanishi va tadqiq qilinishi lozim.

Ma'lumki, har bir tilda toponim yasovchi o'ziga xos vositalar mavjud, ya'ni, muayyan suffikslar (affikslar) va so'zlar joy nomi yaratishga ixtisoslashgan bo'ladi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tili negizida paydo bo'lgan toponimlar tarkibida ko'plik qo'shimchalari uncha keng tarqalmagan. Joy nomlari tarkibidagi ko'plik qo'shimchalarga -lar (Arablar, Beklar), -on (Ohangaron, So'zangaron), -ot (Bog'ot, Hirot) kabi affikslar misol bo'lishi mumkin.

Mutaxassislarning yozishicha, yirik va muhim ahamiyatga ega bo'lgan geografik obyektlarning nomlari til hodisasi sifatida turg'un qolib, uzoq davrlar yashaydi, tildan tilga o'tib asrlar davomida saqlanib qoladi. Shu sababdan, bunday uzoq o'tmishda yaratilgan nomlarni, nom tarkibidagi so'z va qo'shimchalarni tilning hozirgi holati bilan talqin qilish mumkin emas.

Geografik nomlarning asl ma'nosi va mazmunini aniqlashda eng qadimiy va hozirda ham toponimika fani uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etimologik (yunoncha, *ἐτιμολογία* - haqiqat, so'zning asl ma'nosi va *λογος* - ta'limot) metodni qo'llash yaxshi samara beradi. Shuning uchun, uzoq yillar davomida ushbu metod toponimik tadqiqotlarda keng qo'llanilgan va hozir ham u boshqa metodlar orasida muhimligi bilan ajralib turadi.

Bizningcha, nom bilan bog'liq bo'lgan geografik ma'lumotlar va tarixiy voqealikka tayanmasdan turib, nomning asl ma'nosi haqida xulosa chiqarish etimologik usulni ishonchsiz va bahstalab qilib qo'yadi. Ayniqsa, substrat toponimlarni tadqiq qilishda faqat etimologik usulga tayanish chalkashliklarga olib ketishi mumkin. Binnharin, real hayotda nomning paydo bo'lishida turki bo'lgan

ijtimoiy-siyosiy, madaniy-tarixiy va geografik asosni e'tiborga olgan holda, uning etimologiyasi aniqlansa yaxshi bo'ladi.

Hududiy toponimiyani toponimantlar yordamida, ya'ni nomlar tarkibida tez-tez takrorlanadigan old yoki oxirgi qo'shimchalarning o'xshashligiga qarab ham tadqiq qilish mumkin. Toponimlashuv jarayonida toponimantlar topoasoslarga qo'shilib yangi nom yasaydi. Toponimlarni formantlar yordamida o'rganish keyingi chorak asrda katta ahamiyat kasb etdi. Bu usulning ko'pgina tarafdorlari uni juda muhim va ishonchli deb hisoblashadi. Namlardagi elementlarning takrorlanishi ko'pincha ularning bir tipga xos ekanligidan dalolat beradi. Ammo, shuni unutmash kerakki, nomning paydo bo'lishida asos bo'lib xizmat qilgan barcha omillarni aniqlamasdan, ularni formantlarga ajratish har doim ham yaxshi natija bermaydi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, nomni formantlarga qarab tahlil etishning qulayligi shundan iboratki, toponimlar tarkibida tez-tez takrorlanadigan qo'shimchalar ularning shakllanishi, etnik daxildirliigi, tarqalish areali, ko'chma toponimlar haqida aniq ma'lumot beradi. Chunonchi, O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda sermahsul bo'lgan *-iston* qo'shimchasi ana shunday formlalardan biri hisoblanadi. Bu usul mamlakat, o'lka nomini yasaydi yoki birin narsaning ko'p ekanligini bildiradi. O'zbekiston, Guliston, Registon va hokazo.

*Statistik metod.* Toponimik tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni qayta ishlashda statistik usuldan foydalanib yaxshi natijalarga erishish mumkin. Bu usul yordamida ma'lum hududdagi geografik nomlarning sonini aniqlash, ularni boshqa hududdagi nomlar bilan taqqoslash, kelib chiqishi, qaysi tilga mansubligini foiz nisbatlarini o'rganish imkoniyati mavjud. Statistik ma'lumotlar tadqiqotchini mintqa toponimlari haqidagi tasavvurini konkretlashtiradi va aniq xulosa chiqarishiga ko'maklashadi. Toponimikaga oid kartografik ma'lumotlarni tahlil etishda statistik metodni qo'llash yaxshi samara beradi.

Bu'zan, obyektning nomlanishiga asos bo'lgan geografik, tarixiy va lisoniy sabablarni bevosita joyida aniqlash kerak bo'ladi. Ayrim vaqtda, ancha murakkab toponimik muammoni yechimini

topish uchun, geografik, tarixiy va lisoniy axborotlar kamlik qilishi mumkin. Bunday hollarda, qo'shimcha holda dala ma'lumotlarini jalb qilish maqsadga muvofiq. Chunki, toponimik ekspeditsiyalar yordamida tashkil etilgan dala tadqiqotlari bevosita obyekt bilan joyida tanishish, nomi va geografik terminlarning mohiyatini aniqlash va to'g'ri xulosa chiqarish imkonini beradi.

Dala sharoitida joy nomlarini o'rganayotgan mutaxassis aynan bitta joy nomi bilan shug'ullanmasdan, maqsadli ravishda bir qancha toponimlarning kelib chiqishi, etimologiyasini joyning tabiiy-geografik sharoiti bilan taqqoslashi, nomning tarixi bilan yaqindan tanishib, to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, etnonimlarni tadqiq etishda dala ma'lumotlaridan foydalanish yaxshi natija beradi.

Tadqiqotchi ushbu jarayonda joy bilan yaxshi tanishadi, nomlashda asos bo'lgan tabiiy-geografik sharoitni o'rganadi va nomning haqiqiy ma'nosini aniqlash maqsadida ularni taqqoslaydi. Bu ishda mahalliy aholi orasidan geografik obyekt haqida mukammal ma'lumot va tushunchaga ega bo'lgan bilimdon kishilarni jalb qilish ham ijobiy natija beradi. Shu sababdan, bilimdonlarni tanlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim, ularni soni bir nechta bo'lgani ma'qul, chunki to'plangan ma'lumotlarni bir-biriga qiyosiy taqqoslash imkoni paydo bo'ladi.

Dala sharoitida ishlayotgan mutaxassis taklif qilingan har qanday ma'lumotga befarq bo'lmasligi lozim, aksincha ularni tanqidiy o'rganib, yakuniy xulosani o'zi chiqarishi shart. Shu bilan birga toponimik tadqiqotlarda quyidagi qo'shimcha manhalardan foydalanish mumkin: a) mahalliy dala ma'lumotlar yordamida nomlarni geografik obyektlarning xususiyatlariga mos kelishi va ularning transkripsiyasini aniqlasa bo'ladi; b) mahalliy yozma ma'lumotlar, ularga solnomalar, vaqf hujjatlari (yorliqlar), turli kartalar, yuridik va arxiv hujjatlari, ma'lumotnomalar va boshqalar kiradi. Ular yordamida toponimlarning yashovchanligi, axborot tashishi, o'zgarishlarga duchor bo'lishi, nomlashda turki bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni belgilash kabi masalalar oydinlashadi.

Xulosa qilib aytganda, toponimik tadqiqotlarda aniq ilmiy natijaga erishish uchun tahlil va sintezning barcha tadqiqot

metodlaridan, jumladan, eng qulay va samarali usullaridan to'g'ri foydalanish maqsadga muvofiq.

**12 Savol va topshiriqlar:**

1. Toponimik tadqiqot metodlari haqida qisqacha ma'lumot to'plab, uni izohlang.
2. Etimologiya metodining afzalliklari va kamchiliklarini o'zaro taqqoslang.
3. Toponimik tadqiqotlarda kartografik metodning qanday afzalliklari mavjud?

**13 Test topshiriqlari:**

1. Toponimik tadqiqotlarda statistik metodning afzalliklari qaysi bunda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. Mintaqa toponimlari haqidagi tasavvurni konkretlashtiradi.
- B. Kartografik ma'lumotlarni tahlil etishda yaxshi samara beradi va aniq xulosasi chiqarishga ko'maklashadi.
- C. Nomlarni foiz nisbatlarini chiqarishga yordam beradi.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

2. Toponimik tadqiqotlarda kartografik metodni keng qo'llagan olimni aniqlab belgilang.

- A. Ye. Pospelov
- B. H. Hasanov
- C. A. Popov
- D. S. Qorayev

3. Toponimik tadqiqotlarda joy nomlarini topoformantlar yordamida o'rganishda .... yaxshi samara beradi?

- A. linvistik metod
- B. statistik metod
- C. kartografik metod
- D. geografik metod

4. Mutaxassislarning yozishicha, toponimik tadqiqotlarda nomning asl ma'nosini aniqlash uchun .... metoddan foydalanish yaxshi samara bermaydi.

- A. ikkita
- B. uchta

C. bitta

D. to'rtta

5. Joy nomlarning asl ma'nosini aniqlashda eng qadimiy va hozirda ham toponimika uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan metodni belgilang.

- A. geografik metod
- B. dala kuzatuvlari
- C. etimologik metod
- D. kartografik metod

## 1.5. GEOGRAFIK TERMINLAR

### ∴ Reja:

1. Geografik terminlarga qo'yilgan talablar va ularning manbalari

2. Milliy, mahalliy, baynalmillal terminlar haqida tushuncha

3. Geografik va toponimik terminlar va ularning turlari

∴ *Mavzuning maqsadi:* Geografik terminlarga qo'yilgan talablar, ularning manbalari, milliy, mahalliy, baynalmillal terminlar hamda geografik va toponimik terminlarning turlari haqida ilmiy tushunchalar hosil qilishdan iborat.

∴ *Tayanch ibora va atamalar:* termin, milliy, baynalmillal, mahalliy terminlar, termin turlari, atama.

Toponimika fan sifatida rivojlanishida mukammal o'rganilgan va ilmiy asoslangan geografik terminlarning ahamiyati benihoyat katta. Geografik terminlar ancha katta axborot (informatsion) salohiyatga ega. Shuning uchun, tilshunolar ham, geograflar va tarixchilar ham, ular bilan qiziqishadi. Ilmiy adabiyotlarda termin (lotincha, terminus - chegara, had) - so'ziga bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani aniq va barqaror ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi deb ta'rif berilgan.

Hozirgi kunda termin so'zi bilan bir qatorda "atama", "istiloh" so'zlari ham ayni ma'noda qo'llanmoqda. Aslida atama so'zining ma'nosi kengroq, u termin bilan birga geografik nomni ham o'z ichiga oladi. Tarixiy matnlarda termin o'rniga ko'pincha istiloh so'zi qo'llanmoqda. Terminlarning aniqligi, mukammalligi fanning rivojlanishini ma'lum jihatdan belgilab beradi.

P.G'ulomovning yozishicha, termin - turdosh ot, ism, nom - atoqli ot va ularning har ikkisi ham atamadir. Geografiyada atamalar ikki tur otlarga bo'linadi: geografik termin va geografik nom. Geografik terminlar quyidagi talablarga mos kelishi kerak:

1. Geografik terminlar ilmiy va etimologik jihatdan to'g'ri yozilishi va talaffuz qilish kerak. Bunga geografiya fanning nomini misol qilib keltirish mumkin. Ba'zan fan nomi jug'rofiya

deb talaffuz qilinadi. Fan nomining qaysi shakli ilmiy jihatdan to'g'ri - geografiya yoki jug'rofiya? Geografiya - so'zi grekcha. "geo" - yer, "grafo" - tasvirlayman. Jug'rofiya - geografiya so'zining buzilgan shakli, o'zbek tiliga arab va ingliz tillari orqali o'lgan va hech qanday ma'no kash olmaydi.

2. Geografik terminlar tushunarli, talaffuzda oson, ixcham, tugal ma'noli bo'lishi kerak. Mustaqillikning dastlabki yillarida arabcha mador, bahr, ummon, jug'rofiyum kabi tushunishi va talaffuzi qiyin bo'lgan notanish geografik terminlar taklif qilindi. Ularni ko'pchilik qabul qilmadi va iste'moldan chiqib ketdi. Hozirda, ular o'rniga barchaga tushunarli bo'lgan parallel, tropik, dengiz, okean kabi geografik terminlar qo'llanilmoqda.

3. Geografik terminlarga qo'yilgan eng muhim talablardan yana biri, terminlar davlat (o'zbek) tili qoidalariga to'la mos bo'lishi kerak.

4. Terminlar til lug'at boyligi bo'lib, til rivojlangan sari eskirgan terminlar muomaladan chiqib ketishi mumkin. Ular o'rniga tilning so'z zaxirasidan yangi terminlar kirib keladi. Demak, geografik terminlarning qisman yangilanib turishi doimiy jarayon hisoblanadi.

Yangi geografik terminlarni iste'molga kiritish uchun quyidagi manbalar mavjud:

1. O'zbek abadiy tilining so'z lug'aviy boyligi, ya'ni lug'atlar, badiiy va ilmiy adabiyotlar va hokazo. Milliy terminlar biror millatning adabiy tilida va ilmiy adabiyotlarida barqaror o'rin olgan hamda mazkur millat vakillarining ko'pchiligi tushunadigan terminlar. O'zbek milliy geografik terminlariga tog', tekislik, dara, ko'l, soy, dara, vodiy, jar, cho'qqi, g'or, sel, bulut, yomg'ir, qor, ko'chki, dovon va boshqalar misol bo'ladi.

2. Sheva va lahjalar so'z zaxirasi. Ularni mahalliy terminlar deyish mumkin, chunki, faqat ma'lum hududda tarqalgan va o'sha sheva va lahjaga xos bo'lganligi bois, areali cheklangan va boshqa mintaqada yashovchi aholi tushunmasligi mumkin. Masalan, Xorazm shevasidagi *yop*, *arna*, *xariq*, *solma*, *yorma* terminlari, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari tog'li hududlarida *gaza*,

*adog, xovar* kabi terminlar uchraydi. Ularning faqat bir qismi ilmiy geografik adabiyotlarga kiritilgan.

Ma'lumotlarga boy bo'lgan mahalliy geografik terminlar ko'p asrlar davomida mutaxassislar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Mahalliy geografik terminlarning paydo bo'lishida xalqning xo'jalik faoliyati, tarixi, moddiy madaniyatining xususiyatlari hamda vohaning tabiiy muhiti va geografik sharoiti alohida ahamiyatga ega. Eng muhimi, mahalliy sheva va lahjalarda hali ilmiy geografik adabiyotlarga kiritish kerak bo'lgan ko'plab mahalliy terminlar mavjud.

3. Boshqa tillardan tarjima qilish yo'li bilan paydo bo'lgan yangi terminlar: Ularga qalashma muz, qirg'oq bo'yi, daryo boshi, quyay joyi, suv sarti, oqim, qora sovuq, suvayrig'ich kabi terminlarni kiritish mumkin. Agar mahalliy sheva va lahjalarda tarjima terminlarning o'rni bosuvchi so'zlar bo'lsa, yaxshisi ularni termin sifatida qabul qilish va ilmiy muomalaga kiritish maqsadga muvofiq.

4. Boshqa xalqlar tilidan o'zlashgan va ko'pchilik tillarda bir xil qo'llanadigan terminlar. Ularni ko'pincha baynalmillal terminlar deyishadi. Bunga fan nomi geografiya, lyass, geyzer, vulkan, kvarts, delta, artezian, siklon, antisiklon, kristall, fyon, kondensatsiya, yadro kabi terminlar yaqqol misol bo'ladi. Xorijiy mamlakatlar bilan tobora rivojlanib borayotgan xalqaro munosabatlar yangi baynalmillal terminlarni kirib kelishiga qulay sharoit yaratadi.

Xalq tabiiy geografik terminlari toponimlar tarkibida ishtirok etib, obyekt turini ifodalaydi.

Joy nomlari tarkibida qatnashib, ular ifodalagan obyektning bildiruvchi so'zlar (turdosh o'llar) toponimik terminlar (topoterminalar) deb ataladi. Ular joy nomlari tarkibida bir necha ko'rinishda uchraydi:

a) Toponimik termin qo'shimcha so'zlarsiz joy nomiga aylangan. (Kamar, Loyqa, To'qay, Ko'tal ...).

b) Toponimik termin qo'shimchalar bilan toponim hosil qilgan. (Tangili, Soyliq, Toshkesgan, Damariq ...).

v) Toponimik terminlar juft holda geografik nomga aylangan. (Jarbuloq, Jartepa, Aydarko'l, Arnasoy ...).

g) Toponimik terminlar toponimlar tarkibida (Jumabozor, Ellikqal'a, Sultunravot ...).

Toponimik terminlar barcha tillarda takrorlanadi. Bu haqda H.Hasanov shunday yozgan: «Bordi-yu o'ntacha asosiy tilni biladigan kishi kartadagi nomlarni shu tillarga tarjima qilib o'qisa, aksari shahar, tog', daryo va ko'llarning nomlari deyarli bir ma'noda ekanini ko'rib hafsalasi pir bo'lar edi». Masalan, daryo, suv - jayhun, ob, ganga, reka, missi, rioxe, yoki ... 'Tog' - jabal, ko'h, shan, montana, serra, monte, vald ... va hokazo.

Toponimik terminlarni o'zi ifodalayotgan obyektlarga qarab quyidagicha gurudlashtirish mumkin:

1. Geomorfologik topoterminalar (ag'ba, bel, do'ng, yozi, jar, ko'tal, ort, qir, ushuv, dara, tangi, baraz va boshqalar).

2. Litologik topoterminalar (tosh, qum, shag'al, oltin, kumush, neft, gaz, ko'mir va boshqalar).

3. Gidrologik topoterminalar (arna, ariq, buloq, daryo, yop, kom, quduq, hovuz va boshqalar).

4. Floristik va faunistik topoterminalar (bodom, tol, terak, tut, jiyda, qayrag'och, olma, o'rik, laylak, kaptar, tuya, ho'ri, g'azol, jayra va boshqalar).

5. Oykonomik topoterminalar (kat, ovul, qishloq, deha, mahalla, guzar, ko'cha va boshqalar).

6. Etonimik topoterminalar (qipechoq, nayman, qo'ng'iroq, qirg'uz, ming, qangli, arab, tojik, qirg'iz, qozoq va boshqalar).

7. Turli topoterminalar (obyektning xususiyatlarini ifodalovchi terminlar: tomoni, o'rni, joyi, hajmi, rangi va boshqalar).

Ma'lumki, geografik terminlarni yig'ish va tartibga solish ancha mashaqqatli ish, lekin ularni o'rganmaslik mumkin emas. Shuning uchun, respublika hududidagi mahalliy geografik terminlarni aniqlash, ularni tasniflash, lug'atini tuzish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. O'zbek xalq (mahalliy) geografik terminlarning bir necha manbalarini alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Qadimgi qo'lyozmalar, tarixiy-badiiy asarlar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar shular jumlasidandir. Geografik


terminlarning yana bir manbai-ilmiiy adabiyotlar hisoblanadi. E.Marzayev (1959, 1984), H.Hasanov (1964), S.Qorayev, P.G'ulomov va R.Rahimbekov (1979), Mirortiq Mirabdulla o'g'li (1992), P.G'ulomov (1994) larning izohli lug'atlari chop etilgan.

Mutaxassislarning aniqlashicha, hind-yevropa tillaridagiga qaraganda turkiy tillarda ko'pchilik toponimlar mahalliy geografik terminlar ishtirokida paydo bo'lgan. Buni turkiy xalqlarning yashash tarzi bevosita ularni o'rab turgan tabiat bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi bilan izohlashgan. Ba'zi hollarda esa qo'shimcha so'zlersiz ham mahalliy geografik terminlar toponim hosil qilgan. Masalan, Jizzax viloyati hududida kamar, dovul, og'ar, loyqa, qayirma, qo'riq, bo'z, to'qay, ko'tal kabi mahalliy geografik terminlar aholi punktlari nomlari shaklida ham uchraydi. Bunday geografik terminlar tarkibidagi old yoki orqa qo'shimchasi (sifat, son, affiks) toponimikaning tejalish qonuniyatiga ko'ra tushib qolgan.

Aslida geografik termin (tog', cho'l, ko'l, qishloq va hokazo) hali geografik nom emas, balki turdosh ot bo'lib, muayyan umumiy yoki xususiy geografik tushunchani bildiradi. Biroq har qanday geografik termin atoqli otga, ya'ni geografik nomga aylanishini unutmazlik kerak. Geografik termin ko'pincha joy nomining asosiy mazmunini belgilaydi, jumladan Beshbuloq, Uchtepa, Sarikamar, Chortangi, Oqbuloq, Ko'ktepa, Toshkamar kabi joy nomlari bunga yaqqol misol bo'ladi.

Quduq, cho'qqi, ariq, tog', qum kabi terminlardan iborat toponim uchraydigan bo'lsa, bunday toponimni izohlashda juda ehtiyot bo'lish kerak. Chunki, u geografik obyekt nomining qisqargan shakli yoki uzoq asrlar davomida talaffuz qilish natijasida butunlay o'zgarib, boshqa bir ma'noni kash etgan nom bo'lishi mumkin.

Jadvalda respublika hududida uykonimlar hosil qiluvchi asosiy geografik terminlar ko'rsatilgan.



Toponimlar tarkibida adir, ariq, bel, buloq, dovon, jar, ko'l, tog', cho'l, qum kabi hammaga ma'lum terminlar bilan birgalikda ayrim hududlarga xos bo'lgan arna, bo'ktar, gaza, jo'na, zayak, zov, kamar, sangloq, supa, tangi, tarma, tuz, chag'at, chem, og'ar kabi hozirgacha saqlanib kelayotgan terminlar ham mavjud. O'zbekiston toponimiyasi tarkibida bel, bo'z, dara, dahana, dovon, gum, pog'ut, sayhon, tal, toshloq, chaqir, chim, qo'riq, qayirma, qir, qashqa, qoya, qiya, g'or, reza kabi mahalliy geografik terminlar ishtirokida ko'plab joy nomlari qayd qilingan.

Ko'p hollarda mahalliy terminlar geografik obyekt, tabiiy hodisa va jarayonlar haqida aniq ma'lumot beradi. Har qanday geografik termin xalq tomonidan yaratiladi, binobarin, u xalq mulkidir. Ular orasida ma'lum hududda tarqalgan va hozirgi kunda xalq og'zaki nutqida qo'llanib kelayotgan mahalliy geografik terminlarni o'quv va ilmiy adabiyotlarga kiritish, qo'llash hamda omniaviylashtirish nihoyat muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Xalq tabiiy geografik terminlarining muhim tarkibiy qismi hisoblangan mahalliy geografik terminlarni ilmiy va o'quv adabiyotiga kiritish uchun quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

1. Tatbiq etilayotgan terminning ilmiy va o'quv adabiyotida qo'llanilishini tekshirish tamoyili. Tekshirish uchun asosan oliy va o'rta maktab darsliklari, qo'llanmalar, turli geografik lug'atlar, toponimik lug'atlar, ilmiy ishlar atroflicha ko'rib chiqiladi.

2. Tatbiq etilajak termini e'lon qilish va izohlash. Tadqiqotchi tatbiq etilayotgan termini, avvalo maxsus seminarlarda, ilmiy konferensiyalarda, matbuotda va turli anjumanlarda ma'ruza qilish va ilmiy maqola e'lon qilishi mumkin. Buning uchun terminning izohini, mohiyatini to'la asoslab berishi lozim.

3. Tatbiq etilayotgan termin ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa, ixcham, hamma uchun tushunarli, o'zbek tili qoidalariga mos bo'lishi hamda terminlarni tanlash tamoyillariga to'la javob berishi kerak.

4. Tatbiq etilayotgan termini ommaviylashtirish, mahalliy terminlari lug'atlarini nashr etish. Buning uchun mahalliy terminlarni oliy va o'rta maktab darsliklarida, ilmiy tadqiqot ishlarida, mahalliy ommaviy axborot vositalarida keng qo'llanilishiga erishish lozim.

Umuman olganda, geografik terminlar ko'pchilik dunyo mamlakatlari toponimiyasining asosini tashkil etadi. Ular real obyektlarning xususiyatini belgilaydi va geografik nomlarning etimologiyasini aniqlashda kalit vazifasini bajaradi. Mahalliy terminlarning ilmiy geografik adabiyotlarga o'tishi doimiy jarayon bo'lib, ular geografik terminlarning asosiy manbai hisoblanadi.

#### ❖ Savol va topshiriqlar:

1. Toponimika va geografik terminshunoslik deganda nimaning tushunasiz?

2. Toponimik terminlarni o'zi ifodalayotgan obyektlarga qarab qanday guruhlarga ajratish mumkin?

3. Xalq geografik terminlarning ilmiy va o'quv adabiyotlarga kiritish tamoyillariga ta'rif bering.

#### ❖ Test topshiriqlari:

1. Toponimik terminlar bu....

A. Barcha joy nomlari

V. Joy nomlari hosil qiluvchi terminlar

S. Joy relefiga mos terminlar

D. Joy nomlari tarkibida qatnashib obyekt turini bildiradigan terminlar

2. Muayyan hududda tarqalgan va nomlashda qo'llaniladigan terminlar bu ....

A. Mahalliy geografik terminlar

V. Baynalmilal terminlar

S. Xalq geografik terminlar

V. Tabiiy geografik terminlar

3. Baynalmilal terminlar qatorini belgilang.

A. *lyoss, geyzer, vidkan, kvarts, delta*

V. *bel, ho'z, dara, dahana, dovon*

S. *kamər, dovul, og'ir, loyqa, quyirma*

D. *jabal, ko'h, shan, montana, serra*

4. Oykonomik topotermintlar qatorini aniqlang.

A. *do'ng, yozi, jar, ko'tal*

V. *urna, yop, kam, quduq*

S. *kat, deha, mahalla, yuzar*

D. *qipchoq, nayman, qo'ng'iroq, qirg*

5. Sanubiy O'zbekiston relefini bildiruvchi o'zbek xalq geografik terminlarini maxsus tadqiq qilgan olim kim?

A. S. Qorayev

V. T. Nefasov

S. M. Mirakmalov

D. Q. Xurramov



## II BOK. GEOGRAFIK NOMLARNING TURLARI

### 2.1. TOPONIMIK SINFLAR, ULARNING TAVSIFI VA TURLARGA AJRATISH MEZONLARI

#### ☞ *Reja:*

1. *Toponimik sinflar (klass) lar, ularning tasnifi va turlarga ajratish mezonlari.*
2. *Geografik nomlarning paydo bo'lishi va shakllanish xususiyatlariga ko'ra turlari.*
3. *Metaforik, ko'chma (migrant) nomlar, va detoponimizatsiya*

☞ *Mavzuning maqsadi:* *Toponimlarning klassifikatsiyasi, turlarga ajratish mezonlari, ularning paydo bo'lishi va shakllanish xususiyatlariga ko'ra turlari va ayrim tur nomlarining ilmiy izohi aniq misollar yordamida ko'rsatib berishdan iborat.*

☞ *Tayanch ibora va atamalar:* *klassifikatsiya, mezon, turlarga ajratish, metafora, migrant nomlar, detoponimizatsiya.*

Har qanday klassifikatsiya ko'pincha ancha murakkab va bahstalar masala. Toponimlar klassifikatsiyasi ham bundan mustasno emas, chunki geografik nomlar turli-tuman, ajoyib va g'aroyib, ularni turlarga ajratish, har bir nomi til qoidalarini nuqtai nazardan, tarixiy shakllanishi va semantikasiga qarab tahlil qilish ancha murakkab masala hisoblanadi. Mutaxassislar, geografik nomlarning turli xil klassifikatsiyasini taklif qilishgan bo'lsa ham, ammo bu masalada yagona va mushtarak qarash mavjud emas. Binobarin, hozirga qadar toponimlarning sodda, universal va mantiqan to'g'ri ilmiy klassifikatsiyasi ishlab chiqilmagan.

E.M.Murzayev bu masalaga e'tibor qaratib shunday yozadi: «Har qanday davlat yoki hududiy birliklar murakkab, ko'p qatlamli tirik va o'zgaruvchan toponimiya tizimiga ega bo'lganligi bois, barcha talablarga javob beradigan, yagona geografik nomlar klassifikatsiyasini yaratish ancha qiyin va hatto imkoni yo'q masala. Toponimlarning universal klassifikatsiyasini yaratish uchun chiqur ilmiy izlanishlar kerakligini V.P.Semenov-Tyan-

Shanskiy, A.M.Selishov, A.V.Superanskaya, V.A.Nikonov, V.A.Juchkevich kabi olimlar ham ta'kidlashgan.

Geografik nomlarning ilmiy hammabur klassifikatsiyasini yaratishning murakkabligini toponimikani integral fan ekanligi, lingvistika, tarix va geografiya fanlarining manfaatlari tutashgan joyda paydo bo'lganligi bilan ham izohlash mumkin. Huzirgacha har bir tadqiqotchi o'z oldiga qo'ygan maqsadi va tadqiqot yo'nalishidan kelib chiqib bu masalaga yondoshganligi bois, mavjud klassifikatsiyalar ha'zan, tilshunos toponomistlarni qanoatlantirsa, tarixchi va geograflar uni ma'qullashmagan yoki aksincha, geograf toponomistlarga ma'qul bo'lsa ham tilshunos va tarixchilarni qanoatlantirmagan va hokazo.

Joy nomlarini klassifikatsiyalash o'z tarixiga ega. Olimlar ilk bor XIX asrda joy nomlarini turli morfologik guruh va semantik tiplarga bo'lib, ilmiy jihatdan klassifikatsiyalashga harakat qilganlar. V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy (1924), L.I.Gumetskaya (1932), A.M.Selishov (1939), V.Tashitskiy (1946), E.M.Murzayev (1979), A.V.Superanskaya (1985) kabi olimlar nomlarning turlicha klassifikatsiyasini taklif qilishgan. Masalan, tanikli rus olimi V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy (1924) joy nomlarini quyidagi guruhlarga bo'lgan: kishilar ismi, familiyasi va laqabi; diniy bayramlar; tarixiy voqea-hodisalar; etnonimlar; voqea va kishilar sharafiga; joyning geografik xususiyatlari asosida paydo bo'lgan nomlar.

Mutaxassislar toponimlarni klassifikatsiyalashda turli xil omillarni (lisoniy, tarixiy, geografik, ijtimoiy) asos qilib olishgan. Ularning har biri o'ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Taklif etilgan klassifikatsiyalar orasida E.M.Murzayevning (1979) toponimlarni obyekt nomlariga qarab (oronimlar, gidronimlar, fitonimlar, zoonimlar, oykonimlar) klassifikatsiyalash usuli eng oddiy va qiyosan ma'qul hisoblanadi.

O'zbekiston toponimist olimlari tomonidan ham geografik nomlarni klassifikatsiyalashga o'ld bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, H.Hasanovni xizmatlarini atohida e'tirof etish lozim. Olim ilk bor toponimlarni turlarga ajratishda har bir nomi birinchi navbatda til qoidalarini nuqtai nazardan va shakllanish

bosqichlariga ko'ra tahlil qilish o'rinli bo'lur edi, degan fikrni bayon qilgan.

H.Hasanov toponimlarni buriyodga kelishiga qarab, shartli ravishda quyidagi turlarga bo'lib ko'rsatgan: joyning holati, xosiyati, yer yuzasi va iqlimiga bog'liq nomlar; gidronimlar; o'simlik va hayvonlarga bog'liq nomlar; foydali qazilmalarga bog'liq nomlar; hunar-kasbdan va ma'muriyadan olingan nomlar; xalq, qabila va urug'larga bog'liq nomlar; shaxslarning ism-familiyalariga qo'yilgan nomlar; afsonaviy va diniy nomlar; g'aroyib nomlar; yangi zamon nomlari;

Keyingi vaqtda P.N.G'ulomov toponimlar klassifikatsiyasining ikki bosqichli tizimini taklif qildi. Taniqli olim dastlab toponimlarni uchta yirik guruhga (joyning tabiiy xususiyatlariga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar; ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy holatlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar; afsonaviy va g'aroyib nomlar) bo'lib, keyin ularning har birini alohida turlarga ajratgan.

1. Joyning tabiiy xususiyatlariga bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar guruhini sakkizta (joyning geografik o'rni bilan bog'liq nomlar; joyning o'ziga xos xususiyatiga bog'liq nomlar; joyning reliefiga bog'liq nomlar; joyning iqlimi, meteorologik elementlariga bog'liq nomlar; suv bilan bog'liq nomlar; o'simliklar, ularning turlari bilan bog'liq nomlar; hayvonlarga bog'liq joy nomlari; foydali qazilmalarga bog'liq hosil bo'lgan nomlar) alohida turga ajratgan:

2. Ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy holatlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan toponimlar. Ular turli xalqlar, elatlar, urug'lar, ularning rivajlanishi, bosib o'tgan yo'llari, siyosiy tuzumi, tarixi, shug'ullangan kasb-hunarlari bilan bog'liq holda paydo bo'ladi va o'zida shunday voqea-hodisalarni aks etadi. P.N.G'ulomov ularni oltita (kasb-hunar va ma'muriyatdan olingan nomlar; tarixiy nomlar yoki mamlakat tarixida ro'y bergan voqea-hodisalar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar; xalq, qabila, urug'lar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar; kishilarning ism-familiyasi, taxallusi bilan bog'liq nomlar; diniy nomlar; zamonaviy nomlar) alohida turga ajratib ko'rsatgan.

3. Afsonaviy va g'aroyib nomlar. Ularni kelib chiqishiga qarab ikkita (afsonaviy nomlar; g'aroyib nomlar) alohida turga ajratgan. Ayrin mutaxassislar fikricha, P.N.G'ulomov tomonidan taklif qilgan geografik nomlar klassifikatsiyasi ancha murakkab va sohaga oid barcha muammolar o'z yechimini topmagan.

Geograf olimlar (L.M.Murzayev, H.H.Hasanov, S.Qorayev) tomonidan taklif qilingan klassifikatsiyalar toponimika uchun ancha qulayligi va mukammalligi bilan e'tiborga molik. O'tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab O'zbekistonda nomlarni lingvistik aspektda o'rganish boshlandi, ularni til xususiyatlariga qarab, klassifikatsiyalashga alohida e'tibor qaratildi. Masalan, Sh.Qodirova «Toshkent mikrotoponimiyasining nomlanish prinsiplariga doir» (1966), Z.Do'simov «Toponimlar tasnifi masalasiga doir» (1978), M.Oxunov «O'zbekiston toponimiyasi» (2005), T.Enazarov «O'zbek nomshunosligi» (2015) kabi asarlarida bu masala qisman o'rganilgan.

Xususan, Z.Do'simov «Toponimlar tasnifi masalasiga doir» nomli maqolasida toponimlarni asosan ikki yo'nalishda, leksik-semantik va grammatik tuzilishiga ko'ra klassifikatsiyalashni eng qulay va maqsadga muvofiq deb yozgan. Joy nomlari morfologik xususiyatlari, qaysi tilga mansubligi, etimologiyasi, semantikasiga qarab ham klassifikatsiyalangan. Masalan, semantik klassifikatsiya quyidagicha ko'rinishga ega: tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan toponimlar, autotoponimlar, etnotoponimlar, moddiy ishlab chiqarish bilan bog'liq toponimlar, savdo-transport va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar. So'nggi yillarda tadqiqotchilar klassifikatsiyaning shu turiga ko'proq e'tibor berishayapti.

Taklif qilingan barcha klassifikatsiyalarni ijobiy jihatlari bilan birga, tarkibiy qismlarida muayyan darajada ziddiyatli va bahstalar tomonlari ham bor. Shu sababdan, ularning hech bittasi tugalligi va to'laligi bilan boshqalarga mezon bo'lolmaydi. Taniqli toponimist olim V.A.Juchkevich yozishicha, ideal shaklidagi hammabop klassifikatsiya uchta asosiy talabga javob berishi kerak: nimaga va qanday tarzda geografik obyekt nomlanmoqda:

qaysi tilda va qanday vositalar yordamida, nima uchun nomlanmoqda; nom qanday ma'noga ega.

Hammabop klassifikatsiyani yaratish uchun qo'yilgan talablar bilan tanishib, toponimika integral fan ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin. Chunki, uchta asosiy talabning birinchisiga, -geografiya, ikkinchisiga, -lingvistika, uchinchisiga, -toponimikaning o'zi javob berishi kerak bo'ladi. Bundan keyin, asosiy vazifa toponimikaning mustaqil majmuaviy fan sifatida sohaga oid yaratilgan ilmiy tamoyillar tizimidan kelib chiqib, masalaga yondoshish zarur bo'ladi. Faqat shunda, toponimlarning yagona va hammabop ilmiy klassifikatsiyasini yaratilishi yaqin kelajak ishi bo'lishi mumkin.

**Ko'chma (migrant) toponimlar.** Toponimikada joy nomining ko'chishi keng tarqalgan lisoniy va nolisoniy hodisa sanaladi. Geografik nomlarning ko'chib o'tish hodisasi qadimiy davrlarda ham bo'lgan, hozirgi davrda ham davom etmoqda. Shu sababdan, nomlarni ko'chishini doimiy toponimik jarayon deb qarash kerak. H.Hasanov ko'chma nomlar haqida gapirib qiziqarli misol keltirgan. Olimning yozishicha: «Andijon yonidagi Qashqarqishloq ko'chib kelgan qashqarliklar o'nashgan joy ma'nosida. Shuni ham ma'lumki, biz qashqarlik deb umuman uyg'urlarni aytamiz. Sinszyanning eng tarixiy shahri Qashg'ar bo'lganidan shu nom mashhur bo'lib ketgan. Shu bilan birga uyg'urlar ham o'zbeklarni, asosan Farg'ona vodiysidan ko'chib borgan kishilarni, «anjanlik» deb ataganlars».

Jizzax cho'lini o'zlashtirish uchun viloyatning tog'li hududlarida joylashgan ayrim kichik qishloqlar aholisi butunlay cho'lga ko'chirilgan. Ko'chma qilingan qishloqlarda muqim aholi qolmaganligi bois, ko'pincha etnik guruhni anglatgan eski nomi, yangi tashkil etilgan aholi punktiga berilgan. Bu esa mintaqaning cho'l hududlarida ham Tarxli, Arishli, Turk, Qungli kabi etnonyomimlarni ko'chma nomlar sifatida paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. N.Oxunov yozishicha, «bir obyektidan boshqa obyektga harib o'nashib qolgan aholining yangi joyi ularning avvalgi joy nomi bilan atala boshlanadi. Natijada, bir obyekt nomi ikkinchi

obyekt uchun ham nom bo'lib qoladi, uning atamasi sifatida ishlatila boshlanadi».

O'tgan asrning 60-70 - yillarda Jizzax cho'lining jadal o'zlashtirishi natijasida, yangi qishloq xo'jaligi korxonatari bilan birga zamonaviy aholi punktlari barpo etildi. Respublikaning turli burchaklaridan ko'chib kelgan cho'lquvarlar, ularga o'zlari bilan birga olib kelgan nomlarini berishgan. Bu esa, viloyat hududida Andijon, Xorazm, Samarqand, Farg'ona kabi qadimiy ko'chma nomlar paydo bo'lishiga sabab bo'lgan.

Ba'zan tasodif tufayli o'zaro o'xshash nomlar paydo bo'ladi. Masalan, Ozarbayjondagi Kuba shahri bilan Karib dengizidagi Kuba orollari yoki Belarus va Fransiyadagi Brest shaharlarining nomlari orasida hech qanday o'zaro bog'liqlik yo'q. Ba'zan, o'xshash nomlarning paydo bo'lishida xalqlarning assimilyatsiyasi ham muhim rol o'ynagan. O'zga tili xalqlar begona nomlarda o'zlariga tanish va o'xshash nomlarni ko'rgan.

Yuqorida qayd qilingan nomlarning tasodifiy va assimilyativ o'xshashligidan tashqari yana bir qator boshqa holatlarda ham nom ko'chish hodisasini ko'rish mumkin. Haqiqiy ko'chma nomlar nafaqat toponimika uchun, balki tarix, geografiya, etnografiya, lingvistika fanlari uchun ham qimmatli ilmiy ma'lumotlar beradi. Ular yordamida o'tmish davrlarda aholining ichki va tashqi siljishi va ko'chishi, o'zaro muloqotlari, yashab o'tgan hududlarini aniqlash mumkin.

V.A.Nikonovning yozishicha, «adab» nomlarni paydo bo'lishining ikkita asosiy sababi bor: birinchisi - aholi migratsiyasi natijasida eski nomlar to'g'ridan-to'g'ri yangi hududlarga ko'chirilgan, ikkinchisi - hududlar tabiiy sharoitining o'zaro o'xshashligi parallel nomlarning paydo bo'lishiga sababchi bo'lgan. Masalan, Yevropadagi Shveysariya nomini Osiyo, Amerika, Avstraliyadagi xushmanzara landshaftlar tarqalgan hududlarda ko'rish mumkin. Toponimiyada har ikki jarayonni ham kuzatish mumkin, ularning har birining o'ziga xos ustunliklari bor.

Ko'chib kelganlar yangi joylariga o'zlari bilan birga nomlarni ham «ko'chirib» kelishgan. Amerika qit'asi kashf etilgandan keyin, Yevropaliklar bilan birga Yevropa toponimiyasi ham

«ko'chib» o'tdi. Masalan, AQSh da 12 ta Parij, 10 ta Varshava, 8 ta Moskva nomli aholi punktlari bor. Amerika geografiyasi - Yevropa geografiyasining takroriy kursi degan xulosa behuda aytilmagan. Migrant toponimlar - aholi migratsiyasining bevosita hujjatlar bilan tasdiqlangan asosiy guvohlari hisoblanadi.

Avstraliyada Buyuk Britaniya shaharlarining «egizaklari» ko'p: Uels, Nyukastl, Kardiff va boshqalar. Yangi Zelandiyaga ko'chib kelgan britaniyaliklar mahalliy daryolardan birini V.Shekspir sharafiga, u sohilida tug'ilib o'sgan daryo nomi bilan Eyvon deh atashgan. Hozirda shu daryo sohilida joylashgan Kraystcherch (bu ham ko'chma nom) shahrining ko'chalari ham mashhur yozuvchining asarlaridagi qahramonlar (Juletta, Romeo, Qirol Lir, Makbet) nomi bilan atalgan.

Lotin Amerikasida Ispaniyadan «ko'chib» o'tgan Sevilya, Valensiya, Kordova, Barselona, Kartaxena kabi nomlarni uchratish mumkin. Masalan, qit'alararo ko'chma nomga hozirgi Kartaxena (aslida Yangi Kartagen) shahrining nomi tipik misol bo'ladi. Gap shundaki, miloddan avvalgi 825 yilda, Afrika shimolida paydo bo'lgan qadimgi Kartagen shahar - davlatning nomi, arablar bosqini davrida Pireneya yarim oroliga, keyinchalik esa ispan kolonizatorlari bilan Lotin Amerikaga (Kolumbiya) «ko'chib» o'tgan. Migrant nomning asrlar davomida uch qit'ani bosib o'tganligi aniqlangan.

Venesuela davlatining nomi Venetsiya shahri nomidan olingan bo'lib, kichik Venetsiya ma'nosini beradi. Mazkur nom XV asrning oxirlarida ispanlar tomonidan berilgan. Ular Janubiy Amerika qirg'og'ida ulyari svoylarda qurilgan xushmanzarali aholi punktini uchratib, Venetsiyaga o'xshatishgan va shu nomni berishgan. Keyinchalik butun mamlakat shu nom bilan tanilgan. Ko'chma nomlarning asosiy qismini shahar va qishloq nomlari, ya'ni oykonimlar tashkil etadi.

Tabiiy-geografik obyektlar ko'pincha, o'zlarining qadimiy nomlarini saqlab qolganlar. Shunday qilib, aytilish mumkinki, ko'chma nomlar dunyoning ko'pchilik mamlakatlari toponimiyasi tarkibida uchraydi. Geografik nomlarning ko'chishiga - kishilarning vatanidan xotira saqlashi, o'xshash tabiiy sharoitlarni

mavjudligi, obyektning geografik o'rni, insunlarni xo'jalik faoliyati asosiy sabab bo'lgan.

**Atoqli otning turdosh otga aylanishi (detoponimizatsiya).** Ma'lumki, har qanday tilning so'z zaxirasi bir qancha manbalar hisobiga boyib boradi. Ana shunday manbalar qatoriga geografik obyektlarning nomlarini ham kiritish mumkin. Agar, «ular bilan til, topib muomala qilinsa», qanchadan-qancha qadimiy so'zlarni tiklash mumkin. Turdosh otlarni geografik nomga aylanishi - toponimikaning umumiy qonuniyati sanaladi. Shu bilan birga ba'zan toponimlarini aksincha, turdosh otga aylanish hodisasi ham uchraydi.

E.M.Murzayev bu jarayonni geografik nomlarning «ikkinchi hayoti» deb atagan. Shuni ham qayd qilish kerakki, toponimlar turdosh otga aylanib, ma'lum ma'noda o'zining toponimik asosidan uzoqlashadi. Geografik nomlari asosida yaralgan yangi so'zlar E.M.Murzayev, H.Hasanov, S.Qorayev, T.Nafasov kabi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq qilingan. Turdosh otlarga aylangan so'zlarga asos bo'lib xizmat qilgan geografik nomlar epotoponimlar (yunoncha, ἐπιτόπωνος - «nom beruvchi») deb ataladi.

Epotoponimlar barcha tillarda bor, shu jumladan o'zbek tilida ham bu hodisa keng tarqalgan. Ko'pincha ular bir tildan ikkinchi tilga ko'chib, internatsionallashib ketgan. Masalan, H.Hasanovning yozishicha, bolonya, jersi, boston, krepdeshin, paplindan tikilgan kiyimlarni kiygan kishi «geografiya»ni kiyganligini xayoliga ham keltirmaydi. Holbuki, Balonya va Paplin - Italiyadagi shaharlar, Jersi - Fransiya shimolidagi orol, Boston - AQSh dagi shahar, krepdeshin - «Xitoy matosi» (krep - «mato», shin - Chin, Xitoy) ni anglatadi.

Toponimlardan nom olgan vulkan (Tirren dengizidagi Vulkano oroli nomidan), koté (Afrikadagi Kassa o'lkasi nomidan), olimpiada (Gretsiyadagi eng baland Olimp tog'i nomidan), roman (Rim shahri nomidan), tamaki (ruscha tabak Kubadagi Tubaga vodiysi nomidan kelib chiqqan), panama (hoshi kiyim - Panama davlati nomidan), kabi so'zlarning yaralishida ham aslida toponimlar asos bo'lgan.

G'arbiy Yevropadagi Alp tog'lari nomidan alpinizm, alpinist, alp o'tloqlari, alp burmalanishi, alpid kabi so'zlar olingan. Bir qator mamlakatlarning pul birligi ham shu qonuniyat mahsulidir. Chunonchi, Afg'oniston pul birligi - afg'oni (Afg'oniston davlati nomidan), Tojikiston pul birligi - somoniy (Somoniyalar davlati nomidan). Eng so'ngi misol Yevropa Ittifoqi pul birligi - yevro.

O'zbek tilida joy nomlariga bog'liq ravishda vujudga kelgan so'zlar juda ko'p. Chunonchi, makkajo'xori, qo'qon jo'xori, hisori qo'y, angori echki, qorako'l qo'yi, shibirg'oni uzumi (Afg'onistondagi Shibirg'on viloyati), qurama gurchi, shotut (shom tuti, Suriyaning qadimgi nomi Shom), balx tuti, jilon jiyda (Frondagi G'ilon viloyati), kishmish (Erunga qarashli Keshm oroli nomidan), chust do'ppi, banoras to'ni, doka (Dakka shahri nomidan), tivit (Tibet so'zidan), iroqi do'ppi, iroqi sovun (Iroq nomidan) va hokazo.

Umuman olganda, epotoponimlar va ular asosida paydo bo'lgan so'zlar tilning lug'aviy boyligiga aylanib, yangicha ko'rinishda jamiyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Xalqning mahalliy shevalarida joy nomlaridan hosil bo'lgan juda ko'p so'zlar bor, ularni to'plash, izohlash, ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim vazifa sanaladi.

**Ko'chma ma'noli (metaforik) nomlar.** Xalq geografik obyektlarning eng nozik va aniq belgilarini ilg'ab olib undan majoziy nom berishda foydalanadi. Shu sababdan, majoziy nomlar toponimiyada ko'p uchraydi va bu semantik so'z yasash usullaridan biri hisoblanadi. Majoziy nomlarni ilmiy toponimik adabiyotlarda metaforik (metafora, grekcha μεταφορα - «siljish, o'xshatish»), toponimlar deb atashadi. Metafora so'zi o'xshatishni nazarda tutadi va u bir obyektga boshqa bir geografik obyekt bilan haqiqatan yoki zohiran hamda shakli va tashqi ko'rinishini o'xshashligiga qarab geografik obyektlarga nom berishda qo'llaniladigan usuldur. Masalan Tuyatosh, Odamtosh, Arratosh, Qo'ytosh va hokazo.

Adabiyotda metafora usuli so'z yoki iborani o'xshatishga asoslab ko'chma ma'noda ishlatiladi. Aytish joizki, ilmiy adabiyotlarda istiora so'zi ham shu ma'noda qo'llanilgan. Istiora -

arabcha, "qarz olish" ma'nosidagi so'z. Bu usul jonli til va badiiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan tasvir vositasi sanaladi. Chunonchi, tosh yurak, metin iroda, xum kalla va hokazo. Nomlovchi obyektga atalishiga asosiy turtki bo'lgan belgini (shakli, tashqi ko'rinishi), tasavvurida boshqa narsalar taqqoslab, o'xshash bo'lgan jihatlarini inobatga olib unga o'xshatma nom tanlaydi.

Xalq og'zaki nutqida ishlatiladigan ayrim geografik terminlar inson tanasi a'zolari bilan ataladi, ular metaforik atamalar deyiladi va quyidagi jadvalda misollar keltiramiz:

№	Termin	Geografik ma'nosi
1.	<b>Barmog</b>	Tik qoya, eol ishi natijasida hosil bo'lgan ustuncha
2.	<b>Bel</b>	Dovon, oshuv, ko'tal
3.	<b>Bosh</b>	Daryoning boshlanish qismi, tog' cho'qqisi
4.	<b>Burun</b>	Quruqlikning surg'a tartib chiqqan uchi
5.	<b>Bo'yin</b>	Quruqliklar, tog'larni (relefrning mushar shakllarini) tutashtirib turuvchi kambar joy
6.	<b>Bo'g'iz</b>	Dengizlarni, ko'llarni va ularning qismlarini tutashtirib turuvchi kambar suv hududi, akvatoriya
7.	<b>Kindik</b>	Tabiiy-hududiy birliklarning o'rta, markaziy qismi
8.	<b>Ko'z</b>	Buloq chiqqan joy
9.	<b>Oyoq</b>	Etak, quyi qism, odoq
10.	<b>Og'iz</b>	Daryoning quyilish joyi (ko'rfaz), tog' darasining eng tor joyi
11.	<b>Til</b>	Ko'rfaz, (qo'ltiq), bo'yin
12.	<b>Tirak</b>	Daryoning burilish joyi
13.	<b>Tunshuq</b>	Tog', tepalik va orolning burni, uch tomoni
14.	<b>Qovoq</b>	Daryo va ko'llarning baland qirg'og'i, jarlik, baland terrasa
15.	<b>Qosh</b>	Uzun cho'zilgan tepalik, marza, baland qirg'oc, o'rmon cheti
16.	<b>Quloq</b>	Ariqning tarmoqlangan joyi
17.	<b>Qo'l</b>	Tog' yonbag'ridagi tepaliklar, tog'chekkasidagi do'nglar, tog' tepasidan etagigacha to'g'ri tushgan do'ng, vodiyning o'rtasidan tepasigacha bo'lgan yo'l, daryo irmog'i

O'zbekistonning qadimgi gidrotexnik inshootlari geografiyasini o'rgangan A.Nizomov Xorazm viloyatidagi majuziy nomga ega bo'lgan Kindiksoy haqida shunday ma'lumotlarni keltirgan: "Darhaqiqat Taxtako'pirdan sharq tomou avtomohil yo'li bo'ylab Kindiksoy deb atalgan keng quruq o'zan cho'zilib ketadi. Mahalliy aholining hikoya qilishicha, oxirgi yuz yil davomida Amudaryo ikki marta urib ketib, Dovqara pasttekisligini suv bosgan va har gal suv Kindiksoydan oqqan. Mahalliy aholi Kindiksoydan kichik - kichik kanallar qazib o'tkazib, dehqonchilik bilan shug'ullangan, Kindiksoyda suv kamayganda to'g'onlar qurib suvni kanallarga chiqarishgan". Mahalliy xalq tumonidan quruq o'zanni Kindiksoy deb atalishi, uni daryoning boshqa qadimiy o'zanlariga nisbatan markazda joylashganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, hayvonlarning tanasi ham metaforik nomlar yasashda keng qo'llanilgan. Masalan, o'tmishda ko'plab majuziy nomlarga sabab bo'lgan hayvonlardan biri tuyadir. Fan-texnika o'ta taraqqiy etgan hozirgi zamonda tuya o'zining jismoniy kuchi, suvsizlikka va jaziramaga o'ta chidamliligi va tashqi qiyofasi bilan har qancha e'tiborga molik bo'lmasin, bu jonivor nomi zamonaviy toponimlar yasash «tanlevida» ishtirok eta olmasligi aniq, ammo o'tmishda dono xalq nafaqat tashqi ko'rinishi g'alati, balki ichki tuzilishi ham jumboqli bo'lgan tuyadan ko'pgina o'xshatma nomlar yasagan.

Dastlabki to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga qaraganda respublika hududida tuya so'zi ellikdan ortiq toponim tarkibida uchraydi. Masalan, Tuyaboshi, Tuyabo'g'iz, Tuyatortar, Tuyaoshuv, Tuyayaylov, Tuyaqorin, Tuyaquyruq, Tuyaquduq, Tuyadala, Tuyachi, Tuyabuloq, Tuyabo'ynoq va hokazo. Tuya benazir ulov bo'lishi barobarida gavda tuzilishining g'alatiligi bilan ham kishilar e'tiborni tortgan. Tuyachi so'zning lug'aviy ma'nosi sarbon, tuyakash, tuya karvonining boshlig'i ekanligini hamma biladi, ammo tuyaquduqning suvi tuya kuchi bilan tortib chiqarilishini, ko'tarma ariqqa suv beradigan ulkan chig'irning tuya yordamida harakatga keltirilishining tuyatortar deb atalishini hamma ham bilmastligi mumkin.

Tuyaoshuv - eshak tugul tuya ham oshib keta oladigan yassi tog' dovoni; tuyabo'g'iz - daraning bo'g'iz singari tor joyi yoki daryoning tuya bo'g'iziga - bo'yniga o'xshab oqadigan joyi; tuyatosh - baland tosh, yuksak tosh, uzoqdan tuya shaklida bo'lib ko'rinadigan baland toshli joy, yoki tuyadan ham yirik yakka tash-qoya; tuyashoti - yolg'izoyoq yo'li bo'lgan katta balandlik, cho'qqi; tuyabo'yin - bo'yin uzunasiga cho'zilgan qirsimon balandlik, o'rtasida qirasi bo'lib, ikki tomoni qiya tushgan cho'ziq do'nglik, yoki daryo suvi tuyaning bo'yniga o'xshab ilang - bilang bo'lib oqadigan joy; tuyamo'yin - tog', daryo, qumlik joylarning tor qismi - yo'lagi, tuya bo'yniga o'xshash egri joy; tuyabo'ynoq - XI - asr turkiy tilida bo'ynoq - tog' bo'yni, bo'yin singari cho'ziq qirsimon balandlik, qirning bir ko'rinishi; tuyaquyruq - poyasi tuyani dumini eslatadigan o'simlik; tuyatovon - tuyaning tovaniga o'xshab yerda yoyilib o'sadigan o't; ekanligiga ishoradir.

Metaforik nomlarni boshqa tillarda ham ko'plab topiladi. Masalan, rus tilidagi rog termini yordamida ushbu qonuniyatni hammahop (universal) ekanligini kuzatish mumkin. Slavyan tillarda bu termin «o'tkir cho'qqi, cho'qqi, jar, bo'g'iz» ma'nosiga ega. Nemis va inglizcha -horn, xitoy tilidagi -tszyao, vietnam tilidagi -khau so'zlari ham shu ma'nolarda qo'llaniladi. Ushbu termin asosida Taganrog (Rossiya), Rogachev (Belorus), Krivoy Rog (Ukraina), Alpdagi Finserraxorn va Matterxorn, Kordilyeradagi Bigxorn, Gorn bo'g'izi (Janubiy Amerikaning janubiy nuqtasi), Kxaufay tog'i (Vetnam) kabi geografik nomlar paydo bo'lgan.

Jonli tildan olingan metaforik geografik nomlar - Turkiyada Tavr tog'lari - "buqa", Alpdagi Yungfrau - "yosh kelinchak", Patagoniya - "uzun oyoq, jun oyoq", Magellan hamrohilari mahalliy hindular uzun oyoqlariga jun o'raganlarni ko'rgani uchun shunday atagan. Baxmal, G'allaorol toponimlari ham metaforik nomlarga misol bo'ladi.

Metaforik nomlarni paydo bo'lishi hirinchidan, kishilarni tabiiy obyektlarga munosabatining umumbashariy xarakterga ega ekanligi bilan belgilansa, ikkinchidan inson tana a'zolari nomi tilda ko'p qo'llanadigan so'zlar hisoblanadi. Tabiat hodisalari va

obyektlari insoniyat hayotida katta rol o'ynaganligi bois, ular qiyoslagan va o'xshatgan. Metaforik nomlar tarjima qilinmaydi, talaffuzi qanday bo'lsa shunday yoziladi. Ular yordamida so'zlarni termin va toponimlarga aylanishi imkoniyatini yaqqul ko'rish mumkin.

**O'rnini (manzil) bildiruvchi nomlar.** Geografik nomlar orasida kelib chiqishi bilan geografik obyektning o'rnini, hududiy joylashuvini belgilovchi nomlar guruhi mavjud. Ularni ko'pincha, oriyentirolovchi yoki manzilni aniq ko'rsatuvchi toponimlar deb atashadi. Bunday nomlar geografik obyektning joylashgan o'rniga nisbatan ko'pincha o'ziga xos juftlik hosil qilgan. Masalan, Yangi Zelandiyadagi Shimoliy va Janubiy orollar; Turkiya va Gretsiya oralig'ida joylashgan Shimoliy va Janubiy Sporada orollari; Xitoydagi Pekin («shimoliy poytaxt») va Nankin («janubiy poytaxt») shaharlari; Yaponiyadagi Tokio («sharqiy poytaxt») va Kioto («g'arbiy poytaxt»); AQSh dagi shtatlar: Shimoliy va Janubiy Karolina; Shimoliy va Janubiy Dakota; Virjiniya va G'arbiy Virjiniya; Shimoliy, Janubiy va Sharqiy Xitoy dengizlari va hokazo.

Geografik kartalarda Tripoli shahri ikkita, ularni bir-biridan farqlash uchun arablar, Liviya poytaxti hisoblangan Tripoli shahrini *Trabulus-al-G'arb* («G'arbiy Tripoli»), Lubnondagi Tripoli shahrini esa *-Trabulus-al-Sharq* («Sharqiy Tripoli») deb atashadi. Manzil belgilovchi xususiyatga ega bo'lgan nomlar qatoriga Pireneya yarim orolini g'arbi qismida joylashgan Trafalgar burni nomini ham kiritish mumkin. Trafalgar aslida arabcha, *Taraf-al-G'arb* - «g'arbiy taraf» so'zidan olingan.

Montevideo - Janubiy Amerikadagi Urugvay davlatining poytaxti. Shaharni bu nom bilan atalishini qiziqarli tarixi bor. Gap shundaki, o'rta asrlarda ispan kartograflari tomonidan, yangi kashf qilingan yerlardagi tog'lar ko'pincha, rim raqamlari bilan belgilangan. 1520 yili La-Plata qo'ltig'ida sayyoh F. Magellan tomonidan aniqlangan tog' nomi xaritaga MONTE VI DE O shaklida yozilgan. Portugalscha, monte - "tog'", VI - lotincha oli raqami, de - qo'shimcha, O - ispan tilidagi oriente («sharq») yoki occidente («g'arb») so'zining qisqartirgan shakli. Demak, nom

dastlab «oltinchi tog' sharqdan (yoki g'arbdan)» degan ma'noni ifodalagan.

Yevropa, Afrika va Osiyo qit'olari tutashgan hududda joylashgan O'rta dengizi nomida usning geografik o'rni aniq aks etgan. Yunonlar, dengizni qit'alar oralig'ida joylashganligi va oriyentir vazifasini hajarganligini inobatga olib uni Mediterraneo - "o'rta dengiz" deb atashgan. Ilk o'rta asrlardan buyon dengiz shu nom bilan ma'lum. +adimiy sharq manbalarida dengizni Shom dengizi, Rum dengizi, Mag'rib dengizi deb ham atashgan.

Ekvador davlatining nomi ham, uni ekvator, ya'ni kurai zaminni ikki - shimoliy va janubiy yarim sharga ajratadigan aylanma chiziq o'tadigan hududda joylashganligidan dalolat beradi. Mamlakat hududining shimolidan ekvator chizig'i kesib o'tganligi bois, 1830 yilda paydo bo'lgan bu mustaqil davlatga Ekvador nomini berishgan.

Qozog'iston va Qirg'iziston xaritasida kungay va terskay kabi geografik obyektini joylashgan o'rnini belgilovchi oronimik terminlarni uchratish mumkin. Kungay Olatov - oltubga ro'para, quyosh nuri ko'p tushadigan, janubga qaragan - kungay tog'lar, Terskay Olatov - oltub tushmaydigan yoki quyosh nuri kam tushadigan, quyoshga teskari - terskay tog'lar.

Ma'lumki, ko'p xalqlar o'z vatanlari, yerlarini dunyo markaziga qiyoslashgan. Masalan, qadimgi inklar imperiyasi va uni poytaxtining nomi ham xuddi shu yo'l bilan paydo bo'lgan. Ular mamlakatni Tiuantisuyyu - «dunyo to'rt tomoni davlati», poytaxtni esa - Kusko, ya'ni «kindik», aniqrog'i dunyoni markazi deb atashgan. Shunday an'ana, xitoylar uchun ham xos bo'lgan. Ular qadim zamonlardan buyon o'z davlatlarini Chjungo - «O'rtadagi mamlakat» deb atashadi.

Tinch okeanining janubi-sharqida Pasxa oroli bor. Orolni 1722 yili gollandlik dengizchi Ya. Roggeven pasxa kuni kashf qilgan va xristianlar bayrami sharafiga unga Pasxa oroli deb nom bergan. Qadimda orolni tubjoy aholisi o'z yerlarini Te-pito-no-te-Xenua - «Yer kindigi» yoki Mataki-te-Rangi - «samoni ko'ruvchi ko'z» deb atashgan. Ular dunyoning eng katta okeanining cheksiz suvlari orasida bir parcha yerlarini shunday tasavvur qilishgan.

Ba'zi tadqiqotchilar Rus toponimini ham manzil, hudud belgilovchi deb hisoblashadi. Rus so'zi dastlab janubda, Qora dengiz sohillarida yashagan turli ko'chmanchi xalqlar orasida paydo bo'lgan deb taxmin qilishadi. Akademik O.N.Trubachev, bu taxminiy fikrni isbotlash maqsadida shunday yozgan: "ayrim xalqlarda hozirgacha, g'arbni oq, yorug' deb atash odati mavjud (g'arbg'a quyosh nuri ko'proq tushadi deb hisoblashgan).

Milodiy birinchi ming yillikning oxiridan boshlab sharqdan g'arbg'a tomon dasht orqali buyuk ko'chish vaqtida ko'chmanchi xalqlar uchun qora dengizning shimoliy hududlari g'arb hisoblangan. Mahalliy qabilalar o'zaro muloqotda bu hududlarni Oq sohil, Oq sohilli hudud yoki Ros deb atashgan. Hozirgi vaqtda mavhumlashib qolgan, Rus - "oq tomon", ma'nosidagi so'z ham aynan, shu davrlarda paydo bo'lgan deyish mumkin".

Ma'lumki, oq, qora so'zlarining arali toponimiyada ancha keng barcha tip joy nomlarida uchraydi. Oq so'zi turkiy toponimlarda faqat birinchi unsur (komponent) bo'lib keladi. So'zning joy nomlari tarkibidagi o'zni uni yaqin o'tmishda yaratilganini emas, balki ularni ancha qadimiy turkiy nomlar ekanligidan dalolat beradi. Turkiy toponimlarni o'rganishda tarkibida oq, qora, qizil, sariq, ko'k kabi so'zlarning ma'no xususiyatlarini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Oq, qora, ko'k, sariq, qizil kabi so'zlar har doim ham rang ma'nosini hildirmasligini akademik A.N.Kononov, qozoq toponimisti Ye.Koychubayev tadqiq qilishgan. Bu fikr H.Hasanov, G.Kankashpayev, T.Nafasov, S.Qorayev kabi olimlar tomonidan rivojlantirilgan. Qayd qilish joizki, o'zbek tilida ham bu so'zlar yordamida yasalgan toponimlar ko'p.

Tarixiy manbalarni guvoh berishicha, rang orqali manzilni bildiruvchi nomlar qadimda ko'p xalqlarda keng qo'llanilgan. Bu hodisani Qizil va Qora dengizlar nomi misolida ham kuzatish mumkin. Qadimiy Mesopotamiya aholisi uchun, Hind okeanining barcha g'arbiy qismi janub sanalgan. Ularda dunyo tomonlarini belgilash tamoyillariga binoan, qizil rang janubni anglatgan. Shu sababdan, antik dunyo mualliflari hozirgi qizil dengizni Eritreya

yoki mare Rubrum (lotin va yunon tilida) - "qizil dengiz" deb atashgan. Qora dengizning eng qadimgi nomlaridan biri Axshayena - qadimiy eroniy tilda «qora» ma'nosini ifodalagan. Qadimgi yunonlar ham bu dengizni pontos Melos - Qora (shimoliy) dengiz deb bejiz atashmagan.

Arabiston yarim orolida yashagan qadimiy aholini ham dunyo tomonlarini belgilashda o'ziga xos an'analari bo'lgan. Ularda tomonlarni aniqlash sharqdan boshlangan va u old tomon hisoblangan. Shuning uchun, Makka shahridagi musulmonlar uchun muqaddas bo'lgan Ka'ba toshi yonida sharqqa qaragan kishini orqa tomoni tabiiyki g'arb, o'ng tomoni janub, chap tomoni esa shimol hisoblangan. Yaman, Shom, Mashriq, Mag'rib kabi geografik nomlar ham shu yo'sinda paydo bo'lgan. Yaman so'zi - «o'ng», ash-Shom - «chap» tomon ma'nosida qo'llanilgan.

Qadimiy Hindistonda ham arablar kabi tomonlarni aniqlashda sharqni asos qilib olingan va shundan kelib chiqib tomonlarni aniqlash tizimi qo'llanilgan. Bunga geografik obyekt nomi sifatida yassi tog'liklar nomi bo'lgan Dekan so'zini misol qilish mumkin. Dekan - so'zi qadimiy sanskrit tilida, Dakshina-Panta - «o'ng tomonga (janubga) yu'l» degan ma'noni anglatgan, ya'ni sharqqa qarab turgan holatda, janub o'ng tomon bo'ladi.

Okeaniya toponimiyasi tarkibidagi nomlarda ham mo'ljalni aniq belgilash, oriyentir olish kabi xususiyatlar mujassam. Chunki, hamma tomonga okeanning cheksiz suvlari egallagan hududda, kichik bir orolni topish ancha mushkil vazifa. Ma'lumki, aksariyat hollarda aholi maskanlariga nom o'zgalar tomonidan berilgan va aholi maskanini yaratuvchi bilan nomlovchi jamoa munosabati bu jarayonda muhim omil sanalgan. Bu nomshunoslikni muhim qonuniyatlardan biridir.

Masalan, Tonga va Fidji arxipelagi nomlari, ana shunday ikki o'zaro aloqador, manzil belgilovchi toponimlar hisoblanadi. Fidjiliklar tilida *tonga* so'zi «g'arb, g'arbiy shamol» ma'nosini bildirgan. Toponim shamol yo'nalishini ko'rsatgan va dengizchi - fidjiliklar, Tonga arxipelagiga mahalliy shamoldan foydalanib kemalarda suzib borishgan. Fidji so'zi esa aksincha, Tonga arxipelagida yashovchi mahalliy aholi tilida - «sharq, sharqiy



shamol» degan ma'noda qo'llanilgan, Tongalik dengizchilar qo'shni Fidji orollariga borish uchun, sharqdan esadigan mahalliy shamollardan foydalanishgan.

Bir guruh toponimlar horki, ular geografik obyektni chekka hududlarda joylashganligini ko'rsatadi. Masalan, G'arbiy Sibirni shimoliy qismida joylashgan Yamal yarim oroli, nenets tilida «yerning cheti, yerning chekkasi» degan ma'nolarni bildiradi. Pireneya yarim orolining chekka shimoli-g'arbiy sohilida joylashgan burun Finisterre (lotincha, finis - «chekka, oxiri» va terra - «yer») deb atalgan. Shunga o'xshash nom, Afrika materigida eng sharqiy nuqta hisoblangan - Xafun (arabcha, Ras-Xafun - «chekka burun»), hamda Kornuoll yarim orolining janubi-g'arbidagi burunga ham - Lends-End - «yerning chekkasi» degan nomlar berilgan.

Shuni ham aytish kerakki, aksariyat dunyo qit'alari nomlari asosida ham ularning hududiy joylashuvini belgilovchi ma'no mujassam. Geografik obyektning hududiy joylashuvi, o'rni in'ikos etuvchi toponimlar yer yuzida keng tarqalgan. Ularning ko'pchiligi yaxshi tanish va ancha qadimdan qo'llanilib kelinadi.

#### ✧ Savol va topshiriqlar:

1. Geografik nomlarning hammabop klassifikatsiyasi nima uchun hozirgacha yaratilmagan?

2. Majoziy (metaforik) nomlar qanday sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. Ularni izohlang.

3. Ko'chma (migrant) toponimlarning paydo bo'lishi sabablarini aniqlang va kartasini tuzing.

#### ✧ Test topshiriqlari:

1. Toponimlarni obyekt nomlariga qarab klassifikatsiyalash usulini taklif qilgan olim kim?

A. H.Hasanov

B. P.G'ulomov

C. E.Murzayev

D. S.Qorayev

2. Ko'chma ma'noli (metaforik) nomlar qatorini belgilang.

A. Yevropa, Afrika

B. Tokio, Kioio

C. Yavr, Patagoniya

D. Kungay Olatov, Terskay Olatov

3. Ko'chma (migrant) toponimlarni paydo bo'lishi .....

jarayon.

A. Doimiy

B. Vaqtinchalik

S. Noma'lum

D. Kelishilgan

4. Detoponimizatsiya hodisasi nima?

A. Turdosh otni atoqli otga aylanishi

B. Atoqli otni turdosh otga aylanishi

C. Turdosh otni turdosh otga aylanishi

D. Atoqli otni atoqli otga aylanishi

5. O'rnini (manzil) bildiruvchi nomlarni belgilang.

A. Dushanbe, Bishkek

B. Yangi Zelandiya, Grenlandiya

C. Turkiya, Gretsiya

D. Tonga, Fidji

## 2.2. TABIIY GEOGRAFIK OMILLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR

(oronimlar, fitonimlar, zoonimlar va gidronimlar)

### □ Reja:

1. *Tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan nomlar haqida umumiy tushuncha*
2. *Oronimlar va ularning farqlovchi xususiyatlari*
3. *Fitotoponimlar, zootoponimlar va gidronimlar*

✦ *Mavzuning maqsadi: Tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan toponimlarga xos umumiy qoraniyotlar, ularning turlari va nomlanish xususiyatlarining mazmun-mohiyati haqida ilmiy tushuncha berish.*

✦ *Tayanch ibora va atamalar: Oronim, gidronim, iqlim va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq toponimlar, fitotoponim, zootoponim.*

Ko'p asrlar davomida tabiat hodisa va jarayonlarini kuzatgan xalq tabiat landshaftlari va ularning komponentlarini joy nomlarida aniq aks etishga harakat qilgan. Shu sababdan, tabiat hodisalarini aks etuvchi toponimlar - yer yuzida keng tarqalgan. Ular orasida relief shakllari va elementlari (**oronimlar** - tog'lar, cho'qqilar, tepalik, plato, do'nglik, vodiya, dara, jarlik, pastlik, pastekislik, qumliklar va hokazo), iqlim va suv obyektlari (**gidronimlar** - okean, dengiz, ko'l, daryo, soy, jilg'a, buloq, suv ombori, kanal, quduq va hokazo), barcha o'simliklar (**fitotoponimlar** - har qanday o'simliklar turi bilan bog'liq nomlar), hamda hayvonot olami (**zootoponimlar** - har qanday hayvonot olami turlari bilan bog'liq) nomlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu katta to'rtta guruh deyarli harcha geografik obyektlarning nomlarini qamrab oladi.

**Oronimlar:** (yunoncha, oros - «tog'») - tog'lar, tepaliklar, soyliklar, qirlar, daralar, jarliklar va boshqa orografik obyektlarning nomlari. Bu tur nomlar relief shakli va elementlarining o'ziga xos xususiyatlarini ifoda etadi.

Mutaxassislarining fikricha, toponimlarning boshqa turlariga nisbatan oronimlar kam o'rganilgan. Oronimik obyektlarning nomlari ancha turg'un va uzoq muddat o'z nomlarini saqlab qolishi bilan farq qiladi.

Vaqt o'tishi bilan geografik obyekt reliefi o'zgarishi mumkin, biroq o'sha reliefni ifoda qilgan nom saqlanib qolaveradi. Masalan, jar yoki tepa ma'nosini bildirgan geografik nomlarning ayrimlari hozirgi vaqtda o'sha joy relief xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin. Shuni ham ta'kidlash joizki, barcha geografik obyektlarda bo'lgani kabi oronimik obyektlarning nomlari orasida ham semantikasi tiniq bo'lmagan nomlar kam emas. Bu esa qo'shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladi.

O'zbekistonda qadimgi turkiy tillarda faol qo'llanib, hozirda iste'moldan chiqib ketgan «yozi», «yor» kabi relief shaklini bildiruvchi so'zlardan yuzaga kelgan joy nomlari uchraydi. Hozirda cho'l, dasht, tekislik ma'nosidagi yozi so'zi faol muomalada bo'lmasa ham, lekin toponimlar tarkibida saqlanib qolgan - Oqyozi, Yozyovon, Qizilyozi, Sariyozi va hokazo. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida qayd qilingan «yor» so'zi qadimiy turkiy tilda jar ma'nosini ifodalagan. Bu so'z Farg'ona vodiysi joy nomlari tarkibida ko'p uchraydi. Kuyganyor, Yorboshi, Yurqishloq, Keskanyor va hokazo.

Oronimik obyekt hisoblanadigan tog' buyuklik, mangulik ramzi. Inson panoh, yegulik istab doimo toqqa intilgan. Insoniyatning yarimidan ko'pi tog' etaklarida va tog' oldi tekisliklarda yashaydi. Tog'larning atalish qonuniyatlaridan biri shuki, tog'li aholi yon-atrofdagi ayrim cho'qqi, qoya, yonbag'ir, zovlarning nomlarini yaxshi bilganlari holda tog' so'zi o'rniga ko'proq tosh terminini ishlatadi. Masalan, Ayritosh, Qoratosh, Oqtosh deganda cho'qqi, ayrim qoya yoki katta tog'ning bir bo'lqi tushuniladi.

Ba'zan, odam va uning birorta tana a'zosiga o'xshashligiga ko'ra atalgan oronimik obyektlarni ham uchratish mumkin. Odantosh, Kelinchaktosh, Kuyovtosh, Kampirtosh kabi toponimlar shular sirasiga kiradi. Oronimik nomlar orasida relief shakllarini bildiradigan ko'pgina oronimik terminlarni ham

uchratish mumkin. Oronimik terminlar barcha tillarda takrorlansa ham, ular haqida ilmiy adabiyotlarda yaxlit ma'lumotlar kam uchraydi.

Ko'pchilik oronimik obyektlari nomlari tarkibida "-tog'", "-tov'" kabi terminlar bor, ba'zan tosh, dovon, ko'tal terminlari ham qo'shiladi. Oronimik obyektlarga nisbatan qo'llanilgan ko'h, jabal, shan, maunt, berg, montana, Kordilyera, serra, monte, ler, mta kabi so'zlar ham tog' ma'nosini bildiradi. Masalan, Kordilyera, Syerra-Madre, Kilimanjaro va hokazo. Turkiy xalqlar yashaydigan hududlarda tog' so'zi turlicha talaffuz qilinadi. Turkmanistonda -dog' (dag'), O'zbekistonda -tog' (tov), Qozog'istonda -tau (tou), Qirg'izistonda -too' (too), va hokazo.

T.Nafasov fikricha, hozirgi "-qiz" komponentli toponimlarni ham oronimik obyektlar nomlari qatoriga qo'shish mumkin. Qirg'iz, Uchqiz, Qiztepa va hokazo. Joy nomlari tarkibidagi "-qiz" so'zi qadimgi turkiy "-quz" so'zining o'zgargan shaklidir. Mahmud Koshg'ariy tog' so'zining epiteti sifatida qo'llanuvchi bu so'zga bir necha o'rinda izoh bergan. Masalan, ayrim hududlarda quz so'zi yolg'iz balandlik, kichik cho'qqi, tog' yonbag'irlaridagi qoyasimon do'ngliklarga nisbatan ham qo'llanilgan.

Oronimik obyektlar orasida Oqtog', Qoratog' kabi nomlar keng tarqalgan. Oronimlar tarkibida oq va qura so'zlari kam holatda rang ma'nosini bildiradi. Oqtog' - qorli tog', baland tog'. Qoratog' - past tog', qorsiz tog', qorong'u tog'. H.Hasanovning yozishicha, Qirg'iziston va Qozog'iston hududida aksar tog'lar Olatov (buyuk, katta, qorli tog') deb ataladi. Mutaxassislar ularni bir-biridan kartada farq qilish uchun turli so'zlar qo'shganlar. Kungay Olatovi (ostobga ro'para, quyosh tushadigan), Terskay Olatovi (quyosh tushmaydigan), Orqaili Olatovi (Ili - daryo va vodiy nomi), Talas Olatovi (Talas - daryo va vodiy nomi) va hokazo.

Oronimlarga xos xususiyatlardan biri shuki, mahalliy aholi tog'larni boshdan - oyoq yaxlit bitta nom bilan emas, balki har yerda har xil ataydi. Faqat ilmiy adabiyotlar orqaligina tog'larning umumiy nomini bilib olish mumkin. Masalan, geografik kartalarda tog' Nurota deb atalsa ham, ammo turli qismlari mahalliy aholi

tomonidan turlicha - Egarbellitog', Baliqlitog', To'ng'izlitog', Pistalitog' kabi nomlar bilan ataladi.

Ba'zan, oronimik terminlarni oykonimlar tarkibida ham ko'rish mumkin. Oykonimlar tarkibida ko'pincha adir, bel, jar, kamar, tepa, ko'tal, tosh, tog', qir, qum kabi indikator terminlar uchraydi. Masalan, Jizzax viloyati Baxmal tumanida Jamonjar degan oroykonim bor. Qishloq xavfli jarlik yonida joylashganligi sababli jelovchi mahalliy xalq unga Jamonjar deb nom berishgan. Bunday xosiyatsiz nomlar soya-salqin ilinjida yurgan kishilarni ogohlantirib turadi: Yomontov, Yomonjar, Yomonqum kabi obyektlardan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Jumladan, Yomonqumda odam shamol paytida qum ostida qolib ketishi mumkin, Yomonjarning yon bag'ri o'pirilib insonlarni bosib qolishi hech gap emas.

Oronimik terminlar orasida tosh so'zi alohida o'rin tutadi. Tosh so'zi nafaqat qattiq tog' jinslarinig umumiy nomi, balki shu bilan birga «tog'», «alohida qoyu», «cho'qqi» ma'nosini ham anglatadi. Masalan, tog'li hududlarda Oqtosh, Qoratosh kabi nomlar bir necha marta takrorlanishi shundan darak beradi. Oronimlar tarkibida obyekt xususiyatini ifodalaydigan metaforik-majoziy nomlar ham ko'p - Bukritog', Yetimtog', Semiztepa, Tuyatosh, Qo'ytosh va hokazo. Qadimdan tog'larni kishilar ismi bilan atash O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda rasm bo'lgan emas. Biroq, kishi ismlaridan nom olgan mikrooronimik obyektlarni uchratish mumkin.

O'zbekistonda oronimik obyektlarni nomlashda ba'zan, aziz-avliyolarni qadamjoylari sifatida bobo, ota so'zlari ham qo'shilgan. Mo'g'ullar ko'pincha tog'lar nomiga bogdo - «muqaddas», «ilohiy» so'zini qo'shib talaffuz qilishadi: Bogdo-Ula, Ixe-Bogdo, Baga-Bogdo va hokazo. Hayotining asosiy qismi tekislikda o'tadigan mo'g'ullarda tog'larga sig'inish odati bo'lgan. Ular xususan, begonalar oldida tog' nomini baland ovozda talaffuz qilishmagan, oila a'zolari va chorvalariga qarg'ishi tegadi, deb qo'rqishgan.

So'g'dlar tog'larni buyuk mo'jiza sifatida ulug'lab, ularda ilohiy kuch borligini e'tirof etib, tog' etagidan tosh olib, uning eng

balaad joyiga olib borib qalab qo'yishgan. Hosil bo'lgan tosh uyumlari so'g'd tilida - "sug'ch" deyilgan va dovondan o'tadigan joyda u belgi vazifasini hajargan. Yaponiyani ramzi sanalgan Fudziyama tog'i nomining paydo bo'lishi ham ancha qiziq. Olimlar uni turlicha shachlagan bo'lsalar ham, ammo toponimga asos bo'lgan yama so'zini yapon tilida «tog'» ma'nosi borligini barcha mutaxassislar ta'kidlashgan. Fudziyama - «ulug' tog'», «abadiy tog'», «olovli tog'» kabi ma'nolarga ega.

Tog' jinstari va foydali qazilmalar asosida paydo bo'lgan joy nomlari ham ko'p: Kumushkon, Ollintopgan, Gazli, Qo'rg'oshin-kon, Tuzkon va hokazo. Toponimlar yordamida foydali qazilma konlari ham aniqlangan. Masalan, Turkmanistondagi Gugurttog' nomi bu joyda oltingugurtning tabiiy konlari borligidan darak beradi. H.Hasanovning yozishicha, O'rta Osiyodagi yirik konlarning aksariyati ular topilmasdan ancha ilgariyoq otabobolarga ma'lum bo'lgan. Oltin va Aldan nomlariga asoslanib, shu yerlardan oltin qidirib topganlar. Jezqazg'an nomi shu joyda mis borligini aytib berdi.

Vulkanlar va boshqa endogen geologik jarayonlar ham dunyo toponimiyasida o'z aksini topgan. Masalan, Pupokatepetl - atsteklar tilida «tutinli tog'», Vezuviy - Italiyaning qadimgi xalqlaridan birining (osklar) tilida «tutun», «par», Krakatau - Yava oroli aholisi tilida «ovoz chiqaruvchi», Etna - qadimiy yunon tilida «olovli», Pichincha - kechua hindulari tilida - "qaynab turuvchi tog'" kabi ma'nolarga ega.

**Fitotoponimlar:** O'simliklar insoniyatning asosiy oziqqa manbai bo'lishi bilan birga, ular ba'zan, tabiiy mo'ljal sifatida dunyoning turli mintaqalari toponimiyasida o'z aksini topgan. Shu sababdan, o'simliklar bilan bog'liq joy nomlarini mamlakatimiz toponimiyasi tarkibida uchraydi. Fitotoponimlar (yunoncha, fitos-«o'simlik») yordamida o'simliklar formatsiyalarining tarqalish areallari, ma'lum hududdagi o'simliklar dunyosining muhim xususiyatlari, ularning turlari haqida ma'lumot to'plash mumkin.

Floristik toponimlarning paydo bo'lishida o'simliklarni o'ziga xosligi bilan birga, ularning umumiy xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etgan. O'tmishda inson hayoti va faoliyati o'simlik

dunyosi bilan ko'proq bog'liq bo'lganligi bois bu turdagi nomlar ancha qadimiy hisoblanadi. Masalan, Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atit turko» asarida, bir qator o'simliklarni izohlashdan tashqari, ular nomi bilan bog'liq toponimlarni ham keltirgan: Ar-ar daraxti - qora archa. Qashqarda bu nomdagi ikkita qishloq bor deb yozgan.

«Boburnoma»da ham bevosita o'simliklar olami bilan aloqador bo'lgan bir qator joy nomlari ta'riflangan: Jiydalik, Kandibodom, Olmaliq, Bodomechasma, Bog'ichinor, Bog'ibinafsha va boshqalar. O'simliklar kishilar hayotida muhim ahamiyat kasb etganligi tutayli, insoniyatning moddiy tarixi, ijtimoiy hayoti va xo'jalik faoliyatida muhim rol o'ynagan. Tabiiyki, ular inson uchun xom ashyo manbai, chorvaga mo'l-ko'l oziqqa bazasi bo'lib xizmat qilgan. Xususan, ko'chmanchi chorvachilik sharoitida, chorva mollari uchun oziqqa manbai bo'lgan o'simlik turlari kishilar uchun mo'ljal vazifasini hajargan.

Umuman olganda, gidronimlarga nisbatan joy nomlari tarkibida fitonimlar kam uchraydi. Chunki, inson hayoti davomida doimo suvga yaqin joydan o'ziga makon tanlagan va yashash manzilini nomlashda ham ko'proq suv obyektlari nomini tanlagan. Fitotoponimlar o'simlik turlarini ma'lum hududda ko'p yoki kamligidan ham darak beradi. O'simlik ko'p ekanligini bildiruvchi toponimlar tarkibida "to'p", "qator", "ming" kabi son va miqdorni bildiruvchi qo'shimcha so'zlar uchraydi. Masalan, To'ptol, Qatorol, Mingichinor va boshqalar. Tarkibida "-li", "-zor", "-lik" singari qo'shimchalari mavjud nomlar ham ushbu o'simlik turini boshqa hududlarga ko'ra ko'proq ekanligini bildiradi. Chunonchi, Bodomzor, Jiydali, Ferakzor, Shilvili va hokazo.

O'simlik sonini cheklanganligi, kamligini yoki aniq miqdorini bildiruvchi joy nomlari tarkibida "yakka", "qo'sh", "chor" kabi qo'shimchalar bo'lishi mumkin. Yakkachinor, Qo'shtut, Uchtol, Chorchinor va boshqalar. Ba'zan hech qanday qo'shimchasiz ham fitonimlar toponimlarga aylangan. Sada, Chinor, Archa, Qayrag'och va hokazo. Geografik nomga asos bo'lgan o'simlik turini o'sha hududda miqdorini kamligi, ammo ko'zga tez tashlanadigan, xarakterli belgi sifatida alohida ajralib turadi.

Fitotoponim uni ifoda etgan o'simlik turidan ko'ra uzoqroq, yashashi mumkin. Natijada o'simlik turi yo'q bo'lib ketgan taqdirda ham, joy nomi uni bir vaqtlar ushbu hududda ko'p tarqalganligidan darak berib turadi. Floristik nomlar tarkibida yovvoyi (ajriq, bodom, do'lana, lola, shilvi, betaga, jing'il, qamish va hokazo) va madaniy (paxta, anjir, beda, arpa, olma, uzum, terak, tol, tut, pista va hokazo) o'simliklar nomlari ko'proq uchraydi.

Jizzax cho'lini o'zlashtirishi munosabati bilan tashkil etilgan yangi tumanlar toponimiyasi tarkibida Paxtazor, Bog'zor, Uzumzor, Olmazor kabi joy nomlari paydo bo'lgan. Mazkur nomlarni fitooykonimlar tarkibiga kiritish mantiqan xato bo'lmasa ham, ammo ularni kishilarni moddiy ishlab chiqarish faoliyatini aks etadigan joy nomlari qatoriga kiritisa to'g'riroq bo'ladi. Yangi aholi maskanlariga berilgan bu kabi nomlar o'sha davrning ijtimoiy ehtiyoj mahsuli bo'lib, xalqning dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq orzu istaklarini nom sifatida mo'hlagan.

Mutaxassislar fikricha, tarixan yovvoyi o'simliklar nomi bilan aholi punkti nomlangan bo'lsa, u haqiqiy fitooykonim bo'ladi. Masalan, Sarimsuqli - qishloqni bunday nomlanishiga Nurota tog'larida o'sadigan yovvoyi sarimsoq piyozi sabab bo'lgan. O'tmishda qishloq atrofidagi tog'larda piyozni bu turi keng tarqalgan va mahalliy xalq uni iste'mol qilganligi sababli, u kishilar diqqatini tortgan.

Dunyo toponimiyasida ham o'simlik turlariga nisbat berilib atalgan nomlar ko'p. Qarag'anda - "qora akatsiya", Bangkok - "yovvoyi olcha", Dakar - "yulg'un", Yava - "javdar", Liyepaya - "lipa", Almati - "olmal" va hokazo. Madeyra - Afrikaning shimoli-g'arbidagi orollar nomi. Orollar nomining paydo bo'lish tarixi XV asrga borib taqaladi. 1420 yili Portugaliya taxt vorisi Enrike, qimmatbaho yog'och beradigan ajdaho daraxti o'sadigan orollarni topish maqsadida ekspeditsiya tashkil etadi. Notanish orollarga yetib kelgan ekspeditsiya a'zolari, qalin o'rmonlar bilan qoplangan orollarni ko'rib uni Madeyra (ispancha, madero - «o'rmon») deb atashadi.

Manila - "nilzor". Filippin davlatining poytaxti. Nila daraxtining boshqa nomi indigo, undan ko'k bo'yoq olinadi. H.Hasanovning yozishicha, Ruminivadagi bir qishloqning nomi Kirozaya, ya'ni "Olcha qishlog'i". Bu yerda chaqaloq tug'ilishi bilan olcha daraxti o'tqazish rasm bo'lganki, natijada qishloq olchazorga aylangan.

Mutaxassislar, joy nomi o'zi ifodalagan obyektga nisbatan uzoqroq yashaydi deyishadi. Shu sababdan, floristik nomlar yordamida hozirda yuqolib ketgan, ammo qadimda muayyan hududda keng tarqalgan o'simlik turlari, ularning tarqalish arellarini bashorat qilish mumkin. O'rta Osiyo xalqlari qadimdan shifobaxsh va dorivor o'simliklarni aniqlab ulardan xalq tabobatida keng foydalanishgan. Bu holat, dorivor va ziravor (zira, kavar, so'g'on, isiriq va boshqalar) o'simliklar tarqalgan hududlarda, ular bilan bog'liq joy nomlari ko'payishiga sabab bo'lgan.

Xuddi shunday, bog'dorchilik va dehqonchilik rivojlangan vohalarda ko'proq mevali daraxtlar va ekinlarning nomlarini toponimlar shaklida uchraydi. Boshqacha aytganda, fitotoponimlar ko'pincha, toponim - indikator vazifasini bajaradi. Fitotoponimlarning shakllanishida floristik topoterminalarni ham alohida o'rni bor. Ular toponimlar tarkibida ishtirok etib, joy nomlarini atalishida o'simlik olami turlarini ifoda etadi. Tadqiqotlarga ko'ra, jiyda (Jiydali), tol (Qatorol), tut (Yakkatut), qayrag'och (Beshqayrag'och), olma (Olmazor), chinor (Mingchinor), terak (Qo'shterak), o'rik (O'rikli), bodom (Bodomzor) kabi o'simliklar joy nomlari tarkibida topoterminalar sifatida ko'p uchraydi.

**Zootoponimlar.** Geografik nomning kelib chiqishi, agar hayvonot olami bilan bog'liq bo'lsa zootoponim (yunoncha, zoo - hayvon) deb ataladi. Joy nomlari tarkibida, zootoponimlar uncha ko'p emas va ularning paydo bo'lish sabablari ham turlicha. Zootoponimlar yordamida hayvonot olamining muayyan turlarini tarqalish arellarini aniq belgilab olish mumkin. Ular son jihatdan fitotoponimlardan kam bo'lsa ham, ammo ko'plab mamlakatlar toponimiyasi tarkibida uchraydi. Masalan, O'zbekiston

toponimiyasida hayvonot olami namoyandalari bilan bog'liq joy nomlarning salmog'i 1-2 foizdan oshmaydi.

Zootoponimlar tarkibida bo'ri, laylak, jayra, qoplon, tulki, bedana, ayiq, qulon, burgut, kaptar kabi hayvonlarning nomlari ko'p uchraydi. Ular chindan ham biron hayvon turi nomi bilan atalganini to'la ishonch bilan aniqlash qiyin, chunki har qanday hayvon nomi boshqa ko'chma ma'noda qo'llangan bo'lishi ham mumkin. Masalan, Jayraxona qishlog'iga ko'chma ma'noda shunday nom berilganmi yoki haqiqatdan ham jayralar in qurgan joy bo'lganligini aniqlash osun emas.

Ba'zan, hayvon turi obyektini nomlashga asos bo'lsa, boshqa vaqtda nom majoziy ma'noda qo'llanilgan bo'lishi ham mumkin. Tanikli olim S.Qorayev zootoponimni qanday qilib aniqlashi mumkinligi haqida shunday yozgan: «Agar joy nomi qandaydir hayvonni nomi bilan bog'liq bo'lsa, unda toponimdan keyin -li, -lik, -xona kabi qo'shimchalar, agar etnonim bo'lsa hayvon nomi hech qanday qo'shimchasiz yoki ko'plikni bildiruvchi -lar qo'shimchasi bilan ifodalangan bo'ladi».

Iqlim o'zgarishi va inson xo'jalik faoliyati ta'siri oqibatida, ayrim hayvonot turlari kamayib yoki umuman yo'q bo'lib ketgan. Ularning tarqalish areallarini aniqlash va qayta tiklash muhim hisoblanadi. Bunday hollarda toponimika yordamga kelishi mumkin. Masalan, ozarbayjonlik olim R.M.Yuzbashev joy nomlari yordamida jayronlarni tarqalish areallarini aniqlagan. Jayronli, Jayronko'l, Jayron bulog'i kabi nomlar jayronni o'tmishda respublika hududida ancha keng tarqatganligidan guvohlik beradi.

Shimoliy Amerikadagi bir qator daryo nomlari ushbu hududda yashagan hayvonlar nomlari bilan atalgan: Deyer - bug'u, Buffalo - bizon, Elk - los, Grizli - ayiq, Raccoon - yenet, Rabbit - quyon va hokazo. Shimoliy Karolina shtatidagi Alligatorlar daryosi, timsohlarning ushbu turi yashaydigan eng shimoliy chegara hisoblanadi. Norvegiya dengizidagi Farer orollari nomi norveg tilida far - «qu'y», yoy -«orollar» ma'nosini beradi. VIII asrda tarki dunyo qilib ushbu orollarga qochib kelgan irland monaxlari o'zlari bilan birga bir necha bosh qo'y keltirishgan, qo'ylar

keyinchalik ko'paygan. IX asrda bu yerlarga bostirib kelgan normanlar bchisob qo'ylarni ko'rib orollarni shu nom bilan atashgan.

Dunyo okeanidagi bir qancha orollar hayvonot olami namoyandalari nomlari bilan ataladi: Azor - «qirg'iy», Galapagos - «toshbaqa, Kanar - «it», Kayman - timsoh, Samoa - «mao» qushi joyi. Galapagos orollariga ilk bor qadam qo'ygan Yevropaliklar, ko'p sonli yirik dengiz toshbaqalarini ko'rib hayron qolishgan. Arxipelagga bu nom 1574 yili flamanud kartografi A.Orteliy tomonidan berilgan. Galapagos orollari Ch.Darvin sayohati va uning «Turlarning paydo bo'lishi» nomli kitobi nashr etilgandan keyin yana ham mashhur bo'lgan.

Kanar orollarining nomini ham o'ziga xos paydo bo'lish tarixi bor. Dastlab orollarga italyanlar va portugallar kelishgan. Orollarda sayyohlardan qolgan itlar ko'payib yovvoyilashgan. 1402 yili orollarni qayta kashf qilgan ispanlar itlar ovozini eshitib, unga Ispas Canarias («itlar orollari». Lotin tilida kanis - «it», ispancha, kan - «it») deb nom berishgan.

Ispan sayyohlari diqqatini yirtqich itlardan tashqari, orollarda yashaydigan kichik jussali, chiroyli, yoqimli ovozli sayroqi qush ham o'ziga tortgan. Ular vataniga qaytgach g'aroyib orollar haqida gapirib berishgan. Ko'pchilik ishonmagan bo'lsa ham, ammo mahalliy savdogarlardan biri Kanar orollariga borishga ahd qilgan. Tanish kapitani orqali orollarga borgan ishbilarmon vataniga ko'plab sayroqi qushlarni olib qaytgan va g'aroyib sayroqi qushlarni sotib tez orada boyib ketgan. Yevropa - kanareyka qushi bilan shu tarzda tanishgan.

Bosfor - Qora dengizdan O'rta dengizga o'tiladigan bo'g'iz. Qadimda Bosfor (yunoncha, - buqa), bo'g'izidan suzib o'tadigan kemalarning egalari boj haqini qoramol bilan to'lagan. Dubay - Birlashgan Arab Amirliklaridagi amirlik va shaharning nomi «chigirtka» degan ma'noni anglatadi. Yukatan yarim orolining nomi - mayya hindulari tilida Ulumit-Kis-el-Etel-Zet - ya'ni, «xo'roz va bug'ular mamlakati».

Uganda davlatining poytaxti Kampala shahri nomiga antilopa ma'nosidagi impala (luganda tilidan) so'zi asos bo'lgan. Baykal

ko'lining u'rtasidagi orollardan to'rttasi Tushkani deb ataladi. Mahalliy aholi tushkan deb, quyonni aytadi. Darhaqiqat, bu orollarda quyonlar ko'p tarqalgan. Avstraliyaning janubiy qirg'og'ida Kenguru nomli orol bor. Nomidan payqash mumkinki, orolda shu nomli hayvon ko'p. 1802 yili ingliz tadqiqotchisi M.Flinders orolni kashf qilganda kenguruning ko'pligini ko'rib orolga shunday nom bergan.

Mashhur dengizchi J.Kuk mahalliy xalq bilan qilgan muloqotlarining birida notanish hayvonni ko'rib yo'lbo'shchidan uning nomini so'raydi. Aborigen gangaru - «men tushunmadim» deb javob beradi. J.Kuk xaltali va sakrab yuruvchi g'aroyib hayvonni shunday nomlansa kerak, deb kundaligida «kenguru», deb yozgan. Jeyms Kuk so'zlarini aborigen tushunmagan bo'lsa ham, kenguru o'z nomiga ega bo'lgan.

Toponimlar yordamida yer yuzidagi turli mintaqalarning hozirgi zoogeografiyasi ham o'rganish mumkin. Baliqliko'l, Chunchuqorol, To'ng'izlitog', Bo'rixona kabi geografik nomlar, ushbu hududda ma'lum bir hayvon turining ko'pligidan darak beradi. Ayrim hollarda, hayvon nomi joy nomi tarkibida ko'chma ma'noga ega bo'lishi ham mumkin. Shu sababdan, har bir faunistik nomni alohida tadqiq va tahlil qilish kerak. Masalan, turkiy oronimlar orasida Bo'zayg'ir, Qoraayg'ir, Oqbaytal kabi yer yuzasi reliefiga aloqador bo'lmagan nomlar ham uchraydi.

Etimologiyasi ravshandek ko'rinadigan bu nomlar, aslida izohi ancha murakkab bo'lgan toponimlar sirasiga kiradi. Qozoq toponimisti G.K.Konkashpayev ularni tahlil qilib, ayg'ir so'zini geografik nomlar tarkibida kelganda «katta», «baland» ma'nosiga ega, degan xulosaga kelgan. Nurota tog'larining shimoliy etagida joylashgan Baliqlitog'ning eng baland nuqtasini Bo'zayg'ir deb atalishi zamirida ham shu ma'no ifodalangan bo'lsa ajab emas. Umuman olganda zootoponimlar hayvonot olamining real tabiiy xususiyatlarini ifoda etadi.

**Gidronimlar.** Har qanday suv obyektlari - okeanlar, dengizlar, ko'llar, daryolar, kanallar, suv omborlari, soylar, jilg'alar, quduqlar va hokazo gidronimlar (yunoncha, hidro-«suv») deyiladi. Mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, barcha geografik obyektlar

orasida suv bilan bog'liq bo'lganlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Nomsiz suv obyektlari kam, aksincha bitta ko'l yoki daryo bir nechta nomga ega bo'lishi ham mumkin.

Bitta daryo oqimi davomida turli hududlarda turlicha atalishi mumkin. Masalan, Amudaryo uning ikki irmog'i bo'lgan Panj va Vaxsh daryolarining qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Bunday ko'pnomlik tasodifiy hol emas, balki muayyan qonuniyatlarga asoslangan. Daryo yo'nalishi davomida turli xalqlarni yashashi uning turlicha nomlanishiga sabab bo'ladi. Chunonchi, Nil daryosi boshlanish qismidagi tog'li hududda Bahr-al-Jabal («tog' daryosi»), deb nomlanadi. Buyuk daryo sohillarida yashagan turli etnik guruh vakillari daryoni o'z tillarida turlicha nomlashgan: arablar - al-Bahr, ko'ptlar - Yearo, buganda tilida Kipra, bari tilida Tkutsiri va hokazo. Shunisi diqqatga sazovorki, bu nomlar mazmuni jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan «katta suv», «buyuk daryo» kabi ma'nolarni anglatadi.

Gidronimlar juda kam o'zgaradi, demak eng qadimiy nomlardir. E.M.Murzayevning yozishicha: «gidronimlar vaqt eroziyasiga kam duchor bo'ladi. Shu sababdan, ularni qadimiy shakli va mazmunini tiklash ancha qiyin». Suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kasb etganligi bois, dunyo aholisining ko'p qismi suv obyektlari bo'yida, sohilida yoki unga yaqin masofada yashaydi.

Yuqorida ta'kidlagandek, insoniyatga qadim zamonlardan buyon ma'lum bo'lgan yirik suv obyektlarining nomi ko'pincha suv, katta suv, daryo, ko'l kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu haqida H.Hasanov quyidagicha yozadi: «Bordi-yu o'ntacha asosiy tilni biladigan kishi kartadagi nomlarni shu tillarga tarjima qilib o'qisa, aksari shahar, tog', daryo va ko'llarning nomlari deyarli bir ma'noda ekanini ko'rib ha'fsalasi pir bo'lar edi».

Reka, sipi, rio, river, shtat, xo, yoki, jayxun, ob, ganga, szyan kabi turli tillarga mansub bo'lgan so'zlar zamirida - daryo, suv ma'nosi mujassam. Masalan, Amerika qit'asidagi Missisipi mahalliy hindular tilida «ulug' daryo» ma'nosini beradi. Afrikadagi Niger daryosi (berberlar tilida negiren - «daryo») mahalliy xalqlar tilida, boshlanishida Djoliba («katta daryo»). o'рта

va quyi oqimida Kuara, Kvara («daryo»), Issa-Bari («buyuk daryo»), Mayo («daryo») deb ataladi.

Kitoydagi Yanszi daryosi ham turli qismlarida bir necha nomga ega. Tibetda Muruy-U's (us - «daryo»), xitoycha Szinshatszyan, Yanszitszyan (szyan-«daryo»). Ispan tilida daryo ma'nosini ifodalovchi rio so'zi Amerikada ko'pgina suv obyektlari nomlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Rio-Grande («katta daryo»), Rio-Kolorado («qizil daryo»), Rio-Solado («sho'r daryo») va hokazo.

Jahonning yirik suv havzalari nomi tarkibida ko'l («katta suv») so'zi mavjud. Masalan, Nyasa, Chad, Michigan kabi ko'llar nomi ham shu ma'noga ega. Finlyandiya ko'llar mamlakati hisoblanadi. Ularning aksuriyati nomlari tarkibida yarvi - «ko'l» so'zi mavjud (Inariyarvi, Ouluyarvi, Kemiyarvi va hokazo). Bu xususiyat turkiy gidronimlar uchun ham xos. Issiqko'l, Qorako'l, Yashilko'l, Olako'l va boshqalar. Bir qator ko'llarni kattaligi bois, mahalliy xalq dengiz deb atagan. Masalan, Kaspiy dengizi. Orol dengizi, Baykalni evenklar Lamu - «dengiz», Mo'g'ulistonning eng katta ko'li Xuhsugulni ba'zan, Dalay - «dengiz», deb atashadi. Ayrim hullarda yirik suv omborlarini ham xalq dengiz deydi. Chorvoq suv ombori - Toshkent dengizi, Qayroqum suv ombori - Tojik dengizi va hokazo.

Gidronimeklar nomlarini paydo bo'lishida turli xil omillar sabab bo'lgan. Ular qanday sabablarga ko'ra yaratilganligini aniqlash va nomlanish tamoyillarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Suv obyektlarning qanday va qaysi tipdagi nomlar bilan atalganligi, ya'ni semantikasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:

1. Kishi ismlari asosida vujudga kelgan gidronimlar. Ko'pincha bunday suv obyektlarining (ariq, quduq, buloq, kanal va beshu.) bunyod etilishiga (qazilishiga) rahbarlik qilgan shaxslar nomi bilan atalgan. Chunonchi, Nazarboyquduq, Omonbuloq, Mirzabuloq, Toshbekariq va boshqalar.

2. O'simlik va hayvonlar nomlari asosida paydo bo'lgan gidronimeklar, ya'ni suv obyektlarining nomlanishida muayyan bir o'simlik yoki hayvon nomlari asos qilib olingan gidronimlar.

Masalan, O'rikli soy, Terakli soy, Qo'ybuloq, Ilonli soy va boshqalar.

3. Yer qatlamining ustki tuzilishi, tuproqning tarkibiga ko'ra nomlangan gidronimeklar. Bunday gidronimlar tarkibida qum, tosh, jar kabi so'zlarini ko'p uchratish mumkin. Masalan, Sangzor, Dashtariq, Yonbuloq, Gumsoy, Qumariq va boshqalar. Arnabuloq - tog' etaklari va adirliklarda arna - sel, tabiiy yog'in suvlari yerni yuvib, o'yib ketishidan hosil bo'lgan jarsimon o'yoq.

4. Suvning rang xususiyatiga qarab nomlangan gidronimeklar. Bunday nomlarda oq, qora, ko'k, qizil kabi so'zlar ko'p uchraydi. Chunonchi, Oqbuloq, Qorasoy, Yashilko'l, Ko'kbuloq, Qizilquduq va boshqalar. Gidronimeklar nomlari tarkibida qo'llangan ranglar turli ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, doimo oqib turadigan, tog'dan, muzliklardan keladigan qor suvlari bilan to'yingan, u'z tabiiy o'zanida oqadigan, yozda qurimaydigan, rangi oqishi tushda bo'lgan, ichishga yaroqli suvga nisbatan oq so'zi ishlatilgan - oqsuv, oqsoy. Tog' etaklarida, vodiylarda sizot suvlaridan to'yinadigan, tiniq qoramir tushda, tabiiy o'zanida oqmaydigan, kanal qazib oqizilgan suvlarga nisbatan esa qora so'zi qo'llanilgan - qorasuv, qorasoy.

5. Suvning harorati, hidi va maza-ta'miga qarab nomlangan gidronimeklar. Bunday obyektlarni nomlashda ko'pincha sovuq, issiq, sassiq, achchiq, shirin, sho'r kabi so'zlardan foydalanilgan. Masalan, Issiqko'l, Sovuqbuloq, Jilibuloq (jili-iliq ma'nosida), Muzbuloq, Sho'rquduq, Sho'rbuloq, Sassiqbuloq va boshqalar.

6. Miqdori, hajmi, shakl tuzilishi, paydo bo'lgan vaqtiga qarab nomlangan gidronimeklar. Bunday nomlar suv miqdori, son-sanog'i va hajmini belgilashga qaratilgan. Ko'pincha ikki, besh, olti, qirq, yuz, ming, gala, qo'sh, to'da so'zlaridan foydalanib gidronimlar yasalgan. Chunonchi, Beshbuloq, Uchariq, Oltiariq, Uzunquduq, Kichiksoy, Kattasoy, Tovoqsuy, Yangiariq, Eskihovuz va boshqalar.

7. Aholi punktlari nomlari bilan ataladigan gidronimeklar. Respublika hududida o'ygogidronimlar asosan tog'li tumanlarda ko'proq uchraydi va ko'pincha suv obyektlarining turini bildiradi.



Masalan, Savruksoy, Pishag'arsoy, Zominsoy, Uxumssoy, Andaginsoy va boshqalar.

8. Urug', qabila, qavm, to'p etnik guruh nomlari bilan atalgan suv obyektlarini - etnogidronimlar deyishadi. Misol, Naymansoy, Qipchuqariq, Jaloyirsoy, Buyqo'ng'irsoy va hokazo. Etnonimlar gidronimlarga o'tganda nom tarkibida hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi. Etnogidronimlar qadimdan ushbu hududda qaysi etnik guruh vakillari yashaganligidan darak beradi.

Ayrim gidroobyektlarning nomlanishiga suvning sekin damlanib oqishi (Damariq), yoki tez, sharillab (Sharilloq) oqishi ham asos bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumki, daryo har doim bir o'zandan oqmaydi, muayyan vaqtdan keyin, o'zanini o'zgartirib turadi. Mutaxassislarning aniqlashicha, Aydar - Arnasoy ko'llar tizimining hozirgi o'rni, kaynozoy erasining to'rtlamchi davri oxirlarida Sirdaryoning o'zani bo'lgan. Shu sababdan, Aydarko'lining ikkinchi nomi sifatida ba'zan Qolgan Sir birikma - nom ishlatiladi.

Gidronimlar aholi turar joylariga nom bo'lib o'tganida ular o'rtasida ma'no va vazifa jihatidan ba'zi bir ayirmaliklar yuz beradi. Bunda ikki holatni inobatga olish kerak. Birinchidan, suv obyekti hozirda mavjud bo'lsa, u holda bu nom gidronim sifatida tilda keng qo'llaniladi, uning aholi punktini ifodalashi ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Shunda, Qaynarbuloq, Oydinbuloq deganda darhol buloq nomi tushuniladi. Ikkinchidan, nom tarkibidagi suv obyekti hozirda mavjud bo'lmasa, vaqt o'tishi bilan, uning oykonimik vazifasi birinchi o'ringa chiqadi. Bunday holatlarda nomning gidronimik ma'nosi emas, oykonimik ma'nosi yashashni davom etadi.

#### ⚡ Savol va topshiriqlar:

1. Oronimlarning boshqa geografik obyektlar nomlariga qaraganda ancha turg'unligi sababini izohlang?

2. Gidronimlar semantikasiga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?

3. Floristik topoterminlar joy nomlari tarkibida qanday vazifani bajarishini misollar yordamida tushuntirib bering.

4. Zootoponimlarni farqlashning qiyinligini sababi nima?

#### ⚡ Test topshiriqlari

1. Mahalliy hindular tilida «sovuq», «qish» ma'nosini ifodalaydigan davlat nomi.

- A. Peru
- B. Yamayka
- C. Chili
- D. Meksika

2. Daryoni arablar - al-Bahr, koptlar - Yeero, buganda tilida Kipra, hari tilida Tkusiri va hokazo. Gap qaysi daryo nomi haqida bormoqda?

- A. Jordan
- B. Dajla
- C. Shat al-Arab
- D. Nil

3. Daraxt nomi bilan bog'liq bo'lgan davlat nomini belgilang.

- A. Shveysariya
- B. Braziliya
- C. Malayziya
- D. Iordaniya

4. O'zbekiston toponimiyasi tarkibida zootoponimlar salmog'i necha foizni tashkil qiladi?

- A. 5-6 foizdan oshmaydi.
- B. 3-4 foizdan oshmaydi.
- C. 1-2 foizdan oshmaydi.
- D. 11-12 foizdan oshmaydi.

5. Majoziy nomga egu oronimik obyektlar qatorini belgilang.

- A. Tavatosh, G'o'hdintog'
- B. Pistalitog', Kuyganyor
- C. Qo'yotash, Qo'rg'ontepa
- D. Bukritog', Semiztepa

### 2.3. ETNOTOPONIMLAR VA ANTROPOTOPONIMLAR

#### 1) Reja:

1. O'zbekiston etnotoponimlarining shakllanish qonuniyatlari
2. Antropotoponimlar haqida umumiy tushuncha
3. O'zbekiston antropotoponimlarining hududiy tafsvullari

☞ *Mavzuning maqsadi:* Etnotoponim va antropotoponimlar, ularning paydo bo'lishi tarixi, o'rganilish holati, farqlovchi xususiyatlari hamda respublika etnotoponim va antropotoponimlari haqida bilim va ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

☞ *Tayanch atamalar va iboralar:* etnonim, etnotoponim, tarqalish areallari, etnik belgi, antropotoponim, memorial va muftaraviy nomlar.

**Etnotoponimlar.** Qadimiy kartalarga e'tibor berib qaralsa, asosiy toponimik yukni qabila va xalqlar nomtari, ya'ni etnonimlar tashkil etadi. Buni boisi shuki, kishilik jamiyatining dastlabki bosqichlaridan buyon aholining etnik tarkibi hududni belgilash uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Etnik belgi bilan nomlashda ijrmoiy voqelik bosh me'yor, mezon vazifasini o'tagan. Masalan, Sug'diyona, Baktريا, Iberiya, Partiya kabi nomlarni eslash kifoya, chunki ularning barchasida etnik nom mujassam.

Chunki, xalqning eng ibtidoiy etnomadaniy belgisi va eng muhim qadriyatlaridan biri uning nomi bo'lgan. Boshqacha aytganda, har qanday etnik birlik qadimda hududiy, iqtisodiy, lisanii va kelib chiqishi jihatidan nasl-nasabidan tashqari, maxsus nomga ega bo'lishi shart bo'lgan. Shuning uchun, muayyan sharoitda tabiiy-tarixiy taraqqiyot jarayonida vujudga kelgan etnik birlikning nomi ular yashaydigan hududga ham nom bo'lib o'tgan.

Har qanday etnik birlikni nomi etnonim (yunoncha, etnos - "xalq", unim - "nom") deb ataladi. Juda ko'p joy nomlari etnonimlar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan. Etnonimlardan nom olgan har qanday geografik obyekt etnotoponim deyiladi. Etnotoponimlarning aksariyat qismi oykanimlar, ular har qanday mintuqa aholisining tarixiy shakllanishi, taraqqiyoti, xalqlarning

qadimiy munosabati, integratsiyasi va migratsiyasini ko'rsatuvchi muhim manba hisoblanadi. Suv bo'ylari, dehqonchilik va chorvachilik uchun qulay joylarda, yirik aholi punktlarida, ulari etnik guruh vakillari aralash yoki yonma-yon yashagan joylarda etnotoponimlar zichroq tarqalgan. Ba'zan, yo'qolib ketgan xalqlar va tillarni tarqalish hududlarini aniqlashda etnotoponimik ma'lumotlar qo'l keladi.

Etnonimlar juda qadimiy so'zlar, ular yordamida xalqlar etnogenezi o'rganish mumkin. Masalan, Xorazm etnografiyasini o'rgangan S.P.Folstov bu haqda shunday ma'lumot yozib qoldirgan: "Avestonda yozishicha, jamiyat asosini urug' tashkil qilgan. Urug'lar "vis" deb atalgan. U ma'lum bir qishloq aholisidan tashkil topgan bo'lib, qishloqning o'zi ham "vis" deb yuritilgan. Bu so'zning keyingi davrlardagi shakli "diz" dir. Bir necha urug' birlashib zantmi tashkil qilgan. Nihoyat qabilalar ittifoqi yoki viloyat daxu yoki daxyn deb yuritilgan".

Joy nomlarida aks etgan etnonimlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'pincha qabila yoki urug' nomi, ba'zan ularning atrofdagi aholidan etnografik jihatlari bilan farqi etnonimning toponimga aylanishiga sabab bo'lgan. Norulashni o'ziga xos qoidalaridan biri shuki, aksariyat hollarda aholi maskanlariga nom o'zgalar tomonidan berilgan. Aholi maskanini yaratuvchi bilan nomlovchi jamoa munosabati bu jarayonda muhim omil sanalgan.

V.A.Nikonov yozishicha, etnotoponimlar etnik guruh yaxlit yashaydigan hududda emas, balki uning chekka qismida, ya'ni boshqa bir etnik birlik bilan chegaradosh hududlarda paydo bo'lgan. Masalan, qo'ng'iroq yoki qang'itlar yaxlit yashagan hududlarda qo'ng'iroq, qang'it kabi toponimlar uchramaydi. Shu narsa muhimki, boshqa etnik birliklar miqdoriy ko'pchilikni tashkil qilgan hududlarda emas, ozchilikni tashkil qilgan hududlarda etnik belgi nomlanish uchun mezon, asos, belgi vazifasini o'tagan.

Etnonim va toponim orasida uzviy bog'liqlik mavjudligini S.S.Gubayeva o'z ilmiy ishlarida Farq'ona vodiysi misolida ko'rsatib bergan. Olimaning yozishicha, o'tmishda aholisi ko'chmunchi yoki yarim o'troq hayot kechirgan hududlardagi joy

nomlarida etnonimlar soni ko'p, aksincha aholisi qadimdan o'troq bo'lgan hududlardagi joy nomlarida etnotoponimlar kam. Bu qonuniyatni, ko'chmanchi yoki yarim o'troq tarzda hayot kechirgan aholini hududiy tarqalishida etnik mansublik muhim rol o'ynaganligi bilan izohlash mumkin.

Etnotoponimlar - tarixan faol kategoriya sanaladi. Bu turdagi geografik nomlarga hududiylik, takroriylik xos va u tarixiy - geografik sabablar, ya'ni etnosni tarqalishi, etnik aloqalar hamda xo'jalik faoliyatini xususiyatlari bilan bog'liq. Nomning takroriyliги nom asosidagi so'zning boshqa ijtimoiy, etnik, ruhiy, falsafiy xususiyati borligini ko'rsatadi. Nomshunoslikning asosiy qonuniyatlaridan biri takroriylik. Uning turi ham xilma-xil. Asosiy sababi xalq tafakkuridagi umumiylik, tabiat hodisalarini bir xil idrok qilinishidir. Inson tafakkuridagi, ma'naviyatidagi bu hofat joy nomlariga ko'chgan.

Etnotoponimlarning ma'lum hududda qayta takrorlanishiga etnik guruh vakillarini ijtimoiy hayot tarzi ham ta'sir ko'rsatgan. Boshqacha aytganda, bir joyda yoki bir-biriga yaqin masofalarda aynan bir etnotoponimning takrorlanishi tasodifiy hol emas. Gap shundaki, yarim o'troq va ko'chmanchi tarzda hayot kechirgan aholining o'troq hayotga o'tishida muayyan tafovutlar bo'lgan. Shu sababdan, ayrim hududlar toponimiyasi tarkibida bitta etnik birlik nomi etnotoponim sifatida bir necha bor takrorlanadi. Mutaxassislar bitta etnotoponimning bir necha bor takrorlanishini etnik guruh vakillari butun urug'i bilan emas, balki nisbatan kichikroq bo'laklarga bo'linib o'troqlikka o'tganligi sabab bo'lgan deyishadi.

Etnonimlarning joy nomlari shaklida qayta-qayta takrorlanishida ijtimoiy voqelik ham muhim rol o'ynagan. S.Qorayev ma'lumotlariga ko'ra respublika toponimiyasi tarkibida ayronchi, arg'in, achamayli, bag'anali, beshhola, burqut, galabotir, kenagas, tama, ming, mitan, oytamg'ali, uyas, qutchi kabi etnonimlar shahar va qishloqlar nomlari tarkibida 5 dan 10 martagacha; bulg'ali, bolla, bahrin, qang'li, qiyot, qirg, mirishkor, mo'g'ul kabi etnonimlar 11-20 martagacha; beshkapa, do'rmon,

jaloyir, qo'ng'iroq, mang'it kabi etnonimlar 21-30 martagacha; qipchoq, saroy etnonimlari 31-40 martagacha takrorlanadi.

Xorazm toponimiyasini tadqiq qilgan Z.Do'simovni yozishicha, Xorazm etnotoponimlarining xarakterli xususiyatlaridan biri shuki, ayrim etnik nomlar bir necha hatto o'nlab etnotoponim sifatida uchraydi. Bu fakt mazkur hududda urug'-qabilaga bo'linish, urug'chilik xususiyati uzoq davom etganligidan dalolat beradi. Etnotoponimlar Shimoliy Xorazmda juda sermahsul. Urug'-qabila nomi bilan ataluvchi toponimlarning ko'plab takrorlanishi bu yerdagi xalqlarning keyin ko'chib kelganligini ko'rsatadi. Etnotoponimlar Janubiy Xorazmda shimolga nisbatan ancha barqarordir. Janubda etnotoponimlar deyarli uchramaydi. Masalan, Nukus etnotoponimi Shimoliy Xorazmda o'n ikki marta, janubda esa atigi bir marta uchraydi.

Xorazm etnotoponimlarining diqqatga sazovor joyi shundaki, ular respublikadagi aksariyat mintaqalardagi kabi kichik aholi maskanlarini nomini emas, balki ancha katta shaharlar (Qo'ng'iroq, Mang'it, Qipchoq, Nukus) nomini tashkil etadi. Buni Xiva xonligida urug'chilik boshqa hududlarga nisbatan kuchliroq bo'lganligi va har qaysi urug' o'troqlikka o'tganda o'zini yaxlit turkum deb his qilganligi hamda mayda qishloqlarga sochilib ketmaganligi bilan izohlash mumkin.

Shahar va qishloqlar nomini tashkil etgan etnotoponimlarga qarab qadimda ushbu hududda qanday etnik guruhlar istiqomat qilganligini bema'ol bashorat qilish mumkin. Chunonchi, Nukus, Qarluq, Boyovut, Olot, Do'rmon, Qurama kabi mashhur nomlar ham etnonimlar asosida paydo bo'lgan. Ma'lumki, har bir etnonimning o'ziga xos kelib chiqishi tarixi bor. Ularni bilmasdan turib O'zbekiston toponimikasi bilan shug'ullanish ancha qiyin, chunki urug', qabila nomlari ham muayyan ma'noni anglatadi. Masalan, urug' nomlarini bilmagan kishi Bolg'ali, O'ruqli, Oytamg'ali kabi etnonimlarni «-li» affiksli toponimlarga kiritishi mumkin. Qirg, yuz, ming qabilalari nomlari toponimlar tarkibida kelganda sonni bildirmaydi.

O'zbekiston etnotoponimlari orasida jonivorlar, xususan, uy hayvonlari nomi bilan atalgan etnonimlar eng qadimiydur, chunki

odamlar birinchi bo'lib ana shu hayvonlarni xonakilashtirgan. Qadimda urug'larning muqaddas hayvonlari (totemi) bo'lgan. Majusiylar davridan qolgan totemistik qarash insoniyatning tabiatga, tabiiy hodisalarga, turli mavjudotlarga munosabati majmui sanaladi.

Ko'pgina etnonimlar urug' - aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Har bir urug'ning o'z tamg'asi bo'lgan. Tamg'alar dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi o'rtasida emas, chorvador aholi uchun muhim belgi vazifasini o'tagan. Chorvachilik bilan shug'ullangan har bir etnik guruhning o'z tamg'asi bo'lgan. Tamg'alar shakli, tuzilishi, tasviri, anglatgan ijtimoiy mazmuni va mohiyati bilan bir-biridan farqlangan. Tamg'a ramziy nishon, belgi vazifasini o'tagan. Asosan chorvadorlar boshqalardan farq qilishi uchun o'zlariga tegishli chorvani turli shaklda tamg'alah qo'yishgan.

Jizzax viloyati toponimiyasini o'rgangan A.Zokirovning yozishicha, viloyat hududidagi etnotoponimlar tarkibida uchraydigan taroqli, cho'michli, qirg'ili, bolg'ali kabi urug'larning tamg'alari shaklan ana shu uy-ro'zg'or a'jomalarga o'xshash bo'lgan. Bulardan tashqari, kishi ismlari, joy nomlaridan kelib chiqqan, kash-hunar nomi, jamiyatdagi ijtimoiy mavqesi, urug'-ajdodlarni laqabi bilan bog'liq etnonimlar ham mavjud.

Dunyo kartasiga e'tibor bilan qarasangiz ko'plab etnotoponimlarga ko'zingiz tushadi. Chunki, ko'pchilik mamlakatlarning nomlari xalq nomidan olingan, xalq nomiga "-iya", "-iston" qo'shimchalari qo'shilib, mamlakat nomi hosil qilingan. Bu hodisa davlatlarni nomlashda asosiy qonuniyatlardan biri sanaladi. Masalan, alban - Albaniya, portugal - Portugaliya, rumin - Ruminiya, bolgar - Bolgariya, turk - Turkiya, turkman - Turkmaniston, qirg'iz - Qirg'iziston, tatar - Tatariston, tojik - Tojikiston va hokazo.

Etnonimlar negizida paydo bo'lgan davlatlar nomini harcha qit'alarda uchratish mumkin. Xususan, qadimiy davlatlari bilan mashhur bo'lgan Yevrosiyoda bunday nomlar ko'plab topiladi. Yevropada - Belgiya, Bolgariya, Gretsiya, Italiya, Ruminiya, Shvetsiya; Osiyoda - Bangladesh, Laos, Tailand, Mongoliya,

Turkiya; Afrikada - Botsvana, Burundi, Mavritaniya, Malavi kabi davlatlar nomiga etnonimlar asos bo'lgan.

Birgina davlatlar nomi emas, balki etnonimlardan asos bo'lgan boshqa geografik obyektlar nomlari ham ko'p uchraydi. Masalan, Malik cho'li (malik - urug'i nomi), Baraba dashti (baraba - urug'i nomi), Parij (parizi - qabila nomi), Eri, Guron ko'llari (hindu qabilalari nomi), Appalachi tog'lari (appalachi - hindu qabilasi), Dakota, Yuta, Ayova, Delaver, Oklaxoma kabi shtatlar nomlari ham hindu qabilalari nomlari bilan bog'liq.

Etnonimlar toponimlar tarkibida uzoq muddat saqlanib qolsa ham, ammo vaqt o'tishi bilan, ular tushunarsiz bo'lib qolishi mumkin. Mutaxassislarning fikricha, etnonimlar tarkibidagi «odam, inson, kishilar» kabi ma'nolarni anglatadigan so'zlar eng qadimgi etnonimlar hisoblanadi. Etnotoponimlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo'lib, turli-tuman ijtimoiy, tarixiy, lingvistik omillar bilan bog'liq. Aholining etnik tarkibi, ularning qaysi urug', qabila, xalq, millatga mansubligini ifodalovchi geografik nomlar har qanday hududiy toponimiya orasida katta bir guruhni tashkil etadi.

Hozirgi kunda, xalqning etnik guruhlarga taqsimlash faqat ilmiy-tadqiqot ishlari va tarixiy qiziqishlar bilan bog'liq bo'lib qoldi. Shuning uchun, tobora unitilib borayotgan etnonimlarni to'plash, tahlil va tadqiq qilish, etnonimlarning hududiy joylashuvi sabablari, tarqalish areali, etnonim va toponimning o'zaro aloqadorligi, etnonimlar kartasini yaratish kabi muammolar soha tadqiqotchilari oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Antropotoponimlar.** Antropotoponim oddiy so'z emas, balki o'z qonuniyatlariga ega bo'lgan alohida so'zlar qutlamidir. Ba'zan, turli sabablarga ko'ra kishilar nomi geografik obyekt nomiga aylanadi. Toponimikada har qanday antropotoponimdan nom olgan geografik obyekt nomi antropotoponim deyiladi. Shu sababdan, bir qator geografik obyektlar nomlariga antropotoponimlar (yunoncha, antropos-"odam"), ya'ni kishilarni ismi, familiyasi, laqabi, taxallusi, nisbasi va shaxsni atashlikning turli usullari asos bo'lib xizmat qilgan.

Antropotoponimlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ular joy nomlarini boshqa turlariga qaraganda ancha beqaror hisoblanadi. Ba'zan ularni tuzilishi va semantikasi ham o'zgaradi, ko'pchilik hollarda geografik obyektning yo'qolishi antropotoponimlarni iste'moldan chiqishiga sabab bo'ladi. Antropotoponimlarning joy nomiga aylanish jarayoni turli omillar ta'sirida kechadi. Bu avvalo ikki tizimning bir-biri bilan yaqin munosabati va ularning o'zaro xarakterli xususiyatlari bilan bog'liq. Chunki, antropotoponimlar ham xuddi toponimlar singari individuallasadi, kishini, ma'lum bir shaxsni etnik belgisi, milliy xususiyatlari, urf-odatlarini, ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o'zida ifoda etadi.

Shu sababli, ham ular orasidagi o'zaro munosabat juda qadimdan boshlangan. Ko'plab kishi nomlarining joy nomiga yoki aksincha joy nomlarining kishi nomlariga aylanishi xuddi shu omillar bilan bog'liq. Antropotoponimlar toponimga aylanib, barcha geografik nomlar kabi o'zining eng muhim vazifasi bo'lgan obyektning farqlovchi, boshqalardan ajratuvchi, ya'ni adreslik funksiyasini bajaradi.

Taniqli olim Z.Do'simovning yozishicha, antropotoponimlarning toponimga aylanishida shaxs va obyekt munosabati muhim rol o'ynaydi. Avvalo biror hududdagi kishilar yoki shaxsning jamiyatda tutgan o'rni muhim belgi bo'lib xizmat qiladi. Bu belgilar turlicha ifodalanishi mumkin, kishilarning kashi, mashg'uloti, mansabi, etnik taaluqliligi, laqabi kabi qator individual turlarda aks etadi.

Darhaqiqat ko'pgina ijtimoiy terminlarning, laqablarning va ba'zi etnonimlarning toponimga aylanishida antropotoponimlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu xildagi belgilarning ko'pchiligi o'z-o'zidan joy nomiga aylantilmaydi. Ular dastavval kishi nomi bilan birga qo'llaniladi. Vaqt o'tishi bilan turli omillar asosida joy nomiga o'tadi. Masalan, Turdiquilning chorhog'i, Qurban otaliqning yeri, Xo'jamurod yuzboshining ovuli va hokazo.

Kishi ismlarining oykonimlarga o'tishi xususiy mulkchilik, yangi yerlarni o'zlashtirish, yangi qo'rg'onlar qurish kabi ijtimoiy voqelik bilan bog'liq. Yu.Ahmadaliyevning yozishicha, antropotoponimlarning vujudga kelishi jamiyatda sinflar paydo

bo'lishi, quldorlik tuzumini shakllanishi kabi ijtimoiy voqelik bilan bog'liq. Xususiy mulkchilikka asoslangan feodalizm davriga kelib hududning asosiy farqlovchi belgisi sifatida uning kimga qarashli ekanligi nisbat qilib olingan. Natijada katta hududlar, qishloq va mahallalarga yirik feodal, urug' va jamoa boshliqlari, mahalliy hukmdorlar nomi berilgan.

Antropotoponim ko'pincha nom uchun asos bo'lgan shaxsning tarixda egallagan mavqecini eslatib turadi. Masalan, Iskandar (ruscha, Aleksandr) dunyoni zabt qilish maqsadida, bosib olgan hududlarida Iskandariya (Aleksandriya) nomi bilan bir necha shaharga asos solgan. O'rta yer dengizi sohilidagi port shahar Iskandariya shulardan biridir. Qolganlari asta sekinlik bilan o'z nomini o'zgartirgan. Miloddan oldin O'rta Osiyoni zabt etgan Iskandar, g'alabasi sharafiga Aleksandriya Esxata (Chekka Iskandariya) shahrini harpo etgan. Qadimiy shaharning xarobalari hozirgi Xo'jand shahri atrofida topilgan.

Boshqa misol, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlarida Chig'atoy degan qishloqlar bor. Chig'atoy (1242 yilda vafot etgan) - Chingizxonning ikkinchi o'g'li. Chingizxon hayotligidayoq zabt etgan yerlarini o'g'illariga mulk qilib taqsimlab berganda, Movarounnahr ikkinchi o'g'li ixtiyoriga o'tgan. Binobarin, XIII asrning oxiridan boshlab, Movarounnahr Chig'atoy ulusi deb atalgan. Ma'lumki, keyinchalik nomning ma'no va qo'llanish doirasi kengaygan va kishi ismi bo'lishidan tashqari, ijtimoiy-siyosiy, harbiy hamda etnik ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan, XV asrdan e'tiboran Movarounnahr va sharqiy Xurosonning barcha turkiy aholisini chig'atoylar deyishgan.

Shaxslarning ism-familiyalariga qo'yilgan nomlar haqida H.Hasanov shunday yozgan: "Agar geografik karta tilga kirsada edi, jami sayyoh va jasur yo'lbozarlarning xizmatlari namoyon bo'lar edi. Karta ko'pgina olim va dengizchilar - o'sha yerni tekshirgan, o'sha yerdan suzib o'tgan yoki muhim asar yozganlarning nomlarini mangu saqlaydi". Fedchenko muzligi, Mikluxo-Maklay qirg'og'i, Ismoil Somoniy cho'qqisi, Mirzo Ulug'bek metro bekati, Amir Temur darvozasi kabi minglab nomlar shular sirasiga kiradi.

Buyuk geografik kashfiyotlar davrida, yangi kashf qilingan geografik obyektlarga ko'pincha, yangi yer ochuvchi, noma'lum o'lkalarga borib, jonini garovga qo'yan tadqiqotchi olimlar, sayyohlarni nomlari berish ancha keng tarqalgan. Ular qatoriga Livingston - sharshara; Magellan - bo'g'iz; Kuk - orol, bo'g'iz, tog'; Stenli - sharshara; Bering - bo'g'iz, dengiz; Amundsen - dengiz; Flinders - orol, tog', daryo va boshqalarni kiritish mumkin. Arktika va Antarktidada Dejnev, Laptev, Litke, Cherskiy, Vrangeli, Makarov, Belinssgauzen, Lazerev, Skott, Chelyuskin kabi tadqiqotchi va sayyohlar nomlarini uchratish mumkin. Bular asosan tabiiy - geografik obyektlar bo'lib, ularni kashfiyotchilari yoki tadqiqotchilari nomlari bilan atashgan.

Osiyo va Amerika qit'olari hamda Tinch va Shimoliy Muz okeani oralig'ida Bering bo'g'izi va dengizi joylashgan. Dengiz va bo'g'iz ushbu hududlarni o'rgangan 1-chi va 2-chi Kamchatka ekspeditsiyalari kapitani V.Bering sharafiga atalgan. Nom XVIII asr oxirida shimoliy-sharqiy Osiyoni tadqiq etgan ingliz dengizchisi J.Kuk tomonidan berilgan. Rus sayyohi V.Golevin tashabbusi bilan dengizni ushbu nom bilan atash rasmiy tus olgan.

Hozirgi Avstraliyada Bayron burni, York burni, Bass bo'g'izi, Myorchison, De-Grey, Mitchell, Gregori, Viktoriya daryolari, Uels ko'li, Ogastes, Makdonell tog'lari mashhur kishilar, materikni tadqiq etgan va o'rgangan sayyohlar nomiga qo'yilgan. Antraktida materigida ham turli dengizchi sayyohlar va boshqa shaxslar nomi bilan atalgan geografik obyektlar ko'p; Viktoriya Yeri, Uilkins Yeri, Adeli Yeri, Jekson tog'i, Uedell, Bellinsgauzen, Amundsen, Ross dengizlari, Petr I, Skott urollari, Darvoqe, Adeli Yeri fransuz sayyohi J.Dyumon-Dyurvil tomonidan 1840 yilda kashf etilgan va unga xotini Adel sharafiga shunday nom bergan.

Kartalarda tarixiy shaxslar, sarkardalar, davlat arboblari nomlari ham muxrlangan. Petr I, Vashington, Xoshimin, Viktoriya, Mak-Kinli, Aleksandr va hokazo kabi davlat va siyosat arboblari nomiga qo'yilgan geografik obyektlar bunga yaqqol misol bo'ladi. O'rta Osiyoning eng baland cho'qqisi (Pomirda, 7495 m.) - Somoniyalar davlatining asoschisi Ismoil Somoniy nomi bilan atalgan. Mikluxo-Maklay, Prejevalskiy, Seversov,

Shokalskiy, Anuchin, Korjenevskiy, Mushketov, Oshanin, Fedchenko kabi atoqli olimlarning nomlari ham, turli geografik obyektlar nomlari sifatida uchraydi.

Jahon fati, madaniyati, ma'naviyati taraqqiyotiga buyuk hissa qo'shgan allomalarning, vatan ozodligi, mustaqilligi uchun kurashgan, jonini fido qilgan vatanparvarlarning nomlari ham joy nomlarida mangu saqlanadi. Bunday nomlarga Beruniy, Navoiy, Ulug'bek, Al-Xurazmiy, Ibn Sino, Al-Farg'uniy, Jaloliddin Manguberdi kabi nomlarni ham kiritish mumkin. Ba'zan, davlat boshliqlari, podshohlar, sayyuh va tadqiqotchilarning sevikli kishilari, hatto qaroqchilar nomlari ham kartada abudiydashib qolgan. Masalan, Angliya qirolichasi Viktoriya nomi bilan ko'l, mashhur dengiz qaroqchisi Dreyk nomi bilan bo'g'iz atalgan.

Kishilarning ism-sharifi, taxallusi bilan bog'liq nomlarni memorial va oddiy nomlarga ajratish mumkin. Memorial nomlarga haqiqiy buyuk kishilar, ya'ni zamon, jamiyat qanday bo'lishidan qat'iy nazar hurmat bilan tilga olinadigan, butun insoniyatga xizmat qilgan shaxslar nomlarini kiritish mumkin. Bunday nomlar har qanday jamiyatda saqlanib qoladi. Ammo, qanday nomlar memorial nom ekanligini vaqt belgilaydi.

Mikrotoponimlar orasida shaxslarning ism-shariflari, taxalluslari bilan bog'liq nomlar juda ko'p. Ularning ko'pchiligi zamon o'zgarishi bilan o'zgarib ketadi yoki yangi nomlar bilan almashtiriladi. Bunday nomlar memorial nomga kiritilmaydi. General Chernyayev nomi bilan atalgan Chernyayevka, general Kaufman sharafiga qo'yilgan Kaufmanskaya stansiyasi, Skobelev shafri, sho'ro qo'mondonlaridan Frunze, Kuybishev nomlari bilan atalgan shaharlar nomlarini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Sho'rolar davrida mafkuraviy nomlarga katta e'tibor berilgan edi. Ularning ko'pchiligini kommunistik partiya dohiylari hamda sovet tuzumi jonkuyurlarining nomlari tashkil etgan. Lenin, Kalinin, Kirov, Sverdlov, Dzerjinskiy, Idanov kabi ko'plab nomlar ana shunday paydo bo'lgan. Sho'rolar tuzumini yo'q bo'lishi bilan, «qizil» nomlardan voz kechildi, ularga yangi nomlar berildi yoki tarixiy nomlari qayta tiklandi.

Hozirgi vaqtda antropotoponimlar dunyoning barcha mintaqalari toponimiyasi tarkibida uraydi. Chunonchi, O'zbekistonda ko'cha, maydon, xiyobon, bog'lar, guzar, mahalla, korxonalar, muassasalar, aholi punktlari, geologik, tabiiy va boshqa bir qator geografik obyektlarga davlat, jamoat arboblari, vatan himoyachilari, fan, madaniyat arboblari va boshqa alohida xizmat ko'rsatgan odamlarning nomini berish orqali antropotoponimlarni katta qatlami yaratilgan.

Qadimdan O'rta Osiyuda, jumladan O'zbekistonda ham ma'lum - mashhur kishilarning nomlarini shahar-qishloqlarga qo'yish rasm bo'lmagan, aksincha shoirlar, olimlar va boshqa mashhur kishilar o'zlarini tug'ilib o'sgan joy nomlarini ko'pincha nisba qilib olib, jonajon o'lkalarini dunyoga mashhur qilganlar. Masalan, Buxoriy, Xorazmiy, Samarqandiy, Termiziy va hokazo. Keyinchalik ayrim geografik obyektlarga ulamolar, aziz-avliyolar, islom dinining yirik namoyandalari nomi berilgan. Bunday nomlashlar birinchidan, o'sha maskanlarga ziyoratchilar sonini ko'paytirgan bo'lsa, ikkinchidan, hudud tabiatini asrab - ayaylash uchun xizmat qilgan.

2011 yilda qabul qilingan «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida geografik obyektlarga kishilarni ismi-sharifini berishni tartihga solish maqsadida quyidagi norma belgilangan: «Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar ovullar, aholi punktlariga odamlarning ismi-sharifining berishga, shuningdek ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga, qoida tariqasida yo'l qo'yilmaydi. Ko'chalar, shohko'chalar, mahallalar, maydonlar, bog'larga va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga ayrim odamlar, jamoat arboblari, siyosiy arboblarning ismi-sharifini berishga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar bundan mustasno».

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, faqat istisno tariqasida O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning nomi geografik obyektlarga berilishi mumkinligi belgilab qo'yilgan. Agar, shunday zarurat paydo bo'lib qolgan taqdirda antropotoponimlar modelining grammatik jihatdan o'zbek tiliga

mos, eng to'g'ri va mukammal tipi antroponim hamda obod, qishloq, ovul, mahalla, qo'rg'on, tepa, dasht, hog' kabi geografik terminlardan iborat bo'lgan shakli hisoblanadi. O'zbekiston toponimiyasining eng uski tarixiy qatlami antropotoponimlarning ko'pligi bilan ajralih turadi.

✧ *Savol va topshiriqlar:*

1. *Etnonim va etnotoponimlarning tarixi va shakllanish jarayonini qisqacha ta'riflang.*

2. *Etnotoponimlarning hududiy tafovutlari haqida ma'lumot to'plang va uni qiyosiy tahlil qiling.*

3. *O'zbekiston toponimiyasi tarkibida antropotoponimlarning ko'payishi sababini izohlang.*

4. *«Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida geografik obyektlarga kishilar ismi-sharifini berish to'g'risida qanday norma kiritilgan? Sababini tushintirib bering.*

✧ *Test topshiriqlari:*

1. *Qaysi sabablarga ko'ra etnonim etnotoponimga aylanishi mumkin?*

A. *Nomlovchi jamoa munosabati bu jarayonda muhim omil sanalgan.*

B. *Nom o'zgarar, ya'ni atrofdagi etnik guruhlar tomonidan berilgan.*

C. *Boshqalardan etnografik jihatlari bilan farqi sabab bo'lgan.*

D. *Barcha javoblar to'g'ri*

2. *Qirq, yuz, ming kabi qabila nomlari toponimlar tarkibida kelganda qanday ma'no kasb etadi?*

A. *Hech qanday ma'no kasb etmaydi*

B. *Soni bildiradi.*

C. *Raqaamlar tartibini bildiradi*

D. *Sorini bildirmaydi*

3. *Ayrim etnonimlar urug'-aymoq tamg'asi nomi bilan atalgan. Tamg'a qanday vazifani bajargan?*

- A. *Chorvador aholi uchun muhim belgi vazifasini bajargan*
- B. *Tamg'a ramziy nishon, belgi vazifasini o'tagan*
- C. *Chorvani turli shaklda tamg'alab qo'yish uchun foydalangan*

D. *Barcha javoblar to'g'ri*

4. *Antropotoponim qatorini belgilang.*

- A. *Kanberra*
- B. *Parij*
- C. *Islomobod*
- D. *Durban*

5. *Qadimdan O'rta Osiyoda ma'lum-mashhur kishilarning nomlarini shahar-qishloqlarga qo'yish ... To'g'ri javobni belgilang.*

- A. *oddiy hol bo'lgan*
- B. *rasm bo'lgan*
- C. *an'anaga aylangan*
- D. *rasm bo'lmagan*

## 2.4. KASB-HUNAR, SAVDO-TRANSPORT, AFSONAVIY VA DINIY E'TIQODLAR BILAN BOG'LIQ NOMLAR

☀ *Reja:*

1. *Kasb-hunar bog'liq nomlarning maqsad va vazifalari.*
2. *Savdo-sotiq va transport bilan bog'liq toponimlar*
3. *Afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar haqida.*

☀ *Mavzuning maqsadi:* *Kasb-hunar, savdo-transport tarmoqlari hamda afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlarning paydo bo'lishi va ularning rivojlanishi haqida bilim va ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.*

☀ *Tayanch ibora va atamalar:* *Kasb-hunar, hunarmandchilik turlari, savdo-sotiq, afsonaviy va diniy nomlar.*

**Kasb-hunar bilan bog'liq toponimlar.** Geografik obyektlarning nomlanishida ma'lum hududda yashovchi aholining iqtisodiy turmush tarzi, hunarmandchilik turlari, kishilarning xo'jalik va moddiy ishlab chiqarish faoliyati muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu turdagi joy nomlarining paydo bo'lishida jamiyatning tarixiy rivojlanish davri, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi, ishlab chiqarish shakllarini taraqqiyoti muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday geografik nomlarning asosiy fazilati shundan iboratki, ularga qarab ishlab chiqarish shakllari, foydali qazilmalar konlari, kasb-hunar turlari, dehqonchilik madaniyati va boshqa xil ma'lumotlarni bilib olish mumkin. Bularning hammasi xalq xo'jaligi tarixi uchun juda muhim ma'lumotlar hisoblanadi. Boshqacha aytganda, toponimlarda xalq turmushining turli ijtimoiy-iqtisodiy jahalari, ya'ni aholining xo'jalik faoliyati, jamiyatdagi ko'p asrlar davomida sodir bo'lgan tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar ham o'z aksini topgan.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, O'rta Osiyo xalqlari qadimdan turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanib kelganlar. Shahar aholisining asosiy mashg'uloti, yashash manbaidan biri hunarmandchilik



hisoblangan. T.Nafasovning yozishicha, o'tmishda shahar maqomiga erishish uchun, unda kamida 32 ta kasb-hunar turi bo'lishi talab qilingan. Kasb-hunar nomi ikki xil vazifa bajargan: kasb va kasiblik nomi hamda yashagan guzari, mahallasi, qishlog'i nomi. O'tmishdagi kasb-hunarlarining bir qismi yo'q bo'lib ketgan bo'lsa ham, ammo ular geografik nomlar tarkibida hozirgacha, tarix dalili, madaniyat yodgorligi sifatida saqlanib qolgan.

Shahar va shaharchalardagi mahalla, ko'cha, guzar, xiyobon, bozor kabi geografik obyektlarni hunar-kasb nomlari bilan atash sharning qadimiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Masalan, Dushanbe shahrining bir qismi Shishaxona deb ataladi. Arxenologlar bu yerda karvonsaroy qoldiqlari, qadimgi lagan-piyola siniqlarini topishgan, demak bu yerda qadimda kulolchilik-chinnisozlik yaxshi rivojlangan. O'rta Osiyoning tarixiy shaharlarida shu kabi hunar-kasbdan olingan nomlar ko'plab topiladi. Bu ko'hna qadriyat zamonaviy qadriyatga aylansa, xalq madaniyati va ma'rifati madaniy yodgorlik maqomiga erishgan bo'lar edi.

Hozir ham O'zbekistonning turli hududlarida Pichoqchi, Sandiqchi, O'qchi, Temirchi, Mahsido'z, Parchabof, Naqqoshon, Zargarlik, Qussoblik, Sovungarlik kabi mahalliy xalqning kasb-hunarlaridan darak beruvchi nomlarni uchratish mumkin. Masalan, Ohangaron nomi shahar aholisi qadimdan temirchilik bilan shug'ulanganligidan darak beradi. Xuddi shu kabi Samarqand shahridagi So'zangaron mahallasi ahlining asosiy mashg'uloti igna, juvaldiz, bigiz kabi mahsulotlar tayyorlash bo'lgan.

Egarchi deb nomlangan mahalla aholisining ota-bobolari otulov ustiga uriladigan va minib yurish uchun moslangan abzal-egar tayyorlash ishi bilan mashg'ul bo'lganlar. Egalar katta-kichikligi, naqsh bezaklari, xomashyo tanlanishi bilan bir-biridan farq qilgan. Egar asosan qayrag'och, yong'oq, tul, o'rik, chinor kabi yog'ochi qattiq daraxtlardan yasalgan. Egarchilik hunari avloddan-avlodga o'tgan.

Rasmiy ma'lumotlar bo'yicha, hozir O'zbekistonda uch yuzdan ortiq kasb-kor turi mavjud. Yangi paydo bo'layotgan kasb-hunar turlari ham ko'p va ular ham joy nomlarini boyitishi tabiiy.

Kasb-hunar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar o'rta va ayniqsa kichik (mikro) toponimlar tarkibida ko'p uchraydi. Respublika joy nomlariga nazar tashlab, boshqa kasb-hunarlar qatorida kulolchilik ham ancha rivojlanganligini aniqlash mumkin. Kulolon, Kulolchi, Kulollik, Tandirchi, Kosagaron, Tavoqchi kabi qishloq va mahalla nomlari bunga yaqqol misoldir.

Joy nomlari tarkibida to'quvchilik kasbiga aloqador qator geografik nomlar uchraydi va ular to'quvchilik kasbi tarixi ancha qadimgi davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Baxmalbof, Gilambof, Buyrabof, Parchabof kabi aholi punktlari nomlarida mahalliy xalqni to'quvchilik kasbining «izolari saqlanib qolgan.

Tikuvchilik kasbi ham xalqimiz orasida keng tarqalgan sohalardan biri bo'lgan. Uning yo'rmado'z, mahsido'z, etikdo'z, toqido'z, kashtado'z kabi ayrim tarmoqlarining nomlari joy nomlariga o'tgan. Masalan, Marg'ilon shahar mahallalaridan birining nomi Yo'rmado'z. Yo'rma kashtachilikda keng qo'llaniladigan chok turlaridan biri, mahalla ahli o'tmishda shu ish bilan shug'ullangan. Buxoro shahrida Mahsido'zon, Chust shahrida Do'zanda, Samarqand shahridagi Zardo'zon kabi mahalla nomlari ham kishilarni kasb-koriga nisbat berib atalgan.

Teri oshlab undan cherm tayyorlash bilan shug'ullanuvchi kasb egalari ko'nchi nomini olgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent kabi shaharlarda, Farg'ona vodiysida, Xorazmda ko'nchilik do'konlari ko'p bo'lgan. Ularda qo'y, echki, qoramol, tuya terilaridan turli navlardagi ko'n tayyorlangan. Toshkent shahridagi Ko'nchilar, Marg'ilon shahridagi Ko'nchilik, Chust shahridagi Chermgaron, Samarqand shahridagi Chermgar mahallalariga shu kasb nomi asos bo'lgan.

Bundan tashqari respublika toponimiyasi tarkibida Ko'mirchi, Nosgar, Sangtarosh, Buyrachi, Ohakchi, O'roqchi, Somsapaz, Egarchi, Toshkesar, Karnaychi va yana yuzlab toponimlarda mahalliy xalqning o'tmishda shug'ullanib kelgan turli kasb-hunarlarini o'z aksini topgan. Xalqning kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan, turli xil mahsulotlarni ishlab chiqaradigan qurilmalar asosida ham joy nomlari paydo bo'lgan. Mazkur qurilmalar nomlari keyinchalik aholi punkti nomlariga o'tgan.

bunga Objuvoz, Tegirmunboshi, Sariosiyo, Galaosiyo, Qo'shtegirmon, Tagiusiyo, Tegirmonovul, Qo'shjuvoz kabi toponimlar misol bo'ladi.

Joy nomlari geografiya tarixi uchun ham qimmatli ilmiy manba hisoblanadi. Masalan, Aravachi, Asalchi, Astarbof, Attoron, Ayuqchi (idish-tovoq ustasi), Baqirchi («misgar»), Baliqchi, Buxmalhof, Qamchinbof, Bufanda («to'quvchi»), Binokor, Pichuqehi, Bo'zachi, Dabboqi («ko'neli»), Dastorbof («salla to'quvchi»), Kamongaron («o'q-yoy ustalari»), Kosagar («kosa ustasi»), Ko'neli, Mokusozon («moki ustasi»), Mixchagar («mix yasovchi»), Mo'zado'zun («etikdo'zlar»), Namadgaron («kiygiz ustalari»), Olachahof («olacha to'quvchi»), Sovungar, Sartarosh, Toqado'z («do'ppi tikuvchi»), Chitgaron («chitga gul bosuvchilar») kabi ko'plab geografik nomlar ma'lum hududda yashovchi xalqning xo'jalik faoliyati hamda ularning hududiy mehnat taqsimotida tutgan o'rnini aniqlashda katta yordam beradi.

Hunar-kasb bilan bog'liq toponimlar har qanday hudud toponimiyasining muhim va ajralmas qismi sanaladi. Hozirda ayrim kasb-hunar turlari yo'qolgan yoki ularni ifodalovchi so'zlar junli muomaladan chiqib ketgan bo'lishi mumkin. Shu sababdan, tushunarsiz bo'lib qolgan bunday joy nomlari tarixiylik nuqtai-nazardan alohida tadqiq qilinishi lozim.

**Savdo-sotiq va transport bilan bog'liq toponimlar.** Har bir geografik nomning o'ziga xos eyniki bor, zero unda uniq ma'noga ega bo'lgan turlicha tarixiy, lisoniy, geografik ma'lumotlar mujassam, shu sababdan toponimga tarixiylik nuqtai nazardan to'g'ri yondushib, uning hamma tarkibiy qismlari to'g'ri tahlil qilinsagina izah ishonarli bo'ladi. Qadimgi yunon faylasufi Platonning ta'hiri bilan aytganda, "kim nomning haqiqiy ma'nusini to'g'ri anglasa, u joyni ham yaxshi biladi".

Savdo-sotiq va transport bilan bog'liq geografik nomlar turli davrlarda paydo bo'lgan, jamiyat hayotida, kishilar turmush tarzida sodir bo'lgan o'zgarishlar natijasida ularning soni ham ko'paygan. Xalqning iqtisodiy turmushida savdo-sotiq katta ahamiyatga ega bo'lgan. Savdo hududning rivojlanishiga, aholi turmush darajasining farvonligiga ham ta'sir o'tkazgan. Xususan,

bozor sharqda qadimdan nafaqat savdo-sotiq joyi, balki kishilar uchun savdo munosabatlari o'rnatish, dam olish va yangiliklardan xabardor bo'lish maskani ham hisoblangan. Shu sababdan, bir qator geografik nomlar tarkibida bozor belgilovchi so'z sifatida muhim ahamiyat kasb eigan.

Bozorlar oldi-sotdi, savdo-sotiq qilinadigan joy bo'lishi bilan birga, shu hudud iqtisodiyotining ko'zgusi hamdir. Dastlab, savdo-sotiq qilinadigan joylar - bozor va rastalar ko'pincha ma'lum bir mahsulotni sotishga ixtisoslashgan va shu mahsulot nomi bilan atalgan. Bedabozor, Egarbozor, Yog'bozor, Xodabozor, Somonbozor, Guruchbozor, Tovuqbozor, Buyrabozor, Taxtabozor kabi toponimlar shu yo'sinda paydo bo'lgan.

Toshkent shahar mikrotoponimiyasini o'rgangan Sh.Qodirova-niing ma'lumotlariga qaraganda, XIX asr oxirlarida Toshkentda bozor va rastalar soni 1500 taga yetgan. Shaharda rasmiy bozor va rastalardan tashqari, turli kasb egalari yashaydigan mahalla, ko'cha, guzarlarda ham oldi-sotdi avjida bo'lgan. Ko'pincha rastalar bilan hunarmandchilik ustaxonalarini farq qilib bo'lmagan. Hunarmandlar turli mahsulotlar tayyorlab shu joyning o'zida sotishgan. Ba'zan, bozor bo'ladigan kunga qarab aholi punktlariga nom ham berishgan. Masalan, Chorshanba (Shahrisabz), Payshanba (Kattaqo'rg'on), Juma (G'allaorol), Jumabozor (Qorako'l) deb atalgan aholi manzilgohlarida haftaning shu kuni bozor bo'lgan. Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrining nomi ham, shu yo'sinda paydo bo'lgan nomlar sirasiga kiradi.

Transport har qanday jamiyatning rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblangan. Shu sababdan, qadimda aholi manzilgohlari ko'pincha transport chorrahalari atrofida paydo bo'lgan. Mutaxassislarining yozishicha, Sahroi Kabirda ham karvon yo'llari tutashgan hududlarda savdo-sotiq yaxshi rivojlangan. XV asrda Ait davlatining tureglar sultoni yangi shaharga asos solib, uni Agades - «karvonlar uchrashadigan joy» (hozirgi Niger davlati hududida) deb nomlagan. Transport bilan bog'liq toponimlar ancha qadimiyliги bilan ajralib turadi, chunki yo'l doimo harakat timsoli hisoblangan.

H.Hasanov «joy nomlariga qarab qadimiy savdo yo'llari, etnik guruhlarning tarqalish areali, qal'a va manzillarning o'rinlari, suv va dovonlarning xosiyatlari, foydali qazilmalar, cho'llarda quduqlar bor - yo'qligi, joyning iqlimiy xususiyatlari, hunar-kasb turlari, tarixiy voqealar va boshqa xil ma'lumotlarni bilib olish mumkin, bularning hammasi xalq xo'jaligi, madaniyatimiz tarixi uchun juda muhimdir» deb ta'kidlagan.

Shunday ekan, geografik nomlarning ko'pgina fuzilatlari qatoriga ular yordamida qadimiy karvon yo'llarini aniqlash imkoni borligini ham unitmaslik kerak. Masalan, Jizzax viloyati toponimiyasi tarkibida qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq ayrim geografik nomlar hozirgacha saqlanib qolgan. Tarixiy manbalardan ma'lumki, Jizzaxning qulay geografik o'rni o'rta asrlarda Mongoliya, Xitoy, Sharqiy Turkistonni Bag'dod, Hamadon, Nishopur, Mary, Buxoro, Samarqand, Shosh, Turoz kabi muhim savdo markazlari bilan bog'laydigan karvon yo'lining ushbu hududdan o'tishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu sababdan, viloyat toponimiyasi tarkibida bevosita karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlari ko'p va ular qatoriga Xayrobod, Ravot, Yom, Sardoba, Savot, Sarbozor, Ko'hnabozor, Bozorjoy, Qarovultepa, Jo'langar kabi aholi punktlari nomlarini kiritish mumkin. Qadimiy karvon yo'llaridan darak beruvchi bunday toponimlar hozirgacha asl holida yoki qisman o'zgarishlar bilan saqlanib qolgan.

Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida Nurota tog'larining shimoliy etagidan Mirzacho'l orqali karvon yo'llari o'tganligi va uhuli manzilgohlariga yaqin joylarda ravot-karvonsaroylar, sardobalar qurilganligi isbotlangan. Xorazm va Buxarodan kelib Shosh va Farg'onaga tomon boradigan karvonlar uchun eng qisqa yo'l, Qizilqumning janubiy sariadlari bilan Nurota tog'larining shimoliy etagi oralig'ida o'tadigan karvon yo'li bo'lgan. Mirzacho'l orqali o'tadigan bu karvon yo'li nihoyatda quruq, suvsiz bo'lishiga qaramay, yo'li qisqa bo'lganligi tufayli o'rta asrlarda ancha serqatnov hisoblangan.

Respublika toponimiyasi tarkibidagi Sarbozor, Bozorjoy, Ko'hnabozor, Yangibozor, Bozortepa kabi geografik nomlar ham

bevosita karvon yo'llarida tashkil etilgan karvon savdosi, bozorlar bilan bog'liq. Masalan, Forish tumani Ko'hnabozor qishlog'i hududida o'rta asrlarda katta bozor bo'lgan, unda churva va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ko'tarasiga sotilgan hamda qo'shni mamlakatlardagi narx-navoni bilish mumkin bo'lgan. Bozorga qo'shni mamlakatlardan ham (Afg'oniston, Xitoy, Eron) savdogarlar kelib turgan.

Savdo-sotiq faoliyati bilan bog'liq geografik nomlar boshqa mamlakatlar toponimiyasi tarkibida ham ko'p uchraydi. Bir qator Sharqiy Yevropa davlatlari toponimiyasida slavyan tillariga xos to'g, torjok - «bozor» ma'nosidagi so'z asosida paydo bo'lgan Torgok (Rossiya), Tirovishte (Bolgariya), Novi-Targ (Polsha) kabi toponimlar mavjud. Torgau (Germaniya), Turku (Finlyandiya), Turgu-Muresh, Turgu-Megurec, (Ruminiya), Kapreshi-Tirg (Moldova), Tirovishte (Slovakiya) kabi toponimlarda ham bozor so'zi asos vazifasini bajargan.

Osiyo mamlakatlari hududida ham tarkibida bozor so'zi bo'lgan nomlar ko'p. Bozormahalla, Pirbozor (Eron), Bozorturk, Xitoybozor (Qirg'iziston), Bozorchay, Armanibozor (Ozarbayjon), Islombozor (Xitoy) va hokazo. Ba'zan, bu turdagi nomlar Yevropaga dunyoning boshqa mintaqalaridan kirib kelgan. Masalan, Bolgariya hamda Serbiyadagi Pazardjik va Novi-Pazar kabi shaharlar nomlarining paydo bo'lishi usmoniy turklarning ushbu hududlarni bosib olishi bilan bog'liq.

Ta'kidlash joizki, har bir davr ishlab chiqarish tarzi, xo'jalik faoliyati va boshqa siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga tayanib nomlar majmuni yaratadi va aynan joy nomlarida kishilik jamiyati taraqqiyotidagi davr ruhi, xalqning turmushi va madaniyati bilan bog'liq turli xil voqea-hodisalar muhrlanib qoladi.

**Afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar.** Har bir davrni, ijtimoiy tuzumni o'ziga xos nomlash tamoyillari va talablari bo'lganligini ko'pchilik biladi. Shu sababdan, har qanday geografik nomni ijtimoiy ehtiyoj mahsuli sifatida qabul qilib, uning ma'lum tarixiy davrda, aniq bir hududda paydo bo'lganligini tushunish qiyin emas. Joy nomi xalq xotirasida, rasmiy hujjatlarda, kartalarda hamda turli yozma manbalarda yashaydi. Mutaxassislar,

nomning bag'rida yashiringan tarixni, ma'naviyatni ochib berish uchun nomlanishga asos bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, lisoniy omillarni o'sha davr voqealigi bilan hirga taqqoslab o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblashadi.

Inson faoliyatining mahsuli bo'lgan har qanday joy nomi o'tmish voqealigi hisoblanishi bilan birga, u aniq manzilni belgilaydi va muayyan mafkuraviy maqsadlarga ham xizmat qiladi. Aniqroq qilib aytganda, har bir davr, tuzum o'z g'oya va mafkurasiga tayangan holda joy nomlari majmuasini yaratadi. Masalan, diniy g'oyalarning targ'ibotchilari davr mafkurasini va ma'naviyatiga tayangan holda toponimikani ham o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga va ular yordamida e'tiqod qiluvchilarning psixologiyasi, dunyoqarashi va diniy hissiyotlariga ta'sir o'tkazishga harakat qilishgan.

Mutaxassislarning yozishicha, nasroniy va buddizm dinlariga e'tiqod qiluvchi mamlakatlar toponimiyasida diniy toponimlarning salmog'i ancha katta. Xususan, katolitsizm hukmron bo'lgan davlatlar toponimiyasida lisoniy jihatdan turli tillarga daxldor bo'lgan diniy toponimlarni ko'proq uchratish mumkin. Masalan, E.M.Murzayevning yozishicha, «Xorijiy mamlakatlarning geografik nomlari» lug'ati tarkibida faqat san-, sant-, sankt-, santa-, sen-, sent-, ya'ni «muqaddas» qo'shimchalar bilan yasalgan toponimlarga o'n olti qator joy ajratilgan.

Ispaniya, Portugaliya, Gollandiya, Buyuk Britaniya kabi davlatlar tomonidan yangi yerlarni zabt etish maqsadida tashkil etilgan ekspeditsiyalar tarkibidagi nasroniy rohiblar tubjoy aholini cho'qintirib, diniy g'oyalarni sindirish maqsadida, yangi barpo etilgan aholi punktlariga kristian dinining aziz-avliyolari nomlarini berishgan. Ular orasida geograflarga yaxshi tanish bo'lgan San-Salvador, Santo-Domingo, San-Xose, Santyago, San-Fransisko, Sent-Luis, San-Paulu kabi shaharlar bor.

Bu ro'yxatni yana ham davom ettirish mumkin, agar orol, qo'ltiq, ko'l, daryo, tog' va boshqa geografik obyektlarning nomlari ham qo'shilsa ularning soni bir necha mingtani tashkil etishi aniq. Masalan, Muqaddas Lavrentiy, Muqaddas Yelena, Muqaddas Pavel, Muqaddas Ilya yoki Santa-Krus (muqaddas

salib), Santa-Fe (muqaddas e'tiqod) kabi diniy toponimlarni ham shular qatoriga kiritish mumkin. Markaziy Amerikada joylashgan Gvatemala davlati hududidagi Tikal vodiysining nomi mayya indeyslari tilida - "arvohlar ovozi eshitiladigan joy" ma'nosini ifodalaydi.

Qadimgi Mesopotamiyada davlat poytaxti bo'lgan Vavilon shahrining nomi «xudo darvozasi» degan ma'noga ega. Hindistondagi Mumbai (Bombey) va Kalkutta shaharlari induizm xudolari Mumbi va Kali (Siva xudosisining rafiqasi) sharafiga shunday atalgan. Ganga daryosining yirik irmog'i hisoblangan Braxmaputra so'zining ma'nosi «Braxma xudosisining o'g'li» demakdir. Budda diniga sig'inadigan mamlakatlar toponimiyasida ham o'xshash holatni kuzatish mumkin.

Diniy nomlar qatoriga Himolay tog'lari hududida joylashgan, aholisi hozir ham Budda ahkomlariga qat'iy rioya qiladigan Mustang vodiysi nomini kiritish mumkin. Mutaxassislarning yozishicha, vodiya nomiga asos bo'lgan smong-tan so'zi - «muqaddas, sajdagoh» ma'nosini anglatadi. Yer yuzidagi eng baland cho'qqi hisoblangan Jomolungma (8848 m), nomi ham tibet tilida «muqaddas tog'», «ilohiy yer onasi» degan ma'nolarni ifoda etadi.

Islom davlatlari toponimiyasida ham diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlarni ko'plab topiladi. Ularning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar ham turlicha. Bunday geografik nomlar qatoriga Bag'dod - (Olloh in'om etgan) Iroq poytaxti, Ollohobod - (Olloh - islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy kuch; xudoning nomi) - Hindustondagi yirik shahar, Islomobod - (islom shahri) Pokiston Islom Respublikasi poytaxti, yoki dastlab Tangritog' (turkiy tilli xalqlarda Tangri bosh xudo hisoblangan), keyinchalik xitoylar uni Tyan-shan (tyan-«tangri», shan-«tog'») deb o'zgartirgan toponimlarni kiritish mumkin.

Saudiya Arabistonda musulmonlarning muqaddas shaharlari Makka va Madina joylashgan. Islomda Makka shahrini Umm ul-Quro («shaharlar onasi»), Madinani esa, Madinat Rasululloh («Olloh rasulining shahri»), yoki Madinat un-Nabi - «payg'ambar shahri» deb e'zozlashadi. Ma'lumki, arablar O'rta Osiyoga islom

dinini olib kelishi bilan birga diniy toponimlarning shakllanishida ham faol ishtirok etganlar. Diniy toponimlarni shakllanish tarixi aniq, ammo ularni geografik obyektlarga, jumladan aholi punktlari nomlariga aylanib qolish sabablari haligacha kam o'rganilgan.

O'rta Osiyo davlatlari toponimiyasi tarkibida mozor (arabcha - «ziyarat qiladigan joy, qadamjo») so'zi topoforment vazifasini bajargan geografik nomlar ko'p uchraydi. Masalan, So'fimozor, Qobilmozor, Mozorli, Qoramazor, Oqmozor, Mozorqo'rg'on, Mozorboshi kabi toponimlar shular qatoriga kiradi. Shu jumladan, Xivadagi me'moriy yodgorlik, Afg'onistonning shimoliy qismidagi shahar, Tojikistonda bir necha qishloq Mozori-Sharif deb ataladi.

Mutaxassislarining fikricha, O'zbekiston toponimiyasi tarkibidagi diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan toponimlarning negizini tashkil qiluvchi so'zlar ancha qadim davrda mahalliy xalqlar tiliga o'zlashgan va ular bevosita arablarning Movarounnahrni ko'p asrlik istilosi bilan bog'liq. Olimlar, diniy toponimlar orasida avliyolar, payg'ambarlar va har xil diniy e'tiqodlar bilan bog'liq bo'lgan nomlarning ko'pligini alohida qayd qilishgan. Buni Jizzax viloyati toponimiyasi misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, aziz-avliyolarni qadamjolari (Sayidon, Xo'jamushkent, So'fimazor, Parpiota) muqaddas oy va hafta kunlari nomlari (Ramazon, Juma), antroponimlar (Usmon, Haydar, Abdokarim, Umar) aholi punktlari nomlari sifatida o'z aksini topgan.

Jizzax viloyatining G'allaerol tumanida Avliyo nomli qishloq bor. Avliyo so'zi arab tilida xudoga yaqin odam. Islom an'anasida avliyolar qaysidir bir ishi, xizmati yoki xislati tufayli Olohga yaqin bo'lib qolgan, duolari mustajob, solih, qobil kamtar kishilardir. Qishloq nomi Sa'd ibn Abu Vaqqos ziyoratgohi bilan bevosita bog'liq. Og'a Burgutlining yozishicha, Sa'd ibn Abu Vaqqos arabistonlik sarkarda, hozirgi Avliyo qishlog'i yaqinida o'tgan bir jangda yaralangan, keyinchalik qoni to'kilgan joyda xonaqoh bunyod etilgan.

Geografik kartalarda o'sha joyga hech qanday aloqasi bo'lmagan nomlar ham uchraydi. Bunday nomlar kishilarning

eshitgan ertak, hikoyalari, o'qigan kitoblari qahramonlari, afsonaviy mahlaqlar nomlari bilan bog'liq holda vujudga keladi. Bunday nomlarga O'sh shahridagi Taxti Sulaymon, Toshkentdagi Kaykovus arig'i, Shri-Lankadagi Odamoto tog'i, Uraldagi Shaytonmakon, Sirdaryodagi Farhod qoyasi, Xorazmdagi Duldulot, Ohangarondagi Ali qoyasi misol bo'ladi. Bu turdagi toponimlar kishilarni xayoliy to'qimasi bo'lib, real voqelikni aks etmasa ham, joy nomi sifatida saqlanib qolgan.

H.Hasanovning yozishicha, afsonaviy nomlar orasida xayoliy va faraziy nomlar, ya'ni biror voqea yoki mish-mish gaplar sababli bor deb taxmin qilingan, aslida mutlaqo bo'lmagan joylarning nomlari ham uchrab turadi: Sannikov Yeri, Ko'hi Qof, Ya'juj-Ma'juj Yeri ana shunday nomlardir. Hindistonda Shri-Lanka orolidan ajratadigan Polk bo'g'izida marjon riflari tashkil topgan orollar mavjud. Mahalliy musulmon va xristianlarning e'tiqodiga binoan, Odamoto jannatdan quvilgandan keyin dastlab Shri-Lanka oroliga qadam qo'ygan va marjon qoyalardan tashkil topgan orollar orqali materikka o'tgan.

Zahiriddin Muhammad Bohur "Boburnoma" kitobida Markaziy Farg'onadagi qumli cho'l haqida bir rivoyatni keltirgan: "Bir necha darvesh qumli cho'lda ketayotgan ekan, hirdan qumli bo'ron (tund yel) ko'tarilib, darveshlar bir-birini topolmay, «ho darvesh», «ho darvesh» deya halok bo'lib turlar, andin beri bu bodiyani (cho'lni) Hodarvesh derlar".

Bunday xildagi rivoyat va afsonalarni ko'plab qishloqlar to'g'risida ham eshitish mumkin. Masalan, T.Nafasov yozishicha, Qashqadaryo viloyatida bir necha Achamayli nomli qishloqlar bor. Xalq rivoyatining qisqacha talqiniga ko'ra, Jillisuv daryosi toshgan. Navro'z bayrami kunida voyaga yetgan qiz onasi bilan daryodan o'tolmay turgan. O'tliq yigit kelib onasi bilan qiziga daryodan o'tkazib qo'yishni taklif qilgan.

Qizni otga mindirib o'tkazayotganda daryo o'rtasida otni to'xtatib, menga tegsang, o'tkazib qo'yaman, bo'lmasa, suvga sho'ng'itaman degan. Qiz onasiga ocha, ocha deb qichqirgan. Onasi tushunmasa ham, mayli, mayli degan. Daryodan sog'-salomat o'tib to'y qilishgan, manzil qurishgan. Qishloqni odamlar

Achamayli deb atashgan. Bu oddiy xalq tomonidan to'qilgan rivoyat. Aslida, achamayli - o'zbek xalqi tarkibiga singib ketgan etnik guruh nomi. Kenagas va mang'it qabilalari tarkibida achamayli urug'i bo'lgan.

Afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar o'tmishda son jihatdan ancha ko'p bo'lgan, har bir davr va tuzum o'z mafkurasi va ma'naviyatiga asoslanib turli maqsadlarda afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq toponimlar majmuasini yaratgan. Bunday nomlar xalqning ma'naviy dunyosining in'ikosi hisoblanadi. Ularni o'rganish va ilmiy jihatdan to'g'ri talqin qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

☞ **Savol va topshiriqlar:**

1. Moddiy ishlab chiqarishi tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan toponimlar qanday fazilatlariga ega?
2. Xalq hunarmandchiligi bilan bog'liq nomlarning keng tarqalishini qanday izohlaysiz?
3. Savdo va transport obyektlari bilan bog'liq toponimlarning paydo bo'lish sabablari haqida ma'lumot bering.
4. Afsona va rivoyatlar bilan bog'liq nomlar qanday sabablarga ko'ra paydo bo'ladi?

☞ **Text topshiriqlari:**

1. Taniqli toponimist olim T.Nafusovning yozishicha, o'tmishda shahar maqomiga erishish uchun, shaharda kamida ... ta kasb-hunar turi bo'lishi talab qilingan.  
A. 12 ta  
B. 22 ta  
C. 32 ta  
D. 42 ta
2. "Farkhod qoyasi", "Taxti Sulaymon", "Duldul ot" kabi toponimlar geografik nomlarning qaysi turiga mansub?  
A. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar  
B. Afsonaviy nomlar turiga mansub  
C. Savdo-sotiq bilan bog'liq nomlar  
D. Kasb-hunar bilan bog'liq nomlar

3. To'quvchilik kasbiga aloqador bo'lgan joy nomini belgilang.

- A. Ko'nchi
- B. Egarchi
- C. Parchabof
- D. Etikdo'z

4. Dushanba, Payshanba, Juma ... kabi toponimlarning paydo bo'lishiga asosiy sababi nima?

- A. Rivoyat va afsonalar asosida paydo bo'lgan nomlar
- B. Diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar
- C. Haftani shu kuni paydo bo'lgan nomlar
- D. Bozor bo'ladigan kunga qarab berilgan nomlar

5. Qadimdan savdo-sotiq joyi bo'lgan bozor Sharqda yana qanday vazifalarni bajargan?

- A. Savdo munosabatlari o'rnatish joyi
- B. Dam olish joyi vazifasini bajargan
- C. Yomgiriklardan xabardor bo'lish maskani
- D. Barcha javoblar to'g'ri

## 2.5. TOPONIMIKA VA LANDSHAFT

### ✎ Reja:

1. *Toponimika va landshaft haqida umumiy tushuncha*
2. *Joy nomlarida hudud tabiatining aks etishi*
3. *Geografik nomlar - o'lmish tabiiy sharoitini aniqlovchi manba*

✎ *Mavzuning maqsadi:* Toponimiya va hudud tabiiy landshaftining o'zaro bog'liqligi, joy nomlarida mintqa tabiatini aks etishi va geografik nomlar o'lmish tabiiy sharoitini aks etuvchi ishonchli manba ekanligini aniq misollar yordamida tushuntirishdan iborat.

✎ *Tayanch ibora va atamalar:* toponimiya, landshaft, tabiiy landshaft, geografik landshaft, tabiiy sharoit.

Hozirda tabiiy landshaftlarning hududiy va tarixiy tarqalish areallarini aniqlash va o'rganish, insoniyat oldida turgan tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish kabi muhim va dolzarb muammolarni hal qilishda asos bo'lib xizmat qiladi. Eng avvalo, ko'zlagan maqsadni amalga oshirishda ko'plab usullardan, jumladan toponimik metoddan samarali foydalansa bo'ladi.

Ma'lumki, har qanday nom muayyan tarixiy davrda, ma'lum tabiiy muhitda paydo bo'ladi. Shuning uchun, toponimlar joyning tabiiy-geografik xususiyatlarini aniq aks etadi va qimmatli ma'lumotlarni o'zida saqlaydi. Mutaxassislarning fikricha, O'zbekiston toponimiyasining asosiy xususiyatlaridan biri, tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan, ya'ni hudud tabiiy landshafti va uning tarkibiy qismlari bo'lgan, relef shakllari, o'simlik va hayvonot olami bilan bog'liq nomlarning ko'pligidir.

Ta'kidlash joizki, garchi tabiiy sharoit mintqa xalqlari hayoti va xo'jalik faoliyatida muhim ahamiyat molik bo'lsa ham, ular bilan bog'liq nomlar hozirgacha juda kam o'rganilgan. Qozoq terminshunos olimi G.K.Konkashpayevning yozishicha, ko'chmanchi chorvador xalqlarning turmush tarzi va xo'jalik faoliyati

tabiiy landshaftning komponentlari hisoblangan relef shakllari, suv manbalari, iqlimi, o'simlik qoplami, ovlash mumkin yoki chorvulariga xavf soladigan yirtqich hayvonlar bilan bevosita bog'liq. Darhaqiqat, turli manbalarni toponimik ma'lumotlar bilan qiyoslab mintqa toponimiyasi o'sha hudud tabiiy landshaftini o'zida aks etadi deyish mumkin.

Tabiiy landshaft va uning inson faoliyati ta'sirida o'zgargan qismi bo'lgan geografik landshaftdan majmuai va oqilona foydalanish muammolarini tadqiq qilish hamda antropogen omillar ta'sirida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Ana shunday amaliy maqsadlarni ko'zlab olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida toponimika fani va uning o'rganish obyekti bo'lgan geografik nomlar yordamidan foydalansa yaxshi samara beradi. Chunki kishilar tabiiy landshaftlar va ularda sodir bo'layotgan har qanday jarayonlarni doimo kuzatib boradi va ijtimoiy ehtiyoj tufayli atrofidagi geografik obyektlarga nom beradi. Shuning uchun, joy nomlarining katta qismi tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan bo'lib, ularda geografik landshaftning turli tarkibiy qismlari haqida aniq ma'lumotlar mujassam.

Binobarin, soha mutaxassislari toponimiya - bu hudud landshaftining o'ziga xos tili, uning mantiqiy ifodasi deyishadi. Bunday deyishga sabab, toponimiya orqali landshaft o'zi, tarixi, dinamikasi va xususiyatlari haqida «gapiradi». Joy nomlari yordamida landshaftni tadqiq etish, uning o'lmishdagi geografik holatini tiklash imkoniyati mavjud. Toponimlar yordamida geografik landshaftning tabiiy komponentlari bo'lgan relef shakli, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosini tarqalish areali va rivojlanish bosqichlarini aniqlash va tadqiq qilish mumkin.

Qadim zamonlardan buyon inson va jamiyat atrofidagi tabiiy sharoit, tabiiy-geografik jarayonlar va hudud landshaftlarining o'ziga xos xususiyatlarini kuzatib borib, geografik obyektlarni bir-biridan farqlash maqsadida ularga nom berganlar. Xususan, chorvador xalqlar tomonidan tabiiy geografik obyektlarga berilgan nomlar, hudud landshaftining rivojlanishi va uning dinamikasini

aniq aks etgan. Chunki ko'chmanchi chorvador xalqlarning turmush tarzi shuni taqozo qiladi. Ular uchun yaylov va undagi o'simliklar turi, ozuqabopligi, sifati, kam-ko'pligi, suv manbalarini yaqinligi kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

Binobarin, ko'pincha geografik obyektlar nomida tabiiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni topish mumkin. E'tiborli tomoni shuki, kishilar geografik obyektlarni nomlashda hududdagi foydali o'simlik va hayvonot turlarini aniq belgilashga harakat qilishgan. Shuning uchun, mahalliy xalq tomonidan geografik obyektlarga berilgan nomlarning ma'no-mazmunini aniqlamasdan, o'simlik va hayvonot olami turlaridan maqsadli foydalanish va tabiatning hududiy qonuniyallarini tushinish ancha qiyin bo'ladi.

Taniqli geograf olim Yu.Ahmadaliyevning yozishicha, "joyning landshafti tuzilishi va xususiyatlarini bildiruvchi geografik nomlar tarkibida dasht so'zi keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Odatda dasht - "obod qilinmagan, suvsiz chu'l" ga nisbatan qo'llanadigan geografik termindir. Tabiiy geografiyada dasht tabiat zonasi deb cho'lga nisbatan shimolda joylashgan, o'simlik va hayvonot dunyosiga nisbatan boyroq bo'lgan hududga aytiladi. "Dasht" so'zi bilan Dashti Qipchoq, Qarshi Dashti, Dashtobod, Dasht mahalla, Dasht Pandigon, Dasht Tegirmon, Dasht Cho'lpon, Dasht Hasan, O'qchidasht, G'anidasht kabi joy nomlari yuritiladi".

Olimning xulosasiga ko'ra, "hududning o'ziga xos tabiiy geografik xususiyatlaridan relef, iqlim, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan bog'liq bo'lgan toponimlar mazkur tabiiy obyektlarning o'tmishi va hozirgi holati haqida ma'lumot (informatsiya) beradi, geografik nomlarning asosiy vazifasi bo'lgan adreslik funksiyasini to'g'ri bajaradi. Bundan tashqari bu nomlar o'zlari kabi uzoq vaqt o'zgarimasdan saqlanib turishi, jamiyatda ularni o'zgartirish, qayta nomlash uchun vaqt va mablag' saqlash zarurati yo'qligi bilan ahamiyatlidir".

**Joy nomlarida hudud tabiatining aks etishi.** Qadimdan buyon kishilar atrofini o'rab turgan tabiat va uning komponentlariga ijtimoiy ehtiyoj tufayli doimo kuzatganlar va

geografik obyektlarni bir-biridan farqlash uchun nom berganlar. Ayniqsa, hayot tarzi tabiat va ularni o'rab turgan atrof-muhit bilan bevosita bog'liq bo'lgan xalqlar tabiiy-geografik obyektlarni nomlashga alohida e'tibor berganlar. Xususan, chorvador xalqlarning chorvasi uchun asosiy ozuqa manbai bo'lgan o'simlik turlarini o'sadigan joylarni nomlash muhim hisoblangan.

Bu turdagi geografik obyektlar ko'pincha ozuqabop o'simliklar nomi bilan atalgan. Masalan, Yantoqli, Jusandi, Betagali. Shuvoqli kabi toponimlar ushbu hududlarda chorva mollari uchun ozuqabop o'simliklarni qaysi hir turini ko'pligidan darak bersa, ular orqali chorvachilikning qaysi sohasini rivojlantirishga qulay imkoniyatlar mavjudligini aniqlaganlar. Chorva mollari uchun asosiy ozuqa manbai bo'lgan o'simlik turlari hamda cho'l hududida muhim gidronimik obyekt bo'lgan quduqlar nom tanlashda darak beruvchi vazifasini bajargan.

Toponimlar yordamida landshaftning tabiiy komponentlari bo'lgan relef shakli, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosini tarqatish areali va rivojlanish bosqichlarini aniqlash va tadqiq qilish mumkin. Ma'lumki, inson qadim zamonlardan boshlab o'simliklarni o'rganish, arealini aniqlash, ulardan me'yorida foydalanishga harakat qilgan. Masalan, Andijon, Toshkent, Jizzax viloyatlari toponimiyasi tarkibida Betaga, Betagali, Betagaliso'y kabi joy nomlari uchraydi. Betaga - mayda o't, mahalliy xalq uning chorva uchun ozuqabop o'simlik ekanligini bilgan holda ushbu joylarga shunday nom bergan.

S. Qorayevning yozishicha, betaga dasht va yaylovlarda o'sadigan mayda o't, uni ruslar tipchak deyishadi. Zahiriddin Muhammad Bobur betaga o'simligiga ajoyib ta'rif bergan. «Andijonda bu o'tai butka derlar, vaji tasmiyasi ma'lum emas edi, bu viloyatlarda ma'lum bo'ldi. Bu o't buta-butqa chiqar uchun uni butaka derlar emish». Bu o't haqiqatdan ham to'p-to'p bo'lib o'sadi va uni ayniqsa yilqi yaxshi ko'radi, betagali yaylovda yurgan biya yaxshi semiradi, qimizi yog'li va yoqimli bo'ladi.

Tabiiy landshaft komponentlaridan yana biri tuproq hisoblanadi. Insoniyatning hayot kechirish muhitini tashkil etuvchi omillardan biri bo'lgan tuproq doimo kishilar diqqat markazida



bo'lgan. Shu bilan birga, tuproqning umumdorligi, tarkibi, turi, rangi kabi xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun, tuproqlarning ayrim diqqatga sazovor xususiyatlari joy nomlarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston toponimiyasi tarkibida Jo'sh, Jo'sha, Jo'shali, Jo'shi kabi joy nomlari uchraydi. Masalan, Forish tumani hududida joylashgan qishloqlardan birining nomi - Jo'shali. Mahalliy xalq kaynazoy erasining uchlamchi davrida paydo bo'lgan qizil tuproqni jo'sh deb ataydilar. Aytishlaricha, qadimda bunday tuproqlarni maydalab chaqaloqlarga sepki (pudra) sifatida foydalanishgan.

Jo'sha degan qizil bo'yoq ham bo'lgan (ruscha, surik). U kulolchilikda sopol idishlarga qizil rang va naqsh berish uchun ishlatilgan. Mahalliy xalq tilida jo'sh deb ataladigan qizil tuproqlar ko'p bo'lgan hududda paydo bo'lgan qishloqqa Jo'shali nomi berilgan.

Iqlim ham tabiiy landshaft komponentlardan biri. Inson o'zi yashaydigan joy iqlimi va ob-havo xususiyatlariga befarq bo'lmagan, undan iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatida samarali foydalanishga harakat qilgan. Iqlim va meteorologik sharoitlar bilan bog'liq nomlarning paydo bo'lishi uchun, ular aniq bir hududni ifodalashi shart emas. Shuni diqqatga sazovorki, toponimiyada bu guruhga tegishli nomlar keng tarqalgan bo'lsa ham, ammo ular orasida meteorologik terminlar ancha kam. Bu holatni tabiiy meteorologik jarayonlarning davomiyligi (dinamikasi) bilan bog'lash mumkin. Bunday tabiiy hodisa va jarayonlarni joy nomi sifatida shakllanishi uchun, kishilar tomonidan uzoq va bardavom kuzatilishi yoki ularning doimiy va barqaror hodisa ekanligini aniq bilishi kerak.

Dunyo kartasida Shamolli va Shamolsiz orollar (Markaziy Amerikada), Kuril orollari (Rossiyada) - ayni qabilasi tilida «tutum», «buhut» deyilgan. Vindxuk shahri nomining ma'nosi (Namibiya poytaxti) - «shamolli d穹on», Nuakshot (Mavritaniya poytaxti) - «shamolli joy», Boro-Dala dashti (Mongoliya) - «shamolli vodiy» kabi iqlim va ob-havo xususiyatlari bilan bog'liq nomlar uchraydi.

Janubiy Amerikadagi Chili davlatining nomi mahalliy araukano hindulari tilida «sovuq», «qish» degan ma'noni beradi. Tekislikda yashovchi araukano qabilasi qor bilan qoplangan baland And tog'lari cho'qqilarini shunday atashgan. Ekvador davlati gorbida tasvirlangan Chimboraso vulqoni nomi tarkibidagi raso so'zi, mahalliy hindular tilida «qor» ma'nosini ifodalaydi. Gviana yassi tog'larining eng baland joyi Neblina (Sera-Neblina) tog'i ma'nosi - «tumanli». Kelantan shtatining (Malayziya) nomi, malaya tilida «chaqmoq, yashin» - (haqiqatdan ham yomg'irlar faslida kuchli ho'ron va chaqmoqlar kuzatiladi).

Gavayi orollaridagi vulqonlarning biriga Vayleleale (to'la suv) nomi berilgan, bunga esa vulqon joylashgan tog' etaklariga yog'adigan katta miqdordagi yog'ingarchilik sahab bo'lgan. Bu joy dunyodagi eng ko'p namlik tushadigan hududlardan biri hisoblanadi. Himolayning janubiy yonbag'ridagi mashhur seryomg'ir hudud Cherrapunja - «jilg'alar qishlog'i» degan ma'noni anglatadi.

Baland tog'larga ko'pincha, ob-havo yoki yog'in turlari bilan bog'liq bo'lgan nomlar berilgan. Masalan, Himolay - dunyodagi eng baland tog' tizmalaridan biri. Sanskritcha xima - «mangu qor», alayya - «makon», ya'ni mangu qorlar makoni, Kavkaz - «qorli tog'» va hokazo. Turkiy xalqlarda ham baland tog'larni shu tarzda nomlash odati bo'lgan: Muztog', Muztog'ota (Xitoy), Muzdara, Muzbel, Sovuqdara (O'zbekiston) va boshqalar. Afrikaning eng baland Kilimanjaro (suaxili tilida, klimangaro - «muqaddas tog'», «sovuqlik xudosi») tog'ining tepasi hamisha qor va muz qoplab turganligidan mahalliy xalq tog'ni muqaddas bilib unga sig'ingan.

Iqlim va meteorologik sharoitlar bilan bog'liq toponimlar qaturiga Ajal vodiysi - Shimoliy Amerikadagi eng issiq joy, mahalliy shoshon hindulari tilida Tomesha - «oyoq ostida yonayotgan yer», iqlimini haddan tashqari issiqligiga ishora yoki Hindistondagi Srinagar - «quyoshli shahar», kabi metaforik - majoziy nomlarni ham kiritish mumkin. Islandiya - davlat va orol nomi.

Orolni kashf qilgan normanlarga qishda baliq ovlashga muzlar xalaqit bergan. Orolida yil davomida qorni ko'p yog'ishi hamda, hududining ko'p qismi muzlar bilan qoplanganligi bois, orolga Islandiya (norveg tilida, is - «muz», land - «er»), ya'ni muzlar o'lkasi nomi berilgan. Avstraliya aborigenlari hayotida iqlim sharoitlari va hodisalari ko'pincha muhim ahamiyat kasb etganligi tufayli bu guruhga tegishli nomlar ancha keng tarqalgan.

Iqlim va obu-havo xususiyatlaridan ogohlantiruvchi nomlar ham mavjud. Ular ko'pincha sayyohlar va dengizchilar tomonidan yangi joylarni kashf etish vaqtida berilgan. Masalan, portugaliyalik dengizchi Bartolomey Diash 1488 yili uzoq sayohatdan keyin Afrika qit'asining eng janubiy nuqtasiga yetib borgan. Uzoq va xatarli yo'lni bosib kelgan B.Diash, janubiy Afrikada kuchli to'fonlarga duchor bo'ladi va yo'lida uchragan birinchi burunga Sabo Tormentoso - «To'fonlar burni» deb nom beradi. Portugaliya qirolli Juan II, boy va afsonaviy Hindistonga yo'l olish ilinjida, keyincha burun nomini Sabo da Boa Esperanza - «Yaxshi Umid burni» deb o'zgartirgan.

Iqlim bilan bog'liq geografik terminlar ham ko'p va ular juda qadimiy. Kishilar qadimdan tabiatga, undagi iqlimiy o'zgarishlarga zehn solib, kuzatib kelishgan va shu orqali dehqonchilik taqvimlarini tuzishgan. Xalq geografik terminlarining tarkibiy qismi hisoblangan iqlim bilan bog'liq bo'lgan xalq geografik terminlari qatoriga angqizoq, aynz, beshqo'noq, bulduruq, bulut, garmsel, jala, jiltir, muzchopqun, shabnam, yut kabi ko'plab geografik terminlarni kiritish mumkin.

Masalan, qish kunlari havo ilib qorlar erishni boshlagan paytda, sovuq oqim kelishi natijasida ho'l qor muz bo'lib qotib qoladi. Xalq orasida bunday tabiat hodisasini yut yoki shovush deb atashadi. Yaylovda boqiladigan chorva mollari uchun juda xavfli hisoblanadi. Yomg'ir aralash qor yog'ib, shamol esib turish hodisasi - chopqun yog'in deb atalgan. Issiq shamol - garmsel, sovuq shamol - sardsel, yog'insiz chang bo'ronli qattiq shamol - qoradovol deyilgan va hokazo.

**Tabiiy landshaft turlari bilan bog'liq nomlar.** Foydali qazilma boyliklar mavjud bo'lgan hududlarda ularning nomi bilan

atalgan oykonimlar ko'p uchraydi. Masalan, tuz konlari topilgan hududlarda Galle (Germaniya, kelt tilida hala - «tuz»), Zalsburg (Avstriya, nemis tilida - «tuz shahri»), Shahrituz (Tojikiston - «tuz shahri»), Soligorsk, Solikamsk (Rossiya, rus tilida - «tuz shahri») kabi oykonimlarni uchratish mumkin.

Hozirda qazib olinayotgan ycr osti boyliklari ham joy nomlarida o'z aksini topgan: Ulegorsk, Uglekamensk, Antratsit kabi nomlar, ko'mir; Nefteyugansk, Neftekamsk, Nebit-Dag (turkman tilida - «neft tog'i») - neft; Jezqazg'an (qozoq tilida - «mis qazib olingan joy»), Mednogorsk, Shaba (Konga, suaxili tilida - «mis») - mis; Gazli - gaz qazib olish bilan bog'liq va hokazo. Apatiti, Magnitogorsk, Marganets, Medniy, Mednogorsk, Neftegorsk, Nikel, Olovyannaya, Slansi, Tortyanoy, Shaxinsk kabi nomlar ham qazilma boyliklar asosida paydo bo'lgan.

Selendja (Rossiya, Uzoq Sharq) daryosining nomi evcnk tilida - «temir» ma'nosini anglatishini bilgan geologlar, ko'p o'tmasdan daryo havzasidan temir rudasining yirik konini topishgan. Afrikaning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan Nubiya cho'li nomining asosini nuba - «oltin» so'zi tashkil etadi. Shu joydagi yirik oltin konlardan qadimgi misr fir'avlari saroyiga oltin qazib olinganligi ma'lum. Ratnapura (Shri-Lanka) - «qimmatbaho toshlar shahri» - shu joydan qazib olinadigan qimmatbaho toshlar shahar nomiga asos bo'lgan. Shri-Lanka oroli ham qadimda Ratnadvipa - «qimmatbaho toshlar oroli» deb atalgan.

Qirg'izistondagi Toshko'mir, Turkmanistondagi Nebitdog', Gugurtdog', Rossiyadagi Magnitogorsk, Solikamsk, Apatit shaharlari nomi foydali qazilmalar bilan bog'liq. Janubiy Amerikadagi And tog'lari (mis tog'lari), Argentina (Argentus - kumush), Turkiyadagi Marmara dengizi nomiga ham foydali qazilmalar konlari borligi asos bo'lib xizmat qilgan. Dunyoda eng uzun hisoblangan And tog'larining nomi mis konlari bilan bog'liq. Ma'lumki, miloddan avval ham ushbu hududdan mis qazib olingan. And so'zi ham kechua hindulari tilida anta - «mis» degan ma'noni ifodalaydi. Oltoy tog'idagi Terliqoya degan joyda tog'ning yonbag'ridan yaltiroq suyuqlik tomchilab turgan.

geologlar tekshirib ko'rganda suyuqlikni simob ekanligi aniqlangan.

O'zbekistondagi Konsoy, Kontepa, Oltinbel, Oltintog', Kumushkon, Miskon, Ko'hisim, Tuzkon, Surmatosh, Qo'rg'oshinkon kabi geografik obyektlarning nomlari bu joylardan ilgari yer osti boyliklari qazib olinganidan dalolat beradi. Masalan, Parkent tumanida joylashgan Kumushkondan qadimda ham, yaqin-yaqinlarda ham qo'rg'oshin qazib olingan. Nima uchun Kumushkon qo'rg'oshinkon deb atalgan emas?

Buning siri yaqindagina aniqlandi. Ma'lum bo'lishicha, Kumushkonning qo'rg'oshin rudalari boshqa kon rudalaridan o'zining kumushga boyligi bilan ajralib turar ekan. Ko'hisim o'rta asrlarda Ilqodagi mashhur konlardan bo'lgan. Mutaxassislar Qurama tog'larining shimolida joylashgan hozirgi Lushkarak polimetall rudalari konini, qadimgi Ko'hisim (tojikcha, «kumush tog'») ning o'zginasi ekanligini aniqladilar. Bu kondan qadimgi davrlarda ko'plab kumush qazib olinganligi ma'lum bo'ldi.

**Antropogen landshaft turlarining joy nomlarida aks etishi.** Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi eng qadimiy tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu sababdan, geografik nomlar tarkibida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq joy nomlari (agroonimlar) ko'p uchraydi. Buni O'zbekiston toponimiyasi misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Dengiz, daryo, ko'l, buloq va boshqa yer osti va yer usti suv manbalariga tutash va yondosh hududlar azal-azaldan aholining dehqonchilik qiladigan sarhurlari bo'lganligi aniq.

Sun'iy sug'orishga mo'ljallangan dehqonchilik uchun, daryolardan kanal va ariqlar chiqarib hamda davriy suvlardan oqilona foydalanish maqsadida band va to'g'onlar qurib qadimda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan aholining qishloq xo'jalikka oid kasb-kori joy nomlarida o'z aksini topgan. Qishloq, mahalla nomlarida qadimiy dehqonchilik madaniyatini isbotlovchi maxsus so'z - atamalar mavjud. Bu qatorga band, darg'at, varg' kabi suv taqsimlovchi gidrotexnik inshootlarni belgilovchi terminlarni kiritish mumkin.

Soy va daryolarda quriladigan to'g'on, tog' daralarida qurilgan qadimiy gidrotexnik inshoot band deyilgan. Masalan, Forish tumanida joylashgan Xonbandi gidrotexnik inshooti Nurota tog'laridan oqib chiqadigan Osmonsoy va Ilonchisoyniing suvlarini to'plash uchun qurilgan. Xonbandi suv ombori taxminan 1500 gektar yer maydoni o'zlashtirilgan. Mutaxassislarning fikricha, mazkur to'g'on inshooti O'rta Osiyo - ko'lna Turon xalqlari bunyod etgan sug'orish inshootlari orasida eng qadimgisi hisoblanadi.

Bunday toponimlarning paydo bo'lishi ko'pincha hududning tabiiy sharoiti bilan ham bog'liq, dehqonchilikning qaysi turini rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyat bo'lsa u joy nomiga asos bo'lgan. O'zbekistonda paxta asosiy qishloq xo'jaligi ekini hisoblanadi, shu sababdan, paxta so'zi asosida shakllangan joy nomlari respublika toponimiyasi tarkibida ko'p.

Oqoltin, Paxtakor, Paxtachi, Paxtaobod kabi aholi punktlari nomlari bevosita paxtachilik kashida erishgan yutuqlarning natijasi sifatida tarix sahifalaridan joy olgan nomlar sirasiga kiradi. Boshqoqli ekinlar ham qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, lalmi yerlarda g'alla ekuvchi va hosil yetishtiruvchi dehqonlar sha'niga XX asrning o'ttizinchi yillaridan keyin G'allakor, G'allaorol, Bug'doychi kabi geografik nomlar respublika hududida ancha ko'paydi.

Masalan, G'allaorol so'zining geografik nom sifatida paydo bo'lishi tarixi uncha uzoq emas. 1930 yilning kuzida o'sha davrdagi respublika rahbarlaridan biri (Y.Oxunbuboyev) Yangiqo'rg'on (G'allaorolning avvalgi nomi) tumanida bo'lib, tumanning lalmikor yerlarini haqiqiy g'alla oroliga aylantirish maqsadida, g'alla yetishtirishga bag'ishlangan yig'ilishda qatnashib nutq so'zlagan. «Men, tumaningizning lalmi yerlari bilan tanishdim, bu yerlar rizq - no'zimiz hisoblangan g'allaga kon bo'ladigan joy ekan. Shunday ekan, tumaningiz nomi ham G'allaorol bo'lsin» degan fikrini bayon qilgan. Shu voqeadan so'ng ko'p o'tmasdan 1931 yili tuman nomi G'allaorol deb o'zgartirilgan.

Yer osti suvlarning tabiiy holda yer yuzasiga chiqishi ham dehqonchilik va chorvachilikni rivojlanishida muhim omil bo'lib

xizmat qilgan. Buloq, quduq so'zli toponimlarning paydo bo'lishida chorvadorlarning ham hisssasi katta. Muxtasar aytganda, geografik nomlarning turidan darak beruvchi indikator so'zlarga qarab mintaqada ixtisoslashgan qishloq xo'jalik tarmoqlarini payqash qiyin emas. Chunonchi, cho'l hududlarida oqar suvlarning yo'qligi, ammo yaylovlar va yer osti suvlarining mavjudligi chorvachilikni rivojlantirish imkonini bergan.

Qishloq xo'jalik madaniyati bilan bog'liq bo'lgan geografik nomlar tarkibida dala, maydon, bog', dast, qo'riq, bo'z, marza, ariq, quduq kabi so'zlar toponimik terminlar sifatida faol qatnashgan. Chunonchi, Bog'zor, Bog'bon, Bog'iston, Bog'obod, Bog'tot kabi toponimlar xalqning bog'dorchilik madaniyati bilan bog'liq tarzda yuzaga kelgan.

Agroonimlarning muhim xususiyatlaridan biri ularning o'zgaruvchan xarakterga ega bo'lganidir. Binobarin, ular boshqa toponimlarga nisbatan oson o'zgaradi yoki o'zgartirilishi mumkin. Toponimlarning boshqa turlari kabi ularga ham hududiylik xos va chegaralangan kishilar nutqida qo'llaniladi. Agroonimlarning «yashash» davri nisbatan qisqa bo'lganligi bois, ularning ma'nomazmunini aniqlash qiyin emas.

Turli landshaft komponentlarini aks ettiruvchi geografik nomlarni o'rganish, ilmiy tadqiq qilish muayyan hudud tabiati o'tmishda qanday bo'lganligi, landshaft komponentlarining o'zgarishi, transformatsiyasi haqida xulosa chiqarish imkoniyatini beradi. Muxtasar aytganda, har bir hududda joyning o'tmish tabiiy sharoiti bilan bog'liq toponimlar va geografik terminlar o'ziga xos qonuniyatlar asosida shakllangan. Ushbu hududiy qonuniyatlarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

#### ✧ Savol va topshiriqlar:

1. Toponimiya va landshaft orasida qanday bog'liqlik mavjud?

2. Hudud tabiatining joy nomlarida aks etishini aniq misollar yordamida tushuntiring.

3. Qanday sabablarga ko'ra o'tmish tabiiy sharoiti joy nomlarida o'z aksini topgan?

#### ✧ Test topshiriqlari:

1. Landshaft so'zi qaysi til mahsuli va qanday ma'noga ega?

A. lotincha, land - "davlat", shaft - "nom"

B. nemischa, land - "er", shaft - "manzara"

C. grekcha, land - "hudud", shaft - "ohod"

D. o'zbekcha, land - "maydon", shaft - "baland"

2. Taniqli geograf olim Yu.Ahmadaliyevning yozishicha, joyning landshaft tuzilishi va xususiyatlarini bildiruvchi joy nomlari tarkibida .... so'zi keng tarqalgan. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni qo'ying va belgilang.

A. cho'l

B. dast

C. adir

D. qir

3. Jo'sh, Jo'sha, Jo'shali kabi toponimlar tabiiy landshaftning qaysi bir turi bilan bog'liq?

A. o'simlik

B. iqlim

C. tuproq

D. suv

4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq joy nomlari turi .... deyiladi. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni qo'ying va belgilang.

A. fitonimlar

B. oykonimlar

C. oronimlar

D. agroonimlar

5. Qanday sabablarga ko'ra joy nomlari hudud tabiati aks etadi?

A. tabiatdan oqilona va unumli foydalanish maqsadida

B. joydagi o'simliklarni aniqlash uchun

C. hudud tabiatiga ta'siri kuchaytirish maqsadida

D. tabiatni muhofaza qilish maqsadida

### III BOB. AMALIY TOPONIMIKA

#### 3.1. TOPONIMIKAGA OID HUQUQIY-ME'YORIY HUJJATLAR

##### ✧ *Reja:*

1. *"Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va milliy toponimik siyosat.*
2. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining geografik nomlarga oid qararlari va boshqa sohaga daxldor me'yoriy-huquqiy hujjatlarning amaliy ahamiyati.*
3. *Geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyalarning asosiy vazifalari va ularning faoliyat yuritish tartibi.*

✧ *Mavzuning maqsadi:* O'zbekistonda milliy toponimik siyosatni amalga oshirish uchun qabul qilingan qonun, qarorlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati va ularni amalda qo'llash mexanizmlari bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.

✧ *Tayanch ibora va atamalar:* qonun mohiyati, qaror ijrosi, davlat reyestri, nom ekspertizasi, milliy standartlashirish, nomlardan foydalanish, nomlarni saqlash va muhofaza qilish.

O'zbekistonda istiqbol yillarida milliy toponimik siyosatni amalga oshirish bo'yicha barcha huquqiy asoslar yaratildi. 2011 yili "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (2011 y. 12.10. № O'RQ - 303) qabul qilindi. To'rt bob va yigirma to'rt modddan iborat bo'lgan, mazkur qonunning asosiy maqsadi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlashdagi munosabatlarni tartibga solish, mavjud nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, nom yozilishining rasmiy va umumiy istemol uchun yagona shaklini aniqlash, davlat reyestrini yuritish, ekspertizadan o'tkazish, milliy standartlashirish, nomlardan foydalanish, saqlash hamda muhofaza qilishdan iborat.

Qonunda ilk bor geografik obyekt tushunchasiga ta'rif berildi va mamlakatimiz hududidagi barcha geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan davlat ekspertizasi hamda toponimik, etnografik, lingvistik, kartografik va boshqa tadqiqotlar majmuini amalga oshirish uchun maxsus vakolatli davlat organi belgilandi. Bu muhim vazifalar O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasi ("Yergodezskadast" davlat qo'mitasi) va uning tarkibida maxsus tashkil etilgan Respublika toponimika xizmati markazi zimmasiga yuklatildi.

Ta'kidlash joizki, ushbu qonunning qabul qilinishi geografik obyektlarning nomlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishni muhimligi, ulardan to'g'ri foydalanish, joy nomlarini xalqimiz milliy va ma'naviy merosining tarkibiy qismi sifatida saqlash zarurligini tasdiqlaydi.

Mazkur qonun talablarining bajarilishini ta'minlash maqsadida qabul qilingan qarorlar esa, mamlakatimiz toponimik siyosatida yuz berayotgan o'zgarishlarni o'z vaqtida anglab yetishni, mintaqalar toponimiyasidagi mavjud muammolarni mukammal o'rganish va bartaraf qilishni, yangi geografik obyektlarni nomlashda xalqimizning asrlar osha shakllangan va takomillashgan an'analari, nomshunoslik qoidalariga qat'iy amal qilishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, ushbu normaliv hujjatlar geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bilan bog'liq bo'lgan ayrim nomuvofiqliklarni to'la bartaraf etadi va ularni standartlashtirish imkoniyatini beradi.

"Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talahlarini amalga juriy qilish hamda geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2012 y. 12.10. № 295-sonli) ham qabul qilindi. Mazkur qarorning qabul qilinishi geografik obyektlarga nom berish va qayta nomlash bilan bog'liq ayrim normalardagi nomuvofiqliklarni to'la bartaraf qilish va joy nomlarini bir xilda qo'llash imkonini berdi.

Qaror bilan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika va hududiy komissiyalar to'g'risida Nizom ham tasdiqlandi. Nizomga ko'ra respublika va hududiy komissiyalar joylarda qonun talablarini bajarilishini nazorat qiluvchi maxsus organ hisoblanadi. Qarorda vakolatli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan yangi tashkil etilayotgan geografik obyektlarga qonun talablariga muvofiq nom berish tartibi aniq belgilab qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, qaror talablariga ko'ra viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar ovullar, aholi punktlari va uning tarkibiy qismlariga (ko'chalar, shohko'chalar, mahallalar, maydonlar, bog'larga) odamlarning ismi-sharifining berishga, shuningdek ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga, qoida tariqasida yo'l qo'yilmaydi. Faqat, O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar bundan mustasno deyilgan.

Ma'muriy-hududiy birliklarning nomlari, qoida tariqasida, ularning ma'muriy markazlari nomidan, yoki ma'muriy-hududiy birliklar joylashgan hudud qismining geografik yoki tarixiy nomidan hosil bo'lishi lozim. Transport va muhandislik-texnika infrotuzilmasi obyektlari, jumladan aeroportlar, vokzallar, temir yo'l stansiyalari nomlari, ularning yonida joylashgan aholi punktlari yoki ularning tarkibiy qismlari nomlaridan hosil bo'lishi kerak.

"Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunda geografik obyektlarga bir xil nom berilishiga yo'l qo'yilmaslik haqida ham aniq norma kiritilgan. Unga ko'ra, respublika tarkibidagi viloyatlar, tumanlar, shaharlarga hamda bir tuman, shahar yoki aholi punkti doirasidagi bir nechta turdosh geografik obyektlarga bir xil nom berish mumkin emas. Chunki, qayta-qayta takrorlanadigan nomlar ko'payib ketsa, ular joy nomini mazmunan qashshoqlashtiradi va joy tarixi, tabiiy sharoiti bilan bog'liq bo'lmagan sun'iy nomlarning ko'payib ketishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, takroriy nom toponimning bosh fazilati bo'lgan adreslik funksiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Geografik obyektlarga to'la mos keladigan eng maqbul nomni ilmiy jihatdan to'g'ri tanlash ancha murakkab masala. Agar nom

to'g'ri tanlansa, u xalqning ijod mahsuli sifatida chinakam xalq mulkiga aylanadi. Buning uchun eng avvalo nom sodda, oddiy, hamma uchun tushunarli, real haqiqatni aks etadigan, chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Hech qanday asossiz balandparvoz, haqiqiy voqealikdan uzoq nomlar qo'yish, ya'ni mafkuraviy lof urishning hayotiy siyosat emasligini yaqin o'tmishdagi achchiq tajriba ko'rsatdi. Binobarin, geografik obyektga real voqealikdan, kundalik hayotdan, mavjud tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy omillarga asoslanib nom tanlash zarur.

"Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi qonun qabul qilingandan keyin paydo bo'lgan nomlar orasida mazmun-ma'no jihatidan ham, grammatik jihatdan ham chinakam milliy toponimlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ammo, bir qarashda tushunarli, sharqona, chiroyli nomlar orasida ba'zan oddiy turdosh otlar, har xil chaqiriqlar, shiorlar, chuchmal nomlar ham uchraydi. Masalan, ba'zi joylarda aholi punkti yoki uning tarkibiy qismlariga Ilg'or, Musaffo, Fazo, Mahorat kabi ko'plab turdosh otlar nom sifatida tanlangan.

Nomshunos olim Suyun Qorayev ta'biri bilan aytganda, bunday turdosh so'zlar geografik nom bo'lolmaydi, ularda toponimik «immunitet» yo'q, ularga zo'rma-zo'raki geografik nom bo'lish «pasporti» berilgan. Zero, hamma so'z ham joy nomi bo'lolmaydi, geografik obyekt o'ziga munosib nom, so'z "tanlaydi".

Agar, geografik obyekt nomini o'zgartirish zaruriyati paydo bo'lsa, unda qonunda belgilangandek quyidagi hollarda uni o'zgartirishga yo'l qo'yiladi:

- geografik obyektning tarixiy nomini tiklash zarur bo'lganda;
- amaldagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmagan, abreviaturra, raqam yoki so'z birikmasi bilan belgilangan bo'lsa;
- O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning nomlarini berish zarur bo'lganda;
- shahar, tuman, mahalla doirasida geografik obyektlarning nomi bir xil bo'lganda;
- geografik obyekt ikki va undan ko'pga bo'linganda.

Viloyat, shahar, tuman kabi yirik geografik obyektlarni nomlash va nomini o'zgartirish uchun viloyat hokimi iltimosnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga murojaat qilishi kerak bo'ladi. Vazirlar Mahkamasi iltimosnomani ko'rib chiqadi va tegishli hujjatlar bilan birga xulosa ulish uchun respublika komissiyasiga yuboradi. Respublika komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ularni davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi "Yergodezkadastre" davlat qumitasiga topshiradi.

Shundan so'ng, respublika komissiyasi o'tkazilgan ish yakunlariga ko'ra hamda davlat ekspertizasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosani O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi. Vazirlar Mahkamasi xulosani hisobga olgan holda viloyat, shahar, tumanga nom berish yoki uning nomini o'zgartirish to'g'risida taklif layyorlaydi va uni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqish uchun kiritadi. Oliy Majlis navbatdagi sessiyasida takliflarni muhokama qilib, tegishli qaror qabul qiladi.

Agar shaharchalar, qishloqlar va ularning tarkibiy qismlari kabi nisbatan kichikroq geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirishga to'g'ri kelsa, unda tuman hokimining takliflarini mos holda viloyat komissiyasi ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qilish uchun Xalq deputatlari viloyat Kengashiga yuboradi.

So'nggi yillarda, respublika miqyosida juda ko'plab uy-joylarni qurilishi yangi ko'cha, mahalla va aholi punktlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda, ularning barchasiga qonun talablariga mos nom tanlash zarur. Eng avvalo yangidan barpo etilayotgan ko'cha, mahalla va aholi punktlarga o'sha joyning xalqona nomi bo'lsa uni berish maqsadga muvofiq, agar bunday nom bo'lmagan taqdirdagina yangi nom tanlash mumkin. Eng muhimi berilayotgan yangi nomlar avvalgisidan farq qilishi, takror bo'lmashligi hamda mavjud toponimik tizim qoidalarini buzmasligi kerak.

Buning uchun eng avvalo viloyat, shahar va tuman hokimiyatlari qoshida tashkil etilgan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyalari ishini jonlashtirish zarur. Komissiya a'zolari mahalliy hokimiyat vakillari boshchiligidagi shahar va tumanlardagi barcha geografik obyektlar nomlarini ilmiyligini tekshirib, ularning lotin alifbosida to'g'ri yozilishi nazorat qilmog'i lozim. Mulkebilik shaklidan qat'i nazar har qanday yangi tashkil qilinayotgan muassasa va tashkilot nom tanlashda mahalliy hokimiyat qoshidagi mazkur komissiyaning xulosasi bilan ish ko'rsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga, hududiy komissiya a'zolari geografik obyektlarga nom tanlashda har qanday kattaroq hududning mahalliy xususiyatlari borligini inobatga olishlari lozim. Nom tanlashda hududning tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, mahalliy geografik terminlari, aholining tili va shevalari, tarixi, etnografiyasi kabi omillarni inobatga olgan holda, toponimlarni ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini, ularning insonlarda faxr va g'urur hissini uyg'otib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishiga xizmat qilishi lozimligini ham unitmaslik dardkor.

Davr talabidan kelib chiqib, har qanday geografik obyekt nomini yozilishining rasmiy va umumiy iste'mol uchun yagona shaklini belgilash va uni milliy standartlashtirish zarur bo'ladi. Nomlarning adreslik funksiyasini inobatga olib ularni rasmiy hujjatlarda, xaritalarda, darsliklarda va boshqa ommaviy nashrlarda to'g'ri hamda doim bir xil yozilishi ta'minlash lozim.

Qonunda belgilangan talablardan kelib chiqib, geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlashda quyidagi ilmiy talab va mezonlarga qat'iy amal qilishni maqsadga muvofiq:

- geografik obyektlarga O'zbekiston xalqining milliy an'analari va mentalitetiga yot bo'lgan nomlar berilishiga hamda ularning nomlari shu ruhda o'zgartirilishiga yo'l qo'ymaslik kerak;
- nom mazkur geografik obyekt joylashgan yerdagi toponimik tizimga mos tushishi lozim;

- nom joyning ma'lum tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini ifodalab, joy va nom n'zaro ittifoqda bo'lmog'i lozim;

- nom o'sha hududda yashovchi aholi tilining lisoniy xususiyatlariga yot bo'lmadigi, unda toponimik an'anaviylik, tarixiylik, milliylik sezilib tummog'i kerak;

- nom shaklan soddada, original va tushunarli, aniq, qisqa, lo'nda, ko'pi bilan ikki yoki uch tarkibiy qismdan (ularni biri qo'shimcha bo'lishi mumkin) iborat bo'lib, mo'ljallik(oriyentirlik) vazifasini bajaradi;

- yangi nom o'sha hududda avval mavjud bo'lgan nomlarni takrorlamastigi, esda oson saqlanib qoladigan, talaffuzda yengil va qulay bo'lmog'i dardor;

- geografik nom iloji boricha, mafkuraviy qarashlardan xoli bo'lmog'i kerak;

- tarixiy nomlar o'tmish guvohlari, ularni geografik, lisoniy, tarixiy, siyosiy va ilmiy ahamiyatga ega ekanligi inobatga olib o'zgartirmaslik lozim;

- geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish chog'ida mahalliychilik, oshna-ug'aynichilik, xizmat mavqei ni suiste'mol qilish hollarini istisno etish zarur;

Geografik obyektlarga nom tanlashda zamonaviy nomlarga mafum bo'lib, joy tarixi va geografiyasi bilan bog'liq bo'lgan nomlardan voz kechish mutlaqo yaramaydi. Shuning uchun, sohaga oid qabul qilingan barcha me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga to'la rioya qilinsa, mavjud kamchiliklar bartaraf bo'ladi va eng maqbul nomni tanlash imkoniyati paydo bo'ladi.

Hazirgi vaqtda toponimikaga oid qonun va qarorlar davlat ijroiya organlari uchun aniq maqsadlarga yo'naltirilgan toponimik siyosat yurgizishda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Eng avval, mazkur qonun va qarorlarni qabul qilinishi davr talabi bilan bog'liq va muhim siyosiy, ijtimoiy, tarixiy ahamiyatga molik ishdir. Shu bilan birga ushbu Qonunning qabul qilinishi:

- geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish sohasidagi munosabatlarni huquqiy jihatdan yanada

tartibga solishga hamda sohadagi qonun osti hujjatlarning takomillashuviga;

- O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish ishlarining muvofiqlashtirilishiga;

- xalqning tarixi, ma'naviyati, madaniyati bilan bog'liq nomlarni muhofaza qilish hamda ularning asossiz o'zgartirilishining oldini oluvchi qonuniy asoslarning vujudga kelishiga;

- geografik obyektlarga nom berishda mahalliychilik, xizmat mavqei ni suiste'mol qilish kabi salbiy hollarga yo'l qo'ymaslikka;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida "O'z yergo do zkadastr" davlat qumitasi bilan kelishgan holda geografik obyektlar nomlarining rasmiy kataloglari va ma'lumotlarini nashr etilishiga xizmat qiladi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tanib bo'lmas darajada o'zgarayapti. Zamonaviy yangi shaharlar, posyolkalar, qishloq va ovullar paydo bo'lmoqda. Ular bilan birga ko'plab tadbirkorlik obyektlari, bilim dargohlari, tibbiy, madaniy-maishiy, savdo va umumiy ovqatlanish shoxobchalari, mahallalar, ko'chayu xiyobonlar bunyod etilmoqda. Ularning barchasiga hejirim, chiroyli, xalqimizning ko'p asrluk an'analari va mintalitetiga mos keladigan nom tanlash zarurati mavjud.

Shunday ekan, har bir nomlovchi geografik obyektga nom tanlashning qonuniy asoslari, tanlash mezonlari, sohaga mas'ul davlat tashkilotlari hamda nomlovchining huquq va majburiyatlari nimalardan iborat ekanligini bilishi zarur. Chunki sohaga oid qabul qilingan qonun va qarorlarning talablarini aniq bilmasdan turib, mulk shaklidan qat'iy nazar geografik obyektlarga nom tanlashda xato va chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

Binobarin, nom tanlash zaruriyati paydo bo'lganda, birinchidan, sohaga oid normaliv hujjatlar bilan yaqindan tanishishi kerak, ikkinchidan, yaxshi o'ylab, shoshmasdan mulohaza qilib ish tutgan ma'qul. Eng muhimi geografik obyektga



nom ma'muriy tashkilotlar qarori bilan emas, balki xalqimizning qalb qo'ridan qaynab chiqishi kerak, shunda haqiqiy nom paydo bo'ladi. Ko'rinadiki, obyektlarga eng maqbul nomni tanlash ancha murakkab masala. Shuning uchun, eng avvalo, tanlagan nom quyidagi tafablarga javob berishi kerakligini unitmaslik zarur:

- geografik obyektga eng xos bo'lgan belgilarni aks ettirishi;
- mazkur geografik obyekt joylashgan hududdagi toponimik tizimga mos tushishi;
- mahalliy aholi turmushining geografik, tarixiy, milliy, etnik, tilga oid va boshqa xususiyatlarini hisobga olishi;
- qoida tariqasida, ko'pi bilan uchta so'zdan iborat bo'lishi.

Shu bilan birga, tanlangan nom sodda, barchaga tushunarli, real haqiqatni aks etadigan, chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishini unitmaslik dardkor. Bu masalada nomlovchiga eng yaqin hamkor viloyat, shahar va tuman hokimiyatlari qoshida tashkil etilgan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyalari hisoblanadi. Doimiy faoliyat ko'rsatuvchi mazkur komissiyalar tarkibiga ko'pincha, sohani yaxshi biladigan mutaxassislar, olimlar, ilm-fan, maorif, madaniyat muassasalari vakillari jalb qilingan bo'ladi. Ular har qanday geografik obyektga, ularning mulkchilik shaklidan qat'i nazar nom tanlashda malakali yordam berishlari mumkin.

Binobarin, viloyat, shahar va tuman hokimiyatidagi mas'ul shaxslar komissiyalar ishini faollashtirib, yangi paydo bo'layotgan geografik obyektlarga nom tanlashga jiddiy e'tibor qaratishlari kerak bo'ladi. Komissiya a'zolari mahalliy hokimiyat vakillari boshchiligida nafaqat yangi obyektlarga nom tanlashda ko'maklashishi, balki shahar va tumanlardagi barcha geografik obyektlar nomlarini ilmiylikini tekshirib, ularning to'g'ri yozilishini nazorat qilmog'i lozim.

Nom tanlashda hududning tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, mahalliy geografik terminlari, aholining tili va shevalari, tarixi, etnik tarkibi kabi omillar asos bo'lib xizmat qilishi kerak. Joy nomining ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, ular insonlarda faxr va g'urur hissini uyg'otib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilishini ham unitmaslik zarur. Yangi

geografik obyektlarni nomlashda shunday yo'l tutmoq lozimki, har bir avlod nomlar orqali o'z ona yurti tarixi, buguni va kelajagini ko'z oldiga keltira olsun.

Shu bilan birga, yangi yaratilgan nomlarni saqlash va muhofaza qilish ham nihoyatda muhim vazifa sanaladi. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi «Geografik obyektlarining nomlari to'g'risida» gi Qonunida (2011 y. № O'RQ-303) geografik obyektlarning nomlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi va nomlarning birini boshqasiga o'zhoshimchalik bilan almash-tirishga, geografik obyektlarning buzib ko'rsatilgan nomlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi, deb aniq belgilab qo'yilgan.

Mazkur Qonunda geografik obyektlarning nomlaridan foydalanilishi va ularning saqlanishi ustidan nazoratni belgilangan vakolatlar doirasida: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari; respublika komissiyasi; O'zbekiston Respublikasi "O'zyer-geodezkadast" davlat qumitasi; fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. Eng muhimi har bir nom bizning o'zligimiz, milliyligimiz va boy tariximiz ko'zguasi ekanligini unitmasligimiz kerak.

**Hududiy komissiyalarning asosiy vazifalari.** Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyasi Nizomiga asosan obyektning nomlash yoki qayta nomlash bo'yicha dastlabki takliflar mahalla fuqarolari yig'inlari tomonidan mazkur hudud fuqarolarining faollari yig'ilishida oshkoralik asosida ko'rib chiqilib muhokama qilinadi. Aholi punktlarining tarkibiy qismlarini (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga), nomlash va qayta nomlash fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning iltimosnomalari asosida tumanlar, shaharlar Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Aholi punktlarining tarkibiy qismlarini nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish va tayyorlash uchun tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha tumanlar, shaharlar komissiyalari tuziladi.

Tuman, shahar hokimi, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning aholi punktlarining tarkibiy qismlarini (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga) nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqadi hamda ularni zarur hujjatlar bilan birga takliflar tayyorlash uchun tuman, shahar komissiyasiga yuboradi.

Tuman, shahar komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ko'rib chiqadi, keyinchalik viloyat komissiyasiga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi hamda ularni tuman, shahar hokimiga yuboradi.

Tuman, shahar hokimi aholi punktlarining tarkibiy qismlarini (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga) nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi tuman, shahar komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan takliflarni viloyat komissiyasiga kiritadi, komissiya tayyorlagan materiallar geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi va tegishli xulosa beradi.

Tuman, shahar hokimi viloyat komissiyasining xulosasiga muvofiq aholi punktlarining tarkibiy qismlariga (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga) nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida taklif tayyorlaydi hamda uni xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritadi. Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi tuman, shahar hokimining taklifini ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish tumanlar hokimlarining taklifiga ko'ra xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi. Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga hamda ularning tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish uchun viloyatlar hokimlari tomonidan geografik obyektlarga nom berish

va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha viloyat komissiyasi tuziladi.

Tuman hokimi mahalliy aholi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning fikrlarini hisobga olgan holda shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni tegishli hujjatlar bilan birga xulosa olish uchun viloyat komissiyasiga yuboradi.

Viloyat komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ko'rib chiqadi, keyinchalik ularni davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi «Yergeodezkadastr» davlat qumitasiga topshiradi. Viloyat komissiyasi o'tkazilgan ish yakunlariga ko'ra hamda davlat ekspertisasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa beradi. Ushbu xulosa geografik obyektga nom berish va uning nomini o'zgartirish to'g'risida taklif kiritgan tuman hokimiga yuboriladi.

Tuman hokimi viloyat komissiyasining xulosasiga muvofiq obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni xalq deputatlari viloyat Kengashiga ko'rib chiqish uchun kiritadi. Xalq deputatlari viloyat Kengashi tuman hokimining taklifini ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Tumanlar, shaharlarni nomlash va qayta nomlash viloyat hokimi iltimosnomasi asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kiritgan taklifga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshiriladi. Tumanlar, shaharlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi viloyat hokimining tumanlar, shaharlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi iltimosnomalarini ko'rib chiqadi hamda ularni tegishli

hujjatlar bilan birga xulosa olish uchun respublika komissiyasiga yuboradi.

Respublika komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni har tomondan o'rganilishini tashkil etadi, geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ularni davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi «Yergeodezkadastr» davlat qumitasiga topshiradi. Respublika komissiyasi o'tkazilgan ish yakunlariga ko'ra hamda davlat ekspertisasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa beradi, ushbu xulosa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi respublika komissiyasining xulosasini hisobga olgan holda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqish uchun kiritadi. Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining takliflarini ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

Komissiyatarning tarkibi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari va xodimlari, fuqarolik jamiyati institutlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari, shuningdek fan va madaniyat arboblari, ekspertlar, mutaxassislar hamda tegishli faoliyat sohaslarida maxsus bilimlarga ega bo'lgan boshqa shaxslar orasidan shakllantiriladi. Viloyat, tumanlar, shaharlar komissiyalari tegishincha viloyat, tumanlar, shaharlar hokimliklarining rahbariyati tomonidan boshqariladi.

Viloyat, shahar va tumanlar hokimiyati qoshida tashkil etilgan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyalar faoliyati doimiy bo'lishi kerak. Komissiya a'zolari hokimiyat vakillari boshchiligida hududdagi barcha geografik obyektlar nomlarini ilmiylikini, davlat tilida to'g'ri yozilishini nazorat qilmog'i lozim. Mulkiylik shaklidan qat'i nazar har qanday muassasa va tashkilot nom tanlashda mazkur komissiyani xulosasi bilan ish ko'rishi kerak. Shunday bo'lsa, bizga yot, o'zga tillarga

xos, aniq ma'no-mazmunga ega bo'lmagan nomlarni ko'payishiga yo'l qo'yilmaydi.

Xulosa shuki, viloyat, shahar va tumanlardagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash komissiyasi a'zolari har qanday obyektning nomlashda hududning tabiiy sharoiti, iqtisodiyoti, mahalliy geografik terminlari, aholining tili va shevalari, tarixi, etnografiyasi kabi omillarni inobatga olishi shart. Shu bilan birga, joy nomining ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi, ular insonlarda faxr va g'urur hissini uyg'otib, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qilishini unimlaslik dardkor.

☼ *Savol va topshiriqlar:*

1. "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida (2011 y. 12.10. № O'RQ - 303) belgilangan geografik obyekt tushunchasini izohlang.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori (2012 y. 12.10. № 295-sonli) qanday muhim vazifalarni amalga oshirishni nazarda tutadi?

3. Respublika va hududiy komissiyalarning asosiy vazifalari haqida ma'lumot bering.

☼ *Text topshiriqlari:*

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha viloyat komissiyasining raisi kim?

A. Nomshunos olim

B. Viloyat hokimi

C. Institut rektori

D. Soliq boshqarmasi boshlig'i

2. Geografik obyektlar nomini davlat ekspertizasidan o'tkazadigan mus'ul tashkilotni belgilang.

A. Respublika toponimik xizmat markazi

B. O'zbekiston Geografiya jamiyati

C. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi

D. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

3. Geografik obyektlar nomlarini davlat reyestri hu ...

- A. Geografik nomlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish
- B. Nomning xalq orasida qo'llanilgan shaklini tanlash
- C. Joy nomini to'g'ri rasmiylashtirish
- D. Geografik nomni lotin alifbosida yozish

4. Xarijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, turistik aloqalar uchun qanday nom tavsiya etiladi?

- A. Mamlakat ichida rasmiy tan olinmagan nomlar
- B. Faqat yangi nomlar tavsiya etiladi
- C. Mamlakat ichida rasmiy tan olingan nomlar
- D. Har qanday nom tavsiya etiladi

5. Joy nomlarini standartlashtirish bilan shug'ullanadigan mas'ul tashkilotni belgilang.

- A. O'zbekiston Madaniyat vazirligi
- B. O'zbekiston Geografiya jamiyati
- C. «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi
- D. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

### Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha komissiyalarning faoliyat yuritish tartibi:



### 3.2. GEOGRAFIK NOMLARNING YOZILISHI VA TALAFFUZI

#### ☞ Reja:

1. Joy nomlarining yozish qoidalari va grammatik xususiyatlari
2. Qo'shma nomlarning morfologik tarkibi va ularni yozish tartibi
3. O'zbekiston toponimlarini standartlashtirish muammolari

☞ *Mavzuning maqsadi:* Geografik nomlarning yozish qoidalari va grammatik xususiyatlari hamda joy nomlarini milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.

☞ *Tayanch ibora va atamalar:* nom yozish tartibi, sodda va murakkab nom, milliy va xalqaro miqyosda standartlashtirish.

**Joy nomlarining yozish qoidalari va grammatik xususiyatlari.** Toponimlar atocli otlarning boshqa turlaridan grammatik jihatdan farq qiladi. Ular aksariyat hollarda "ikki yarim bir butun" degandek ko'p komponentli so'zlardir. Bir tarkibiy qismdan iborat joy nomi ko'pincha, toponimkaning tojlash qonuniyatiga ko'ra uzuq iste'molda bo'lishi oqibatida biror unsurini yo'qotgan geografik nom yoki toponimik funksiyasini bemalol uddalab kelayotgan rudiment - qadimiy unsur bo'lishi mumkin. Ideal toponimlar polikomponentlikni yomon ko'radi, chunki ular hali uzil-kesil toponimlik "pasport"ini olmagan mikrotoponimlar monopoliyasi hisoblanadi. Shu bilan birga ideal toponimlar monokomponentlikni ham yoqtirmaydi, ya'ni ular birgina tarkibiy qismdan iborat bo'lmashligi kerak.

Geografik nomlarning to'g'ri yozilishi juda muhim va murakkab masala. Muhimligi shundaki, geografik nomdagi biror harf noto'g'ri yozilib qolsa, fonetik o'zgarishlar oqibatida butunlay boshqa ma'noli toponimga aylanib ketishi mumkin. Toponimlarning to'g'ri yozilishi masalasining murakkabligi shundaki, ular turli tillarda bo'lib, aslida o'sha tillar qoidalari muvofiq yoziladi.

Boshqa tillarga o'tganda talaffuzida ham, yozilishida ham o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

Ko'pchilik mamlakatlarda geografik nomlarning to'g'ri yozilishiga katta ahamiyat beriladi. Masalan, Buyuk Britaniyada Geografik nomlar qo'mitasi, AQSh da Geografik nomlar Kengashi, Belgiyada Toponimika va dialektlar komissiyasi geografik nomlarning to'g'ri yozilishini tartibga solib turadi, Rossiya Federatsiyasida Ensiklopediya Bosh tahririyati toponimlar va terminlarning to'g'ri yozilishini boshqaradi.

O'zbekistonda bu ish bilan respublika Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Ergoodezkadastr" davlat qo'mitasi, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi hamda ularni viloyat, shahar va tumanlardagi hududiy komissiyalari shug'ullanadi. Shunga qaramay joy nomlarini to'g'ri yozishda chalkashliklar ko'p uchraydi. Chunki, ularni nuqsonsiz to'g'ri yozish, xalqning umumiy imloviy savodxonligi bilan bog'liq va ma'lum darajada kishilarni bilim va madaniy saviyasini belgilaydi.

Kundalik matbuotda, xususan, gazeta va jurnallarda, radio va televideniya, darsliklarda, badiiy adabiyotlarda respublika va chet mamlakatlarga oid minglab geografik nomlar uchraydi. Bularning hammasini ham to'g'ri ekanligiga hech kim kafolat bermaydi. Geografik nomlarning o'zbekcha yozilishi ma'lum bir qat'iy prinsiplarga asoslangan, mantiqli, bir-biriga bog'liq qoidalardan iborat bo'lishi va bugungi kun talabi darajasiga javob berishi lozim.

O'zbekiston hududidagi geografik nomlar o'zbek tili imlosining amaldagi qoidalari asosida yozilar ekan, bu qoidalarning asosiy maqsadi va vazifasi - o'zbek tilidagi darsliklarda, ilmiy-ommabop va siyosiy kitoblarda, davriy matbuot va kartalarda, turli lug'atlarda geografik nomlarning yozilishida umumiy birlik bo'lishini taqoz qiladi.

Hozirda mavjud bo'lgan geografik nomlarni grammatik tuzilishiga ko'ra sodda va qo'shma toponimlarga ajratish mumkin. Sodda toponimlar o'z navbatida, qo'shimchasiz va qo'shimchali nomlarga bo'linadi. Joy nomi tarkibi birgina otdan iborat bo'lib,

unga boshqa biron unsur qo'shilmasa bunday nomlar qo'shimchasiz toponimlar hisoblanadi. S.Qorayev qo'shimchasiz toponimlarni tahlil qilib ularni bir necha xilga bo'lib ko'rsatgan:

s) oddiy geografik yoki ijtimoiy - iqtisodiy terminlar shaklidagi toponimlar: Anhor, Asbub, Gaza, Yom, Supa, Uchma, Quduq va hokazo;

b) urug'-aymoq va boshqa etnik guruhlar nomlari bilan ataladigan geografik nomlar (etnonimlar): Abdal, Burqut, Dug'lat, Mang'it, Sayyod, Turk va boshqalar;

v) kishilarning ism-familiyalari, taxallus, laqablaridan iborat toponimlar: Beruniy, Mustafo, Navoiy, Shodmon va hokazo;

g) o'simlik va hayvon nomlaridan kelib chiqqan joy nomlari: Bodom, Do'lt, Yong'oq, Terak, Chinor, Yantoq va boshqalar;

Qo'shimchali toponimlar tarkibida otga qandaydir qo'shimcha - affiks qo'shib yasaladi. Bunday geografik nomlar tarkibida quyidagi qo'shimchalar (affikslar) ko'p uchraydi:

- **goh** - Jangoh, Namozgoh, Sayilgoh;
- **zor** - Bodomzor, Sangzor, Chilonzor;
- **iston** - Registon, Bog'iston, Guliston;
- **iya** - Mingiya, Shohruhiya, Yuziya;
- **kor** - Lalmikor, Paxtakor, Sholikor;
- **lar** - Arablar, Beklar, Shayxlar;
- **li** - Anjirli, Burganli, Betgali;
- **lik** - Attorlik, Zargarlik, Qassoblik;
- **loq** - Sangloq, Toshloq, Qumloq;
- **on** - So'zangaron, Sarrofon, Zargaron;
- **ot** - Bog'ot, Rabotot, Qishloqot;
- **cha** - Do'rmoncha, Qizilcha, Qo'rg'oncha;
- **chi** - Bo'yrachi, Taqachi, Temirchi.

Qo'shma toponimlar ikki va undan ortiq tarkibiy qismlardan tashkil topadi: Beshariq, Yangiqo'rg'on, Yakkatut, G'ishtko'prik va hokazo. Bunday geografik nomlar grammatik jihatdan bir necha turga bo'linadi. O'zbek tilida ikki va undan ortiq so'zlardan (turdosh otlardan) iborat (murakkab) geografik nomlar qo'shib yoziladi. Masalan:

**Ot + ot:** Turkavot, G'aniqishloq, Qorovulhozor, Qumqo'rg'on

**Sifat + ot:** Yomonjar, Kattaqishloq, Uzunquduq, Yetimtog'

**Son + ot:** Beshbuloq, Yettikechuv, Mingchinor, To'qsonkamar

**Ot + fe'l:** Soykeldi, Qo'yqirilgan, Tangatopdi, Qumbosdi.

Birinchi tarkibiy qismi sifatdan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan iborat bo'lganda: Balandravot, Oqqo'rg'on, Oqtepa, Ko'kbuloq, Ko'kgumbaz, Sarisuv, Sariqtepa, Qizilsuv, Qizilsoy, Qizilqum, Yuqoriovul, Etakovul, O'rtachek, O'rtasaroy kabi yoziladi.

Birinchi tarkibiy qismi sonidan, ikkinchi tarkibiy qismi geografik termindan iborat bo'lganda: Beshariq, Yolg'izbog', Yolg'izqutchi, Yakkasaroy, Yakkatut shaklida yoziladi. Birinchi tarkibiy qismi tartib sonidan, ikkinchi qismi geografik atamadan iborat bo'lganda; Ikkinchisolma, Yettinchiqo'tir shaklida yozish maqsadga muvofiqdir.

Aytish joizki, qo'shma geografik nomlar tadqiqida ularning yasalish usullarini belgilash, aniqlash ayniqsa muhimdir. Mutaxassislarining yozishicha, til taraqqiyoti jarayonida ma'lum tipdagi so'z birikmasi yagona leksik ma'no kash etishi natijasida sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanadi - qo'shma so'z yuzaga keladi. Masalan, Oqjar, Sho'rsuv, Yangiqo'rg'on, Qoratepa kabi joy nomlari shu yo'l bilan paydo bo'lgan qo'shma so'zlar sirasiga kiradi.

**Qo'shma nomlarning morfologik tarkibiga ko'ra tiplarga bo'linishi:**

1. **Ot + ot:** Bu tipdagi qo'shma toponimlarning ikkinchi qismi ko'pincha geografik termindan (qishloq, ovul, tepa, cho'l, bog', buloq, quduq va hokazo) tashkil topgan bo'ladi. Ularning birinchi tarkibiy qismi esa kishi ismlari (familiyasi)dan (Shofayziquduq, Hoshimdasht, Ismoiltepa), etnonimlardan (Naymanariq, Arabmozor, Quzoquvul, Turkavot), fitonimlardan (Icrakmozor, Jiydaqishloq, Tolqishloq) iborat bo'lishi mumkin. Har ikkala tarkibiy qismi termindan (geografik va ijtimoiy-iqtisodiy)

tashkil topgan toponimlar ham mavjud. (Qorovulbuzor, Toshbuloq, Qumquduq).

2. **Sifat + ot:** Bu qolipdagi qo'shma toponimlarning birinchi qismi rang - tus bildiruvchi (Oqtepa, Ko'kjar, Qizilbuloq, Qoraqum, Qorasoy), ku'lam bildiruvchi (Kattaqishloq, Pastqishloq, Kichikqo'rg'oncha, O'rtaqo'rg'on, Chuqurqishloq, Etakmahalla), maza - ta'm ifodalovchi (Achchiqko'l, Sho'rsuv, Shirinquduq), ikkinchi qismi geografik terminlardan iborat bo'ladi.

3. **Son + ot:** Ushbu qolipda yasalgan qo'shma geografik nomlarning birinchi tarkibiy qismi sondan (uch, besh, olti, to'qqiz, qirq, ming va hokazo), ikkinchi tarkibiy qismi geografik atamadan (Beshbuloq, Uchariq, Yolg'izqum, Yakkasaroy, Uehtol, Oltihovuz, Beshqayrag'och) tashkil topgan bo'ladi.

4. **Ot + fe'l va fe'l + ot:** Bu qolipdagi qo'shma nomlar ot bilan fe'lning hamda fe'l bilan otning birikuvidan (Toshkesar, Qaynarbuloq, Oxunqaynar, Soykeldi, Qolgandaryo) tashkil topadi.

**Toponimlar quyidagi hollarda ajratib yoziladi:** Geografik nom oldida qandaydir sifat kelganda:

- a) Katta Oqtepa, Katta Beshkapa, Katta Naymancha;
- b) Kichik Aravon, Kichik Ko'rg'oncha, Kichik Naymancha;
- c) Pastki Oyoqchi, Pastki Qoraqiya, Pastki Uyshun;
- g) Quyi Janafar, Quyi Beshravot, Quyi Sho'robod;
- d) Eski Elbayon, Eski Xo'jaobod, Eski Haqqulobod;
- e) Etak Saroy, Etak Oqqo'rg'on, Etak Qoramozor;
- h) O'rta Qorabog', O'rta Sho'rchi, O'rta Saydov;
- j) Yuqori Arabxona, Yuqori Uchma, Yuqori Qoraqiya;
- z) Yangi Naynova, Yangi Bo'ston, Yangi Gulbag'.

Kishilarning ism-familiyalaridan, taxalluslaridan iborat geografik nomlar aluhida (ayrim holda) yoziladi: G'afur G'ulum ko'chasi, Alisher Navoiy shohko'chasi, Sharof Rashidov shohko'chasi, Habib Abdullayev ko'chasi, Abdulla Qodiriy ko'chasi, kabi ko'p so'zli nomlar ajratib yoziladi.

**Toponimlar quyidagi hollarda qo'shtirnoq ichiga olinadi.** Zaved-fabrikalar, shirkat xo'jaliklari, firmalarning nomlari qo'shtirnoq bilan yoziladi: «GM-O'zbekiston» qo'shma korxonasi, «Atlas» to'qimachilik kombinati, «Toshkent» shirkat xo'jaligi,

«Zomin» jamoa xo'jaligi, «Malika» trikotaj fabrikasi, «Zilolateks» aksiyadorlik jamiyati va hokazo. Matbuot organlari nomi bilan atalgan geografik obyektlarning nomlari kartalarda qo'shtirnoqsiz yoziladi: O'zbekiston ovozi gazetasi ko'chasi, Darakchi ko'chasi, Sharq yulduzi suv iste'molchilari uyushmasi.

**Geografik nomlarni sonlar bilan yozish tartibi.** Geografik nomlar tarkibiga kirgan tartib sonlar nomning oldingi qismida, birinchi o'rnida so'z bilan yoziladi: Yettinchi qo'tir, Beshinchi bo'lim, Sakkizinchi xo'jalik va hokazo.

**Joy nomlari tarkibidagi geografik terminlarni yozish tartibi.** Geografik obyektning turini bildiradigan so'zlar geografik terminlar hisoblanadi. Masalan, ko'l, cho'l, tog', adir, ariq, orol, quduq, muz, qirg'oq, qir, botiq, vodiy, soy, kanal va hokazo. Geografik terminlar turdosh otlar bo'lganida geografik nomdan keyin kichik harflar bilan slohida yoziladi.

Geografik terminlar toponimlar tarkibiga kirganda qo'shib yoziladi va shu geografik nomlardan keyin yana takrorlanishi mumkin: Qoratog' tog'i, Oqtepa tepaligi, Sirdaryo daryosi, Kattaqishloq qishlog'i, Issiqko'l ko'li, Tandirqum qumligi. Xaritalarda aholi punktlarining nomlari yonida ularning turlarini bildiradigan so'zlar (shahar, qishloq, ovul, shaharcha va boshqa) yozilmaydi.

**Geografik nomlar tarkibidagi terminlar va boshqa so'zlarning talaffuz shaklidagi xilma-xillik.** Ayrim geografik nomlar tarkibida jonli tilda qo'llanib kelayotgan terminlar ham uchraydi. Ular ilmiy adabiyotlarda qabul qilingan terminlardan farq qilib, faqatgina shevalarda qo'llanilishi mumkin. Bunday hollarda shevalarda foydalanadigan terminlar o'rniga adabiy til atamaları ishlatilmaydi, aksincha ularni asl shakli nomlar tarkibida saqlanib qolinadi. Mahalliy terminlar turli joylarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Shu sababdan, jonli til so'zlaridan iborat terminlarning talaffuz shakli joy nomlari yozilishida saqlanib qoladi. Masalan: Jamonjar, Jellig'uli, Suluvjo'na va hokazo.

**Geografik nomlar yozilishida defisning o'rnini.** Birinchi tarkibiy qismi ot yoki sifatdan, ikkinchi komponenti atoqli otdan iborat bo'lgan nomlarning har ikki tarkibiy qismi katta harflar

bilan yoziladi va bir-biridan defis (lotincha, divisio—"ajralish, bo'linish") orqali ajratiladi. Defis - nomlarni qismga bo'lishda qo'llaniladigan belgi, chiziqcha (-). Toponimlar defis orqali ajratilganda, har ikki komponenti ham katta harflar bilan yoziladi: Chig'atoy - Oqtepa, Isori - O'roqli, Qo'shtepa - Suray, Xaroba - Qulonchi, Jo'ja-Arab, Loyqa-O'ray va boshqalar. Ba'zi qo'shaloq so'zlardan iborat toponimlar orasida defis qo'yiladi va nomning ikkinchi tarkibiy qismi kichik harf bilan yoziladi: Ana-muna, Chaqar-chuqur. Birinchi tarkibiy qismi fe'l, ikkinchi tarkibiy qismi toponim bo'lgan geografik nomlar: Qolgan-Sir, Qolgan-Chirchiq kabi yoziladi.

Ko'pchilik xalqlarda geografik nomlarni yozishda transkripsiya usuli eng ko'p qo'llaniladi. Yuqorida qayd qilingandek, transkripsiya deganda geografik nomlarni talaffuziga qarab yozish, ya'ni quloqqa qanday eshitilgan bo'lsa, shunday yozish tushuniladi. Shuni ta'kidlash joizki, toponimikada transkripsiya kengroq ma'noda ham qo'llaniladi. Bunda geografik nomlar transkripsiyasi deganda talaffuziga ko'ra yozish ham, tarjima ham, qanday yozish masalasi ham, umuman geografik nomlar imlosining barcha masalalari nazarda tutiladi.

Geografik nomlarni talaffuziga qarab yozish ko'pincha to'liq bo'lmaydi. Chunki, boshqa tillarda mavjud bo'lgan ba'zi bir harf va tovushlar o'zbek tilida bo'lmasligi mumkin. Masalan, rus tilidagi m, n harflari o'zbek tilida yo'q yoki o'zbek tilida mavjud bo'lgan q, o', g', h harflari rus tilida qo'llanilmaydi. Bunday holatlarda tilda yo'q tovushlar ularga yaqinroq bo'lgan boshqa tovushlar (harflar) bilan almashtiriladi.

Xorijiy tillaridagi geografik nomlarni yozishda ba'zan transliteratsiya usuli qo'llaniladi. Bunda nomlar biron boshqa tilkan ko'chirilganida harfma-harf yozish, ya'ni, chet tili alifbosidagi harflarni o'zbek tilidagi harflar bilan almashtirilib yoziladi. So'zning qanday talaffuz qilinishi e'tiborga olinmaydi. Umuman, olganda har bir geografik nomning mahalliy tildagi asl talaffuziga yaqinlashtirib yozishga harakat qilinadi.

Qo'shma geografik nomlarni yozishda ko'pincha xatoga yo'l qo'yiladi. Ayrim geografik kartalarda bunday nomlar bir joyda

qo'shib yozilgan (Kattaqo'rg'on, Qorasuv) bo'lsa, boshqa joyda ularni ajratib yozilganini (Moyli suv) ko'rish mumkin. Agar, murakkab (qo'shma) geografik nomlarning ikkinchi o'zagi (komponenti) atoqli ot bo'lsa, ularning har biri alohida - alohida va bosh harf bilan yoziladi. Masalan, Eski Toshkent, Yuqori Chirchiq, Ko'hna Urganch va hokazo.

Mabodo, murakkab geografik nomlarning ikkinchi komponenti turdosh ot bo'lsa, u holda qo'shib yoziladi. Kattaqo'rg'on, Yangiyo'l, Jumabozor, Bekobod. Murakkab geografik nomlarning har ikkala komponenti bosh kelishikdagi atoqli otlardan iborat bo'lsa, u holda defis orqali bosh harf bilan yoziladi: Orexovo-Zuyevo, Volga-Don, Amu-Buxuro va boshqalar.

Hari geografik nomlarni o'zbek tilida yozishni osonlashtirish uchun rus tilidagi manbalar: - atlas, karta, lug'at, qo'llanmalar asos qilib olingan edi. Bu holat geografik nomlarni o'zbek tilida yozishni osonlashtirgan bo'lsa ham, ammo ruscha yozishda yo'l qo'yilgan xatolarni o'zbek tilida takrorlanishiga olib kelgan. Natijada, nomlarni ruscha yozishda yo'l qo'yilgan xatolar o'zbek tilida ham takrorlangan. Masalan, Lishboa - Lissabon, Hamburg - Gamburg, Holland - Gollandiya, Xenova - Genuya, Napoli - Neapol deb xato yozilgan. Yo'l qo'yilgan xatolarning bir qismini to'g'rilash mumkin, ammo, ularning ko'plari an'anaviy nomlarga aylanib ulgurgan va endilikda shunday holatda yozilaveradi.

Rus tilida geografik nomlar ba'zan bosh kelishikda (m. Chelyuskin, g. Amundsen, o. Rudolf), ko'pincha qaratqich kelishikda (mis Dejneva, ostrov Vrangelya, gora Kuka, proliv Laperuza) yoziladi. O'zbek tilida bunday nomlarning hammasi, rus tilida qanday yozilganidan qat'iy nazar, bosh kelishikda yozish kerak bo'ladi. Masalan, Chelyuskin burni, Amundsen tog'i, Rudolf ko'li, Dejnev burni, Vrangel oroli, Kuk tog'i, Laperuz bo'g'izi.

O'zbek tilida an'anaviy bo'lib qolgan va qadimdan muayyan shaklda yozilib kelinayotgan toponimlarning talaffuzi ham, yozilishi ham bir xil, ularni o'zgartirishga hojat yo'q. Ular o'zbek tilida o'ntab va yuzlab yillar davomida bir xil yozilib kelmoqda. Bu turdagi toponimlar qadimgi ilmiy, tarixiy, sayohatnoma hamda badiiy asarlarda ko'p uchraydigan, asosan sharq mamlakatlari



tegishli nomlardir: Bag'dod, Iroq, Misr, Tehron, Hirot, Eron, Marokash, Damashq, Balx va hokazo. Rus tilida an'anaviy ho'lib qolgan bir qator geografik nomlar o'zbek tiliga o'tib, shundayligicha saqlanib qolgan: Angliya (England), Oslo (Uslo), Rim (Roma), Finlyandiya (Suomi), Fransiya (Frans), Yaponiya (Nippon) va boshqalar.

An'anaviy nomlar ham o'zgarishi yoki ijtimoiy ehtiyoj tufayli jonli tildagi yangi nomlar bilan almashishi, agar xato bo'lsa tuzatilishi mumkin. Masalan, Afriqo - Afrika, Amriqo - Amerika deb tuzatildi. Bahri Muhiti Kabir - Finch okean, Bahri Muhiti Atlasiy - Atlantika okeani, Bahri Muhiti Hindiy - Hind okeani, Bahri Hazar - Kaspiy dengizi deb, atash ma'qul topildi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyin (1989 yil) o'zbek tilini chetdan, asosan rus tilidan kirib kelgan yot so'zlardan tozalash bahonasi bilan yangi an'anaviy nomlarni yana eski nomlar bilan almashtirishga urinishlar bo'ldi. Okean - ummon, materik - qarrat, tropika - mador, hatto geografiya so'zi o'miga jo'g'rofiya kabi eskirib, muomaladan chiqib ketgan so'zlar taklif etilgan. Soha mutaxassislarining fikricha, bu ishda xatolar bo'lsa tuzatish lozim, ammo eskisiga noo'rin qaytish hech ham kerak emas.

**Tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlar.** Toponimlar ham ismlar kabi ko'pincha tarjima qilinmaydi. Shu bilan birga, jahon geografiyasi va kartografiyasi tajribasida ba'zi nomlarni hamma tillarda qisman yoki butunlay tarjima qilish an'anasi mavjud. Bunday an'ana o'zbek tiliga ham tadbiiq etildi va ayrim xalqaro nomlar o'zbekchaga tarjima qilingan. Odatda bir qancha xalqlar yashaydigan hududlarga tegishli bo'lgan yirik geografik obyektlar nomlari, agar u obyektning tabiiy xususiyatlariga bog'liq bo'lsa to'liq tarjima qilinadi. Masalan: O'zbek tilidagi - Qora dengiz, rus tilida - Chernoye more, nemis tilida - Shvarzes Meyers deb, tarjima qilingan.

Xuddi shunday Yaxshi Umid buri, Ko'k Nil, Qizil dengiz, O'rta dengiz, Katta Suvayirg'ich tizmasi, Qoyali tog'lar, Olovli Yer oroli kabi ko'pchilik nomlar ham tarjima qilinadi. Ikki va undan ortiq so'zdan iborat bo'lgan geografik nomlar qisman

tarjima qilinadi. Bunda murakkab geografik nomlarning aniqlovchidan iborat bo'lgan qismi tarjima qilinib, atoqli otdan iborat qismi tarjima qilinmaydi.

Asosiy nom fonetik transkripsiyaga muvofiq o'zicha yozilaveradi. Masalan, Novaya Gvineya - Yangi Gvineya, Maliy Atlas - Kichik Atlas, Novaya Kaledoniya - Yangi Kaledoniya va hokazo. To'liq va qisman tarjima qilish usuli ma'muriy va siyosiy geografik nomlarga, shaharlar, qishloqlar nomlariga qo'llanilmaydi. Masalan, Yangiqo'rg'on, Yakkabog', Ko'kterak boshqa tillarda tarjima qilinmay yozilaveradi. Xuddi shunday Velikiye Luki, Krivoy Rog, Nijniy Tagil, Nijniy Novgorod kabi nomlar ham o'zbek tilida o'z shaklida yozilaveradi.

**Geografik nomlarning yozilishini qat'iyalashtirish.** Davlat hokimiyati va fuqarolarni o'z-o'zini boshqarish organlarida, aloqa, transport, statistika, ommaviy axborot vositalarida, geografik kartalar va atlalarda, shuningdek iqtisodiyot, fan, madaniyat, sport, jamoat birlashmalarida, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan geografik nom qat'iyon bir shaklda yozilishiga erishish davlatning suverenligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir.

Boshqacha aytganda, har bir geografik obyekt nomining rasmiy va umumiste'molda bir xilda yozilishini qat'iyalashtirish, qonunlashtirish toponimlarni standartlash deyiladi. Agar bunday vazifa birgina davlatning manfaatlarini ko'zlab bir til vositasida amalga oshiriladigan bo'lsa, bu geografik nomlarni milliy standartlash deb yuritiladi. Bu ish xalqaro aloqalar tobora avj ulayotgan hozirgi davrda bir necha davlatlarning mushtarak manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilsa, unda geografik nomlarni xalqaro miqyosda standartlash lozim bo'ladi. Xalqaro standartlash esa doimo milliy standartlarga asoslanishi kerak.

Hozirgi vaqtda geografik nomlarni milliy standartlash bir qator rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda amalga oshirilyapti. Joy nomlarini standartlash muammolari nafaqat milliy, balki xalqaro ilmiy va hukumatlararo tashkilotlarning ham diqqat e'tiborini tobora ko'proq o'ziga jalb qilmoqda. Xalqaro onomastika fanlari qo'mitasi (IGOS), Xalqaro fonetika assotsiatsiyasi (IPA), Antarktikani o'rganish ilmiy komiteti (SGAR), Jahon pochta

uyushmasi (UPI), Xalqaro standartlash tashkiloti (ISO) ana shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda geografik nomlarni standartlash muammolariga Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) katta ahamiyat hermoqda. BMT tomonidan chaqirilgan va toponimlarni standartlashga bag'ishlangan bir necha konferensiyalarni o'tkazilishi hamda BMT ning joy nomlari bo'yicha Ekspertlar guruhi faoliyati bunga dalildir.

BMT ning geografik nomlar bo'yicha Ekspertlar guruhi (UNGEGN) tavsiyasiga ko'ra kartinografik tashkilotlar va ularni ishlab chiqarish korxonalarini aholi punktlari registri, toponimik ma'lumotlar bazasini yaratishda hamda turli maqsadlarda atlas va kartalar, standartlashgan geografik nomlar ro'yxatini tuzishda hamda hoshqa axborotlashgan ma'lumotlar va kartografik mahsulotlar ishlab chiqishda quyidagi umumiy prinsiplarga amal qilishi kerak:

❖ ro'yxatga olinadigan geografik obyektning nomi rasmiy va arxiv ma'lumotlar bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

❖ geografik nomlar davlatning mas'ul tashkiloti tomonidan standartlashtirilgan bo'lishi kerak;

❖ geografik obyektga faqat bitta geografik nom berilishi mumkin;

❖ kirill va hoshqa lotin alifbosidan foydalanmaydigan davlatlar, BMT tomonidan tasdiqlangan va xalqaro miqyosda qo'llanishga mo'jallangan hamda o'zlarida ishlab chiqilgan transliteratsiya usuliga muvofiq geografik nomlarni lotin alifbosida yozishi kerak;

❖ geografik nomlarni yozilishi va to'g'ri talaffuzi lisoniy (lingvistik) qoidalariga asoslangan bo'lishi lozim.

Shunday qilib, toponimlarni standartlash muammasi endilikda davlatni ichki masalasi bo'lib qolmay, balki, xalqaro ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat ichida milliy shakli rasman tan olingan va qat'iyatlashgan toponimlar, xalqaro miqyosda to'g'ri qo'llanishi hamda xalqaro shartnoma va kelishuvlarda, davlatlararo chegaralarni demarkatsiya va delimitatsiya qilishda, xalqaro dengiz, havo va quruqlikdagi yuk tashishda, kartografik ma'lumotlar to'plashda,

pochta va telegraf orqali xalqaro axborotlarni almashirishda tan olinishi va to'g'ri aks etishi shart.

Geografik obyektlar nomlarini standartlash, ya'ni, qo'llash uchun majhuriy bo'lgan shaklini aniqlash va belgilash har bir davlatning ichki ishidir. Shuni ham unimtaslik lozimki, geografik obyektlarning nomlarini standartlash uchun, uning milliy shakli asos vazifasini bajarishi kerak. Buning ma'nosi shuki, mamlakat ichida rasmiy tan olingan nomlarga xalqaro iste'mol uchun tavsiya etiladi. Geografik obyektlar nomini standartlash va ularni boshqa tillarda qo'llash uchun ishlab chiqilgan tartib-qoidalar kartograf va toponimistlar ishini ancha yengillashiradi va tartibga soladi.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, ayrim davlatlar nomining an'anaviy shakli mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan tartib-qoidalariga to'la mos kelmaydi. Hunday davlatlar nomi mustasno tariqasida tarjima qilinadi yoki ularni an'anaviy shakli qanday bo'lsa shunday yoziladi. Masalan, "Frans" - Fransiya, "Bxarat" - Hindiston, "Nippon" - Yaponiya, "Suomi" - Finlandiya, "Esterrayx" - Avstriya va hokazo. An'anaviy bo'lib qolgan ayrim davlatlar nomi, hozirgi o'zbek tiliga boshqa tillar, jumladan, rus tili orqali o'zlashganligi sababli, ularni ruscha shakli yoki muayyan o'zgarishlar bilan qabul qilingan.

Quyidagi jadvalda ayrim hozirgi davlatlar nomining o'zbek tilidagi an'anaviy shakli ko'rsatilgan:

Yaratilgan tilda	O'qilishi kerak	Ruscha shakli	O'zbekcha shakli
Argentina	Arxentina	Argentina	Argentina
Brazil	Brazil	Braziliya	Braziliya
Ekuador	Ekuador	Ekvador	Ekvador
Norge	Norge	Norvegiya	Norvegiya
Romania	Romania	Ruminiya	Ruminiya

**O'zbekiston toponimlarini standartlashtirish muammolari.** Ma'lumki, uzox vaqt qaram bo'lib kelgan va yaqinda mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan O'zbekistonda, ilgari geografik

obyektlarning nomlari topografik kartalarda metropoliyadan kelgan mutaxassislar va topograflar tomonidan aniqlangan shakllarda yuzilgan edi. Mustaqillikdan keyin xalqning milliy ongi, tafakkuri va toponimik madaniyatini o'sishi natijasida geografik nomlarning milliy talaffuz va yozilish shakllarini tiklash va milliy lashtirish jarayoni boshlandi.

Respublikada birinchi bo'lib Vazirlar Mahkamasi huzuridagi «Yergeodezkadastro» davlat qo'mitasi qoshidagi Geodeziya va kartografiya milliy markazining Toponimika xizmati mamlakatdagi geografik obyektlarning qat'iy lashtirilgan nomlar lug'atini yaratish ustida ish olib bordi. Natijada, «Yergeodezkadastro» davlat qo'mitasi tomonidan keyingi yillarda 1:1000000, 1:500000 va 1:200000 masshtabdagi topografik kartalarda uchraydigan barcha geografik nomlarga kartochkalar ochildi. Ularning barchasi kompyuter xotirasiga kiritildi va geografik nomlarning yagona elektron bazasi yaratildi.

Geografik obyektning o'rni, turi, nomning davlat tilidagi shakli, kirill va latin alifbosidagi yozuvi aniqlanib yagona elektron bazaga kiritildi. Bu o'z navbatida respublikadagi yirik geografik obyektlar nomlarining qat'iy lashtirilgan shakllari yuzusidan davlat hokimiyati organlari va kartografik korxonalarining ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi. Yaqin yillarda 1:100000 va 1:50000 masshtabli topografik kartalardagi geografik obyekt nomlarini yagona elektron bazasini yaratish nazarda tutilgan. Shu yo'sinda geografik nomlarning avtomatlashtirilgan davlat katalogi vujudga keladi. Bunday katalogni yaratish jarayonida o'zining axborot dasturiy va texnikaviy ta'minotlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Axborot ta'minoti deganda - geografik nomlarni jamlash, saqlash, nazorat qilish, axborot kodlari, hujjat ko'rsatgichlari va ularni doimo nazorat qilish usullari tushuniladi. Dasturiy ta'minot - kataloglarni doimo bir maromda ishlab turishiga imkon beradigan dasturiy vositalarni o'z ichiga oladi. Texnikaviy ta'minot deganda - axborotlarni kiritish, saqlash va qayta ishlashga mo'jallangan va bir-biriga ulangan texnikaviy vositalar, ya'ni, eng so'nggi ruzumli kompyuterlar yig'indisi nazarda tutiladi.

2011 yil 12 oktyabrda «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonunning asosiy talablaridan biri geografik obyektlarning nomlarini standartlash, joy nomlarining davlat reyestrini yuritish, geografik obyektlar nomlarini davlat ekspertizasidan o'tkazish kabi bir qator ishlatni amalga oshirishdan iborat.

Geografik nomlarning yozilish shakllarini standartlash, ya'ni karta, atlas, rasmiy hujjatlar, ilmiy asarlar, darsliklar, matbuot organlarida bir xilda yozilishini ta'minlash, respublika tarixida ilk bor amalga oshirilayotganligi sababli, o'ziga qiyin va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Bu ishning qiyinligi shundaki, nocha minglab joy nomlari shaklida uchraydigan yoki ularning tarkibidagi geografik terminlar, o'simlik va hayvonlar nomlari, etnik birliklar nomlari, hatto kishi ismlari ham turli joylarda turlicha fonetik, semantik shakllarda muhrlanib qolgan.

Geografik nomlarni standartlashda joy nomining o'rni, nomlangan obyekt xili, nomning semantikasi, etimologiyasi kabi ma'lumotlar yig'iladi. Barcha ma'lumotlar, geografik nomlarning avtomatlashtirilgan ma'lumot jamlamasiga (kompyuterga) kiritiladi va har bir nom raqamlanib hisobga olinadi. Murakkab va mas'uliyatli bo'lgan bu ishga geograf, filolog, tarixchi toponimist olimlar jalb qilinadi. Ular yordamida geografik nomlarning o'zbekcha (kirill va latin alifbolarida) va ruscha yozilishi qat'iy lashtiriladi.

Qonunda geografik obyektlar nomlarini davlat reyestrini tuzish nazarda tutilgan. Geografik obyektlar nomlarini davlat reyestri - bu geografik nomlarni davlat to'yxatidan o'tkazish maqsadida yuritiladigan va obyektlar nomlariga tualuqli bo'lgan barcha ma'lumotlarni tizimlashtirilgan va avtomatlashtirilgan to'plami (bazasi) hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, turistik aloqalar rivojlanayotgan hozirgi davrda, geografik nomlarning milliy shakllarini o'zbek tilida va latin alifbosida chop etish shart. Sababi, yuqorida qayd qilingandek, geografik nomlarning milliy shakli ularni standartlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Buning ma'nosi shuki, mamlakat ichida rasmiy tan olingan nomlarga xalqaro iste'mol uchun tavsiya etiladi.

Umuman olganda, geografik nomlarni standartlashda o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilish zarur, istisnolar esa hamma tillarda va barcha leksik qatlamlarda uchraydi. O'zbekiston toponimlarining yagona va qat'iy yozilish shakllari hozirgacha yaratilmaganligi, hujjatlarni rasmiylashtirish hamda geografik kartalar yaratishda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababdan, geografik nomlarning mahalliy shaklini tezroq rasmiy qo'llashga kiritish zarur.

Kulosa qilib aytganda, geografik nomning mahalliy shaklini rasmiy nom sifatida tan olish kerak va ularni o'zbek tilini hozirgi qonuniyatlariga asosan rasmiylashtirish zarur. Har qanday sharoitda ham, asosiy talab joy nomining xalq orasida qo'llanilgan shaklini tanlash maqsadga muvofiq. Aks holda, hududiy toponimiyaning o'ziga xos xususiyatlariga hamda, uning noyob milliy etnomadaniy landshaftiga pami yetadi.

**An'anaviy nomlar.** Qadimdan qo'llanib kelinayotgan va xalq tilida juda mustahkam o'rnatilgan geografik nomlarni an'anaviy nomlar deyish mumkin. Ular toponimlar orasida ma'lum bir guruhni tashkil etadi. Taniqli toponimist olim H.Hasanov ta'kidlashicha, bunday nomlarning yozilishida va talaffuzida ikki xillik yo'q, bular ham matbuotda, ham darslik va kitoblarda, ham kartalarda hamisha bir shaklda yozilib kelinadi. An'anaviy nomlarga ko'pincha mahalliy toponimiya hamda xalq tilida azaldan qo'llanib kelayotgan va juda mustahkam o'rin olgan geografik nomlar misol bo'ladi.

Ma'lumki, respublika toponimiyasi tarkibidagi Buxoro, Samarqand, Xurazm, Farg'ona kabi nomlar bir necha asrlardan buyon qadimiy tarixiy, ilmiy manbalarda, sayohatnoma va badiiy adabiyotlarda qo'llanib kelinmoqda. Ular nafaqat o'tmish «guboh-lari» sifatida xalqimizga yaxshi tanish, balki dunyo xalqlari orasida ham ma'lum va mashhur nomlar hisoblanadi. Ular o'zbek tilida qanday talaffuz qilinsa, boshqa xalqlar tilida ham aynan shunday talaffuz qilish an'anaga aylanib ketgan.

Sharq mamlakatlar toponimiyasi tarkibidagi Iroq, Misr, Hindiston, Arabiston, Yaman, Eron, Bag'dod, Hiro, Qashg'ar, Xuroson kabi ko'plab nomlar o'zbek tiliga qadimdan o'zlashgan va ular doimo bir xil shaklda yoziladi. Bu nomlar o'sha mamlakat tilida qanday talaffuz etilsa, o'zbekchada ham ayni shunday talaffuz etiladigan bo'lib ketgan. O'zbek tilida mustahkam o'rnatilgan an'anaviy bo'lib qolgan bunday nomlar respublika toponimiyasi tarkibida ham o'z aksini topgan. Bunga respublika hududidagi Bag'dod, Xuroson, Qashg'ar, Misr, Balx kabi aholi punktlari nomlari misol bo'ladi.

Ayrim sharq mamlakatlarining nomlari Yevropa xalqlari tilida o'zgarib yuzib va talaffuz qilinishidan qat'iy nazar, ularning nomi o'zbek tilida uzoq o'tmishda ham va hozirda ham bir xil yoziladi va talaffuz qilinadi. Masalan, hozirgi Eron davlati XX asrning o'ttizinchi yillarigacha Yevropada, jumladan Rossiyada Persiya deb atalgan, ammo O'rta Osiyo xalqlariga esa, qadimdan bu davlat Eron nomi bilan ma'lum. Boshqa misol, ruscha Yegipet esa inglizcha Egypt dan olingan, aslida bu mamlakatning mahalliy nomi Misr, shu sababdan o'zbek tiliga arabcha shakli aynan o'zlashgan va bugungi kunda davlat nomi o'zbek tilida Misr Arab Respublikasi deb yoziladi va talaffuz qilinadi.

O'tmishda mashhur bo'lgan, hozir tarixiy kartalarda muhrlangan Farangiston, So'g'diyona, Ustrushona, Chin, Shon, Rum, Dashi Qipchoq kabi an'anaviy nomlar ham bor. O'zbek tilida ko'p yillar davomida Xitoy nomi bilan birga Chin nomi ham sinonim sifatida qo'llanib kelingan. Aytish mumkinki, o'tmishda Chin nomi ko'proq mashhur bo'lgan va chin so'zidan ot va sifalar ham yasalgan (chinni gul, chinni kosa, chinni piyola va hokazo). O'rta Osiyo xalqlari tilida, so'nggi asr davomida nomning Xitoy shakli ko'proq qo'llanilganligi talayli, davlat nomi sifatida Chin so'zidan ustunlik qildi va an'anaviy nomga aylanib qoldi.

Hozirda bizga an'anaviy bo'lib qolgan, ba'zi bir nomlar rus tili orqali o'zbek tiliga o'tganligi bois, ular ko'pincha ruscha shaklda yoziladi va talaffuz etiladi. Masalan, (qavs ichida asl mahalliy shakli yozildi) Rim (Roma), Fransiya (Frans), Avstriya (Esterreys), Neapol (Napoli), Norvegiya (Norge), Parij (Pari),

Genaya (Hlenova), Jeneva (Hinebra), Finlyandiya (Suomi), Yaponiya (Nippon) va boshqalar. H.Hasanov ta'бири bilan aytganda, an'anaviy nomlarning ishlatilishida geografiyada yana bir qonuniyat bor, ya'ni shuni unutmaslik kerakki, an'anaviy nom faqat bir joygagina taalluqli bo'ladi.

Boshqa yerdagi shu nomli joylar an'anaviy shaklda emas, balki o'sha mamlakatning o'zida qanday yozilsa, shunday yozilishi kerak. Chunonchi, Misrdagi Iskandariya biz uchun an'anaviy nom, ammo AQSh dagi Aleksandriya shahrini nomini Iskandariya deb yozish xato hisoblanadi. Avstraliyadagi yirik shaharlardan birining nomini Sidney deb yozamiz, Angliya va AQSh dagi xudi shu nom bilan ataladigan shaharlar Sidni shaklida yozilishi kerak. Olimning yozibhicha, AQSh ning turli shtatlarida nomiga rus (inglizcha rash) so'zi qo'shib yasalgan 12 ta joy bor, lekin ular inglizcha talaffuzga to'g'rilab Rash deb yozilaveradi. (Rash daryosi, Rash ko'li Rashvill shaharchasi, Rashsiti, Rashford va hokazo).

Uzoq yillar davomida bizga an'anaviy bo'lib kelgan nomlarni keyinchalik yangi nomlar bilan almashtirish hodisasi ham kuzatiladi. Masalan, Chin - Xitoy, Gurjiston - Gruziya, Yunoniston - Gratsiya, Bahri Xazar - Kaspiy dengizi, Mojariston - Vengriya va boshqalar. Bu nomlar hozirda an'anaviy bo'lib qolgan, ularni almashtirishga hech qanday hojat yo'q, balki shu shaklda standartlash maqsadga muvofiqdir. Shuni ham unitmaslik kerakki, an'anaviy nomni ham boshqa nomlar qatorida hurmat bilan tilga olish zarur va ularni harchasi har qanday mamlakat toponimiyasida teng huquqli geografik nom hisoblanadi.

O'zbek tiliga o'zlashgan nomlar orasida talabga javob bermaganligi tufayli, uni ommabop va tushunarli bilan almashtirish hodisasi ham kuzatilgan. Hozirgi Yevropa nomi bunga yaqqol misol bo'ladi. Ma'lumki, bu nom O'rti Osiyoga XIX -asr oxirlarida Ovrupo shaklida kirib kelgan. Yarim asrdan ko'proq vaqt davomida bu nom - Avropa, Yevropa, Yavropa kabi shaklarda yozilgan. 1949 yildan boshlab, bu nomni Yevropa shaklida yozish ma'qul topildi. Barcha an'anaviy nomlar bundan keyin ham shu shaklda yozilaveradi, deb bo'lmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining geografik nomlarni standartlash yuzasidan

o'tkazgan xalqaro konferensiyalarida an'anaviy nomlarni kamaytirish va faqat milliy shakllarni qabul qilish tavsiya etilgan. Bu juda to'g'ri, ammo murakkab va mashaqqatli ish.

Bir nomning bir necha xilda yozilishi uni an'anaviy emasligidan darak beradi. Shu sababdan, ularning yagona milliy shaklini yaratish va qat'iylashtirish masalasiga nisbatan befarq bo'lmaslik kerak. An'anaviy nomlar orasida tasodifiy yoki tushunarsiz bo'lib qolgan nomlar bo'lsa, ulardan voz kechish ma'qul. Bundan keyin, boshqa tili toponimlarni o'zbek tiliga qabul qilishda, avvalgi nuqsonlar takror bo'lmasligi uchun, geografik nom transkripsiyasiga e'tibor berib, uni hozirgi o'zbek adabiy tili grammatikasi talablariga mos bo'lgan, tushunarli va ommabop shaklini qabul qilish kerak.

Hozirgi kunda soha mutaxassisleri tomonidan geografik nomlarni tarjima qilish uchun qo'llaniladigan va xalqaro talablarga to'la javob beradigan yagona tartib - qoida ishlab chiqilmagan. Bu esa o'z navbatida bu sohada muayyan chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Balki, shu sababdan tarjima qilinadigan va qilinmaydigan nomlarning o'zbekcha shaklini qat'iylashtirishga nisbatan qo'yilgan talablar ko'pincha, ularning lisoniy xususiyatlari bilan bog'liqdir.

Nomlarni to'la yoki qisman tarjima qilish haqida so'z yuritib H.Hasanov shunday yozgan: "geografik nomlarni to'la yoki qisman tarjima qilishga ham ortiqcha urinmaslik kerak, chunki har qanaqa nom ham tarjima qilinavermaydi. Xalqaro tajribadan shunday xulosa chiqarish mumkin: nomlarni tarjima qilishning chegarasi bor, bir tomondan, tarjima siyosiy geografik va ma'muriy obyektlarda kam, ammo tabiiy geografik obyektlarda esa ko'proq qo'llaniladi; ikkinchi tomondan, kichikroq va uncha mashhur bo'lmagan geografik joy nomlari kamdan-kam tarjima qilinsa-da, yirikroq va mashhurroq joy nomlari birmuncha ko'proq tarjima qilinadi. Masalan, shahar va mamlakat nomlari mutlaqo tarjima qilinmaydi, faqat fonetik asosda - talaffuzga qarab yoziladi".

Shuni ham ta'kidlash joizki, umumiy qoidaga xilof tarzda, juda kam hollarda bo'lsa ham ayrim shahar yoki mamlakat

nomning birinchi qismi - sifat tarjima qilinadi. Chunonchi, Yangi Orlean, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, Sharqiy Timor, G'arbiy Samoa, Yangi Dehli, Janubiy Sudan va hokazo. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ba'zi nomlar hamma tillarda qisman yoki butunlay tarjima qilinadi. Bunday xalqaro an'ana o'zbek tilida ham saqlanib qolgan. Barcha tillarda tarjima qilinadigan nomlar qatoriga Qora dengiz, Yaxshi Umid burni, Qizil dengiz, Qoyalı tog'lar, Olovli Yer, Yuqori ko'l, Janubiy Afrika Respublikasi, O'ra dengiz kabi ko'plab nomlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Ikki tarkibiy qismdan iborat bo'lgan geografik nomlarning odatda, birinchi qismi - sifat tarjima qilinadi, ikkinchi qismi o'zgarmasdan fonetik asosda yoziladi. Bunday nomlarning tarjima qilinadigan qismi ko'pincha aniqlovchi sifatlardan tashkil topgan bo'ladi. Aniqlovchilarga rangni bildiruvchi (oq, qizil, ko'k, sariq, qora), dunyo tomonlarini ko'rsatuvchi (sharq, g'arb, janub, shimol), katta, kichik, yangi, eski, quyi, yuqori kabi sifatlar misol bo'ladi. Kichik Atlas, Yangi Zelandiya, Janubiy Dakota, Shimoliy Irlandiya, Katta Kanon, Ko'k Nil, Buyuk Britaniya, Janubiy Sudan, G'arbiy Dvina va hokazo.

Mutaxassislarning fikricha, tarjima har qancha yaxshi bo'lmasin, u ma'lum darajada nomning ma'nosini buzadi, nom milliy va geografik xususiyatlarini qisman yo'qotadi. Shuni ham unutmash kerakki, tarjima qilingan nomlar soni ko'paysa geografik karta bir xil, zerikarli, jarangsiz nomlar yig'indisiga o'xshab qoladi. Shu sababdan, tarjima qilayotganda har bir nomga alohida yondoshib, uning paydo bo'lishida turtki bo'lgan geografik, lingvistik va tarixiy omillar sinchiklab o'rganilib nom tarjima qilinsa, toponim ko'p yillar xizmat qilishi mumkin.

#### II Savol va topshiriqlar:

1. Joy nomini yozish qoidalarini va grammatik xususiyatlarini haqida referat tayyorlang.

2. Sodda va qo'shma toponimlarga misollar keltirib ularni izinglang.

3. Joy nomini rasmiy va umumiylikda bir xil yozish zaruriyatini tushuntiring.

4. Toponimlarni standartlashtirish muammolari bilan shug'ullanadigan xalqaro ilmiy va hukumatlararo tashkilotlar haqida ma'lumot bering?

#### III Test topshiriqlari:

1. S. Qorayev qo'shimchasiz toponimlarni necha xilga bo'lib ko'rsatgan?

- A. 5 ta
- B. 4 ta
- C. 3 ta
- D. 2 ta

2. Murakkab geografik nomlarning ikkinchi komponenti turdosh ot bo'lsa, u holda qanday yoziladi?

- A. Tartib sonlar bilan yoziladi
- B. Tarjima qilib yoziladi
- C. Qo'shib yozilmaydi
- D. Qo'shib yoziladi

3. Ishlab chiqarish korxonalarini nomlarini to'g'ri yozish tartibi ko'rsatilgan qatorni belgilang?

- A. Qo'shtirmasiz yoziladi
- B. Defis bilan yoziladi
- C. Qo'shtirmaq bilan yoziladi
- D. Son bilan qo'shib yoziladi

4. Geografik nomlarni standartlashtirish nima?

A. Joy nomlarining yozilishini qat'iy yagona shaklini yaratish

B. Har bir nom raqamlanib uni elektron bazaga (kompyuterga) kiritish

- C. Nomni milliy va xalqaro miqyosda bir xil qo'llanishi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

5. Xorijiy mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy, turistik aloqalar uchun qanday nom tavsiya etiladi?

- A. Mamlakat ichida rasmiy tan olinmagan nomlar
- B. Faqat yangi nomlar tavsiya etiladi
- C. Mamlakat ichida rasmiy tan olingan nomlar
- D. Har qanday nom tavsiya etiladi

### 3.3. GEOGRAFIYA TA'LIMI VA TOPONIMIKA

#### ✧ *Reja:*

1. *Geografiya va toponimikani o'zaro bog'liqligi*
2. *Geografiyoda joy nomlari ma'nosini bilishning ahamiyati*
3. *Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish*

#### *foydalanish*

✧ *Mavzuning maqsadi:* Talabolariga geografiya va toponimikaning o'zaro aloqadorligi, geografiya ta'limida joy nomlari ma'nosini bilish va geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish zaruriyati haqida ma'ruza qilishdan iborat.

✧ *Tayanch ibora va atamalar:* geografiya, toponimika, joy nomi, majmuaviy fan, integral yo'nalish, toponimik ma'lumotlar.

**Geografiya va toponimikaning o'zaro bog'liqligi.** Geografiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan joy nomlari bilan shug'ullanuvchi toponimika va geografiya fani o'zaro chambarekas bog'liq. Ma'lumki, inson tabiiy muhitni o'zlashtirish jarayonida mavjud geografik obyektlarni farqlash maqsadida ularga nom beradi. Binobarin, geografik nom muhim ijtimoiy - siyosiy funksiyani, bajaradi, uning asosiy vazifasi va bosh maqsadi geografik obyektни aniq belgilashdan iborat.

Toponimika alohida ilmiy yo'nalish sifatida o'tgan asrning boshida shakllandi va geografiyaning muhim tarkibiy qismi bo'lgan geografik nomlar bilan shug'ullanadi. Nomlar esa kartadagi eng muhim axborot manbai bo'lib, inson va geografik obyekt orasidagi o'ziga xos bog'lovchi vazifasini o'taydi. Mutaxassislar, toponimikani tabiiy va ijtimoiy fanlar sintezi deyishadi, chunki, u tabiiy, ijtimoiy hamda gumanitar fanlarning eng dolzarb, bir-hiriga tutashib ketgan muhim masalalari majmuidan bahs etadi.

Toponimikani geografik fanlar qatoriga qo'shishga sabab, o'rganish objekti bo'lgan har qanday joy nomi - geografik qobug'i, aniqrog'i uning xo'jalik faoliyati uchun o'zlashtirilgan

qismi, ya'ni geografik muhitni mahsulidir. Inson tabiiy muhitni o'zlashtirib, undagi geografik obyektlarni birini ikkinchisidan farqlash uchun ularga nom beradi. Ikkinchidan, geografik nomlar xaritaning eng muhim elementi sifatida hiron mamlakat yoki o'lka tabiatining xususiyatlarini o'zida aks etadi. Uchinchidan, geografik nomlarning adreslik funksiyasi til - fakti va tarix - hodisasidan ko'ra ustunroq turadi. Sababi, toponim muhim ijtimoiy - siyosiy funksiyani, ya'ni yer yuzasidagi geografik obyektlar uchun oriyentir vazifasini bajaradi. Eng muhimi, geografik nomning asosiy vazifasi va bosh maqsadi yer yuzidagi ma'lum bir joyni aniq belgilashdan iborat.

Majmual xususiyatga ega bo'lgan geografik nomlar haqidagi fan (toponimika) - ana shu uchta davlat va millat nomi bilan ataladigan tarix, geografiya va tilshunoslik fanlarining "simbiozi"dir. Chindan ham toponimika olimlar tomonidan integral fan deb e'tirof etilgan, buni ijobiy va salbiy tomonlari ham bor.

Ijobiy tomoni shundaki, fanlar qirasida paydo bo'lgan toponimikaning integratsion salohiyati kuchli, u geografiya, tilshunoslik va tarix fanlarining yutuqlaridan samarali foydalanishi mumkin. Salbiy tomoni esa, qo'shni fanlar toponimikani "transchegaraviy"ligidan foydalanib uni o'z tasarrufiga kiritishga intiladi. Yana shuni e'tirof etish lozimki, ushbu fanning nodir xususiyatlaridan biri, mintaqalar toponimiyasini tadqiq etishda kompleks yondashuvni talab etadi.

Shu sababdan, toponimikaning tadqiqot objekti bo'lgan geografik nomlarni o'rganishda "geografiya - tarix - tilshunoslik" uchbirligi muhim strategik ahamiyatga ega. Shunday qilib, agar toponimikaning metodologik asosini geografiya tashkil etsa, unda tarix - vaqtdagi shartli belgisi, lingvistik - har ikkisini leksik ifodasidir.

Mutaxassislarning yozishicha, toponimika o'tgan asrning ikkinchi yarimidan hoshlab tez sur'atlar bilan rivojlandi. Bunga albatta, fanning ichki imkoniyatlaridan to'la foydalanganligi hamda toponimikani "chegaraviy" fanlar bilan uyg'unlashib, ilmiy-tadqiqot ishlarini oqilona tashkil qilishi asos bo'lib xizmat

qilgan. Demak, turli fanlarning o'zaro ta'siri bu - qonuniy jarayon. Shu sababdan, ilmiy tadqiqot ishlari aynan, bir necha fanlar manfaatlarini tutashgan joyda yaxshi samara bermoqda. Geografik nomlarni o'rganuvchi toponimika - ana shunday fanlar sirasiga kiradi va shubhasiz, toponimika hali ko'p yangiliklar yaratishga qodir.

Shu bilan birga, geograflar ta'biri bilan aytganda, eng muhimi har qanday sharoitda ham toponimik tadqiqotlar o'zining geografik negizidan uzoqlashmasligi, hududiylik va regionallik xususiyatlariga asoslanishi zarur. Chunki, har bir hudud toponimiyasi o'z mohiyati bilan boshqalardan farq qiladi. Mazkur farqlanishlarni o'rganish va ularning mohiyatini ochib berish toponimika fanining "noni" desak to'g'ri bo'ladi.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda toponimikada hech qanday bahs munozaraga o'rin yo'qdek tuyuladi, ammo fanning mohiyati va xususiyatiga ko'ra voqea - hodisaning bir tomonini o'rganadigan predmeti haqida hozirgacha olimlar orasida mushtarak xulosa yo'q. Albatta, har qanday nuammoni ijobiy hal etish uchun, ilmiy asoslangan dalillar va eng muhimi ma'lum muddat kerak.

Shunga qaramasdan, E.M.Murzayev, V.A.Nikonov, Ye.M.Pospelov, V.A.Luchkevich, I.I.Hasanov, S.Qurayev kabi taniqli nomshunos olimlar ilmiy ishlarida geografik obyektlarning nomlash jarayonini to'g'ri anglah, nom o'zida tarixiy hamda geografik voqealarni real aks etishi natijasida paydo bo'ladi degan yagona xulosani bayon qilishgan. Ana shunday real voqealarni qatoriga tabiiy - geografik sharoit, ijtimoiy - iqtisodiy - siyosiy geografik jarayonlar, jamiyat hayoti, aholining milliy tarkibi kabi bir qator omillarni kiritish mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, har qanday geografik nom - bu dunyoni anglash mahsuli, unda muayyan bir hududdagi kishilarni kundalik hayoti, turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini, muomalasi, psixologik holati o'z ifodasini topgan. Binobarin, ijtimoiy zarurat mahsuli bo'lgan nomlar insoniyatni geografik muhitdagi obyektiv hodisa-voqealarni qanchalik anglab olish jarayonini o'zida aks etadi. Bu jarayon albatta, kishilarni ijtimoiy

hayoti, milliy va ma'naviy qadriyatlarini, mahalliy aholini etnik tarkibi, migratsiyasi, til tarixi hamda ularni o'rab turgan tabiiy - geografik muhit bilan chambarchas bog'liqdir.

Ko'pchilik mutaxassislar fikricha, toponimikani fan sifatida paydo bo'lishi bevosita geografiya bilan bog'liq. Jumladan, rus olimi A.M.Marakuyev shunday yozgan: "Toponimika deb geografiyani - geografik nomlarning paydo bo'lishi, evolyutsiyasi, ularni shakli, semantikasi, etimologiyasi, to'g'ri yozilishi va talaffuzi, orfografiya qoidalarini hamda kartalarda nomlarni kartografik shriftlar yordamida aks etish usullarini o'rganuvchi sohasini tushunish kerak".

Taniqli o'zbek filolog toponimisti T.Nafasov bu fikrni tasdiqlah «...qadimiy geografiya fani bag'rida paydo bo'lgan yangi yo'nalishlardan biri toponimikadir. Toponimika bilan azal - azaldan geograflar, geografiya fani shug'ullanib kelgan. So'ngra bu soha bilan tarixshunoslar, arxeologlar qiziqib, tarixiy nomlarning ma'nosi, tarkibi, qaysi tilga mansubligi kabi masalalarni tadqiq qilishdi. Eng so'ngida toponimika filshunoslikning tadqiq obyektiga aylandi» deb yozgan edi.

Darhaqiqat, uzoq vaqtlar toponimikani geografik fan, geografiya ilmiga xos ilmiy yo'nalish degan qarash hukmron mavqeda bo'ldi. Chunki joy nomi - geografik obyektning maxsuslangan, yer sharining ma'lum nuqtasida mavjud bo'lgan aholi yashash maskanlarining, yer yuza shakllarining nomi sifatida dastlab ilmga geografiya fani va uning tadqiqotchilari tomonidan kiritilgan. T.Nafasovning xulosasiga ko'ra, geografiya toponimikani deyochoasi va doyasidir.

Toponimlar - mintaqadagi tabiiy-geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarning ifodasi sifatida namoyon bo'ladi va bevosita "inson - hudud", "inson - atrofdagi muhit" tushunchalari bilan bog'liqdir. Bu fikrni filolog-toponimist A.V.Superanskaya ham qo'llab-quvvatlab, "atoqli otlarni paydo bo'lishida hudud omili muhim rol o'ynaydi, chunki nom tanlashda muayyan hududning tabiiy sharoiti bevosita ta'sir ko'rsatadi va u aynan toponimiyada yaqqol namoyon bo'ladi" deb yozgan edi.



Hududiy omilning naqadar muhim ekanligini E.M.Murzayev "Xalq geografik terminlari lug'ati" nomli fundamental asarida aniq misollar yordamida ko'rsatib bergan. Olimning yozishicha, geografik termin bo'lgan tundra so'zi turli mintaqalarda turlicha ma'no kasb etgan. Masalan, fin tilida -"o'rmonsiz, ko'pincha moxlar (yo'sinlar) bilan qoplangan yalang, qir", rus tilining shimoliy dialektlarida - «botqoqli pastlik», Sharqiy Sibirda esa - "torlli yoki buttali botqoqlik" kabi ma'nolarni anglatadi.

Belorus toponimisti V.A.Juchkevich toponimikani geografik nomlarni o'rganuvchi qo'shimcha ilmiy yo'nalish deb ta'rif bergan. Olim o'zining "Toponimikani umumiy va mintaqaviy geografik qonuniyatlari" nomli asarida, toponimikani chegaraviy fanligi, uni o'rganish predmeti esa toponimik landshaft, ya'ni ma'lum hududdagi nomlar majmui (suv obyektlari, relief shakllari, aholi manzilgohlari nomlari va hokazo) bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Shu o'rinda aytish kerakki, geografiya fanlarining yangi tizimini tavsiya qilgan o'zbek olimi I.Nazarov, toponimikani geografiyani oraliq fanlari qatoriga qo'shgan va aynan shu fanlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarni nisbatan sezilarli va e'tiborga loyiq deb hisoblaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, geografiya fanlari tizimiga kiruvchi ayrim ilmiy yo'nalishlar ma'lum ma'noda o'z "malik" zaminidan uzoqlashmoqda. Ular qatoriga toponimika fanini ham kiritish mumkin. Shuni e'tirof etish kerakki, toponimika dastlab tabiiy va ijtimoiy geografiya negizida paydo bo'lgan bo'lsa ham, ammo afsuski, so'nggi davrlarda uning geografik taraqqiyoti ancha orqada qolmoqda. Gap toponimik tadqiqotlar haqida borar ekan, shuni ham qayd qilish kerakki, geograflar tomonidan amalga oshirilayotgan toponimik tadqiqotlar salmog'i ancha kam.

Toponimikaning rivojlanishi va geografiya fanlari qatoridan mustahkam o'rin egallashi uchun, zarur bo'lgan quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: a) barcha respublika oliy o'quv yurtlardagi geografiya, tarix va filologiya mutaxassisliklarning bakalavriat ta'limi yo'nalishlarida toponimika fanining o'qitilishini yo'lga qo'yish lozim. b) toponimika sohasida bajarilgan doktorlik dissertatsiyalarni qabul qilish maqsadida,

geografiyaga oid ixtisoslashtirgan Ilmiy Kengashlarning mutaxassislik pasportiga zaruriy o'zgartirishlar kiritish lozim; v) geografiya, tarix va filologiyani bakalavriat ta'limi yo'nalishlari hamda toponimika mutaxassisligi bo'yicha yangi ochilayotgan magistratura ta'lim yo'nalishi uchun, davlat ta'lim standartlari talablariga to'la javob beradigan darslikni tezroq yaratish zarur.

Umuman olganda, toponimikada bahstalan muammolar ko'p. Shu sababdan, keltirilgan ayrim faktlar munozarali, ha'zilari asoslangan, boshqalari esa kamroq ishonarli tuyulishi mumkin. Ammo, shu narsa aniqki, har qanday bahs va munozaralar manfaatdan xoli emas, chunki ular yordamida keyingi ilmiy izlanishlar yo'llari belgilab olinadi va eng muhimi yanada yuqori natijalarni qo'lga kiritishga imkoniyat paydo bo'ladi.

Xitoylarda, "nomini eshitgandan ko'ra yuzini ko'rmoq afzal" degan naql bor, ammo davrlar o'tishi bilan yuzini ko'rishni iloji bo'lmaganda, bilimdon qo'lidagi nom yer yuzidagi millionlab geografik obyektlarning hududiy joylashgan o'rini aniqlash imkonini beradi. Toponimika ilmiy fan sifatida jadal rivojlanayotgan ekan, insuniyat zamaddunida ilmiy, tarixiy, madaniy va milliy qadriyatlarining eng muhim elementlaridan biri bo'lgan geografik nomlar mazkur fanning o'rganish obyekti bo'lib qolaveradi.

**Geografiyada joy nomlari ma'nosini bilishning ahamiyati.** Toponimikaning o'rganish obyekti bo'lgan joy nomlari geografiyaning ham asosiy tarkibiy qismi bo'lib, geografik ma'lumotlarni hududiy bog'lashda ular bog'lovchi vosita vazifasini bajaradi. Xususan, geografik qonuniyatlarni tushintirishda yoki biror geografik hodisa va voqeani geografik obyektlarning nomi bilan bog'lab izohlansa, ma'lumotlar yana ham ishonchli bo'ladi.

Talaba geografik kartalarni yaxshi bilishi yoki alohida hududlar tabiatini o'zaro taqqoslash, kartaning asosiy unsuri bo'lgan nomlarni ham yaxshi bilishi kerak. Xususan, xorijiy mamlakatlarga tegishli bo'lgan geografik nomlarni eslab qolish, talaffuz qilish va to'g'ri yozish ancha qiyin masala. Shuning uchun, bunday nomlarni eslab qolishi uchun, ularning ma'nosini tushuntirib berish, nom bilan bog'liq rivoyat va voqea-hodisalarni

gapirib berish juda muhimdir. Masalan, Kanada davlati haqida ma'lumot berayotganda, mamlakat nomining kelib chiqishi to'g'risida quyidagilarni gapirib bersa, o'quvchilar darrov uni eslab qolishadi.

Mutaxassislarning yozishicha, Kanada so'zining paydo bo'lishi tubjoy xalq bo'lgan indeylar bilan bog'liq. Fransiya qiroli farmoni bilan, Jak Karte boshchiligidagi fransuz ekspeditsiyasi Xitoyga boradigan shimoliy yo'lni ochish maqsadida g'arbga qarab suzadi. 1535 yili ekspeditsiya a'zolari oldindan tanish bo'lgan Muqaddas Lavrentiya bo'g'iziga kiradi va shu nomli daryo orqali yuqoriga qarab harakat qilishadi. J.Karte daryo sohilidagi irokez indeylari manzilini ko'rib qoladi va ulardan mamlakatingiz qanday ataladi deb, so'raydi.

J.Karte gaplarini tushunmagan irokezlar o'zlari tilida kanata - «qishloq» deb javob berishadi. Sayohat davomida xuddi shu savol bir necha marta takrorlangan bo'lsa ham, bitta kanata javobini olishgan. Shundan so'ng, J.Karte ishonch bilan kanata so'zini nom sifatida kartaga tushirgan. Keyincha, kanata so'zining qo'llash areali kengaygan va hozirda katta hududni qamrab olgan Kanada davlatining nomiga aylangan. Ma'lumki, tushunarsiz nomlarni eslab qolishdan ko'ra, tushunarli so'zlarni, hatto so'z birikmalarni eslab qolish ancha osondir.

Geografik joy nomlarini chuqur tushinishga mahalliy geografik terminlarni (atamalarni) o'rganish yordam beradi. Agar mahalliy geografik terminlarning ma'no-mazmuni to'g'ri talqin qilinsa, hudud tabiatini ongli ravishda tushinish osonlashadi. Nom kishilarda faxr, g'urur uyg'otadi va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yordam beradi. Bundan tashqari, geografik obyektlarning nomini to'g'ri yozish va to'g'ri talaffuz qilish nutq madaniyatini o'stiradi va adabiy savodxonlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Shu bilan birga, geografik nomlarning tarbiyaviy, ilmiy ahamiyati ham juda katta. Mamlakat siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar uning xaritasida aks etib turadi. Mustaqillikdan keyin mamlakatimizdagi ko'pgina joy nomlari ma'naviy jihatdan eskirdi. Chunki sho'rolar davrida hukmron mafkura manfaatlariga

xizmat qilgan, milliy mentalitetimizga mutlaqo yot bo'lgan joy nomlari hayotimizdan keng o'rin olgan edi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning xaritasida ham jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Eng muhimi mustaqillikni, milliy qadriyatlarni ulug'lovchi geografik nomlar paydo bo'ldi, tarixiy nomlar qayta tiklandi, yurt tabiati, xalqimiz tarixi va kasb-hunari, milliy an'analar hamda ma'naviyatimiz bilan bog'liq nomlar soni ko'paydi. Endilikda, qayta tiklangan tarixiy nomlarni saqlab qolish kerak, ular tarixiy obidalar, milliy yodgorliklar kabi yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shuning uchun, tarixiy nomlarni asrab-avaylash, muhofaza qilish, avlodlarga to'kis yetkazish hayotiy zarurat, ijtimoiy burch ekanligini unitmaslik lozim.

Geografik nomlarda Yyer sharini geografik o'rganish tarixi ham o'z ifodasini topgan. Yangi yerlarni ochgan, o'rgangan ko'pchilik sayyohlar, dengizchilar, tadqiqotchilar nomlari geografik xaritalardan mustahkam o'rin olgan. Masalan, Antraktida toponimiyasi tarkibidagi nomlar materikni o'rganish uchun kelgan, turli mamlakatlardan tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan. Shuning uchun, materik toponimiyasining asosiy qismini tadqiqotchi olimlar, qit'ani kashf qilishga hissa qo'shganlar, dengizchi - sayyohlar nomi tashkil qiladi. Masalan, Bellinsgauzen botig'i, Lazarev tog'lari, Ross, Amundsen, Ueddell, Riser-Larsen dengizlari, Elsuert tog'i, Berd tekisligi va hokazo.

Geografiya darslarida joy nomlari yordamida hudud tabiiy sharoitini (yer yuzasi, qazilma boyliklari, iqlimi, gidrografiyasi, o'simliklar va hayvonot dunyosi, tabiiy hodisa va jarayonlari) tushintirish mumkin. Chunki tabiiy geografik omillar asosida shakllangan geografik nomlar keng tarqalgan. Masalan, Janubiy Amerika materigining qazilma boyliklari haqida gapirganda, And so'zini quyidagicha izohlasa bo'ladi: And - dunyodagi eng uzun (salkam 9000 km) va eng baland (Akonkagua cho'qqisi, 6960 m) tog' tizmalaridan biri. U materikni butun uzunligi bo'ylab g'arb tomonidan o'rab turadi.

And - so'zi inkalar tilida anta - «mis» degan ma'noni anglatadi. And tog'larida mis konlari ko'p va mis mintaqasi salkam 4 ming

km masofaga cho'zilgan. Qadimda inklar mis eritishgani ham tarixiy manbalardan ma'lum va bu And so'zining etimologiyasini yana bir bor tasdiqlaydi.

Geografik nomlar yordamida asrlar davomida saqlanib kelayotgan ma'lumotlarni, o'tgan zamonda ro'y bergan tarixiy voqea-hodisalar, kishilarning kasb-hunarleri, urf-odatleri, aholi migratsiyasini aniqlash mumkin. Joy nomlarini o'rganadigan toponimikani majmuaviy fanligidan foydalanib predmetlararo aloqalarni mustahkamlash mumkin. Masalan, geografiyani o'qitishda ona tili, chet el toponimlarini o'rganishda chet tillari bilan bug'unish yaxshi samara beradi.

Ba'zi bir joy nomlari ma'lum hududda sodir bo'lgan tarixiy voqea-hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Tarixchi ko'proq geografik nomning kelib chiqish tarixi, qaysi davrda paydo bo'lganligi, tarixiy jarayonlar bilan bog'liqligi, o'sha davr sharoiti, arxologik va etnografik manbalari, mahalliy xalqning tarixi va hokazolar bilan qiziqadi. Ularni o'rganish geografiya va tarix fanlarining aloqasini mustahkamlashga yordam beradi.

Geografik nomlarni to'g'ri izohlash va foydalanish juda mushkul ish. Buning uchun H.Hasanov aytganidek, kamida «uzbek tilini puxta bilish va qo'shni tillardan xabardor bo'lish kerak. Vatanimiz tarixini, qadimda o'tgan qabilalarni, aholining xo'jalik faoliyatini va albatta, har bir joyning geografik xususiyatlarini yaxshi bilish kerak. Ana shunday har tamonlama ma'lumotlarni bir-biriga solishtirib, qo'shib, joy nomining tarixini aniqlay olasiz».

**Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish.** Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimida, jumladan geografiya ta'limi sohasida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlardan ko'zda tutilgan asosiy maqsad ta'lim jarayoniga yangi pedagogik va innovatsion texnologiyalardan foydalanib, ta'lim-tarbiya birligini ta'minlash, samaradorligini oshirish va pirovard natijada uni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qildirishdan iborat.

Toponimik ma'lumotlardan geografiya darslarining deyarli barchasida foydalansa bo'ladi. Ko'pincha joy nomlari haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi va tez-tez ularni kelib chiqishi haqida so'raydilar. Joy nomlari bilan qiziqish darsga bo'lgan e'tiborni kuchaytiradi.

Maktab o'quvchilari orsida o'tkazilgan so'rov natijalarida, to'qson foizdan ko'proq talabalar qishloqlari tarixi va uning nomining kelib chiqishi haqida ko'proq bilishni istaydilar. Demak, toponimik ma'lumotlar o'quvchilarni bilish qobiliyatini rivojlanishi va tafakkur doirasining kengayishiga xizmat qiladi. Shuning uchun, toponimik ma'lumotlardan geografiya darslarida salmoqli o'rin egallaydi va ulardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Geografiya darslarini xaritasiz, xaritani esa joy nomlarisiz tasavvur qilish qiyin. Mutaxassislarning fikricha, maktab geografiya darslarida quyi sinf o'quvchilari yuztagacha, yuqori sinf o'quvchilari bir necha yuzlab nomlarga duch kelishadi. O'qituvchi dars jarayonida qaysi geografik obyekt haqida gapirishidan qat'iy nazar, uning nomini to'g'ri talaffuz qilib, to'g'ri yozishi kerak. Chunki geografik nomlarni to'g'ri yozish savodxonlikning muhim tarkibiy qismi sanaladi, nomlarni to'g'ri talaffuz qilish esa nutq madaniyatini shakllantiradi.

Bundan tashqari, geografik obyekt nomi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun, nomning qaysi til mahsuli ekanligi va uning etimologiyasi haqida qisqacha izoh berish kerak. Imkon qadar geografik obyekt haqida ko'proq ma'lumot to'plash uchun toponimik adabiyotlar, lug'atlar va qo'shimcha ilmiy manhalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Geografik obyekt haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar, obyekt haqidagi bilimlarni esda saqlash qolishga yordam beradi.

Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish uni qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Dars jarayonida asosiy mavzuni u'zlashtirishi uchun yordam beradigan toponimik ma'lumotlardan foydalansa, o'quvchilarni geografiya faniga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Agar, darslar nuqul joy nomlarini izohlash bilan o'tadigan bo'lsa, bunday darsni foydasidan ko'ra

zarari ko'proq bo'ladi. Bu masalaga alohida e'tibor qaratgan H.Hasanov shunday yozgan edi, «toponimika juda qiziqarli ekan deb, hamma darslarda joy nomlarini o'rganaverib, o'quvchilarning joniga tegmaslik kerak...».

Binobarin, vaqtdan unumli foydalanib, darsning faqat ma'lum qismini joy nomlarini o'rganishga ajratish kerak, dars jarayonida uchraydigan barcha nomlarning ma'nosini bilish shart emas, o'qituvchi darslikdagi eng asosiy nomlarga e'tibor qaratsa bo'ladi. Toponimik ma'lumotlardan foydalanish uchun, dastlab mahalliy geografik obyektlarning nomlarini o'rganishdan boshlanmoq ma'qul. Chunki ma'lumotlarni joyiga borib to'plash mumkin, ular ishonchli va aniq bo'ladi.

Joy nomlari va ularning ma'no-mazmuni bilan qiziqadiganlar soni ko'p bo'lsa, unda darsdan tashqari fakultativ mashg'ulotlar, geotoponimik kechalar, turli xil o'yinlar tashkillashtirib, ularning qiziqishini yanada oshirish mumkin. Fan o'qituvchisi geografik obyektlar nomini o'quvchilar tomonidan shunchaki yodlashlariga yo'l qo'ymasliklari zarur. Bu uchun eng avvalo geografik obyektning qayerda joylashganligi va joy nomining ma'nosini aniq bilishi talab etiladi. Aks holda, bu jarayon o'quvchilar tomonidan kartani yuzaki o'rganishga olib keladi. Bu borada ilg'or tajribali o'qituvchilarning ish faoliyatidan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Shunday qilib, geografiya darslarida joy nomlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish o'quvchi va talabalarning kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish kabi aqliy faoliyatini takomillashtiradi, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, og'zaki nutqini o'stirishga samarali ta'sir qiladi. Xulosa qilib aytganda, geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan me'yorida foydalanish maqsadga muvofiq, ular geografiya fanini puxta o'zlashtirishga va fanga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga xizmat qiladi.

Geografiya ta'limining asosiy vazifalaridan biri umumiy o'rta ta'lim jarayonida o'quvchilarda geografik dunyoqarash va geografik madaniyatni shakllantirishdan iborat. Geografik dunyoqarash - jahon mamlakatlarida ro'y berayotgan turli tabiiy, iqtisodiy,

siyosiy voqea- hodisalarning manzilini aniq tasavvur qilishdir. Tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik obyektlarning joylashgan o'rni va ularning tabiiy va iqtisodiy- ijtimoiy xususiyatlari haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi geografik madaniyatga kiradi.

O'quvchilarda geografik dunyoqarash va geografik madaniyatni shakllantirishda geografik nomlar muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, geografik obyektlarning nomlarining ma'nosini o'quvchilar asosan geografiya darslarida bilib olishadi. Geografiya darslarida mavzuga oid nomlarning ma'nosi, atalish tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar berilsa geografiya faning jozibadorligi yanada oshadi.

#### ✎ Savol va topshiriqlar:

1. *Toponimikani geografik fanlar qatoriga qo'shish sabablarini izohlang.*

2. *Geografiya ta'limida joy nomlari ma'nosini bilishning qanday ahamiyati bor?*

3. *Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanishning afzalliklari haqida ma'lumot bering.*

#### ✎ Test topshiriqlari:

1. *Toponimikaning metodologik asosini .... tashkil etadi?*

A. tarix

B. lingvistika

C. geografiya

D. etnografiya

2. *Geografik obyektlarning nomini to'g'ri yozish va to'g'ri talaffuz qilish ... To'g'ri javobni nuqtalar o'rniga qo'ying va belgilang.*

A. til o'rganishga yordam beradi

B. turizm yaxshi rivojlanadi

C. nutq madaniyatini o'stiradi

D. reklamaga ko'maklashadi

3. *Geografiya darslarida toponimik ma'lumotlardan foydalanish darvni .... o'tishini ta'minlaydi.*

A. an'anaviy

B. qiziqarli

- C. zerikarli  
D. nazoratli
4. "...qadimiy geografiya fani bag'rida paydo bo'lgan yangi yo'nalishlardan biri toponimikadir", degan xulosasi muallifi kim?
- A. S.Qorayev  
B. A.Superanskaya  
C. T.Nafasov  
D. H. Hasanov
5. Geografiya darslarida joy nomlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rganish o'quvchilarda .... To'g'ri javobni nuqtalar o'rniga qo'ying va belgilang.
- A. mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi  
B. og'zaki ratqni o'stirishga samarali ta'sir ko'rsatadi  
C. aqliy faoliyatini takomillashtiradi  
D. barcha javoblar to'g'ri

#### IV BOR. O'ZBEKISTON VILOYATLARI TOPONIMIYASI

##### 4.1. O'ZBEKISTON TOPONIMIYASIGA UMUMIY TAVSIF

###### ☒ Reja:

1. O'zbekiston toponimiyasi va uning o'rganilish tarixi
2. O'zbekiston toponimlarining farqlovchi xususiyatlari
3. O'zbekiston nomining etimologiyasi haqida

☼ *Mavzuning maqsadi:* O'zbekiston toponimiyasi va uning o'rganilish tarixi va viloyatlar toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari handa mamlakatimizning mustaqillik davridagi toponimik siyosati haqida ilmiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat.

☼ *Tayanch ibora va atamalar:* geografik nom, geografik obyekt, toponimik siyosat, tarixiy qatlamlar.

O'rta Osiyo toponimik landshafti nihoyat xilma-xil va murakkab tuzilishga ega. Bunga hudud toponimiyasining turli hududlardagi o'ziga xos tabiiy sharoiti, etnik va til taraqqiyoti tarixi hamda madaniy va ma'naviy xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqligi sabab bo'lgan. Bu holat O'rta Osiyo toponimiyasini juda qadimiy davrlarda shakllanganligidan dalolat beradi. Eng muhimi ularning ko'pchiligi tarixiy hujjatlarda qayd qilingan. Shuni hisobga olgan holda, akademik V.V.Bartold O'rta Osiyo tarixi va toponimiyasi bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan tadqiqotchi ma'lumotlarni kamligidan emas, aksincha ko'pligidan, tarqoqligidan qiynaladi, degan edi.

Mutaxassislarining fikricha, mintaqadagi eng quyi toponimik qadamni qadimgi substrat nomlar, ya'ni hozirgi tillar yordamida izohlab bo'lmaydigan, maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan nomlar tashkil qiladi. Taniqli toponimist olim E.M.Murzayevning aniqlashicha, O'rta Osiyoda hozirgacha aniqlangan va saqlanib qolgan joy nomlarining eng quyi qatlami eroniy (forsiy) tillarga xos. Ular mintaqaning barcha hududlarida, Pomir tog'laridan to Turon tekisliklarigacha keng tarqalgan.

Ta'kidlash joizki, hududda eroniy tili toponimlar bilan birga, turkiy nomlar ham juda qadimiy davrlarda shakllangan. O'rta Osiyoning qadimiy turkiy toponimiyasini maxsus o'rgangan tarixchi olim Sh.S.Kamoliddinning yozishicha, kelib chiqishi turkiy bo'lgan nomlar juda qadim davrlardan huyun, ushbu hududda keng tarqalgan va ular ilk o'rta asrlarda son jihatdan sharqiy eroniy tillarga xos bo'lgan toponimlardan keyin ikkinchi o'rimni egallagan.

Turkiy toponimlar o'rta asrlardan boshlab to hozirga qadar mintqa toponimiyasining eng baquvvat harida barcha hududlarda keng tarqalgan geografik nomlar qatlamini tashkil etadi. E'tiborli tomoni shuki, O'rta Osiyoning boshqa hududlariga nisbatan Yenisuv va Tyanshanning ichki qismlari hamda Qazog'istonning dasht mintaqasida azaldan turkiy nomlar ko'p bo'lgan. Numshunos olimlarning fikricha, turkiy toponimlarning farqlovchi xususiyatlardan biri shuki, ular ko'pincha geografik terminlar yordamida paydo bo'lgan. Olimlar bu holatni turkiy xalqlarning yashash tarzi bevosita ularni o'rab turgan tabiat bilan chambarchas bog'liqligi bilan izohlashgan.

Mintaqa toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlardan yana biri, shuki joy nomlari tarkibida etnonimlar, ya'ni urug'-qabila nomlari salmoqli o'rin egallaydi. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, o'tmishda ularning soni bundan ham ko'p bo'lgan. Masalan, XIX asrning oxirlarida Zarafshon vodiysini o'rgangan rus olimlari tomonidan yozib olingan 1300 aholi punkti nomi orasida 900 dan ortiq etnonim borligi qayd qilingan.

O'rta Osiyo toponimiyasi tarkibidagi nomlarning asosiy qismini hozirgi o'zbek, qozuq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq va tojik tillari yordamida osongina tushunish mumkin. Mutaxassislar ta'kidlagandek, toponimlar hozirgi ma'muriy-hududiy chegaralarni tan olmaydi. Chunki ularning ko'pchiligi hozirgi milliy chegaralanishdan oldin paydo bo'lgan. Shuning uchun, mahalliy xalqlar (o'zbek, qozuq, qirg'iz, turkman, tojik) tomonidan yaratilgan joy nomlarni O'rta Osiyoning barcha davlatlari hududida uchratish mumkin.

O'zbekiston toponimiyasi ham O'rta Osiyo toponimiyasining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Shuning uchun, O'zbekiston toponimiyasini o'rganishni niyat qilgan har qanday tadqiqotchi O'rta Osiyodagi tubjoy xalqlarning tarixi va tilidan yaxshi xabardor bo'lishi kerak. S.Qorayevning yozishicha, hozirgi O'zbekiston hududidagi vohtalarda yashagan mahalliy xalqlar - xorazmiy, sug'diy, bixtarliy tillarida yaratilgan nomlar, hozirgacha aniqlangan eng qadimiy substrat toponimlardir.

Olimning fikricha, yunonlarni O'rta Osiyoga, jumladan hozirgi O'zbekiston hududiga kiritish mintqa toponimiyasida biron-bir sezilarli iz qoldirmagan. Ular tomonidan yaratilgan nomlarni mahalliy xalqlar qabul qilmagan va yunonlarning ketishi bilan avvalgi nomlari qayta tiklangan. Hozirgacha saqlangan va makedoniyalik Iskandar nomi bilan bog'liq bo'lgan nomlarning aksariyati turli rivoyatlarga asoslangan. Iskandar haqidagi turli xil rivoyatlarning ko'pligi, bunday toponimlarning etimologiyasini aniqlashni ancha qiyinlashtiradi. H.Hasanovning yozishicha, foh Iskandar haqiqatdan ham yurtimizda bo'lgan, ammo u Ho'janddan nariga o'tmagan. Shuning uchun, uzoq-uzoq joylardagi Iskandar nomlarini faqat ko'chirma deb tushinish ma'qul.

Tarixchi akademik A.Muhammadjonovning ta'kidlashicha, O'zbekistonda Iskandar nomli bir necha geografik obyektlar mavjud. Ularga Nurota tumanidagi quduq, Yangiobod tumanidagi qishloq, Toshkent yaqinidagi ariq misol bo'ladi. Iskandar nomi bilan bog'liq joy nomlarining keyingi paytlarda paydo bo'lganlari ham bor. Masalan, Iskandarariq - Toshkentdan yuqoriroqda Chirchiq daryosidan chiqarilgan ariq. Bu ariqni 1883-1885 yillarda, mahalliy xalq orasida Iskandarto'ra laqabi bilan mashhur bo'lgan chor Rossiyasining knyazi Nikolay Konstantinovich qazdirgan.

Hozirgi O'zbekiston hududidagi turkiy va forsiy xalqlar qadimdan uzviy iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqada bo'lishgan. Bu munosabat va aloqalar har ikki xalqning toponimiyasiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Tarixchi olim A.Muhammadjonov eroniy qatlarga xos bo'lgan Savot nomini izohlab shunday yozadi: Ustrushonaning Sebat rustoqida Buyuk Ipak yo'li uch tarmoqqa

(Shosh, Farg'ona, Ustrushona) bo'linib ketgan. Ushbu yo'nalishlarning har birida bittadan rabot-karvonsaroy mavjud bo'lgan va Sebat (se - "uch", bat - "rabot"ning qisqargan shakli) - «uch rabot» ma'nosini beradi. Sebat mahalliy xalq talaffuzida Sahat, Savot bo'lib o'zgaragan.

O'rta asrlarning arabiy-navis geografleri Ibn Havqal va Istaxriy asarlarida ham qishloq to'g'risida ma'lumotlar mavjud va uning katta karvon yo'li ustida joylashganligi ta'kidlangan. Qulay geografik o'ringa ega bo'lgan Sebatda o'rta asrlarda Ustrushonadagi yagona mashhur yopiq bozor, tim bo'lgan. Demak, Savat-aslida Seravot bo'lib uch rabot, uch karvonsaroy degan ma'noni bildiradi.

Har bir mintaqa toponimiyasi yordamida o'sha hududdagi tarixiy qatlamlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Ba'zan, nomlar o'tmish mahsuli sifatida, asrlar davomida tildan tilga o'tib shaklan o'zgaradi, mazmunan mavhumlashib boradi. Jizzax viloyati hududidagi Nurota tog'lari etagida joylashgan Garasha qishlog'ining nomi bunga yaqqol misol bo'ladi. Mahalliy xalqning aytishicha, qishloq nomiga fors-tojik tilidagi «girehkusho» so'zi asos bo'lgan. Girehkusho so'zi fors-tojik tilida, gireh - «tugun», «band» va kusho - «echmusp», «tugunlarni yechuvchi», «tilsimlarni ochuvchi», «hojatbaror» kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Girehkusho nisbasi XII asr oxiri va XIII asrning boshlarida yashagan, yassaviya tariqatining izdoshlaridan bo'lgan, hamda ilk bor zhu qishloq hududida qo'nim topgan shayx Muhammadsharif ibn Aliasqarga tegishli. Bu nisba bilan mashhur bo'lishiga shayxning ko'pgina karomatlari, muammolar yechimini to'g'ri topganligi sabab bo'lgan deyishadi.

Ikkinchi, eng baquvvat tarixiy qatlam turkiy (o'zbek) toponimlardan tarkib topgan. Turkiy (o'zbek) qatlam nafaqat O'ra Osiyo davlatlari hududida, balki Afg'oniston, Eron, G'arbiy Xitoy va boshqa mintaqalarda keng tarqalgan. Ular ko'pincha, mintaqa toponimlar tizimini belgilaydi va etimologik jihatdan ularni izohlash ancha oson. Turkiy nomlarning asosiy farqlovchi

xususiyatlaridan biri - qatlamdagi nomlarning katta qismini etnonimlar tashkil etadi.

E.M.Murzayevning yozishicha, turkiy qatlamdagi nomlar aholining xo'jalik yuritish faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi bois, boy va rang-barang. Ayrim geografik tushunchalar chorva mollarning yaylovlari va landshaftlar unumdorligi bilan bog'liq. Turkiy tillarda chorva ozuqalarning turli xususiyatlarini ifodalash uchun bir qator ixtisoslashgan geografik terminlardan foydalaniladi. O'rta Osiyo mintaqasida ayrim geografik terminlar qaysi mamlakat hududida qo'llanilishiga qarab fonetik jihatdan o'zgaragan. Masalan, O'zbekiston, Qirg'izistonda - soy, Qozog'istonda - say, Turkmanistonda - choy (chay).

O'rta Osiyo toponimiyasining shakllanishida faol qatnashgan ayrim toponimik terminlar, 6-jadval

Toponimik terminlar	Tillar			
	Turkman	Qozoq	Qirg'iz	Tojik
daryo	chay	qozuq jilg'a	qirg'iz jilg'a	daryo, rud
suv	suv	su	su	ob
dog'	dog'	tau	loo	ko'h
qum	gum	qum	qum	rog
buloq	bulag'	bulag	bulag	chashma
shahar	qala	qala	shaar	shahar
yangi	yangi	jana	jani	nav
eski	kene	eski	eski	ko'hna

Uchinchi, tarixiy qatlam arablarning ko'p asrlik istilosi bilan bog'liq, ular islom dinini olib kelish bilan birga, kelib chiqishi arab tiliga mansub so'zlardan paydo bo'lgan toponimlarning shakllanishida faol ishtirok etganlar. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududida arab tili elementlari asosida paydo bo'lgan nomlar orasida antroponimlar ko'p. Arab tilining mintaqada paydo bo'lishi tarixan ayon, ammo ularni geografik obyektlarga nom sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan omillar kam o'rganilgan. Bu qatlamga tegishli geografik nomlarning asosini tashkil qiluvchi

soʻzlar, ancha qadimgi davrlarda arab tilidan, turkiy tillarga oʻzlashgan.

Hozirda Oʻzbekiston hududidagi arabcha toponimlarning aksariyati oʻzbek tili grammatikasi asosida yaratilgan. Sof arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarning ayrimlari hozirgi vaqtda ham geografik termin sifatida qoʻllaniladi va maʼnosi tushuniladi. Bunday geografik terminlar qatoriga anhor, mozor, mahalla, masjid, rabot, aqba, supa, qalʼa kabi terminlarni kiritish mumkin. Bunda arab tilining adabiy til boʻlib xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etgan.

Mutaxassislar arab tilidan oʻzlashgan soʻzlar asosida paydo boʻlgan toponimlar orasida diniy terminlarning koʻpligini alohida qayd qilishgan. Mintaqadagi bir qator yirik geografik obyektlar nomini arablar oʻzgartirgan boʻlsalar ham, ammo mahalliy xalq orasida ular keng qoʻllanilmagan. Bular Sayhun, Jayhun, Mowarounnahr va boshqalar. Koʻp asrlik lisoniy aloqalar turkiy - arabcha - Toshsaqo, Narpay, Alamli, Talli kabi gibrud nomlarni paydo boʻlishiga sabab boʻlgan.

Oʻzbekiston hududida moʻgʻul tilidan oʻzlashgan soʻzlar asosida paydo boʻlgan toponimlarning kelib chiqishi XIII asrdagi moʻgʻullar istilosi bilan bogʻliq. Moʻgʻulcha toponimlar mintaqa joy nomlari tarkibidagi kichik bir guruh sifatida toʻrtinchi tarixiy qatlanni tashkil etadi. Moʻgʻul tili hozirgi Oʻzbekiston hududida xalq tiliga aylanmadi. Shu sababdan, moʻgʻul tili bilan bogʻliq toponimlari nisbatan kam va ularni aniqlash qiyin emas. Ayrim mutaxassislar Oʻzbekiston toponimiyasi tarkibida, moʻgʻulcha nomlarning kamligi, ularni mahalliy xalq bilan aralashib tili va dinini qabul qilganligi sabab boʻlgan deyishadi.

8. Nomixanov, E. Begmatov, T. Nafasov kabi oʻzbek olimlari, turkiy tillar onomastikasida moʻgʻulcha va moʻgʻulcha - turkiy soʻzlar asosida yasalgan kishi ismlarni, etnonimlarni, toponimlarni tadqiq qilishgan. Masalan, T. Nafasov moʻgʻul va turkiy xalqlarning oʻzaro yaqinligiga ishora qilib, moʻgʻul va turkiy tillarda mustarak soʻzlarning etnolingvistik tabiatini aniqlamasdan turib, ularni biror tilga mansubligini belgilash qiyin deb, hisoblaydi.

Oʻzbekiston toponimiyasi tarkibida ayrim moʻgʻulcha soʻzlar negizida shakllangan toponimlar hozirgacha saqlanib qolgan. Bunga, respublika hududidagi Bulungʻur, Darxon, Norin, Yom, Sayxan kabi joy nomlari misol boʻladi. Masalan, Jizzax shahri tarkibidagi mahallalardan birining nomi Sayxan. Yirik toponimik tadqiqotlar muallifi E.M. Murzayevning yozishicha, Sayxan oykonimiga, moʻgʻul tilida «chiroyli», «goʻzal» degan maʼnolarni anglatuvchi sayxan soʻzi asos boʻlgan. Keyinchalik geografik termin sifatida bu soʻz oʻzbek tiliga oʻzlashgan va hozirda «katta», «tekis ochiq joy», «maydon» maʼnosini ifodalaydi.

Geografik nom sifatida tanilgan yom (dialektda jom) soʻzi ham moʻgʻul tilidan oʻzlashgan. Mutaxassislar Yomchi, Jom, Jomboi, Jomboʻz, Jombuloq kabi toponimlarni paydo boʻlishini yom soʻzi bilan bogʻliq deyishadi. Yoʻl maʼnosidagi yom soʻzi moʻgʻullardan turkiy tillarga oʻtib, moʻgʻullar hukmronligi davrida Oʻrta Osiyoda keng tarqalgan. Yomlar chingiziyalar davrida qurila boshlagan. Keyinchalik yom soʻzi «choparlar, yoʻlovchilar qoʻnadigan va ot almashtiradigan joy», «bekat» maʼnosini ifodalagan. Yomda doim otlar shay turib, bir qancha kishi xizmat qilgan. Ugedeyxon koʻplab yomlar qurdirganligi bilan faxrlanganligi maʼlum. Yom soʻzi nafaqat turkiy tillarga balki slavyan, xususan, rus tiliga ham oʻtgan. Masalan, rus tilidagi «yamshik» soʻziga yom soʻzi asos boʻlgan.

Oʻzbekiston toponimiyasi tarkibidagi beshinchi tarixiy qatlanni slavyan (asosan rus) tillari asosida shakllangan toponimlar tashkil qiladi. Ruscha nomlarning mintaqada paydo boʻlishi XIX asrning oxiri va XX asrning boshida Rossiya tomonidan Oʻrta Osiyoni bosib olishi bilan bogʻliq. Hozirgi Oʻzbekiston hududida ruscha nomlar turli sabablarga koʻra paydo boʻlgan. Masalan, XIX asrning oxirida chor Rossiyasi tomonidan mintaqada temir yoʻl oʻtkazildi. Shunda, chor hukumatining maxsus qarori bilan Oʻzbekiston hududidagi temir yoʻl stansiyalariga Skoblevo, Obruchevo, Lomakino, Milyutinskaya, Ursatcevskoye, Xilkovo kabi rasmiy nomlar qoʻyildi.

E.M. Murzayevning yozishicha, mahalliy xalq bu nomlarni yaxshi kutib olmagan. Koʻpincha, yangi nom bilan birga, shu



joyning avvalgi an'anaviy nomi ham qo'llanib kelingan. Sobiq sho'rolar davrida rus tili bilan bog'liq toponimlar soni keskin ko'paydi va ularning asosiy qismini antropotoponimlar tashkil qilgan. Lenin, Ulyanov, Karl Marks, Engels, Kalinin, Frunze, Kuybishev kabi antropotoponimlar keng tarqaldi.

Kususan, o'zlashtirilgan cho'l hududlarda paydo bo'lgan yangi geografik obyektlarga, hukmron mafkura va siyosat ta'sirida kommunistik partiya va sho'ro hokimiyatini tarannum etuvchi nomlar berildi. Masalan, 1975 yili tashkil etilgan Armasoy tumani tarkibidagi barcha aholi punktlariga sho'ro davlatining harbiy sarkardalari nomlari (Jukov, Timoshenko, Grechko, Rokossovskiy, Konov, Vasilevskiy va boshqalar) qo'yildi.

O'zbekiston istiqlol sharofati bilan, mustaqil toponimik siyosat yurgizdi va joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan barcha chalkashliklarga barham berildi. 2011 yili "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risa" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilingandan so'ng, respublika hududidagi barcha geografik nomlar inventarizatsiya qilindi. Qonun talablariga javob bermaydigan barcha geografik obyektlar nomlari davr talabini aks etadigan, xalqona, oddiy, sodda, tushunarli bo'lgan nomlar bilan almashirildi yoki tarixiy nomlari qayta tiklandi.

Umuman olganda, O'zbekiston toponimiyasi o'zining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida bir necha tarixiy davrlarni bosib o'tgan. Dunyoning ko'plab mamlakatlari kabi, O'zbekiston toponimiyasi ham turli tillar mahsuli, ammo ular orasida turkiy (o'zbek) toponimlar keng tarqalgan va eng baquvvat qatlam hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, respublikada amalga oshirilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar va tohora avj olayotgan xalqaro aloqalar joy nomlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tadqiq qilishni dolzarb masalaga aylantirdi. Binobarin, O'zbekiston toponimikasi oldida sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish va yechimini kutayotgan muammolarni tezroq bartaraf qilish vazifasi turipti. O'z yechimini kutayotgan dolzarb toponimik muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

❖ davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida, O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qumitasi bilan kelishgan holda geografik obyektlar nomlarining rasmiy kataloglari va ma'lumotlarini nashrga tayyorlash;

❖ respublika bo'yicha barcha toponimik ma'lumotlarni to'plab, geografik nomlarning yagona reyestri va elektron bazasini yaratish;

❖ o'zbek xalqi etnonimlari va xalq (mahalliy) geografik terminlari haqida ma'lumotlarni to'plash va ularni geografik aspektida o'rganish;

❖ o'zbekcha joy nomlariga xos bo'lgan toponimik tip, model va formantlarning shakllanish qonuniyatlarini ilmiy asoslarini aniqlash;

❖ geografik nomlarning zaxira fondini yaratilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tadqiq qilish;

❖ O'zbekiston toponimiyasining tarixiy qatlamlari va ularning hududiy tafovutlarini tadqiq qilish;

❖ O'zbekiston va qo'shni mamlakatlar toponimiyasining o'xshashlik va tafovutlarini aniqlab qiyosiy-tahliliy o'rganish;

❖ geografik obyektlarning nomlash va qayta nomlash muammolari hamda joy nomlarining to'g'ri yuzish qoidalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish;

❖ toponimikaning geografik fanlari va tarix, etnografiya, geologiya, arxeologiya bilan o'zaro aloqadorlik muammolarini o'rganish;

❖ O'zbekiston toponimikasiga oid darslik, o'quv qo'llanma, etimologik, ensiklopedik lug'atlar yaratish va hokazo.

Mazkur muammolar chuqur qiyosiy-tahliliy o'rganib, sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlariga ko'proq e'tibor berilsa toponimikaning geografik yo'nalishi tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Bu holat o'z navbatida majmuaviy fan bo'lgan toponimikaning kompleks rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**O'zbekiston nomining etimologiyasi haqida.** Dunyo kartasigi ko'plab davlatlar nomi xalq nomi (etnonim) dan olingan, ularga "-iston", "-iya" kabi qo'shimchalar qo'shish yordamida

mamlakat nomi hosil qilingan. Bu hodisa davlatlar nomini yaratishda asosiy qonuniyatlardan biridir. Ana shunday, etnonimlar negizida paydo bo'lgan davlatlar nomi qatoriga O'zbekistonni ham qo'shsa bo'ladi.

Etnonim va etnotoponimlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo'lib, turli-tuman ijtimoiy, tarixiy, lingvistik omillar bilan bog'liq. Ularni aniq ilmiy dalillar asosida tahlil qilmasdan turib, etnonim yoki etnotoponimning kelib chiqishi haqida uzil-kesil hiron narsa deyish qiyin. Shu bilan birga ko'pgina etnonimlarning kelib chiqishi, etimologiyasi hamon ma'lum emas. O'zbek atamasining kelib chiqishi to'g'risidagi turli qarashlar bunga yaqqol misol bo'ladi.

Akademik A.Asqarovning yozishicha, "o'zbek atamasining etnik ma'no va mazmun kasb etib borishi asta-sekin o'zbek xonliklari davridan boshlanib, bu yo'nalishda dastlabki qadamlar tabiiy ravishda o'sha davrlarda qo'yilgan edi. O'zbek xalqi tarixi uning nomidan ancha qadimiy. Bugungi kunda o'zbek etnosini tashkil etgan o'zbeklarning ajdodlari XI-XII asrlarda uzil-kesil xalq sifatida shakllanib bo'lgan edi. Uning etnik nomi esa, bu zaminda XVI asr boshlarida paydo bo'ldi.

Shunday qilib, o'zbek nomi dastlab, XIII asrning oxiri - XIV asrning birinchi yarimida Dashti Qipchoq ko'chmanchi turkmo'g'ul qabila va elatlarning siyosiy uyushmasi, aslzoda beklarning harbiylashgan jasur o'g'lonlari, erkin, ozod va o'ziga bek suvoriy harbiy jangovar guruhlar bo'lib, XIV - XV asrlarda ular Dashti Qipchoqda butan bir elga aylanib, o'zbeklar deb ataldi.

Ular ta'sir doirasidagi yurtlar tarixiy manhalarda "o'zbeklar eli", "o'zbeklar mamlakati" deb tilga olindi. Ana shu Dashti Qipchoq o'zbeklarining 92 hovli ko'chmanchilar urug'i Shaybonixon yetakchiligida XVI asr boshlarida Movarounnahr va unga tutash hududlarga kirib keldi. Shundan boshlab O'rta Osiyoda "o'zbek" nomi paydo bo'ldi. O'zbek nomi bilan bu zamanga kirib kelgan ko'chmanchi Shayboniy o'zbeklari XVIII asrda hozirgi O'zbekiston va unga tutash o'lkalarda uchta o'zbek xonliklarga (Buxoro, Xiva, Qo'qon) bo'linib ketdi".

O'zbek atamasining kelib chiqishi haqida taniqli adib Tohir Malik quyidagicha mulohaza bildirgan: "O'zbek» atamasi haqida turli fikrlar mavjud. Tarixchi olimlarimiz ta'biricha: «o'zbek" - o'ziga o'zi bek" degani. Yana boshqa ta'birda o'zbek tarixini O'zbekxondan boshlashadi. Bu ikki fikrda ham mantiqiy asos yo'q. Avvalo, yer yuzida yashayotgan kattami-kichikmi har bir xalq o'ziga o'zi bek, boshqaga tobe bo'lishni istamaydi. Ikkinchidan, agar tarix O'zbekxondan boshlansa, bu xonga "O'zbek" deb kim ism bergan? Bu ism osmondan olinmagandir. Demak, bu nom, bu atama avval ham bo'lgan.

Men tarixchi emasman, olimlikka ham da'voim yo'q. Biroq, bu xususda qat'iy fikrimga egaman. "Qirg'iz" - qir o'g'uzi. «Gagauz» - ko'k o'g'uz demakdir. Turkiy xalqlarning bobosi O'g'uzxon bo'lganlar. Bu haqda qadim tarix kitoblarida yetarli ma'lumotlar bor. Ayni O'g'uzxon davrlarida qavmlarga (oilalarga) nom berilgan: uyg'ur, qorliq, qibchoq, qang'li ... va hokazo.

Bizningcha «o'zbek" - O'g'uz begi demakdir. Ya'ni O'g'uzxon saroyiga yaqin oila shunday utalgan. Bu hol Yevropada ham bo'lgan. Masalan, Rossiyada «dvoryanin» degan tabaqa bo'lgan, ya'ni "prihlijennay k tsarstvennomu dvoru" - podsho saroyiga yaqin bo'lgan kishi. Yana Yevropada lord, gersog, baron... kabi tabaqalar bor. Harchasi hukmdorga qanchalik yaqinlikni ajratib turadi. O'g'uz beklari ham saroyga shunday yaqin bo'lganlar.

Tarixchi olimlarimiz o'zlarining Yakubovskiy, Bartold, Bertels kabi ustozlarining aytganlarini mahkam ushlab olmasdan asl manbalarni o'rganib, tahlil qilib fikr yuritsalar durust bo'lardi. Bizning tariximizni o'rganib, kitob yozganlari uchun u zotlardan minnatdormiz. Biroq bu borada bir haqiqat mavjud: bir millat tarixini o'rganib baho berayotgan boshqa millat vakilining bayon etilgan fikrida albatta o'z millati manfaati yotadi. Ana shu manfaat xolislik yo'lini to'sadi.

Shuningdek, «o'zbek» so'zi etimologiyasining o'g'uz so'zi bilan bog'liqligi xususida tarixchi olimlar N.Nurqulov va O'.Jo'rayevlar sakkizinchi sinflarning «O'zbekiston tarixi» darsligida aytib o'tgan nuqtai nazari ham mavjud. Yuqoridagi

keltirilgan «o'zbek» atamasining kelib chiqishi bilan bog'liq bir farazning bir necha shaxs tomonidan bir xil asosga tayanib bildirilishi bejiz bo'lmasa kerak. Menimcha, hunda aniq bir tarixiy haqiqat namoyon bo'lmoqda".

Respublikamiz toponimiyasi tarkibida O'zbekiston nomi bilan ataladigan geografik obyektlar ko'p. Ularning aksariyati ana shu yuksak nomga munosib obyektlar hisoblanadi. Ammo shuni ham unitmaslik kerakki, har qanday to'g'ri kelgan geografik obyektini millat va davlat nomi bilan atalishi maqbul ish emas. Yanada ham aniqroq qilib aytganda, joy nomga munosib bo'lmog'i kerak, ko'cha-kuylarga balandparvoz nomlar qo'yish hayotiy siyosat emasligini uncha uzoq bo'lmagan tarixiy tajribamizda o'z isbotini topgan.

#### ✧ Savol va topshiriqlar:

1. Mintaqa toponimiyasi va uning o'rganilish tarixi haqida mu'hamot hering.
2. O'zbekiston toponimiyasining forqlovchi xususiyatlari nimalarda ko'rinadi?
3. O'zbekiston toponimikasi oldidu dolzarb muammolarning biri haqida referat tayyorlang.

#### ✧ Test topshiriqlari:

1. O'rtta Osiyodagi eng quyi toponimik qatlamni .... qadimgi substrat nomlar tashkil qiladi. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni qo'ying va belgilang.
  - A. aniqlangan
  - B. aniqlanmagan
  - C. tanish
  - D. notanish
2. O'zbekiston toponimiyasi tarkibida ayrim mo'g'ulcha so'zlar negizida shakllangan toponimlar qatorini aniqlang.
  - A. Zarafshon, Nurafshon
  - B. Norin, Sayxan
  - C. Skoblevo, Obruchevo
  - D. Sayhan, Jayhun

#### 3. Dastlabki ruscha nomlar mintaqada qachon paydo bo'ldi?

- A. XIX asrning oxiri va XX asrning boshida
- B. XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshida
- C. XX asrning oxiri va XXI asrning boshida
- D. XXI asr boshida

4. O'zbekiston hududida arab tili elementlari asosida paydo bo'lgan nomlar orasida ..... ko'p. To'g'ri javobni nuqtalar o'rniga qo'yib belgilang.

- A. orooykonimlar
- B. etnotoponimlar
- C. antroponimlar
- D. gidronimlar

5. F.M.Murzayevning aniqlashicha, O'rtta Osiyoda hozirgacha aniqlangan va saqlanib qolgan joy nomlarining eng quyi qatlami .... tillarga xos. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni qo'ying va belgilang.

- A. xorazmiy
- B. sug'diy
- C. turkiy
- D. eroniy

## 42. TOSHKENT VILOYATI VA TOSHKENT SHAHRI TOPONIMIYASI

☞ *Reja:*

1. *Toshkent viloyati toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari*
2. *Toshkent shahri toponimiyasi*
3. *Toshkent so'zining etimologiyasi haqida*

☞ *Muvzuning maqsadi:* *Toshkent viloyati va Toshkent shahri toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlari hamda Toshkent so'zining etimologiyasi haqida ilmiy tushunchalarni shakllantirishdan iborat.*

☞ *Tayanch ibora va atamalar:* *substrat, oykonim, kat (kent), etnotoponim, chuchmal nom, atoqli ot, choch, shosh.*

**Toshkent viloyati toponimiyasi.** Toshkent viloyati respublikaning shimoli-sharqida joylashgan va iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan eng rivojlangan mintaqa hisoblanadi. Viloyat hududi qadimdan madaniyat o'chog'i bo'lganligi bois, qadimiy nomlar ko'p uchraydi. Ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot davomida vohaning tekislik va tog'li yerlarida yashagan o'troq aholi ko'chmanchi va yarim o'troq chorvador qabilalar bilan yonma-yon va aralash yashagan. Vohaning tub aholisi o'zbeklar, shuningdek, qozoq, tojik va qirg'izlar ham yashaydi.

Hozirgi Toshkent viloyati hududida azaldan turli xalqlar birga yashab kelgan, shuning uchun mintaqaning geografik nomlari til va xronologik jihatdan xilma-xil bo'lishi tabiiydir. Hudud toponimiyasi tarkibida sug'diy nomlar ham uchraydi. Viloyat toponimlarining ko'pchiligini turkiy (o'zbekcha) nomlar tashkil qiladi. Ularning bir qismi bundan ming yil oldin yozilgan tarixiy manbalarda tilga olingan. Ular qatoriga Toshkand, Obliq (Abrlig'), Illoq (Ayloq), Jadg'ol (Chatqol), Sobliq (Soyliq), Jahg'ukat kabi tarixi ko'p asrlarga borib taqaladigan nomlar kiradi.

Toshkent viloyati toponimiyasining farqlovchi xususiyatlaridan biri, etnik birliklar nomi bilan atalgan geografik obyektlar, asosan oykonimlar tarkibida ko'p uchraydi. Vaqt o'tishi bilan

etnik guruhlarning aksariyati o'troq hayot tarziga o'tib, turg'unlashib, etnik nomlarini unutgan bo'lsalar, ham, ammo ular joy nomlari (etnotoponimlar) shaklida hozirgacha saqlanib qolgan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayev viloyat hududidagi ayrim etnotoponimlarni qisqacha izohlagan: Arg'inchi (Yuqori Chirchiq tumani) o'zbeklar, qozoqlar va boshqa turkiy xalqlar tarkibiga kirgan qabila – arg'in. Arg'inchi - arg'in qabilasi vakili, arg'inlik. Nayman - viloyatning Bekobod, Zangiota, Quyi Chirchiq tumanlari toponimiyasi tarkibida saqlanib qolgan qadimiy qabilalardan birining nomi.

Naymanlarning kelib chiqishi munozarali. Bir guruh olimlar (V.V.Bartold, B.Ya.Vladimirsov va boshq.) naymanlar etnogenezi mo'g'ullar bilan bog'laydilar. Ular nayman so'zining etimologiyasini (mo'g'ulcha, naim - «sakkiz») o'z fikrlariga dalil qilib ko'rsatadilar. Ikkinchi bir guruh esa (N.A.Aristov, S.A.Amanjolov va boshq.) naymanlarni turk deb hisoblaydilar.

Oxirgi yillarda to'plangan ma'lumotlar asosida, naymanlar aslida sakkizo'g'iz nomli turkiy qabila vakili bo'lib, mo'g'ullar o'z tiliga moslab nayman deb ataganliklari tasdiqlangan. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida o'zbek naymanlar ham boshqa qabilalar kabi o'troq o'zbeklar tarkibiga singib, mazkur xalqning shakllanishida faol qatnashganlar. Etnotoponimlar viloyatning barcha tumanlari toponimiyasida o'z aksini topgan, ularni o'rganish alohida tadqiqotni talab qiladi.

Hozirgi kunda Toshkent viloyati hududida yashaydigan aholining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil qiladi, ulardan tashqari qisman tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar ham yashaydi. Shuning uchun mintaqada substrat toponimlarni istisno qilganda tojikcha, qozoqcha va qirg'izcha joy nomlari ham uchraydi va ular orasida oykonimlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Tarixiy manbalardan ma'lumki Toshkent vohasi va Ohangaron (Illoq) vodiysi qadimiy madaniyat va iqtisodiyot markazi, ko'hna shaharlar o'lkasi bo'lgan. Suyun Qorayevning yozishicha, yozma manbalarda o'lka haqidagi ma'lumotlar ikki ming yildan ortiqroq davmi o'z ichiga oladi. Miloddan avvalgi manbalarda Toshkent vohasi Yuni deb atalgan, keyincha o'lka Choch nomi bilan

mas'hur bo'lgan. Arab geografлари asarlarida ham mintaqaga oid ko'plab ma'lumotlarni topish mumkin. Masalan, Istaxriy asarida (X asr) Choch (Shosh) viloyatida 27 ta aholi punkti to'g'risida ma'lumot bor, shundan 14 tasi nomi turkida hamda Iloq (Ohangaron) vodiysidagi 14 ta aholi maskanlari nomlaridan 7 tasi kat qo'shimchasi borligi qayd qilingan.

Muallifi noma'lum bo'lgan "Hudud ul-olam" asarida (XI asr) mazkur o'lkadagi o'ttizdan ortiq toponimlar qayd qilingan. Jina'kat (Chinoz), Chadg'al (Chotqol), Xambarak (Xumson), Ardbakat (Burchmulla), Sadbag'vo (Bog'iston), Gazak (G'azalkent), Farnkat (Parkent), Biskat (Piskent) va boshqalar. Toshkent viloyati toponimiyasi tarkibida hozirda ham kent (kat) qo'shimchali geografik nomlar ko'p.

Taniqli rus sharqshunos olimi, akademik V.V.Bartold "kat (kad, kand, kent)" terminiga alohida e'tibor qaratgan. Chunki bu termin nafaqat O'rta Osiyo balki, Yaqin Sharq, Sharqiy Turkiston va Kichik Osiyoda joy nomlari tarkibida ko'p uchraydi. Olimning yozishicha, "kat" so'zi eroniy tillarga xos bo'lib, dastlab "uy" ma'nosini anglatgan. S.Qorayev ham uning fikrini tasdiqlab, kat so'zi asli sug'dcha, kat yoki kata qadimda urug' vakillarining bir bo'lagi yashagan va devor bilan ajratib olingan katta hovlini bildirar edi. O'rta Osiyoda keng tarqalgan va aholi punkti ma'nosini anglatadigan "kent" atamasi, shubhasiz, ibtidoiy kat yoki kata so'zidan kelib chiqqan deb yozgan.

V.V.Bartold asarlarida uchraydigan geografik nomlar izohi toponimist olimlar tomonidan tanqidiy nuqtai-nazardan sinchiklab o'rganilishi zarur. Zero ayrim toponimlar etimologiyasini aniqlashda muayyan chalkashliklar yo'l qo'yilgan. Shu sababdan, olimning toponimik izohlarini hekamu-ko'st deb bo'lmaydi. Masalan, hozirgi Parkent shahri nomini olim aslida Barskent, ya'ni "bari (qoplon) shahri" bo'lgan deb ta'riflagan. S.Qorayev hu talqini noto'g'ri deb hisoblab, joy nomi tarkibidagi par so'zi qadimiy eroniy tillarda "yuqori", kent, kat - "aholi punkti, shahar" degan ma'nolari borligini ta'kidlagan.

Ohangaron vodiysi qadimdan Iloq yoki Ayloq deb atalgan. S.Qorayev nomning qadimiy shakliga e'tibor berib, arab yozuvida

bu so'zlar bir xil yozilishini ta'kidlagan. Olimning fikricha, Ayloq nomi to'g'ri, chunki ba'zi bir manbalarda Yayloq, ya'ni "yozgi yaylov" shaklida ham tilga olingan. Toshkent viloyati hududining katta qismini G'arbiy Tyanshan tog'larining tarmoqlari - Chatqol, Qurama, Piskom va Ugom tog'lari egallagan. Tyanshan nomi xitoy tiliga tegishli, uni olimlar tomonidan ilmiy adabiyotlarga kiritilishiga ikki asr bo'ldi. Mutaxassislar fikricha, bu tog'larining turkiy nomi Tangritog' bo'lgan. Tiyonshon xitoy tilida "osmon tog'lari", tangri so'zida ham "buyuk, yuksak" kabi ma'no mujassam.

Toshkent viloyati oronimiyasi tarkibida chim (Chimyon), tepa (Saritepa), tosh (Uchtosh), tov (Bukirtov), tog' (Boboitog'), bel (Qorabel) kabi indikator terminlar ko'p uchraydi. Oronimlar tarkibida majoziy (metaforik) nomlar ham bor va ularga, Tuyatosh, Oynatosh, Egartosh kabi nomlar misol bo'ladi. Oronimlarning ko'pchiligi hamma uchun tushunarli turkiy nomlardir.

Viloyat hududida bir necha yuz katta-kichik suv obyektlari mavjud va ularning har biri o'z nomiga ega. Sirdaryo va uning irmoqlari Chirchiq, Chatqol, Piskom, Ugom, Ohangaron daryolari eng yirik suv manbalari hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, yirik daryolarning nomlari eng qadimiy toponimlar hisoblanadi. Binobarin, gidronimlarni izohlashda ba'zan, qo'shimcha tadqiqotlar kerak bo'ladi.

Viloyat gidronimlari orasida majoziy nomlar ko'p uchraydi. Yugiriksoy, Tentaksoy, G'alvasoy, Sargardonsoy kabi nomlar bunga misol bo'ladi, ancha qiyin bo'ladi. Tentaksoy (Parkent tumani) - ba'zan toshib ekinzorlarni suv bosadigan soy; Sargardonsoy (Bo'stonliq tumani) - o'zanini tez-tez o'zgartirib turadigan soy; G'alvasoy (Bo'stonliq tumani) - shovqin-suron ko'tarib sharillab oqadigan soy; Tovoqsoy (Bo'stonliq tumani) - shakli ulkan tovoqqa o'xshaydigan chuqurlikdagi buloqdan boshlanadigan soy. Bu misollar geografik obyektlarga mahalliy xalqni topib nom qo'yganidan dalolat beradi, nom qo'yishda xalq dahosidan o'rganishi kerak.

Viloyat gidronimlarini alohida o'rganilsa, ko'plab yangi ma'lumotlar aniqlanadi. Umuman olganda, Toshkent viloyati

toponimiyasi boshqa viloyatlarga nisbatan yaxshiroq o'rganilgan. Shu bilan birga, hali tadqiqotchilarini kutib turgan toponimik muammolar viloyatda yetarli, ularni sinchiklab o'rganish lozim.

**Toshkent shahri toponimiyasi:** Toshkent shahrining bir necha ming yillik tarixi, uning toponimiyasida ham o'z aksini topgan. Mutaxassislarning yozishicha, shahar qadimiy Buyuk Ipak yo'li ustida joylashganligi tufayli, shaharga turli yurt vakillari kelib, ularning bir qismi shu joyda o'mashib qolgan. Shuning uchun, shahar toponimiyasi turli tilli joy nomlaridan tashkil topgan. Taniqli geograf olim P.G'ulomovning yozishicha, agar shaharlarga joy nomlarining xilma-xilligiga qarab sovrin beriladigan bo'lsa, Toshkent, shubhasiz, birinchi savrindor bo'lar edi.

Toshkent shahri toponimiyasi tarkibida joyning tabiiy xususiyatlarini ifodalovchi nomlar ham ko'p. Mahalliy xalq orasida "Toshkent yetti quru yetti o'rda joylashgan" degan ibora bor. Shuning uchun, shahar yer yuzasining bunday holati joy nomlarida aks etgan. Masalan, shaharning mikrotoponimlari tarkibida Jarariq, Jarko'cha, Chuqursoy, Chuqurko'prik, O'rko'cha, Zahariq, Pastak degan nomlar uchraydi. Bu nomlar shahar yer yuzasining past, soylik joylarida joylashgan geografik obyektlarga berilgan.

Shahar juda qadimdan sug'orib dehqonchilik qilinadigan vohada joylashgan. Ma'lumki, Chirchiq daryosidan juda ko'p ariqlar, kanallar chiqarilgan, aholini suv bilan ta'minlash maqsadida ko'plab hovuzlar va quduqlar bunyod etilgan. Ularning farqlovchi xususiyatlari ayrim geografik obyektlarni nomlashda asos bo'lib xizmat qilgan. Masalan, Nishabariq, Damariq, Yo'kariq, Shofayziquloq, Shoshariq, Tamoybushi, Jo'nariq, Tersariq, Shirinquduq, Kattahovuz va boshqalar.

Toshkent shahri toponimiyasi tarkibida o'simliklar bilan bog'liq nomlar ham uchraydi. Ular qadimda aholi shahar atrofida dehqonchilik bilan shug'ullanganligi, turli mevali bog'lar va bog'hojlilar ko'p bo'lganligidan darak beradi: Bndomzor, O'rikzor, Olmazor, Chilonzor, Sebzor, Mingo'rik kabi nomlar shular

jumlasidandir. Hayvonlar nomi bilan bog'liq nomlar: Bo'rijar, Kaptarxona, Sagbon (Sag'bon), Chivintepa va hokazo.

Toshkent uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tgan shahar. Shaharning ikki ming yillik tarixi geografik obyektlar nomlarida saqlanib qolgan. Shuning uchun, shaharda tarixiy nomlar ko'p uchraydi. Chorsu, Jangob (Jangoh), Xadra, Namozgoh, Kamolon (Kamongaron), Eskijo'va kabi nomlar tarixiy voqea-hodisalar bilan bog'liq nomlardir. Masalan, Chorsu (fors-tojik tilida, chor - "to'rt", so' (so'y) - "tomon") - chorraha, shahar markazidan to'rt tomonga ko'chalar ketgan joy. Ana shunday ko'chalar kesishgan markaz joyda ko'pincha bozor qurilgan va joylashgan o'rniga qarab chorsu deb atalgan.

Eskijo'va - Sebzor dahasi mahallaridan birining nomi. H.Hasanovning yozishicha, mahalla nomi eskirgan harbiy aslahalar (jo'va) ombori nomi bilan bog'liq. Darhaqiqat, qadimda jang quroli hisoblangan sovutni jiba (juba) deyishgan. S.Qorayev boshqa xulosani bayon qilgan: jo'ba (jo'va) so'zining ma'nosi - bozor, rasta. Olimning yozishicha, o'tmishda Buxoroda Jo'bai haqqolon - "haqqollar bozori" bo'lgan. Tarixiy nomlarning yana biri o'rda - turkiy va mo'g'ul tillarga xos so'z. Mo'g'ul tilida orda - qasr. Qadimgi turkiy tilda o'rda xon qarorgohi, qasr, qo'rg'on. O'zbek, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy tillari o'tmishida viloyat boshlig'i, uning ma'muriy va harbiy boshqaruvi joylashgan joy - o'rda deb atalgan.

Ma'lumki, Toshkent shahri juda qadimdan hunarmandchilik markazi bo'lib kelgan. Shu boisdan aholining kash-hunari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan joy nomlari ko'p. Degrez, Taqachi, O'qchi, Kamongaron, Pichoqchilik, Zargarlik kabi nomlar misol bo'ladi. Xususiylar hunarmandchilik man etilgan va hunarmandlar ta'qib qilingan sho'rular davrida hunarmandchilik bilan bog'liq bo'lgan joy nomlarining ko'pi o'zgartirildi. Mustaqillikdan keyin ularning ko'pchiligi qayta tiklandi.

Toshkentda kishilarning ism-shariflari, taxalluslari bilan bog'liq nomlar juda ko'p va ular xilma-xil. O'rta Osiyoni Chor Rossiyasi bosib olgandan keyin va xususan sho'rular davrida bunday nomlar soni keskin ko'paydi. Mustaqillikdan keyin

ularning ko'pchiligi o'zgartirildi. Albatta, O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslarning nomi bundan mustasno. O'zbek xalqining jahon fani va madaniyati taraqqiyotiga kata hissa qo'shgan, taniqli olim, yozuvchi, shoirlar, sarkardalar nomlarini geografik obyektlarga berish qonun bilan ruxsat berilgan. Toshkentda ularning nomlarini hurmat va g'urur bilan e'tirof qilishadi.

P.G'ulomovning yozishicha, Toshkentda ma'nosini tushunish qiyin bo'lgan "g'aroyib" nomlar ham uchraydi. Ular qatoriga Jinko'cha, O'g'riko'cha, Alvasti ko'prik, Xotinko'prik, Xo'jatarashkan kabi nomlarni kiritish mumkin. Jinko'cha - juda tor, zim-ziyu, odam kam yuradigan ko'cha, Alvasti ko'prik - tepakir orasida, pastak joy, qo'rqinchli joy, alvastilar (jinlar) makoni bo'lgan deyishadi. Xo'jatarashkan nomli mahalla Toshkentning Sebzor dahasida bo'lgan. Nomning asl shakli «Xo'jai tarozu shikana», ya'ni "tarozini sindirgan, ishdan chiqargan xo'ja" degan ma'noga ega.

Toshkentda har xil chuchmal yoki ismi-jismiga to'g'ri kelmaydigan nomlar ham uchraydi. Ularga nazar solsangiz tushinarli, chiroyli, sharqona ko'rinadi, ammo ular atoqli otlar emas, balki oddiy turdosh otlar. Visol, Vijdon, Jonon, Dadil, Intizam, Muloyim kabi mujmal nomlar misol bo'ladi. Ta'kidlash joizki, hamma so'zdan ham joy nomi yasalavermaydi, ya'ni nom so'z tanlaydi. Boshqacha aytganda, real voqealikdan, kundalik hayotdan, mavjud tabiiy sharoitdan, ijtimoiy-iqtisodiy turmushdan kelib chiqib nom tanlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Toshkent nomining etimologiyasi haqida.** Toshkent shahri - Markaziy Osiyoning yirik sanoat-transport chorrahasi va madaniyat markazlaridan biri. Shahar respublikaning shimoli-sharqiy qismida, Tyanshan tog'lari etagida, Chirchiq vodiysida joylashgan. Toshkent shahri ikki ming yillikdan ortiq tarixga ega. Shu davr ichida u kichik bir qal'adan jahondagi yirik shaharlardan biri, O'zbekiston Respublikasining poytaxtigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Har qanday shaharning shon-shuhrati, birinchi navbatda uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

O'tgan asrlar davomida shaharning nomi ham bir necha bor o'zgardi. Tarixiy manbalarda shahar Choch, Joj, Shosh, Chjeshi, Tashixan, Binkat, Tarkan, Toshkand kabi nomlar bilan uchraydi. Shahar Toshkent nomi bilan dastavval XI asrning mashhur allomalari - Aburayhon Beruniy va Mahmud Koshg'ariyning asarlarida tilga olinadi. Filolog olim Miraziz Mirtojdiyev shahar nomining etimologiyasiga oid tadqiqotlarining yakuniy xulosalarini «Toshkent so'zining ma'nosi» nomli maqolasida e'lon qilgan. Mazkur ilmiy maqola ko'pchilikka manzur bo'lsa ajab emas.

Olimning yozishicha, Toshkent so'zi ikki qismdan tarkib topgan: ularning biri tosh, ikkinchisi kentdir. Kent komponenti haqida hech qanday bahs yo'q. Ammo tosh komponenti haqida fikrlar nihoyatda ko'p va rang-barangdir. Buning ustiga, bir fikrlarning har biridan ham bir e'tirozli tomonga ko'rsatish mumkin. Toshkent toponimining tosh komponenti qaysi so'zdan kelib chiqqanligini aniqlash bunchalik chigal masala ekanligining ham o'z obyektiv sababi bor. Bulardan biri tosh komponentining tosh so'zi bilan bir xil fonetik tuzilishga egaligidir.

Toshkent shahri geografik nuqtai nazardan ham, tarixiy nuqtai nazardan ham tosh so'zining hozirgi ma'nusini uqlay olmaydi. Ikkinchi sabab esa Toshkent shahri o'zining butun tarixida faqat shu nom bilan atalib kelmaganligidir. U ko'p asrlik tarixida bir qancha nomlar atalgan. Shu shaharning boshqa nomlariga Toshkent toponimi tosh komponentining aloqasi yo'qmikan? Shunday bo'lsa, etimologiya bir necha nomlar genezisini bir joydan chiqarishdek jumboqni yechishi kerak.

Tarixchi H.Ziyayev o'zining «Toshkentning Rossiyaga qo'shib olinishi» nomli brashyurasida Toshkent shahri eramizdan avvalgi II asrdan boshlab Choch nomi bilan atalganligini qayd etadi. Toshkent toponimining o'zi dastlab Abu Rayhon Beruniyning «Hindiston tarixi» asarida tilga olingan. Bundan tashqari Toshkent shahrining yana Shosh, Joj va Chosh nomlari bilan atalganligi ham ayrim yodgorlik va asarlardan bizga ma'lum.

Ba'zi manbalarda esa (H.Hasanov va M.V.Masson asarlarida) Shosh nomi bilan butun voha nomlanganligi haqida xabar beriladi. Uning markazini Bankat deb atab, hozirgi Toshkentning qadimgi

nomi sifatida ko'rsatiladi (Binkat toponimi esa boshqa manbalarda Binket, Binkent, Binokat variantlarida ham uchraydi, Bu albatta talaffuz natijasida kelib chiqqan). V. Minorskiy esa: «Choch, Shosh va Tosh nomlarining hammasini bir vohaning turli variantdagi atamalari deb biladi. XI asr tilshnosi Mahmud Koshg'ariy «Devonu lug'atit turk» asarida Toshkent toponimi bilan yonma-yon Tarkant toponimi ham qo'llanganligini ko'rsatgan.

Bir qator etimologlarning diqqatini faqat Toshkent toponimi tortgan. Bu toponim dastlab qayd etilgan ikki manba (M. Koshg'ariyning va Beruniyning asarlari)da uning tush komponenti tog' jinsi ma'noli tosh so'ziga bog'lab ko'rsatiladi. Shuningdek Beruniy mazkur asarida Toshkentni Ptolomey kartasida qayd etilgan Lifos Petros (Tosh minor), ya'ni yunonlarga qarashli bo'lgan qadimiy shahar deb tushunadi. Shosh toponimini esa tosh so'zining arablar tomonidan buzib qo'llangan varianti deb hisoblaydi.

M. Koshg'ariy devonining mazkur o'rnida ham «Shosh aslida Toshkand» deb ko'rsatilgan. Taniqli olim, professor H.Hasanov Beruniy va Ulug'beklarning geografik jadvallariga bog'ishlangan maqolasida Toshkent toponimi qaysi so'zdan kelib chiqqanligi masalasida yuqoridagi ikki olimning fikrlari tarafdori bo'ladi. Ya'ni, Toshkent toponimi tosh so'zidan kelib chiqqanligiga qo'shiladi.

Bu fikrlar eng qadimgi manbalardan olingan va ularga asosanib aytilgan. Biroq shunda ham, ularga to'la qo'shilish uchun, bir nechta e'tirazlar mavjud. Avvalo Toshkentda tosh minor bo'lganligini tasdiqlovchi hech qanday arxeologik topilqini ko'rsatib bo'lmaydi. Buning ustiga keyingi vaqtda ko'rgina Yevropalik olimlar Ptolomey kartasidagi Lifos Petrosni Pomirning janubidagi Toshqo'rg'on deb ko'rsatishmoqda. Buni M. Ye.Masson ham qayd qilgan.

Sh. Qodirova o'z maqolasida Toshkentning eng keksa vakillari bilan suhbatlashganini keltiradi. Qadimgi Toshkentda tash yo'lavechi hunarmandlar yashagan erish. Ehtimol, shahar nomi ham shundan kelib chiqqandir? Ammo bu haqiqatga mos

kelmaydi. Chunki har bir kash xom ashyo bazasi bilan bog'liq holatda yaraladi va taraqqiy etadi. Yana, shu hunarmandchilikka xos iz ham shu shaharda qolishi shart edi. Toshkent shahri butaning birortasini ham tasdiqlamaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Sh.Qodirovaning o'zi ham maqolasida shu fikrga shubha bilan yondashgan.

Tarixchi olim M.Vahobovning Toshkent tarixiga bog'ishlangan asaridagi fikri ham shunga mos keladi. Uning aytishicha, Toshkent savdo punkti sifatida rivoj topgan. Ya'ni, karvonlar o'tadigan yo'llarning tutashadigan joyida bir nechta karvon saroylari bunyod etilgan. Qo'nib n'tuvchilarni turli narsalar bilan ta'minlash uchun saroy atrofida xonadonlar paydo bo'lgan. Bir nechta yo'llar boshiga sochilgan karvonsaroy atrofidagi xonadonlar ko'paya borgan. Ular o'zaro tutasha borib, kentni tarkib toptirgandir. Kentning nomi esa uning mana shu tarkib topish jarayoni bilan bog'liq holatda yaralgan bo'lishi kerak. Demak, dastlab Choch («sochilgan», «yoyilgan», «tarqoq» ma'nolarida) deb atalgan.

Sh.Qodirova o'z avtoreferatida Choch (uning chosh, josh, joj variantlari bilan) so'ziga B.V.Miller va L.Z.Budagovlarning lug'atlarida berilgan izohni keltiradi. Mazkur so'z B.V.Miller ko'rsatishicha yelpilgan don qoldig'i, L.Z. Budagov ko'rsatishicha yanchilgan bug'doy yoki sholidan qolgan mayda somon, to'pon ma'nosini anglatadi. Agar biz chuqurroq qarasak, bu izohlarda ham sochilib yotgan narsalar haqida tushuntirish berilgan. Afsuski, Sh. Qodirova shu keltirgan faktlarini e'tiborsiz qoldirib ketgan. Shuningdek, choch so'zining kelib chiqishini so'g'dcha deb ko'rsatgani ham asossiz. Uning strukturasi faqat turkiy tillarga xos.

Toshkent nihoyati 35 yil ilgari bog'lar, jarlar, qabrlar bilan bir nechta bo'lakka ajratib yotgani ham yuqoridagi fikrimizni bir qadar quvvatlaydi. Shuningdek, H.Ziyayevning Choch toponimi eramizdan avval II asrdan boshlab mavjud deb qayd etishi ham biz uchun yana bir quvvatlovchi faktidir.

O'zbek tilida so'nggi tovushning kuchsiz talaffuz etilishi (reduksiyaga uchrashi) hodisasi Choch toponimi Chosh holida talaffuz etilishi uchun sabab bo'lgan. Ya'ni: Choch->Chosh->Chuch varianti fors-tojik talaffuziga mos bo'lgani uchun, ularning



qo'lyozmalarida saqlanib qolgan. Masalan, Firdavsiyning «Shohnuma»sida «Bamalik Chochi kamonru ba dast (Zarh berish uchun qo'lda Choch kamoni tutib)» deyilgan. Taniqli o'zbek tilshunosi S. Mutallibov ham xuddi shu fikrni «Devonu lug'atit turk»ka kiritgan izohida qayd etadi.

Choch toponimi fors-tojik qo'lyuzmalari orqali arab tiliga o'tgan. Arablarda ch tovushi bo'lmagani uchun, uni j tovushiga almastirib qabul qilganlar. Ya'ni: Choch>Shosh (شوش). Arablar uning Shosh va Tosh variantlarini o'zgarishsiz qabul qila olar edi. Chunki bu ularning talaffuziga mos. Demak, ba'zilarining Shosh va Choch arablar tomonidan buzib talaffuz etilgan variant deb da'vo qilgani asossiz.

Chosh toponimi shimol tomonida (qozoq va qipchoqlar tomonidan) Shosh variantiga o'zgartirib yuborilgan. Ya'ni: Chosh>Shosh. Chunki ular so'z boshidagi ch tovushini sh tovushiga almastirib yuboradilar. Masalan, Chimkent>Shimkent, Chirchiq>Shirshiq, choy>shay va hokazo.

Chosh toponimi mazkur kent egalari va ularning avlodlari tomonidan Tosh variantiga o'zgartirib yuborilgan. Ya'ni: Chosh>Tosh. Chunki so'z boshidagi ch tovushini t tovushiga o'zgarishi ular tilidagi fonetik taraqqiyotga xosdir. Masalan, chish>tish, chizmoq>tizmoq, Chust>Tus va hokazo. Demak, Toshkent toponimining kelib chiqishi va taraqqiy etishi quyilagicha variantlarda bo'lgan: Chuch>Joj, Choch>>Chosh>Shosh; Choch>Chosh>Tosh-kent.

Toshkent toponimining barcha varianti mazkur shahar nomi bo'lishi barobarida vohaning ham nomi bo'lgan. Bu esa Obangaron toponimi ham kent, ham voha nomi, Farg'ona toponimi ham kent ham voha nomi bo'lgani kabi.

#### 📌 Savol va topshiriqlar:

1. Toshkent viloyati toponimiyasini boshqa mintaqalar toponimiyasi bilan qiyosiy-tahliliy o'rganing.

1. Toshkent shahar toponimiyasi tarkibidagi tarixiy nomlar va ularning etimologiyasi haqida ma'lumot toping.

1. Toshkent shahar toponimiyasini o'rgangan olimlar haqida referat tayyorlang.

#### 📌 Test topshiriqlari:

1. Toshkent shahri eramizdan avvalgi II asrdan boshlab Choch nomi bilan atalgan degan fikr qaysi tarixchi oliniga tegishli?

- A. A.Asqarov
- B. O.Buriyev
- C. B.Axmedov
- D. F.Axmedshina

2. Toshkent viloyati toponimiyasi tarkibida ..... salmoqli o'rin egallaydi. To'g'ri javobni nuqtalar o'rniga qo'yib betgilang.

- A. gidronimlar
- B. etnonimlar
- C. antroponimlar
- D. oronimlar

3. S. Qorayevning ma'lumotlariga ko'ra, yozma manbalarda Toshkent viloyati haqidagi ma'lumotlar ... ortiqroq davrni o'z ichiga oladi.

- A. uch ming yildan
- B. ikki ming yildan
- C. besh ming yildan
- D. to'rt ming yildan

4. Toshkent shahrida kash-hunar bilan bog'liq holda paydo bo'lgan nomlar qatorini betgilang.

- A. So'zangaron, Saorafon
- B. Baliqli, Quduqli
- C. Taqachi, O'qchi,
- D. Toshkeskan, Sangtarosh

5. Toshkent shahar mikrotoponimiyasini maxsus o'rgangan olim kim?

- A. M. Mirtojdiyev
- B. M.Ye Masson
- C. H.Ziyayev
- D. Sh.Qodirova

### 4.3 QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI, XORAZM, BUXORO VA NAVOIY VILOYATLARI TOPONIMIYASI

#### ☞ *Reja:*

1. *Qoraqalpog'iston Respublikasi toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari*

2. *Xorazm viloyati toponimiyasiga qisqacha ta'rif*

3. *Buxoro va Navoiy viloyatlari toponimiyasiga umumiy tavsif*

☞ *Mavzuning maqsadi:* *Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlari toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlari hamda respublika va viloyatlar nomining etimologiyasi haqida qisqacha ma'lumot berishdan iborat.*

☞ *Tayanch ibora va atamalar:* *etnonim, etnooykonim, oronim, saqa, shung'il, qal'a, substrat nom, neotoponim.*

**Qoraqalpog'iston Respublikasi toponimiyasi.** Qoraqalpog'iston Respublikasi – Qizilqum cho'lining shimoliy-g'arbiy qismi, Ustyurt platosining janubiy-sharqiy qismi va Amudaryo deltasini egallaydi. Orol dengizining janubiy qismi respublika hududida joylashgan. Respublika toponimiyasining asosiy qismini qoraqalpoq toponimlari tashkil qiladi. Ular qoraqalpoq tili va tarixi mahsulidir.

Qoraqalpoqlar etnogenezining qadimiy bosqichlari miloddan avvalgi bizning eramizdan avvalgi VII-IV asrlarda Orol - Kaspiy sahresi va Amudaryo deltasining hududlarida yashagan sak va massagetlar qabilalari bilan bog'liq. VI-VIII asrlarda bu yerdagi aholi bilan turkiy qabilalar qisman qorishadilar. VIII-X asrlarda bijanaklar va o'g'uzlar orasida qoraqalpoqlarning shakllanishi boshlangan. Bijanaklar bir qismi Irtishdan kelgan qipechoqlar bilan qorishib, asta-sekin ularning tilini qabul qila boshlagan.

Qo'lyozma manbalarda (rus yilnomalarida) "Chyoniyce klobuki", (forsiy manbalarda) "Qavmi kulahi - siyah" (Rashiduddin) to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Boshqa manbalarda qipechoq urug' qabila ittifoqida qoraqalpoq atamasiga mos keluvchi "qora bo'rkli" etnonimi uchraydi. Qoraqalpoqlar

Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlarida, Amudaryoning quyi qismida yashaganlar hamda Orol o'zbeklari bilan birgalikda davlat harpo etganlar (Orol hukmronligi), uning poytaxti dastlab Qo'ng'irot, keyinchalik Shohtemur (hozirgi Chimboy shahri) bo'lgan. Qoraqalpoqlar yarim ko'chmanchi hayot kechirib, chorvachilik va irrigatsion dehqonchilik hamda baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Qoraqalpog'istonda qoraqalpoqlar bilan birga, o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlar ham yashaydi. Toponimlar xalq tili va tarixi mahsulidir. Qoraqalpoqcha nomlar respublika hududida keng tarqalgan va hudud toponimiyasining asosiy qismini tashkil etadi. Ularning ko'pchiligi qoraqalpoqlar Amudaryo deltasiga ko'chib kelganlaridan keyin paydo bo'lgan.

Respublika toponimiyasi tarkibida etnotoponimlar salmoqli o'rin egallaydi va hudud toponimiyasining 1/5 qismi etnotoponimlar tashkil qiladi. Etnotoponimlar tarkibida qoraqalpoqlarning jaloyir, qo'ng'irot, kerayit, kenagas, qiyok, mang'it, qipechoq, qatag'on, nayman kabi etnik guruhlar nomi bilan birga, qoraqalpoq etnonimlari bilan birga, o'zbek, qozoq va turkmanlarning urug'-aymoq nomlari ham oykonimlar shaklida uchraydi. Bu esa ushbu xalqlar qadimdan shu hududida yonma-yon yashaganliklaridan darak beradi.

Ma'lumki, oykonimlar har qanday mintaqaning axborotga boy, jamiyatdagi hukmron mafkura bilan bog'liq toponimlar turidir. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida 1200 tadan ko'proq aholi punktlari mavjud. Ular orasida etnooykonimlar ham ko'p uchraydi. Masalan, anna - (Chimboy, Taxtako'pir), aralbay - (Chimboy, Kegayli), arshan - (Chimboy, Kegayli), bo'zaq - (Kegayli), do'bal - (Bo'zatov), yesibi - (Kegayli), yeshkili - (Kegayli), jag'altay - (Chimboy), jaman - (Kegayli, Chimboy, Nukus), irg'aqli - (Qorao'zak), kepe - (Kegayli, Qorao'zak, Chimboy, Taxtako'pir), no'kis - (Amudaryo, Chimboy) va boshqalar.

Qoraqalpog'iston etnotoponimlari orasida ayuchi, oqmang'it, yeshuteke, irg'aqli, qishliq, sag'ir, tuyoqli kabi o'zbek, aday, aylimbet, qorasotir, quan, mamit, o'tegen, sarman, shege kabi

qozaq etnonimlari, ayritam, ata, garga, do'nguzli kabi turkman urug'lari nomlari ham uchraydi. Markaziy Osiyoda yashaydigan turkiy xalqlarning qon-qardoshligini utar tarkibida uchraydigan bir qancha urug'-qabilalar nomlarining mushtarakligidan ham bilish olsa bo'ladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti Nukus shahri nomiga ham etnonim asos bo'lgan. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasidagi ma'lumotlarga ko'ra, qoraqalpqlarning qo'ng'iroq va kenagas qabilalari tarkibida nukuz, nekuz urug'i bo'lgan. Nukuz aslida mo'g'ul qabilalardan birining nomi. Mo'g'ullar istilosi davrida (13 asr) nukuzlarning bir qismi Dashti Qipchoqqa, keyinchalik boshqa turkiy qabilalar bilan birga Movarounnahrqa kelib o'rnatilgan bo'lishlari mumkin. Ular vaqt o'tishi bilan mahalliy xalqlar, jumladan qoraqalpqlar tarkibiga singib ketgan.

Rashiduddinning "Jome' at-tavorix", Abdulg'oziy Bahodirxonning "Shajarai tark", rus tadqiqotchisi N.Xannikovning "Buxoro xonligining tavsifi", A.Vamberining "O'rta Osiyo bo'lab sayohat" asarlarida nukuz urug'i tilga olingan. Nukuzlarning juda oz qismi yaqin vaqtgacha yirik qabilalar tarkibida urug' bo'lib, o'z nomlarini saqlab kelganlar. Janubiy O'zbekiston toponimiyasini o'rgangan T.Nafasovning yozishicha, Qashqadaryo mang'itlarining yirik urug'lardan biri nukuz deb atalgan. Taniqli olimning aniqlashicha, tarixiy sharoit, muhit taqozusi bilan nukuzlarning bir qismi slohida to'p sifatida chuyullar tarkibida ham qayd qilingan.

F.Urinbayeva, G.Tureyevlarning "Nukus" toponimining vujudga kelish tarixi va etimologiyasi haqida nomli maqolasida "Nukus shahri haqidagi eng dastlabki ma'lumotlar 18 asr o'rtalariga oid. 1743 yili I.Muravin tuzgan xaritada Amudaryoning o'ng sohilida Nukus shahri ko'rsatilgan" deb yozganlar. Mazkur maqolada nukus so'zining ma'nosi haqida quyidagi rivoyat keltirilgan: "Nukes (nu - to'qqiz, kes - bahodir, odam) so'zi fors tilida "to'qqiz odam yoki to'qqiz bahodir" kabi ma'nolarni anglatadi. Ko'rsatilgan to'qqizta bahodir keyinchalik qoraqalpog' urug'larining biri bo'lgan nukus urug'iga asos solgan". S.Qarayevning yozishicha, nukuslar asli mo'g'ul qabilasi

bo'lganini e'tiborga olsak, bu etnonimning etimologiyasi haqidagi fikrlar uzil-kesil hal bo'lmagan deyish mumkin.

Respublika toponimiyasida, xususan aholi punktlari nomlari - oykonimlarda o'lka tabiiy sharoiti ham o'z aksini topgan. Ular orasida relef shakllarini anglatuvchi tov, qum, jar, shung'il («chuqur joy», «butiq»), o'y («chuqur joy», «kichik butiq»), tuqir kabi oronomik terminlar ko'p uchraydi. Masalan, Jumurtov, Po'rkitov; Jalg'izqum, Jindiqum; Qiziljar, Qorajar; Murashung'il, Oqshung'il; Dumaloqo'y, Qorao'y; Qorataqir va boshqalar.

Suv obyektlarini ifodalaydigan gidronimik terminlar: arna - Paxtaarna, Tentekarna; ariq - Shuqurariq, Yangiariq; buloq - Ashibuloq, Surbuloq, sag'a - saqa («kanalning boshi») - Kanalsag'a, Uchyapsag'a; o'zek («jildirab oqadigan jilg'a») - Moylio'zek, Qirqo'zek; solma («kichik ariq») - Bo'zsolma; japyap («o'rtacha ariq») - Jalpaqjap, Qorajap, Naymanjap, quduq - Oqqudug; jag'is - («joy», «pristam») - Oqjag'is va hokazo.

Hududning gidronimik terminlari orasida ko'l so'zi boshqa terminlarga nisbatan oykonimlar hosil qilishda ko'proq qatnashgan. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 40 dan ortiq aholi punktlari nomlari tarkibida ko'l so'zi uchraydi. Buning ikki asosiy sababi bor, birinchisi - respublika hududining asosiy qismi Amudaryoning quyi oqimida joylashganligi, ikkinchisi, seryog'in yillari daryo suvi toshib ko'llar hosil qilganligi. Tarkibida ko'l bo'lgan oykonimlarga, Qanliko'l, To'rtko'l, Qo'tonko'l, Sho'rko'l, gavnisko'l va boshqalar misol bo'ladi.

Respublika oykonimlari tarkibida oykonimik terminlar ham ko'p uchraydi. Ular orasida ovul va qal'a terminlari yetakchilik qiladi. Taxminan ikki yuzga yaqin aholi punkti nomi tarkibida ovul va o'ttizdan ko'proq oykonimlar tarkibida qal'a termini takrorlanadi. Masalan, Bo'zovul, Darg'aovul, Kepeovul, Ellikqal'a, Ayozqal'a, Jambasqal'a va boshqalar. Hozirgi qoraqalpog' tilida qal'a so'zi shahar ma'nosini ham ifodalaydi.

**Xorazm viloyati toponimiyasi.** Xorazm mamlakatning shimoli-g'arbida joylashgan, qadimiy sug'orish madaniyatiga ega bo'lgan ko'lma viloyatlardan biri hisoblanadi. Amudaryo sohili bo'ylab joylashgan Xorazm hududida qadimdan turli qabilalar va

xalqlar yashagan. Miluddan ancha oldin ushbu hududda Xorazm davlati barpo etilgan. Xorazmning qadimgi aholisi - xorazmiy tilda (sharqiy eroniy tillarga mansub) gaplashgan. Keyinchalik uyar turli turkiy qabilalar bilan aralashib, turkiy til asta-sekin hukmron mavqe'ga ega bo'lishi natijasida, xorazmiy tili o'lik tilga aylangan.


Mutaxassislarning fikricha, hozirgi xorazm shevalari tarkibida xorazmiy tilning ayrim unsurlari saqlanib qolgan. Bunday unsurlar toponimiyada ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Xorazmlik tanikli toponimist olim Z.Do'simov var (vara), pur, kat, kas, fir, arna kabi unsurlarni qadimgi xorazmiy tilida joy nomlari yasashda faol qatnashgan toponimik indikatorlar deb hisoblaydi.

Z.Do'simov viloyat toponimlarini tarkibidagi topoterminalariga ko'ra, tomon, o'rin, hajm va belgi-xususiyat bildiruvchi indikatorlarga ho'lib o'rgangan. Masalan, o'rini va katta-kichikligini bildiruvchi toponimlarga Arqaavul, Arqajam, Kichchiqala, Kichchiko'l, Ulliqala, Ulliatiiz kabi nomlarni misol qilib ko'rsatgan. Viloyat hududi asosan tekisliklardan iborat bo'lganligi sababli oronimlar soni ko'p emas. Relief bilan bog'liq nomlar tarkibida tay (dag'), jar, do'ba (tepa), do'bajik (kichik tepa) kabi topoterminalar ko'p uchraydi. Ularga Haktay, Qubatay, Ullido'ba, Eshkijar kabi nomlar misol bo'ladi.

Viloyatda suv obyektlari bilan bog'liq nomlar alohida bir guruhni tashkil qiladi. Gidronimlar yasashga ixtisoslashgan va boshqa hududlarda kam yoki umuman uchramaydigan arna, yap (yop), yormish, solma, yosqa kabi topoterminalar misol bo'ladi. Xorazm shevasida "yosqa" so'zi kechuv ma'nosini anglatadi. Machityosqa, Qumyosqa, Uzunyosqa kabi gidronimlar ana shu termin yordamida paydo bo'lgan. Xorazm viloyati toponimiyasi tarkibida koriz, ko'l, ko'cha, ko'pir, taqir, qayir, to'qay, qum, ovul kabi terminlar ko'plab joy nomlari hosil qilgan.

Biz, M.Avezov bilan hamkorlikda, Xorazm viloyati toponimlarining tabiiy geografik xususiyatlarini maxsus o'rganib, viloyat oronimlari va gidronimlari tarkibidagi ayrim toponimik terminlarning ulushini alohida hisoblab chiqdik.

Xorazm viloyati oronimlari va gidronimlari tarkibidagi topoterminalar ulushi (%)



Viloyatda tuproq, o'simlik va hayvonot olami hamda hudud landshaftini o'zida aks etgan joy nomlari ham ko'p. Ma'lumki, qadimdan Xorazm vohasida sug'orma dehqonchilik yaxshi rivojlangan. Shuning uchun, tuproq tarkibi, holati va xususiyatlari kishilar diqqatini tortib nomlashga asos bo'lgan. Mahalliy dehqonlar tuproqning holatiga qarab, sho'rxok joylarda Shorliq, Shortaxta, unumdor yerlarda Sug'ali, Sog'alang, bo'z tuproqli yerlarda Bozli, Bozayli, taqir tuproqli hududlarda Taqirli, Aqtaqir kabi nomlar bilan atashgan.

O'simliklar kishilarning hayoti va xo'jalik faoliyatida muhim rol o'ynagan. Tabiiyki, ular inson uchun xom-ashyo manba, chorvaga mo'l-ko'l oziq-hazasi hisoblangan. Shuning uchun ham kishilar turli xil o'simlik nomlarini joy nomi tarzida qo'llaganlar. Bunday nomlar kishilar hayotida orientir (mo'ljal) vazifasini bajargan. Viloyat fitotoponimlari tarkibida turli yovvoyi o'simliklar, daraxtlar, poliz ekinlari nomlarini uchradish mumkin. Ularga Arpabodiyon, Kandirli, Mashtaxta, Yilg'inliq, Qamishliq kabi nomlar misol bo'ladi. Mintaqa zootoponimlariga Boriyataq, Suyunli, Laqaliyap, Ko'kqarg'a kabi ko'plab nomlar misol bo'ladi. Muxtasar aytganda, viloyat toponimiyasi tarkibida joyning geografik o'rni, tuprog'i, relief xususiyatlari bilan bog'liq nomlar

bilan birga, gidronimlar, fitotoponim va zootoponimlar muhim o'rin egallaydi.

Korazmning qadimiy poytaxti turli manbalarda Fil, Fir, Kas, Kat shaklida tilga olingan. X asrda fors-tojik tilida bitilgan muallifi nomal'm "Hudud ul-olan" nomli geografik asarda "Kat - Xorazmning bosh shahri, savdogarlar oqib ketadigan joy, shahar katta boylikka ega, yostiq choysablari, qavilgan kiyimlar, ip gazlamalar, kigiz va boshqalar o'sha yerdan olib kelinadi", deb yozilgan. Kat o'rta asrdarda turkiy elatlarning savdo-sotiq markaziga aylangan. Tarixiy manbalarga qaraganda, shahar turli davrlarda turlicha nomlangan. Ular orasida eng mashhuri Kat - xorazmiy tilida "aholi yashash manzili" degan ma'noni anglatgan.

O'rta asr arab geografi Yuqut Hamaviyning yozishicha, Kat Jayxan (Amudaryo) ning sharqiy qirg'og'ida, Jurjoniyaning yigirma farsax narida joylashgan. Boshqa arab geografi Muqaddasiyning ma'lumotlariga ko'ra, Kat shahriston deb ham atalgan va kattaligi jihatidan Nishopurga teng bo'lgan. A.Sam'oniylar esa o'zining "Kitob ul-ansob" asarida Kat rabodi "berun" deb atalganini qayd etgan. Aburayhon Beruniy afriq'iyalar asoschisi Afriq' shahar ichida uch qavat devor bilan o'ralgan qasr qurdirganligi, uning devorlari nihoyatda baland bo'lib, taxminan 20 km uzoqlikdan ham ko'rinib turganligi haqida ma'lumot yozib qoldirgan.

Viloyat oykonimlari tarkibida qal'a terminidan ko'p foydalangan. Ularga Bo'zqal'a, Doshqal'a, Sho'rqal'a, Katqal'a kabi toponimlar misol bo'ladi. S.Qorayevning yozishicha, Xorazmda joy nomlari yasashda faol qatnashgan indikator terminlar qatoriga, boshqa hududlarda kam yoki umuman uchramaydigan alang - ("ekinga yaroqsiz yer" - Qoraalang), atav - ("oral" - Qamishliatav), arna - ("katta kanal" - Shovotarna), yop - ("ariq" - Qumyop), saqa - ("kanalning boshi" - Toshsaqa), solma - ("kichik ariq" - Begansolma) kabi terminlarni kiritish mumkin.

Qadimiy Xiva oykonimini ham substrat nomlar qatoriga kiritish bo'ladi. Tarixiy shaharga tashrif huyurgan arab geograflari Ibn Havkal, Yul'ut Hamaviy, Ibn Batuta, venger sayyohi H.Vamberi va rus olimi S.P. Tolstov uning nomini izohlashga harakat

qilganlar. Ma'lumki, tarixiy manbalarda shaharning nomi Qal'ai Raml - "qum ustidagi qal'a", Qal'ai Sardoba - "sardobali qal'a" shaklida qayd qilingan.

Xudoyherdi Qo'shmuhammadning "Dili g'aroyib" nomli kitobida shahar haqida quyidagi ma'lumotni topish mumkin: "Xevak - Xivaning qadimiy nomi Ramul. Muni bino qilg'on Som bilan Nug'kim, otasining kemasiga o'xshatib solg'on va kemaning andozasiga barobar va holo Xevaqq'a nisbat berurlar".

Xiva toponimining etimologiyasi to'g'risida turli manbalarda turlicha fikrlar bayon qilingan. Ba'zi olimlar Xiva qal'asining nomi "Xevaqq" qudug'i nomi bilan bog'liq, "Xey-vax" esa mamnuniyat, qoniqish, xitob belgisi degan fikrni bildiradilar. Boshqa bir guruh olimlar, "Xevak" xoli, quruq, bo'sh yoki g'ovak joy degan ma'noni bildiradi, deb taxmin qiladilar. Xorazm toponimiyasini o'rgangan olim Z. Do'simovning fikricha, Xeva toponimiga izohni qadimgi xorazmiylar tilidan izlash kerak.

Ayrim mutaxassislarning yozishicha, Xiva so'zi hind-yevropa tillari oilasiga mansub xorazmiylar tili bilan ko'chmanchi turkiy talqlar tilining qarishmasidan paydo bo'lgan va u qadimiy qum tepaligida joylashgan quduqli qo'rg'on, suvli maskan, odamlar yashaydigan obod qishloq- qal'a demakdir. "Xeva"- so'zi esa shahar nomining arabcha, forsecha, talaffuz shakli bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Xiva so'zi mutaxassislar tomonidan ko'p marta izohlagan bo'lsa ham, ammo uning ilmiy talqini hozirgacha jumboqligicha qolmoqda. Xiva shahri 1969 yili xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan dunyo xalqlari moddiy va madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. 1997 yili shaharning 2500 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi.

**Xorazm toponimi haqida.** Xorazm - O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat nomi (1938 y.). Viloyat hududi cho'l zonasida, qadimgi Xorazm vohasining g'arbiy qismida joylashgan. Relief pasttekisliklardan iborat, Amudaryo qadimiy deltasining bir qismi bo'lib, daryo yotqiziqlaridan tashkil topgan. Qoraqum cho'lga tutashgan g'arbiy va janubi-g'arbiy qismi qum bilan qoplangan.

O'rta Osiyoning ikki daryo oralig'idagi yerlari qadimdan Xorazm nazorati ostida bo'lgan. Xorazm vohasi boy va qadimiy tarixga ega, xorazmliklar yuksak madaniyatli xalq bo'lgan. Qadimgi Xorazm - Turon va Eron oralig'ida joylashgan tarixiy o'lka va qadimgi davlat. Xorazmning qadimgi aholisi - xorazmiy tilda (sharqiy eroniy tillarning shimoliy guruhiga mansub) so'zlashgan va qadimgi xorazmcha nomlar ham shu tilda yaratilgan. Xorazm toponimiyasining o'sha davrga tegishli bo'lgan nomlarini boshqa hind-yevropa, jumladan, eroniy tillarga xos toponimlar bilan qiyosiy o'rganish orqaligina aniq ilmiy xulosaga kelish mumkin.

Xorazm hududi qadimda Amudaryo etaklaridan janubga tomon Murg'ob va Tajan daryolarining yuqori oqimlarigacha cho'zilgan. Shu boisdan bu qadimiy tarixiy o'lka fanda ikki xif: Qadimiy Xorazm va Katta Xorazm nomlari bilan ma'lum. Xorazm haqidagi ilk ma'lumotlar Avesto kitobida. Doro I ning Bihistun yozuvarida, qadimiy yunon olimlari Gekatey, Gerodor, Strabon kitoblarida hamda ilk o'rta asr arab geograflari asarlarida uchraydi.

Xorazm nomi Avestuda Xvairizem, qadimiy forsiyda Uvazmis, lotinchada Xorazmiya va yunonchada Xorazmiya deb yuritilgan. Arabcha yozma manhalarda bu o'lka Xvorazm talaffuzida tilga olingan. Xorazm nomining semantikasi haqida bir qancha fikrlar mavjud. Xorazm tarixining bilimdoni, rus tadqiqotchisi S.P.Tolstov Xorazm so'ziga tegishli bo'lgan talqinlar orasida forscha, "xurshed" va "zem" so'zlari asosida yuzaga kelgan, nomning "quyoshli o'lka", "quyoshli yer" degan izoh haqiqatga eng yaqini ta'kidlaydi.

So'g'dshunos olim M.N.Bugolyubovning yozishicha, Xorazm so'zi uch tarkibiy qismlardan iborat: xu (xush, xash), var (vara) va zm (zim, zem). Sharqiy eroniy tillarda xu - "yaxshi" "ma'qul", var(sara) - "devor", "marza", "qal'a", "qo'ra", zm (zim, zem) esa - "er", "o'lka", "diyori", "mamlakat" kabi ma'nolarni anglatgan. Demak, Xorazm nomi qanday shaklda qayd etilmasin, "yaxshi qo'rali yer", "ajoyib qal'ali o'lka", "mustahkam qal'ali" degan ma'roni anglatgan.

Xorazmlik nomshunos olim Z.Do'simovning yozishicha, Xorazm so'zining paydo bo'lishi quyidagi rivoyat bilan bog'liq. Juda qadim zamonlarda podsho o'zining to'rt yuz askaridan g'azablanib, ularni odamsiz cho'lga chiqarib tashlashni buyurgan. Podshoning farmoni bajarilgan. Oradan bir necha yil o'tgach, podsho ulardan xabar olishni topshirgan. Podsho odamlari ularni tirik ekanligi haqida xabar keltirgan. Quvg'in qilinganlar xor va razm bilan hayot kechirgan emish.

Shuning uchun, podsho bu yerni Xor Razm deb atashni va ularga to'rt yuz cho'rini keltirib berishni buyurgan. Xorazm elati shunday paydo bo'lgan emish. Bu shunchaki rivoyat, nomning xalqona talqini, aslida bunday rivoyat va afsonalar nomning juda qadimiy ekanligidan darak beradi. Biroq bunday rivoyat va afsonalar nomning asl mohiyati va mazmunini ochib bera olmaydi.

**Buxoro viloyati toponimiyasi.** Buxoro - muazzam Sharqning mashhur qadimiy vohalaridan biri. Buxoro viloyati toponimiyasi o'zining qadimiyliigi bilan alohida ajralib turadi. Arxeologik manhalarda miloddan avvalgi VI-V asrlarda hozirgi Buxoro shahri o'rni uchta manzilgoh bo'lganligi qayd qilingan. Ulardan biri - Firobdiz, ikkinchisi - Navmichkat, uchinchisi - Buxoro deb atalgan. Keyinchalik aholi manzilgohlari birlashib, yagona Buxoro nomi bilan yuritilgan.

Shaharning Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashganligi ilk davrlardan boshlab zardo'zlik, zargarlik, misgarlik, temirchilik, kulolchilik kabi hunarmandchilik turlarini paydo bo'lishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan. Mazkur kasb-hunar turlari hozirgacha geografik obyektlar nomi sifatida saqlanib qolgan. Sarrofon, Zargaron, Kulolon, Qamchibof, Karbosbof, Telpakfuro'shon, Chitgaron kabi nomlar bunga yaqqol misol bo'ladi.

Viloyat toponimiyasida qadimgi murakkab tarixiy jarayonlar hamda hududda yashagan turli xalqlarning tarixiy-madaniy va siyosiy-iqtisodiy hayoti o'z aksini topgan. Buxoro viloyati o'z ko'nikmalarini maxsus o'rgangan S.Naimovning yozishicha, mintaqa toponimlarining hozirgacha aniqlangan eng quyi qatlami qadimiy so'g'diy, forsiy va turkiy tillarga tegishli. Ular orasida tojik tili

asosida shakllangan nomlar alohida bir guruhni tashkil qiladi. Tojikcha oykonimlarning asosiy qismini semantik jihatdan tabiiy geografik omillar, kash-hunar va etnik kelib chiqishi bilan bog'liq nomlar tashkil qiladi. Viloyat tarixiy oykonimlari tarkibida kat, diz, kom, ro'd, xona, obod kabi oykonimik indikatorlar ko'p uchraydi.

Buxoro viloyati hududining katta qismi cho'l zonasida joylashganligi sababli ko'plab quduqlar qazilgan. Ularning har birining o'z nomi bor. Ko'rquduq, Oqquduq, Chig'irchiquduq, Surxi quduq'i va boshqalar. Ko'rquduq - seryog'in yillari suvi ko'p bo'lib, yog'ingarchilik kam bo'lgan yillari yoki jazirama yozda suvi qurib qoladigan quduqni shunday nomlashgan. Viloyatning Peshku tumanidagi quduqlardan birining nomi - Zarqum. Zar -su'zi joy nomlari tarkibida ko'p uchraydi va oltin, tilla kabi so'zlarni sinonimi sifatida qo'llaniladi. Bizningcha, qudaq nomi tarkibidagi zar so'zining ilk shakli zard (tojikcha) - "sariq" bo'lgan va nomlarning tejalish qonuniyatiga ko'ra "d" harfi tushirilib qoldirilgan. Binobarin, quduqning nomi uning atrofida keng tarqalgan tog' jinrlarining sochiluvchan mayda zarrachalari bo'lgan qum rangi bilan bevosita bog'liq.

Buxoro shahrini suv bilan ta'minlaydigan ariqlarning ham o'z nomi bo'lgan. Masalan, Shohro'd - katta ariq, kanal, arab geografлари asarlarida Nahri Zar shaklida tilga olingan. Yana bir ariqning nomi Komi Zar bo'lgan. Mutaxassislarning yozishicha, Buxoroda kom so'zi kattaroq ariq ma'nosini anglatgan. S.Qarayevning yozishicha, buxoroliklar Zarafshon daryosidan boshlanadigan kanallardan birini Jo'yi Abumuslim deb ataydilar. Abumuslim 747-749 yillarda arablarga qarshi Buxoroda ko'tarilgan qo'zg'alonga boshchilik qilgan Abdurahmon ibn Asadning laqabi.

Viloyat hududi asosan tekisliklardan iborat bo'lganligi bois, relef shakllarini ifodalovchi oronimlar soni kam, ularning barchasini ilmiy, tarixiy, lisoniy, geografik jihatdan o'rganish kerak. Do'ng'iztov, Jilqiqoya, Jusantepa, Sandiqli, Peshku kabi nomlar oronimik obyektlar nomlari sirasiga kiradi. Masalan, viloyatning cho'l qismida joylashgan Jusantepa - jusan o'simligi

ko'p tarqalgan joy, qozoqlar shuvoq o'simligini jusan deyishadi. Sandiqli cho'li Turkmaniston bilan chegara hududida joylashgan, turkmanlarning bir urug'ining nomi sandiqli.

Viloyat oronimlarini alohida o'rganish shuni ko'rsatadiki, oronimlarni shakllanishida bir qancha tabiiy geografik terminlar ishtirok etgan. Ularning viloyat oronimlari tarkibidagi ulushi 62 % yetadi, ya'ni viloyatdagi 150 ortiq oronimning 93 tasi aynan tabiiy geografik terminlar asosida vujudga kelgan. Ular orasida tepa, qir, soy, qum kabi terminlarning ulushi 38 % ni tashkil qiladi.

Viloyat oronimlarini hosil qiluvchi asosiy tabiiy geografik terminlar ulushi (%)



Viloyat toponimiyasi tarkibida o'simlik va hayvonlar turi nomi bilan atalgan geografik obyektlar kam bo'lsa ham uchraydi. Masalan, jigdaqandim tepaligi - cho'lda o'sadigan baland bo'yi qandim butasining jiydaga o'xshab ketadigan bir turi. Tavois - arablar bu yerda ko'p tovuqlarni ko'rib qishloqni shunday nomlashgan deyishadi. Mohonko'l - aslida Ko'li muhiyon (tojikcha, mohi - "baliq", on - ko'plik qo'shimchasi), ya'ni baliqlari ko'p ko'l.

Viloyatda etimologiyasi hozirgacha aniq bo'lmagan yoki qo'shimcha tadqiqotlarni talab qiladigan qadimiy nomlar ko'p

topikadi. Ularga Varaxsha, Afshona, Narshax, Torob, G'ijduvon kabi nomlar misol bo'ladi.

Kulosa shuki, viloyat toponimiyasi juda qadimiyligi bilan alohida ajralib turadi, ayrim arxaiklashgan nomlar ham bor, ularni izohlash alohida etimologik tadqiqotlarni talab qiladi. Viloyat oykenimlari orasida tojikcha nomlar ko'p va ularning aksariyati kasb-hunar va tabiiy-geografik omillar asosida paydo bo'lgan.

**Buxoro nomining etimologiyasi haqida.** Buxoro - haqidagi dastabki ma'lumotlar yunon olimi Klavdiy Ptolemeyning «Geografiya» asarida uchraydi. Mutaxassislarining yozishicha, ilk o'rta asr Xitoy manbalarida Buxoro nomi turlicha - An, Ansi, Ango, Buxo, Buku, Buxe, Buxaer, Buxuacr, Buxala, Buxuala, Fuxe, Puxuala shaklida tilga olingan. Bu nomlarning avvalgi uchtasi Buxoroning xitoycha nomlari bo'lib, qolgani «Buxoro» so'zining xitoy tilidagi talaffuzidir. Xitoylik sayyoh, rohib Syuan Szyanning «Xotiralari»da (630 yillar) Buxoro - Budo shaklida qayd qilingan.

O'rta asr arab manbalarida Buxoro Numijkat, Navmichkat, Bumichkat (Yangi qo'rg'on), Al-Madina as-sufriyya (Mis shahar), Madinat at-tujjur (Savdogarlar shahri), Foxira (Faxri shahar) kabi nomlar bilan tilga olingan. «Tarixi Buxoro» asari muallifi M.Narshaxiyning yozishicha, Buxoro nomi o'rta asrlarda barcha nomlardan mashhurroq bo'lgan. Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning (XVI asr) yozishicha, Buxoro - «buxor» so'zidan kelik chiqqan bo'lib, otashparastlar tilida «ilm makoni» demakdir. Xitoy butparastlari ham sig'inish joylarini «buxoro» deyishar ekan.

Akademik V.Bartold va nemis olimi V.Tomashek Buxoro nomini sanskritcha vixara - «ibodatxona» so'zi bilan bog'liq, deb hisoblaganlar. Ayrim mutaxassislar, Buxoro nomi sug'dcha «bug» yoki «bag» (tangri) hamda «oro» (jamol) so'zlaridan iborat bo'lib, «tangri jamoli» degan ma'noni anglatadi, degan fikrdalar. Mahalliy xalq orasida Buxoro bog'lari ko'pligidan Bog'oro degan ma'noni bildiradi, degan rivoyat ham bor.

Islam olamida Buxoro - Buxoroi sharif (Sharofatli Buxoro) deb ataladi. O'rta asrlarda jahondagi yettita shahar: Makka, Madina, Quddus, Buxoro, Bag'dod, Damashq, Mozori Sharifga

diniy markaz sifatida shuhrat qozonganligi uchun «Sharif» unvoni berilgan. Muhammad Narshaxiyning ta'rificha, Buxoroni islom dinining ravnaqi yo'lida qon to'kkan shaharlarga qiyoslab, unga ham sharif unvoni berilgan.

Buxoro islom dinining asosiy markazlaridan biri bo'lganligi bois unga IX asrda «Qubbat ul-islom» - «Islom dinining gumbazi» degan sifat ham berilgan. Muhammad Narshaxiyning ta'kidlashicha, mashhur fikhshunos (huquqshunos) olim Xoja imom Abu Hafsi Kabir Buxoriy sharafiga Buxoro «Qubbat ul-islom» deb atalgan.

Buxoro viloyati tarkibida Buxoro tumani ham bor. Uning ma'muriy markazi Galaosiyo shahri. Galaosiyo so'zi mahalliy xalq tilida, gala - «bir nechta, ko'p», osiyo - «tegirmon». Nom tarkibidagi gala so'zi obyektning miqdoriy belgisini bildirish uchun qo'llangan. Aholisi qadimdan asosan un va un mahsulotlarini tayyorlash bilan shug'ullanganligi sababli ko'plab tegirmonlar qurilgan. Galaosiyo - tegirmonlari ko'p, bir-biriga yaqin masofada, yonma-yon qurilgan joy nomi.

**Navoiy viloyati toponimiyasi.** Viloyat buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Navoiy (asl ismi Nizomiddin Mir Alisher, 1441-1501) nomi bilan atalgan. Navoiy viloyati respublika maydonining deyarli 1/3 qismini egallaydi. Viloyat hududida Qizilqum cho'li, qumli tekisliklar, qoldiq tog'lar va Nurota tog' tizmasi joylashgan. Viloyat joy nomlari orasida oronimlar, gidronimlar va oykonimlar yetakchilik qiladi. Suyun Qomiyevning yozishicha, viloyat toponimlar soni jihatdan respublikada birinchi o'rinda turadi.

Nomshunos olimning ma'lumotlariga ko'ra, viloyatdagi relef shakllari bilan bog'liq nomlar - oronimlar va suv obyektlari nomlari - gidronimlar soni to'rt mingdan oshadi. Bundan tashqari aholi punktlari nomlari - oykonimlar soni salkam bir yarim mingtaga yetadi. Navoiy viloyati hududining katta qismi cho'l zonasida joylashganligi bois, viloyat toponimiyasida rang bilan bog'liq nomlar ko'p uchraydi.

Viloyat oronimlari orasida oq va qora so'zlari ayniqsa ko'p takrorlanadi: Oqtov - Qoratov, Oqtapa - Qoratepa, Oqtosh -



Qoratosh, Oqqum - Qoraqum, Qoraqir kabi antipod nomlarda ma'lum ma'nuda rang tushunchasi bo'lishi mumkin. Viloyatda qizil, ko'k komponentli toponimlar ham ko'p marta takrorlanadi. Masalan, Qiziltepa, Qizilcha, Qizilravot, Ko'kbel, Ko'ksoy, va boshqalar. Hududning asosiy qismi cho'fu biyobondan iborat bo'lganligidan toponimiyada rang simbolikasi katta o'rin egallaydi.

Viloyatning cho'l zonasida suv tanqis, shuning uchun ko'plab quduqlar qazilgan va har birining o'z nomi bor. Quduq suvi ichishga yaroqli yoki yaroqsizligini nomidan aniqlasa bo'ladi: Shirinquduq, Chuchukquduq - suvini ichish mumkin; Sho'rquduq, Achchiquduq - suvi iste'molga yaroqsiz quduqlar. Cho'lda doimiy oqar suvlar yo'q, shuning uchun yer osti sirlardan foydalanish maqsadida ko'plab quduqlar qazilgan.

"Hayot o'choqlari" bo'lgan quduqlar nomida atrofdagi landshaft komponentlarini ham o'z aksini topgan. Masalan, Aristanquduq - qozoq tilida aristan - arslon ma'nosini anglatadi. Juzg'unquduq, Qamistiquduq, Qamichliquduq, Qayrag'uchquduq - quduq atrofidagi o'simlik turidan darak beradi. Kishilar ismi bilan ataladigan quduqlar soni ham ko'p. Ular ko'pincha quduq qazigan yoki unga bosh-qosh bo'lgan kishilar nomi bilan ataladi. Boynurodquduq, Jo'rubuyquduq, Sapurbuyquduq va hokazo.

Viloyat toponimiyasi tarkibida zox va fitotoponimlar kam bo'lsa ham uchraydi. Ukkilisoy, Qoplontepa, Qulonqoq, G'ajir kabi geografik obyektlar ukki, qoplon, qulon va tasqara nomi bilan atalgan. Konimex tumanidagi G'ajir nomi adabiy tilda tasqara deb yuritiladigan o'laksaxo'r qushning nomi bilan bog'liq, uni mahalliy shevada g'ajir deyishadi. Fitotoponimlarning aksariyati qurg'oqchil, arid iqlimli cho'l hududlarga xos bo'lgan nomlardan tashkil topgan. Ular orasida Ajriqti, Izenfi, Selinquduq kabi nomlar chorva uchun yaylov borligidan dalolat beradi.

Navoiy viloyati joy nomlarining tabiiy geografik xususiyatlarini M.Avezov bilan hammualliflikda o'rganib, viloyat hududidagi oronimlar va gidronimlar tarkibidagi huloq, quduq, soy, qoq, tov, tog', tepa kabi topoterminalarning ulushini alohida hisoblab chiqdik.



Viloyat toponimlari orasida metaforik, majoziy nomlar ham bor. Tandirqum - yozda bu joyda harorat yuqori bo'ladi, Jimniqum - tinimsiz bir joydan boshqa joyga ko'chib yuradigan qum tepalari, Yetimtog', Jetimqir - bepoyon cho'fu biyobonda uzoqdan ko'zga tashlanadigan yakka - yolg'iz cho'qqayib turgan pastak tog', qir, Baxiltog' - o'simlik kam o'sadigan tog', Oyoquduq - etakdagi, past tomonidagi quduq va boshqalar.

Viloyat toponimiyasi tarkibida afsonaviy nomlar ham topiladi. Karmana tumanidagi Duldul qishlog'ining nomini Hazrati Alining afsonaviy otining nomi bilan bog'lashadi. Nurota tumanida Zulqarnayn qishlog'i bor. Mahalliy xalqning rivoyatiga ko'ra, Iskandar Zulqarnayn shu qishloqda tug'ilgan. Viloyat joy nomlari orasida etnotoponimlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Xususan, o'zbek urug'-qabilalari nomlaridan urganji, saroy, burqut, olchin, chuyut, qo'ng'iroq, qozoqlar tarkibiga singib ketgan urug'-aymoqlari nomlaridan aristan, qalqaman, davlet, qulshig'ash, aday kabi etnonimlar etnotoponimlar hosil qilgan.

O'zbek urug'-qabila nomlari (etnonim) ning o'ziga xos kelib chiqish tarixi bor. Viloyat hududida qayd qilingan qadimiy turkiy qabilalardan biri - saroy, ko'pgina turkiy xalqlarga xos etnonim. Saroy - qabilasi o'z navbatida bir necha tarmoqlarga (ussaroy, qirg'izsaroy, qo'ng'irotsaroy, mojarsaroy, naymansaroy, qipchoqsaroy, ilamjisaroy, jomonsaroy, chemsaroy, jalong'ochsaroy) bo'linadi. Saroy so'zining etimologiyasi mutaxassislar tomonidan turlicha talqin qilingan, ammo yagona xulosaga kelinmagan.

Navoiy viloyati oykonimlari tarkibida qadimiy, ma'nosi mavhumlashgan nomlar ham uchraydi. Ana shunday oykonimlardan biri tuman va shahar nomi Karmana. Karmana nomining Karmina talaffuzi ham bor. Akademik A. Muhammadjonovning yozishicha, shahar nomi so'g'd tilida Xarmana - "katta saroy" ma'nosiga ega. Muhammad Narshaxiy o'zining "Tarixi Buxoro" asarida yozishicha, Buxoro vohasining sug'orma dehqonchilik yerlari Karmina hududidan hoshlanadi va u vohaning dehqonchilik rivojlangan rustaqlaridan biri bo'lgan.

O'rta asr yozma manbalarida Karmina rustoqi ba'zan Yasir nomi bilan ham tilga olinadi. M. Narshaxiyning ma'lumoti bo'yicha, Buxoro bilan Karmina oralig'i 14 farsang (98-112 km) uzunlikka ega bo'lgan. Karmana shahrining qadimgi nomlaridan yana biri - Bodiyai xurdak. Tojik tilida bodiya so'zi - "cho'l, sahro", xurdak - "kichkina" ma'nosini ifodalaydi. Bodiyai xurdak - "kichik cho'l, kichik dasht" demakdir.

Tarixiy manbalarda, jumladan, "Boburnoma", "Shayboniy-noma" da bodiya so'zi cho'l, hiynbon, dasht ma'nosida qo'llanilgan. May, sharob ma'nosidagi boda so'zi ham bor. Balki, shu ma'nodan Narshaxiy "Tarixi Buxoro" asarida Bodiyai xurdak nomini - "Kichik ko'za" deb izohlagan. Aslida Bodiyai xurdak nomining - "Kichik cho'l, dasht" degan ma'nusi haqiqatga yaqinroqdir.

Karmana so'zining semantikasi noma'lum, u qo'shimcha etimologik tadqiqotlarni talab qiladi. Tuman hududida me'moriy yodgorliklardan Mir Said Bahrom maqbarasi (XI asr), Qosim Shayx xonaqosi (XVI asr), Raboti Malik karvonsaroy va sardobasi (XI asr) saqlangan. Buxoro amirligi davrida (1753-1920) Karmana atehda imtiyozli bekkikka ajratilib, u Buxoro amirining valiahdi tomonidan hoshqarilgan. Jumladan, Amir Abdulahad va Said Olimxonlarning qarorgohlari Karmana shahrida bo'lgan.

#### ❖ Savol va topshiriqlar:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi oykonimlari haqida referat tayyorlang.

2. Qadimgi xorazmiy tilda yaratilgan toponimlarning farqlovchi xususiyatlari haqida gapirib bering.

3. Buxoro va Navoi viloyati toponimlarining o'xshash va farqli tomonlari nimalardan iborat?

#### ❖ Test topshiriqlari:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi toponimiyasining .... qismini etnotoponimlar tashkil qiladi.

A. 1/2

B. 1/3

C. 1/4

D. 1/5

2. Hozirgi qoraqalpog' tilda qala so'zi qanday ma'noni ifodalaydi?

A. qishloq

B. shahar

C. ovul

D. bekat

3. Xorazm viloyati oykonimlari tarkibida ko'p uchraydigan geografik terminni belgilang.

A. qala

B. kat

C. tash

D. arna

4. S. Naimovning tadqiqotlariga ko'ra Buxoro viloyati toponimlarining hozirgacha aniqlangan eng qayl qallami .... tillarga tegishli.

A. qadimiy turkiy, forsiy va so'g'diy

B. qadimiy so'g'diy, forsiy va turkiy

C. qadimiy forsiy, turkiy va so'g'diy

D. qadimiy xorazmiy, baxtarliy va turkiy

5. S. Qorayevning yozishicha, Navoi viloyati toponimlar soni bo'yicha respublikada .... o'rinni egallaydi

A. birinchi

B. ikkinchi

C. uchinchi

D. to'rtinchi

#### 4.4. FARG'ONA, NAMANGAN VA ANDIJON VILOYATLARI TOPONIMIYASI

##### ✧ Reja:

1. Farg'ona viloyati toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari
2. Namangan viloyati toponimiyasiga qisqacha ta'rif
3. Andijon viloyati toponimiyasining umumiy tavsifi

✧ *Mavzuning maqsadi:* Farg'ona vodiysi (Farg'ona, Andijon, Namangan) viloyatlari toponimiyasining shakllanish tarixi va o'ziga xos xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot berishdan iborat.

✧ *Tayanch ibora va atamalar:* oykonim, geografik termin, chek yoz, yor, parkona, namakton, qo'rg'on, avshan, tepa.

**Farg'ona viloyati toponimiyasi.** O'zbekistonning qadimiy madaniyat o'chog'laridan biri bo'lgan Farg'ona viloyati hududi asosan tekisliklardan iborat. Binobarin, oronimlar va gidronimlar soni nisbatan kamroq uchraydi. Shuning uchun, viloyat toponimiyasini o'rganishda aholi punktlari nomi - oykonimlarga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Bundan tashqari, aholi soni jihatidan ham, viloyat respublikada yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Demak, aholi zich joylashgan hududda oykonimlarning soni ham ko'p bo'ladi.

Taniqli geograf olim Yu.Ahmadaliyev viloyat oykonimlarini ikki yirik guruhga bo'lib o'rganishni tavsiya qilgan: tabiiy geografik omillar va iqtisodiy-ijtimoiy omillar asosida shakllangan oykonimlar. Olim tabiiy geografik omillar asosida shakllangan oykonimlar qatoriga gidrooykonimlar, orooykonimlar, fitooykonimlar va zoooykonimlarni kiritgan. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar guruhiga antropooykonimlar, etnooykonimlar, savdo, transport va diniy e'tiqodlar hamda kasb-hunar turlari bilan bog'liq oykonimlarni kiritgan.

Farg'ona viloyati toponimiyasi boshqa viloyatlardan geografik obyektlarni nomlashda asos bo'lgan tabiati, tarixi, aholisining etnik va lisoniy tarkibi ko'ra qisman bo'lsa ham farq qiladi.

Viloyat toponimiyasining farqlovchi xususiyatlaridan biri shuki, geografik joy nomlari tarkibida urug'-qabila nomlari hilan bog'liq bo'lgan etnotoponimlar nisbatan kam. "Farg'ona viloyati toponimlari" nomli qo'llanma muallifi Yu.Ahmadaliyevning yozishicha, aholi punktlari nomlari orasida etnotoponimlar kam bo'lsa ham qipchoq, nayman, kenagas, do'rmon, jaloyir, qatag'on kabi urug'-qabila nomlari saqlanib qolgan.

Farg'ona viloyati toponimlarining tuzilishi, tarkibi, yasashini chuqur o'rgangan olim N.Oxunov, viloyat oykonimlarini tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'lgan: sodda va qo'shma. Sodda nomlar tarkibida -chi (Sandiqchi), -li (Yong'oqli), -liq (Quduqliq), -lik (Misgarlik), -obod (Amirobod), -zor (Badomzor) singari topoforantlar qatnashadi. Olimning yozishicha, sodda nomlarning bir qismi tub so'zlar, asosiy qismi esa yasama so'zlarning toponimlashuvi bilan vujudga kelgan.

Qo'shma nomlar asosan sintaktik-leksik usul vositasida yasalgan. Viloyatdagi qo'shma nomlarning asosiy qismini ikki va undan ortiq so'zlardan tashkil topgan. Qo'sh tepa, Oltiariq, Turkavot, Kattaqo'rg'oncha kabi qo'shma nomlar misol bo'ladi. Ba'zi bir oykonimik terminlar mintaqada joy nomlari yasashga "ixtisoslashgan". Qo'rg'oncha, chek, oyim kabi terminlar boshqa hududlarda geografik nomlar tarkibida deyarli uchramaydi.

Professor Suyun Qorayev chek so'zini vodiyl viloyatlarida bir necha ma'noni anglatishini aniqlagan: a) bir tanobni uchdan bir qismi; b) jamoa yerlari taqsimlanayotganda qur'a (chek) tashlash vaqtida yutilgan yer maydoni; v) xon yerlaridan olinadigan ulush; g) xonning o'g'li, bek va boshqa amaldorlarning chek yeri (cheki xos); d) bir paykal sholipoya. Yusufxo'jachek, Qo'shchek, Yuziyachek, Cheki Nasriddin va boshqalar chek komponentli toponimlarga misol bo'ladi.

Toponimik qonuniyatlarga ko'ra, ayrim nomlar vaqt o'tishi bilan mazmunan va shaklan o'zgarishi, ya'ni transformatsiyaga duchor bo'lishi mumkin. Ana shunday, transformatsiyaga duchor bo'lgan nomlardan biri Qo'qon. Mutaxassislarning yozishicha, tarixiy manbalarda Qo'qon degan shahar uchramaydi. Hozirgi Qo'qon shahrining nomi yozma bitiklarda Xo'qand, Xuvoqand

shaklida tilga olingan. Rus sharqshunos olimi V.V.Bartoldning ta'kidlashicha, shahar nomining adabiy jihatdan to'g'ri shakli Xo'qand, Qo'qon esa uning hozirgi jonli tildagi talaffuzidir.

Viloyat toponimiyasi tarkibida qadimiy va hozirgacha etimologiyasi noma'lum qulayotgan, va qo'shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladigan nomlarni ham uchratish mumkin. Ulardan biri Quva oykonimi hisoblanadi. Quva so'zi dastlab muallifi noma'lum "Hudud ul-alam"da, so'ngra arab geograflari Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida Qubo shaklida tilga olingan. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, o'rta asrlarda Qubo shahri alohida viloyatning markazi bo'lgan va Farg'ona vodiysida Axsikatdan keyin, ikkinchi yirik shahar hisoblangan.

Quva shahrining paydo bo'lishi va uning nomi haqida turli rivoyatlar mavjud. "Farg'ona tarixi" asarining muallifi Ibratning yozishicha, Quva qadimda Qubod (yoki Qubo) deb atalib, keyinchalik Quva shaklini olgan. Tarixchi Abduxolliq Abdurasul o'g'li ma'lumotlariga ko'ra, Quva va Davan davlati to'g'risida dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi ikkinchi asrga mansub Xitoy manbalarida keltirilgan. Olimning yozishicha, o'sha davrda Quva kengayib ko'handiz, shahriston va rabod kabi uch qismdan iborat bo'lgan.

Islom dini tarqalishidan oldin Quvada budda ibodatxonasi bo'lgan. Ibadatxona VIII asr boshlarida arablar tomonidan vayron qilingan. IX-XII asrlar davomida Quva yirik, ko'rkam va ahod shaharga aylangan. Mo'g'ullar istilosi davrida shahar yor bilan yakson qilingan. Mahmud Kushg'uriyning "Devonu lug'otit turk" asariga ilova qilingan xaritada shahar ko'rsatilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur shaharda bo'lgan. "Boburnoma" da Quvasoyini - Qubo suyi nomi bilan tilga olgan.

Akademik A.Muhammadjonovning fikricha, shahar nomi "Qariybod", "Qavobod", yoki "Qaybod" shaklida talaffuz qilingan va qaviylarning qarorgohi, tojkor hukmdorning kaysimiy taxti o'rnatilgan qasr va mamlakatning bosh shahri - poytaxt ma'nosini anglatgan. Keyinchalik nomi o'zgarib Quva shaklida talaffuz qilingan.

Ba'zi mutaxassislar, o'zbeklarning qipchoq va qo'ng'iroq qabilalari hamda qirg'izlarning cherik qabilasi tarkibida quba (quva) urug'i borligiga ishora qilib, shahar nomiga etnonim asos bo'lgan deyishadi. Masalan, azarbojjonlik A.Guseynzade Ozarbojjonidagi Quba, Qubali, Qubaderesi, Turkmanistondagi Qubudog', O'zbekistondagi Quva kabi toponimlar quba etnonimidan nom olgan deb yozgan. Xulosa qilib aytganda, shahar nomining turlicha izohlari mavjud, ammo ularning barchasi ilmiy etimologik tahlilga muhtej desak to'g'ri bo'ladi.

**Farg'ona nomining etimologiyasi haqida.** Farg'ona juda qadimiy nomlardan biri. V.V.Bartold ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi Farg'ona shahrining qurilishi 1877 yili boshlangan. Shahar 1907 yilgacha Yangi Marg'ilon (mahalliy xalq orasida Sim) deb atalgan. 1907-1924 yillarda podsho Rossiyasining O'rta Osiyoni bosib olishda va keyingi yillarda ko'plab qirg'inbarotlar uyushirgan generali M.D.Skoblev sharafiga shaharga Skoblevo (mahalliy aholi talaffuzida Iskobil) nomi berilgan.

1924 yili shaharga juda qadimiy tarixga ega bo'lgan Farg'ona nomi berilgan. Taniqli nomshunos olim H.Hasanov Farg'ona so'zining etimologiyasiga oid o'ndan ortiq talqinni keltirgan va ularning bironasini ham qat'iy izoh deb hisoblamagan. Mutaxassislar ular orasidan qadimiy so'g'd tiliga tegishli bo'lgan parkona - "har tarafi tog', bir yog'igina ochiq bo'lgan vodi'", "atrofi berk vodi'" so'zini haqiqatga yaqin deb hisoblashadi. Bu talqin vodiyning geografik o'rnini aniq belgilashi bilan ham diqqatga sazovor.

Tarixchi A.Xodjayev milodiy VI asrgacha yozilgan xitoy manbalaridagi ma'lumotlarni chuqur o'rganib qadimiy Farg'ona mamlakati bilan uning ilk poytaxtining nomi bir xil bo'lganligi va ular xitoycha atrofi tog'lar bilan o'ralgan tekislik ma'nosini bildiruvchi bitta Yuan iyeroglifi bilan ifodalanganligini aniqlagan. Olimning yozishicha, chakshiliklarning oldini olish maqsadida qadimiy xitoy tarixchilari mamlakat nomiga day - "buyuk, katta" so'zini qo'shish orkali uni Dayyuan - Buyuk Farg'ona yoki Katta Parkona deb atashgan.

Qadimgi xitoy tarixiy manbalarini o'rgangan rus olimi N.Ya.Bichurin Dayyuan toponimini ruscha transkripsiyada "Davan" shaklida yozgan va uni Farg'ona ekanligini yaxshi bilgan. Rus olimi o'z tarjimalarida Davan so'zini Farg'ona vodiysining qadimiy xitoy manbalaridagi nomi sifatida qo'llagan bo'lsa ham, ammo uning ma'nosi va kelib chiqishi haqida ma'lumot bermagan. Dayyuan toponimining paydo bo'lishi va etimologiyasi keyincha Yevropa olimlarini ham qiziqitirgan. XVIII asrda yashagan fransuz olimi M.Degin birinchi bo'lib uning Farg'ona nomi bilan bog'liqligini aniqlagan.

O'zbek olimi A.Xodjayevning yozishicha, Dayyuan toponimini birinchi bo'lib Xan sulolasining elchisi Chjan Chyaning hisobotnomasi orqali xitoy manbalarida paydo bo'lgan. Faqat milodiy VII - asrdan keyin yozilgan xitoy manbalarida Farg'ona nomi Faxanna shaklida tilga olingan. Mutaxassislar Faxanna - Farg'ona toponimining xitoycha transkripsiyasi ekanligini aniqlashgan. Demak, milodiy VII - asrdan keyin qadimiy Parkona nomi Farg'onaga aylangan.

A.Xodjayev mantiqiy tahlil asosida Dayyuan toponimi, aslida Parkona so'zining xitoycha tarjimasini ekanligini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Olim fikrining isboti uchun quyidagi ma'lumotlarni dalil sifatida bayon qilgan:

- birinchidan, qadimgi xitoyda "yuan" iyeroglifi ko'pincha atrofi balandlik yoki tog'lar bilan o'ralgan, relief shakli kosasimon hududga nisbatan qo'llanilgan. Farg'ona vodiysi aynan shunday relefiga ega ekanligi, bu fikrni tasdiqlaydi. O'sha davrda Xitoydan kelgan sayyohlar ham Farg'ona vodiysining geografik o'rniga alohida e'tibor berishgan. Masalan, 629-646 yillari O'rta Osiyo orqali Hindistonga borgan xitoy budda rohibi Shyuan Zang kundaligida Farg'onani to'rt tomoni tog'lar bilan o'ralgan deb yozgan.

- ikkinchidan, atoqli geograf olim S.Qorayev - V.A.Livshits va M.Ixakov tadqiqotlariga ishora qilib, Parkona toponimi par - "aylanma shaklidagi balandlik", kan - "joy" ma'nosi borligi va hozirgi Farg'ona nomi ana shu ikki so'zdan tashkil topganligini aytgan. Rus geograf olimi E.Murzayevning yozishicha, "pargona"

so'zi pomir tillarida hozir ham atrofi balandliklar bilan o'ralgan tekislik joy ma'nosini anglatadi. Ma'lumki, ayrim shevalarda "f" bilan "p" tovushi almashtirib talaffuz qilinadi. Masalan, Farg'onani Parg'ona shaklida talaffuz qilish tez-tez uchraydi.

Xitoy olimi Shyuy Shyuyyaning yozishicha, sharqiy eroniy tillarda Pargona so'zi - "atrofi tog'lar bilan o'ralgan va faqat bir tomoni ochiq bo'lgan joy" ma'nosida qo'llanilgan. Arablar kelganidan keyin ularning tili xususiyatlariga ko'ra "p" tovushi "f"ga o'zgarib, Pargona nomi Farg'ona deb talaffuz qilingan.

A.Xo'jayevning yozishicha, xitoylarning yana bir e'tiborga molik odati - bu qadimdan o'zgarar yurtidagi nomlarni xitoychaga tarjima qilib olganlar. Miloddan avvalgi 128-127-yillarda Farg'onaga kelgan xitoy elchisi Chjang Chyan vodi' nomi bo'lgan Pargona so'zini tarjima qilib, kundaligiga uning xitoycha sinonimi Yuan so'zini vodi' nomi sifatida yozib qoldirgan. Hozirgi xitoy tilida ushbu iyeroglif ro'zg'or buyumi bo'lgan kosa ma'nosini ifodalaydi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan quyidagi xulosa kelib chiqadi, xitoycha "Yuan" atamasi mahalliy xalq qo'llab kelgan Parkona toponimining xitoycha tarjimasini hisoblanadi. Demak, qadimi zamonda geografik joylashuviga ko'ra, atrofi tog'lar bilan o'ralgan, o'rta sathi tekis va nisbatan pastroq vodiyni mahalliy xalq "parkona" deyishgan.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida Farg'ona vodiysining geografik o'rnini juda aniqlik bilan tasvirlagan: "Girda girdi tog' voqe' bo'lubtur. G'arbiy tarafidakim... tog' yo'qur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'i kela olmas."

**Namangan viloyati toponimiyasi.** Viloyat hududining asosiy qismi Sirdaryoning o'ng sohilid, keng Farg'ona vodiysida joylashgan, shimolda Chatqol hamda Qurama tog'lari bilan o'ralgan. S.Qorayevning yozishicha, Namangan viloyati toponimiyasining lehki xususiyatlaridan biri shuki, joy nomlari tarkibida qo'rg'on va qo'rg'oncha so'zlari ko'p uchraydi. Olimning ta'kidlashicha, yer sathidan ko'tarilgan joyda tevaragi devor bilan o'rab olingan, darvozali qal'a, istehkomni qo'rg'on deyishgan.

Ta'kidlash joizki, qo'rg'on qurish xalqimizning o'troq hayotga ko'chish ma'naviyati va shaharsozlik qadriyatlari bilan bog'liq. Dastlab atrofi devor bilan o'ralgan aylana, to'rtburchak tarzidagi imorat qo'rg'on deyilgan. So'ngra devorini baland, qalin, mustahkam va mahobatli, bir darvozali qilib qurishgan. Viloyat hududida takroriy nomlarni hisobga olmaganda qo'rg'on nomi 20 ta o'ynom tarkibida uchraydi. Toshqo'rg'on, Uchqo'rg'on, Xo'jaqo'rg'on, To'raqo'rg'on va boshqalar. Qo'rg'oncha - katta qishloq kengayib undan ajralib chiqqan kichikroq qishloqni qo'rg'oncha deyishgan.

Namangan viloyati toponimiyasi tarkibida hududga xos va joy nomlari yasashga "ixtisoslashgan" indikator terminlar ko'p. Ana shunday darakchi - indikator terminlardan biri "obod". "Obod" - termini ba'zi otlarga yoki ayrim sifatlarga qo'shilib, ba'zan mustaqil holda joy nomi yasaydigan, «obodonlashtirilgan», «ozlashtirilgan», go'zal, chiroyli, tartibga solingan ma'nosidagi affiks so'z. Obod - asli ob - «suv» so'zidan kelib chiqqan degan fikr mavjud. Zafarobod, Sohilobod, Xo'jaobod, Yangiobod, Fayzobod va boshqalar. Zafarobod - g'alabalar, yutuqlar, muvaffaqiyatlar evaziga obod etilgan maskan, joy demakdir.

Viloyat uykunimlari tarkibida huloq, ariq, soy, ko'prik, ravot, mazor, masjid, bog', bo'ston, kapa, chek, tepa kabi terminlar ham uchraydi. Viloyat hududidagi relef shakllarini aks etuvchi Ungartepa, Isiriqsoy, Qarovultepa, Betagalik kabi oronimlar izohsiz ham tushunarli bo'lsa kerak. Hozirgi jonli tilda Qamchiq dovoni deb yuritilayotgan oronimik obyekt, respublika miqyosida alohida ahamiyatga ega. Mutaxassislar dovon nomiga kamtik, kentik so'zi asos bo'lgan deb hisoblaydilar.

Viloyat toponimiyasi tarkibida oronimlarga nishatan gidronimlar soni ko'proq. Ko'pchilik suv obyektlarning nomlari izohga muhtoj emas, ularni hozirgi o'zbek tili yordamida tushunsa bo'ladi. Ammo, gidronimlar orasida alohida e'tiborni talab qiladigan nomlar ham bor. Arashon gidronimi ana shunday diqqatga sazovor nomlar sirasiga kiradi. Arashon so'zini P.G'ulomov «issiq suvli mineral huloq, Hozir asosan geografik nomlar tarkibida saqlanib qolgan» deb ta'riflagan.

Mutaxassislar, arashan, arshan, arason shaklida uchraydigan bu terminning geografiyasi ancha kengligini aniqlashgan. O'rta Osiyodan Uzoq Sharqqacha, Sharqiy Sibirdan Tibetgacha bo'lgan katta hududda tarqalgan. Sanskrit tilida - "ohi hayot", "xudolar ozig'i" ma'nosini anglatadigan bu termin ko'pincha shifohaxsh, issiq mineral suylarga ega buloqlar ma'nosini anglatgan.

Viloyat toponimlari orasida etnotoponimlarning kamligi ham viloyat toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Hisob-kitoblarga ko'ra, viloyat hududida 650 dan ko'proq o'ynomlar mavjud, ulardan faqat kirg' beshtasi etnoo'ynomlar hisoblanadi. Demak, viloyatdagi jami o'ynomlarning taxminan sakkiz foizini tashkil qiladi. Bu respublika viloyatlari orasida eng past ko'rsatgich hisoblanadi. Viloyat toponimiyasi tarkibidagi Qo'g'ay, Qoramurut, Qayqi, Yettiqashqa, Qurama, Nayman, Dumar kabi nomlar etnotoponimlarga yaqqol misol bo'ladi.

Viloyatda qadimiy substrat nomlar ham uchraydi, ularning asosiy qismini sug'd tiliga tegishli nomlar tashkil qiladi. Ana shunday qadimiy nomlarning biri Nanay. Suyun Qorayevning yozishicha, nanay juda qadimiy so'z. Mesopotamiyada ilohni nomi Nanay (Nanayya, Nani) bo'lgan deyishadi. Keyinchalik O'rta Osiyo zardushtiylari uni unumdorlik xudosi deb tan olganlar. Ko'g'da Nanidat degan ism ham bo'lgan. Toshkent viloyatidagi Nanay qishlog'ining nomi ham xuddi shunday ma'noga ega.

Chust qadimiy nomlardan biri, shahar o'rta asrlarda harbiy qal'a sifatida rivojlandi. Boburning otasi Umarshayx Mirzo 1480 yilda Chustni o'z qarorgohiga aylantirgan. XVI asr boshida Chust bir necha qo'rg'onlardan bo'lib, ular umumiy devor bilan o'ralgan. Chust shahar nomi sifatida paydo bo'lgan, keyincha tumanga ham berilgan, nom ko'chish hodisasi yuz bergan.

Shahar nomining kelib chiqishi to'g'risida mutaxassislar turlicha fikrlar bayon qilishgan. Tarixiy manbalardan shahar qadimidan Chust va Tus nomlari bilan ma'lum bo'lganligi aniqlangan. Ko'pchilik izohlar mahalliy xalq orasidagi rivoyat, afsona va taxminlarga asoslangan xalqona talqinlardir. Mahalliy toponimist olimlarning fikricha, chust so'zi fors-tojik tilida "tez", "tezkor" ma'nosini bildiradi. S.Qorayev chust so'zini qandaydir

termin ho'lishi kerak deb hisoblaydi. Nomning asl ma'nosi aniq emas, u qo'shimcha etimologik tadqiqotlarni talab qiladi.

Chust shahri qadimdan Farg'ona vodiysining hunarmandchilik markazlaridan biri bo'lgan. Chustlik temirchilar, to'quvchilar, kulollar, zargarlarning mahorati shuhrat qozongan, xususan, chust pichoqlari va do'ppilarining dongi keng tarqalgan. Chust shahridagi Kulolon, Zargaron, Toqado'zon, Bofanda, Pichoqchi kabi mahalla va g'uzar nomlari mahalliy xalqning kasb-hunari bilan bog'liq holda paydo bo'lgan.

Umuman olganda, viloyat toponimiyasi ancha murakkab toponimik landshaftga ega. Viloyat toponimiyasi haqida toponimik adabiyotlarda, tarixiy manbalarda, arxiv hujjatlarida ko'plab ma'lumotlar topish mumkin. Shuning uchun, hozirgacha etimologiyasi noma'lum bo'lgan geografik nomlarning o'rganish va ilmiy asosda tadqiq qilish yaqin kelajak ishidir.

**Namangan toponimi haqida.** Namangan - O'zbekiston tarkibidagi viloyat, shahar va tuman nomi. Namangan aholi soni bo'yicha Farg'ona vodiysida eng yirik shahar hisoblanadi. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasida "Farg'ona vodiysining qadimiy poytaxti Axsikat (Axsikent) 1620 yildagi qattiq zilzila natijasida vayron bo'lganligi sababli, uning aholisi hozirgi Namangan shahri hududiga ko'chib o'tgan. Namangan tuz kuni ("nanak kon") yaqinida vujudga kelgan bo'lib, shahar nomi o'rta asrlarga oid tarixiy hujjatlarda birinchi marta tilga olinadi", deb yozilgan.

Taniqli toponimist olim H.Hasanov Namangan nomiga izoh berib shunday yozgan: "Bu nom dastlab "Boburnoma"da tilga olingan bo'lsa kerak. Unga bir qancha izoh berilmoqda: Namakkon - "tuz koni"; Nomiyyan - "aziz va nomdor kishilar shahri"; Namang - "marjon", shundan Namangan - "marjon koni". Biz - gon formatini "suv, daryo" deb taxmin qilganimiz tufayli bu nomda ham Namakgon - "sho'rsuv", "mineral suv", "mo'yl suv" (ehtimol neft) deb izohlab ko'rmoqchimiz. Naman asosi biron etnonimga (nayan?) bog'liq bo'lib chiqishi ham ehtimol".

Nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, nomga birinchi marta "Boburnoma"da ta'rif berilgan. Olim nomni quyidagi

"nav+man+gon" so'zlar birikmasidan paydo bo'lgan deydi. Nav - "yangi", man - "saroy", gon - "suv yoki soy" demakdir. S.Qorayev ta'rifida nom ilgari Navmangon deb talaffuz qilingan va "suv (soy) bo'yidagi yangi saroy" ma'nosini anglatadi. Mahalliy aholi tomonidan shahar nomi Nomongon shaklida talaffuz qilinadi. Namangan nomining etimologiyasi haqida turli izohlar mavjud, ammo mutaxassislar orasida mushtarak xulosa yo'q. Shuning uchun, nom qo'shimcha etimologik tadqiqotlarni talab qiladi.

**Andijon viloyati toponimiyasi.** Viloyat Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan, hududi asosan tekisliklar hamda qisman Farg'ona va Olay tizmalarining adirliklaridan iborat. Andijon viloyati toponimlari O'zbekiston toponimiyasining tarkibiy qismi bo'lib, shakllanishi, grammatik tuzilishi, ma'no-mazmuni jihatdan boshqa viloyatlardan keskin farq qilmaydi.

Viloyat da o'simlik va hayvonot turlari bilan atalgan geografik obyektlar bor, ammo ularning soni ko'p emas. Viloyat toponimlari orasida kishilarning ismi, laqabi, taxallusi bilan ataladigan nomlar ham uchraydi. Zulfiqor, Sultonmurodhek, O'rmonbek kabi nomlar antropotoponimlarga misol bo'ladi. Jig'achi, Chang'aroqchi kabi oykonimlarga kishilarning kasb-hunari asos bo'lgan deyishadi.

Jig'achi - jig'a yasovchi ustalar yashaydigan qishloq. Sullaga taqiladigan bezakni jig'a deyishgan va uni hunarmandlar xon va suzodalar uchun yasashgan. Jig'a yasash hunarmandlardan katta mahorat va mas'uliyat talab qilgan. Uning tuzilishini professor S.Ibrohimov quyidagicha ta'riflaydi: jig'a bir-biriga yopishtirilgan, ikki palla yupqa kumushdan iborat bo'lgan, ustiga bosma naqshlar ishlangan, tilla suvi yuritilgan, marvarid, feruza kabi asl toshlar qadalgan, ustiga ukki pari qistirilgan, ichiga mum to'ldirilgan bezak.

Viloyatda geografik nomlar hosil qilishda faol qatnashgan terminlar qatoriga tepa (Jartepa, Tosh-tepa), qu'rg'un (Qo'ng'or'g'on, Qoziqo'rg'on), qo'rg'oncha (Qo'rg'oncha, Eski Qo'rg'oncha), jar (Jarboshi, Jartepa), yor (Kuyganyor, Oqyor, Yortqishloq), kabi qo'shimchalarni kiritish mumkin. O'timishda joy nomlari hosil qilishda "yor" uncha sermahsul qo'shimcha hisoblangan va uning yordamida ko'plab joy nomlari hosil

qilingan. Mahmud Koshg'ariy "Devoni lug'atit turk" asarida (XI asr) qadimiy turkiy tillarda jar so'zi - "yar", "yor" shaklida talaffuz qilingan deb yozgan.

Andijon viloyati toponimlari tarkibida darakchi-indikator terminlardan chek - ("bo'lib berilgan xususiy yer maydoni") termini ko'plab joy nomlari hosil qilgan. Buning asosiy sababi, XIX asrning o'rtalarida Qo'qon xoni Xudoyorxon hozirgi Baliqchi tumani hududida Qoradaryodan ariq chiqarib yangi yerlarni o'zlashtirgan va ularni farzandlari, yaqin qarindoshlari, amaldorlariga chek qilib bo'lib bergan. Sheralichek, Oflobachichek, Mallachek, Mirzaboshichek kabi nomlar ana shu davrda paydo bo'lgan.

Andijon viloyati toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, mintaqada leksik, semantik jihatdan sof forsiy nomlar kam uchraydi. S.Qorayevning yozishicha, Bo'ston, Guliston, Navro'zobod, Sahibkor, Chorvador kabi nomlar genetik jihatdan forsiy tillar mahsuli bo'lsa ham, yasaliishi jihatdan sof o'zbekcha toponimlardir. Bunday nomlar o'zbek tilining leksik foididan allaqachon joy olib bo'lgan leksik birliklardan yasalgan.

Mintaqada aholi zich joylashganligi sababli boshqa toponimlar turlariga qaraganda oykonimlar yetakchilik qiladi. Ularning bir qismini urug'-qabila nomlari bilan atalgan etnooykonimlar tashkil qiladi. O'zbek urug'-qabila nomlari bilan birga, qo'shni turkiy xalqlarning etnik guruh nomlari ham etnooykonimlar tarkibida uchraydi. Viloyat hududida toponimlar shaklida uchraydigan etnonimlarga Arg'in, Bahrin, Do'rmon, Yovkesak, Marqayuz, Nayman, Oqtumor, Sulduz, Qo'g'ay kabi etnik guruh nomlari misol bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, sho'rolar davrida viloyat toponimlari tarkibida o'sha davr mafkurasi va dohilari nomi bilan atalgan geografik obyektlar juda ko'p bo'lgan. Istiqloq yillarida viloyatda amalga oshirilgan mustaqil toponimik siyosat natijasida, barcha sho'bo hokimiyati mafkurasi bilan bog'liq "qizil" nomlar o'zgartirildi.

O'zbekiston avtomobilsozlari "poytaxti" bo'lgan hozirgi Asaka shahri, 1937-1991 yillari V.I.Lenin sharafiga Leninsk deb

atalgan. 1991 yili shaharning tarixiy Asaka nomi qayta tiklandi. Asaka juda qadimiy nom, uning etimologiyasi haqida ko'plab mutaxassislar fikr-mulohazalarini bildirishgan. Mutaxassislar Asaka nomining kelib chiqishini turlicha talqin qilishgan. Ayrim tadqiqotchilar asaka nomining paydo bo'lishini O'rta Osiyoda miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan sak qabilalari nomi bilan bog'lashadi. Chunki bu qabila ba'zi tarixiy manbalarda "assakenlar" nomi bilan ham tilga olingan. Ularda "asvaka" - ot, "assaka" - otliqlar ma'nosini bildirgan. Qadimshunoslar vodiyning sharqiy qismida topilgan toshlardagi otlar tasviri bilan o'z fikrlarni asoslashga harakat qilishgan va shu hududda qadimda nasldor otlar bo'lgan degan xulosaga kelganlar.

Rus tarixchisi B.A.Litvinskiy Asaka tarixini Farg'onada miloddan avvalgi VI-V asrlarda yashagan sak qabilalar bilan bog'laydi. Taniqli olim qadimgi yunon va hind manbalariga asoslanib, o'tmishda Pomirda yashovchi sak qabilalarining yurti Assakana, xalqi esa assake(n)lar deb atalganligi, A.Makedonskiy O'rta Osiyodan keyin, ana shu yo'l orqali Hindistonga o'tganligini ta'kidlaydi.

Arxeolog olim B.X.Matboboyev esa Asaka tarixini Dayyuan (qadimgi Farg'ona) davlati tarixi bilan bog'liq deb hisoblaydi. Uning talqinicha, Asaka so'zi jonli hind tilida "asvaka" ot, "asvaga, assaka" otliqlar, chavandozlar degani, ya'ni assaka - otliqlar yurti deb e'tirof etadi. Shu xulosaga asoslanib, 1997 yili Asaka shahriga kiraverishdagi maydonda tulpor otning ramziy haykali qo'yilgan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, ba'zi nasabnomalarda o'zbek urug'lari orasida asaka va qirg'izlarning sayaq qabilasi tarkibida asake urug'i qayd qilingan. Ollinko'l tumanidagi Asakalik qishlog'i va Ustyurt platosining janubidagi Asakaovdon botig'ining nomi ham shu etnik guruh nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Tarixchi akademik A.Muhammadjonov fikricha, Asaka aslida Asikal shaklida talaffuz etilib, as - turkiy urug', kal - suv yoki soy demakdir.

Ammo bir qator olimlar borki, ular Asaka nomi va uning tarixini ilk o'rta asrlar bilan bog'laydi. Masalan, professor



A. Teshaboyev Asaka so'zini u'zga cha talqin qilgan. Olim qadimgi turkiy tilda "ass" burgut, lechin degan ma'nolarni anglatgan va o'tmishda turk urug'lari ichida "ass" - burgut (lotemi) urug'i ham bo'lganligi to'g'risida ayrim tarixiy manhalarda ma'lumotlar bor deydi.

Shu o'rinda B. Ahmedovning Asaka nomini "ass" urug'i bilan bog'liq degan xulosasini ham aytish mumkin. Olimning fikricha, huzingi Asaka va uning atrofidagi adir va vodiylarda ilk o'rta asrlarda "ass" etnik guruh vakillari yashaganlar. Bu mulohazani tarixchi A. Muhammadjonov ham tasdiqlaydi va uning fikricha, Asaka aslida Assikal shaklida talaffuz etilib, ass - turkiy urug', kal - suv yoki soy demakdir.

**Andijon toponimi haqida.** O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat, shahar va tuman nomi. Andijon nomining kelib chiqishi haqida turli xil rivoyat va afsonalar mavjud. Ayrim mutaxassislar shahar nomi malika Andukon ismidan olingan yoki "uzudagon" va "mardon" so'zidan ("ozodlar shahri", "mardlar shahri") husul bo'lgan deb izohlaganlar.

H. Hasanovning yuzishicha, bu so'zlar shahar nomi emas, balki laqab, maqtov so'zidir. Taniqli toponimist olimning yozishicha, shahar nomini boshqacha izohlasa ham bo'ladi, andi - qabila nomi, hatto andijonliklarni osongina "andi" deb ataganlar, jon qo'shimchasi ehtimol suv, daryo ma'nosidagi qadimiy terminlardan bo'lsa kerak. Rus geograf ulimi V.P. Nalivkin xalq orasidagi rivoyatlarga asoslanib, shahar nomi "andi" degan turkiy qabila nomi bilan bog'liq deb yozgan edi.

X asrdan boshlab shahar nomi arab geograflari Ibn Havqal, Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida va boshqa tarixiy manhalarda Andiyun, Andigun, Andikon, Andukon shakllarida qayd qilingan. Tarixchi olim S. Jalilov fikriga ko'ra, shahar nomiga "ad" degan turkiy qabilaning nomi asos bo'lgan. Bu etnonim forscha ko'plik qo'shimchasida adgon - adigun shaklida talaffuz qilingan va keyinchalik unga "n" tovushi qo'shilgan deb hisoblaydi. O'rta asrlarda andi degan turkiy qabila bo'lganligini e'tirof etib, etnograf B. Karmishova ham shahar nomiga muzkur etnonim asos bo'lganligini ehtimoldan xali emas degan xulosani bayon qilgan.

Ayrim mutaxassislar shahar nomini uning geografik o'rni bilan bog'liq deyishadi. Masalan, akademik A. Muhammadjonov fikricha, Andijon oykonimi "andi" va "gon yoki gin" so'zlari birlikmasidan paydo bo'lgan. Qadimiy so'g'd tilida andi - "yuqin", gon, gin - "suv", ya'ni suvga yaqin, soybo'yi, suv yoqavi ma'nolarini anglatgan. Boshqa olim V.V. Radlovning yuzishicha, qadimiy turkiy arg'i - "daryo tarmog'i, urol" so'zi fonetik o'zgarishlar oqibatida andi shakliga o'zgaragan bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, soha mutaxassislari Andijon nomining paydo bo'lishini turlicha talqin qilishgan, bu esa shahar nomining ilmiy etimologiyasini aniqlash uchun qo'shimcha toponimik tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

#### *U Savol va topshiriqlar:*

1. *Farg'ona viloyatidagi substrat toponimlar haqida referat tayyorlang.*

2. *Namangan viloyati toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari haqida ma'bimot bering.*

3. *Andijon viloyatida toponimlar hosil qilishda faol qatnashgan terminlarni izohlang.*

#### *Q Test topshiriqlari:*

1. *"Farg'ona viloyati toponimlari" kitobi muallifi kim?*

A. H. Hasanov

B. Yu. Ahmadaliyev

C. N. Oxunov

D. M. Mirakmalov

2. *Chek so'zi qanday ma'noga ega?*

A. *bir tanobni uchdan bir qismi*

B. *xon yerlaridan olinadigan ulush*

C. *xonning o'g'li, bek va boshqa amaldorlarning chek yeri (cheki xos)*

D. *barcha javoblar to'g'ri*

3. Namangan viloyati hududida takroriy nomlarni hisobga olmiganda ... so'zl kamida 20 ta oykonim tarkibida uchraydi. To'g'ri javobni nuqtalar o'rniga qo'ying va belgilang.

- A. chek
- B. yozi
- C. qo'rg'on
- D. qal'a

4. Andijon viloyatida boshqa toponimlar turlariga qaraganda ... yatakchilik qiladi. To'g'ri javobni nuqtalar o'rniga qo'ying va belgilang.

- A. gidronimlar
- B. oykonimlar
- C. oronimlar
- D. antroponimlar

5. Andijon viloyati toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, mintaqada leksik, semantik jihatdan sof ... nomlar kam uchraydi.

- A. uyg'urcha
- B. sug'diy
- C. turkiy
- D. forsiy

#### 4.5. QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI TOPONIMIYASI

○ Reja:

1. Qashqadaryo viloyati toponimiyasiga qisqacha ta'rif
2. Surxondaryo viloyati toponimiyasining umumiy tavsifi
3. Qashqadaryo va Surxondaryo gidronimlari haqida

○ Mavzuning maqsadi: Janubiy O'zbekiston (Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari) toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot berishdan iborat.

○ Tayanch ibora va atamalar: qashqa, sirt, surxob, topaformant, indikator termin, oykonim, etnooykonim.

O'zbekiston viloyatlari toponimiyasi orasida Qashqadaryo joy nomlari nisbatan mukammal o'rganilgan. Bu ishda qashqadaryolik taniqli nomshunos olim To'ra Nafasovning xizmatlari beqiyos. Olim butun umrini janubiy O'zbekiston, jumladan Qashqadaryo viloyati toponimlarini o'rganishga bag'ishlagan. Viloyat Qashqadaryo havzasida va Pomir-Oloy tog'larining g'arbiy chekkasida joylashgan. Relefining katta qismini tekislik va cho'li-biyobonlar tashkil qiladi. Shimoli-sharq va janubi-sharqdan Zarafshon tizmasining (Qoratepa, Chaqalikalon) tarmoqlari hamda Hisor tizmasining (Yakkabog', Chaqchar, Ko'khuloq, Qorasirt, Dehqonobod) tarmoqlari o'rab turadi.

Viloyat hududidagi relefnig turli shakllari nomlar sonini ham ko'payishiga xizmat qilgan. Viloyat oronimlari tarkibida tov - (Kakliktov, Qo'ng'irtov), tog' - (Qo'rg'ontog', Qoratog'), tosh - (Ugurtosh, Tuyatosh), gaza - (Qizilgaza, So'rigaza), kam - (Egarkam, Darvozakam), bel - (O'rtabel, Muzbel), sirt - (Qorasirt, Ko'ksirt), chag'at - (Qizilchag'at, Qorachag'at), qo'l - (Uchqo'lsoy, Oqqo'ltoy), qir - (Qoraqir) kahi indikator - darakchi oronimik terminlar uchraydi.

S.Qorayevning yozishicha, viloyat oronimlari takibida qoq termini ham indikator vazifasini bajaradi. Geografik adabiyotlarda ko'pincha cho'l hududida yog'undan keyin to'planib qolgan

ko'lmaklarni "qoq" deb ta'riflangan. Tog'larda ham qoya bo'shliqlarida, o'yiqlarida qor-yomg'ir suvlari to'lib qoladigan chuqurlik qoq (tosh qoq) deyilgan. Ayrim tog'lardagi chuqurroq qoqlarning suvi yozning chillasigacha turishi mumkin.

Viloyat oronimlari orasida majoziy ma'noda qo'llanilgan nomlar ham topiladi. Masalan, Ichaksoy jarligi, Jahonnaamo tog'i, Yetimtov, Belisiniq tog'i, Xarkush dovoni ana shunday nomlar sirasiga kiradi. Geograf olim A.Mamatovning yozishicha, Dehqonobod past tog'larining shimoli-g'arbiy qismi Xontaxti nomi bilan ataladi. Uning bunday nomlanishiga tog'ning g'arbiy yonhaurida surilma va karst jarayonlari natijasida hosil bo'lgan supasimon relief shakli sabab bo'lgan. Olimning yozishicha, tabiiy-geografik jarayonlar mahsuli bo'lgan supa hukmdorlar taxtiga bir oz o'xshaydi.

Oronimlar tarkibida etimologiyasi aniq bo'lmagan, qo'shimcha toponimik tadqiqotlarni talab qiladigan, sinchiklab o'rganilishi lozim bo'lgan nomlar uchraydi. Ana shunday morfema tarkibi va tuzilishi murakkab bo'lgan oronimlardan biri Taxtaqoracha dovoni nomidir. Dovon Samarqand va Shahrisabz shaharlari oralig'ida joylashgan va ko'plab tarixiy voqea-hodisalarni guvohi bo'lgan. Rus olimi V.V.Bartoldning yozishicha, dovon Amir Temurning 1398 yilda qurilgan Taxtaqoracha degan saroy nomi bilan atalgan.

Qashqadaryo toponimlarini chuqur o'rgangan I.Nafasovning ta'limicha, dovon nomining ilk shakli su'g'dcha - Taxtig'ara, uning o'zgaragan shakli Taxtaqora, -cha qo'shimchasi kichiklikni bildiradi. Sug'dcha g'ar - tog', nom oxiridagi -cha unsurining qadimiy shakli zoy - yer, kichik maydon. Tatig'ara - Taxtaqoracha - ust qismida kichik tekis maydon bo'lgan dovon nomi. Huzirgacha dovon nomining etimologiyasi haqida mutaxassislar orasida yagona xulosa yo'q. Bunday nomlarni sinchiklab o'rganish, ilmiy etimologiyasini aniqlash soha mutaxassislari oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Viloyatda o'simlik va hayvonlar nomlari ham toponim hosil qilgan. Fito va zootoponimlarning ko'pchiligi turli topoformlar birikishi natijasida paydo bo'lgan. Viloyatning tog'li hududlarida Zirkbuloq, Andizli, Yong'oqli, Zarangli, tekislik va cho'l qismida

Burganli, Qamishoq, Jingilli, Qo'g'ali kabi fitotoponimlar uchraydi. Hayvon nomlari bilan atalgan geografik obyektlarga: Do'ltali tog'i, Zag'chaxona tizmasi, Chivirkali tog'i, Eshakmaydon dovoni kabi nomlar misol bo'ladi.

Gidronimlar tarkibida qashqa, daryo, soy, buloq, quduq, sho'r, shirin, suv kabi gidronimik indikatorlar ko'p takrorlanadi. Qashqabuloq, Achchisuv, Shirinquduq, Sho'rsuv, Qizilbuloq, G'uzordaryo kabi nomlar misol bo'ladi. Ayrim suv obyektlari (Arabband, Mirishkor, Po'loti, Chimboy va boshqalar) urug'-qabila nomlari bilan atalgan. Viloyat gidronimlari orasida majoziy nomlar ham bor: Jinnidaryo, Yo'tansoy, Timasoy, Jahannamariq.

Viloyatda bir ming ikki yuzga yaqin oykonimlar bor. Ular orasida urug'-qabila nomlari asosida shakllangan etnooykonimlar katta o'rin tutadi. Shuning uchun, respublikaning boshqa hududlariga qaraganda Qashqadaryo viloyati toponimiyasi tarkibida o'zbeklarning ko'pchilik urug'-aymoqlarining nomlari saqlanib qolgan. Nomshunos olim To'ra Nafasov viloyatdagi etnik birliklarning nomi va semantikasini lisoniy qiyosiy jihatdan batafsil tadqiq qilgan.

Olim viloyatdagi tarkibida -li qo'shimchasi bo'lgan bir qancha qadimiy qishloq nomlarini (Bolg'ali, Qaychili, Avoqli, Qanjig'ali, O'roqli va boshqalar) tahlil qilib, ularning paydo bo'lishida tamg'alar bosh omil, sabab bo'lganligini aniqlagan. Umuman olganda, etnomadaniy jarayonlarni aks ettiruvchi qishloq nomlari xalqning ko'chishi, milliy va etnik tarkibi kabi etnik, sotsial va ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettiradi.

**Qashqadaryo gidronimi haqida.** Viloyat hududi, asosan, Qashqadaryo botig'ini o'z ichiga oladi, shimol, sharq va janubi-sharqdan Zarafshon hamda Hisor tog'lari bilan o'ralgan. Qashqadaryo - ilk bor daryo nomi sifatida paydo bo'lgan va gidronimining kelib chiqishini mutaxassislar turlicha izohlaydilar.

Qashqadaryolik taniqli nomshunos olim To'ra Nafasovning yozishicha, nom tuzilishiga ko'ra turkiy qashqa va tojikcha daryo so'zlaridan iborat. Barcha turkiy tillarda hayvonlar peshonasidagi belgi, nishona yoki kinoyal ma'noda hamma biladigan, dong'i chiqqan, taniqli, ma'lum va mashhur ma'nolarini anglatadi. Belgi

bildiruvchi qashqa so'zining areali ancha keng, bu so'zning qadimiyligini bildiradi. O'rta Osiyodan tashqari Ural, Sibir, Kavkaz, Volgabo'yi va boshqa hududlarning joy nomlari tarkibida qashqa so'zi uchraydi.

Qashqa so'zli nomlar O'zbekistonning barcha mintaqalarida uchratish mumkin. Ularning aksariyatini gidronim va oronimlar, ayrim hollarda oykonimlar tashkil qiladi. E'tiborli tomoni shuki, hududda suv va relef shakllarining nomlari birlamchi, aholi punktlari nomlari ikkilamchi hisoblanadi. Bu tur nomlar Qashqadaryo viloyatida ham ko'plab topiladi, Qashqaariq (Chiroqchi), Qashqabuloq (Shahrisabz), Qashqatepa (G'uzar), Qashqaqum (Dehqonobod) va boshqalar.

T.Nafasovning fikricha, qashqa yasalmasi qadimda qosh o'zagiga -qa qo'shimchasining qo'shilishidan yasalgan, -qa yasovchisi XI asrgacha ot yasovchi serunum grammatik qo'shimcha hisoblangan. S.Mutallibovning ta'kidlashicha, bu qo'shimcha XI asrdayoq iste'moldan chiqqan. O'zbek tilining o'tmishida bu yasovchi yordamida bir qancha so'zlar yasalganki, hozirgi vaqtda bu yasovchi qo'shimcha so'zlarning tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

loy nomlari tarkibidagi qashqa so'zi arxaiklashgan koshka so'zining tovush o'zgargan ko'rinishidir. Toponimlar tarkibidagi qashqa so'zini sifat, belgi bildiruvchi qashqa so'zining ma'no xususiyatlari bilan izohlash va unga nisbat berish xatodir. Toponimikada ma'nosi unitilgan, tilning hozirgi holati bilan izohlash qiyin bo'lgan so'zlarni, ularga o'xshash boshqa so'zlarga nisbat berib izohlash toponimik illyuziya deyiladi. Toponimik illyuziya - bu xalqona etimologiya va u ilmiy haqiqatdan yiroqdir.

Qashqadaryo gidronimi va qashqa komponentli toponimlarni etimologik jihatdan quyidagicha izohlash kerak deydi, nomshunos olim: Qashqadaryo - tog' daryosi, Qashqaariq - balandlik yonidan boshlangan ariq, Qashqatepa - baland tepa, yirik tepa, Qashqaqum - yonida qumlik bo'lgan tepa, Qashqabuloq - balandlik joyidagi buloq, Obiqashqa - baland joydagi buloq va hokazo.

Qashqadaryo nomining kelib chiqishini boshqa olimlar ham izohlagan. Masalan, rus olimi, akademik V.V.Bartold.

Qashqadaryo gidronimi qadimgi Kesh, hozirgi Shahrisabz nomining fonetik o'zgarishi natijasida paydo bo'lgan, deb yozgan edi. Olimning yozishicha, bu daryo avval Kesh (Kash), temuriylar davrida Xashqa (Xashqarud), keyinchalik Qashqarud, nihoyat Qashqadaryo shakliga o'zgargan.

**Surxondaryo viloyati toponimiyasi.** Surxondaryo viloyati hududi O'rta Osiyodagi qadimgi madaniyat markazlardan biri. Muallifi noma'lum "Hudud ul olam" asarida viloyat hududi Chag'oniyon nomi bilan tilga olingan. Bosh shahri ham Chag'oniyon (hozirgi Denov shahri yaqinida), arab manbalarida Sag'oniyon deb atalgan. Nomining etimologiyasi haqida bir necha takqinlar mavjud, ammo ular ishonarli emas. Binobarin, joy nomining haqiqiy ma'nosini aniqlash uchun qo'shimcha toponimik tadqiqotlar zarur bo'ladi. Denov (tojikecha, Dehinav - "deh - qishloq, nav - yangi") shahrining nomi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida ilk bor tilga olingan.

Viloyatdagi tarixiy shaharlar orasida Termiz nomi o'zining qadimiyligi va jumboqligi bilan alohida o'rin tutadi. So'nggi yillarda Termiz shahriga sayohatchilarning soni ko'paymoqda. Termiz shahrini ziyorat qilishni niyat qilgan sayyohlarga albatta, bu muazzam shahar nomi haqida gapirish kerak. Aytishadiki, tanishuv nomdan boshlanadi. Shahar nomining qachon paydo bo'lganligi, ma'no - mazmuni, qaysi tilga mansubligi haqida ko'plab izohlar mavjud bo'lsa ham, ammo nomning ilmiy etimologiyasi haligacha uzil-kesil hal qilinmagan.

Toponimist olim H.Hasanov, "Termiz - bu shaharning eng qadimgi mahalliy nomlaridan biri bo'lib, janub tomondagi xalqlar tomonidan aytilgan taromata - "nariyoqdagi qishloq" ma'nosidagi so'zlardan olingan (Avesto yozuvlarida bor), ya'ni Amudaryoning narigi yog'i - shimoli degan ma'noni unglatadi, Dastlab Tarmita, Tarameta deb talaffuz etilgan. Bir vaqtlar Dematrias, Yevkrotid, Aleksandriya deb ham yuritilgan. Hindlarning "Ramayana" dostonida Dandamutra shaklida tilga olingan. Shahri Somoniy ham deyilgan. X asrdan boshlab Termiz ho'lib qoldi", deb yozgan edi.

Tarixchi va geograf Hofizi Abruning yozishicha, Termiz - Iskandar Zulqarnayn tomonidan qurilgan va dastlab Taramastha

(baktriycha, - "narigi sohildagi manzil") deb nomlangan. Tarixiy shaharga Iskandar Zulqarnayn asos solgan va nomi grekcha, terminos - "issiq" so'zidan olingan degan fikr ham mavjud. Shahar ko'p asrlik tarixi davomida Tarmad, Termed, Tarmid, Termid, Tarmiz, Tirmiz, hatto Domat kabi nomlar bilan ham qayd qilingan.

Taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, Termiz shahri dastlab Surxondaryo yoqasida bo'lgan va mo'g'ullar istilosi davrida Chingizxon buyrug'i bilan shahar butunlay yer bilan yakson qilingan. Undan keyin ham qurilgan shahar huzilib ketgan. Hozirgi Termiz - XIX asrning oxirlarida (1897 yili) barpo etilgan rus istehkomi o'rnida 1928 yilda paydo bo'lgan. Yevropa tarixiy manbalarida shahar nomi Demitras, Aleksandriya, Yevkrovediyaniy shaklida yozilgan. Rus tadqiqotchisi I.V.Mushketov Termizning qadimiy vayronalari orasidan yunan tangalari ko'p topilganini aytgan.

XIV asr va undan keyingi davrlarga oid yozma manbalar va tangalarda shaharning nomi Madinat ur-Rijol, ya'ni "mardlar shahri" tarzida uchraydi. Shunday qilib, shahar o'z nomlarining soni jihatidan dunyodagi har qanday ma'lum va mashhur shaharlardan qolishmaydi. 2002 yili YUNESKO tashkilotining shaf'ligida Termiz shahrining 2500 yillik yubileyi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Termiz shahridagi tarixiy obidalar, arxitektura yodgorliklari, qadimgi darvozalari, ko'cha, xiyobonlari, mahalla va guzarlarning nomlari alohida ta'rifga loyiq.

Surxondaryo toponimlari tarkibida joy nomlari yasashga "ixtisoslashgan" -qapchig'ay (Qapchig'ay, Oqqapchig'ay), -gaza (Gaza, Gazarak), -novur (Novur, Qizilnovur), -lall (Tafimoron, Talihoziqon) kabi viloyatga xos bo'lgan terminlar uchraydi. Viloyat toponimiyasi tarkibidagi majuziy-metaforik nomlarga Jindibuloq, Hangisuv, Xotinsuv, Kuyovsuv, Ayg'irko'l kabi o'xshatma nomlar misol bo'ladi. S.Qorayev talqinida xotinsuv - toshmaydigan, yerga singib ketadigan kam suvli ariq, kuyovsuv - oshib toshmaydigan, "iymanihgina" oqdigan soy, ayg'irko'l - katta ko'l.

Surxondaryo viloyati joy nomlari tarkibida etnonimlardan nom olgan etnotoponimlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Viloyat hududida Arg'in, Achamayli, Jaloyir, Tortuvli, Xidirsho, Chig'atoy, Oybek, Qo'ng'iro't kabi ko'plab urug'-qabila nomlari asosida paydo bo'lgan etnotoponimlar uchraydi. Ularning har biri alohida ta'rifga loyiq.

Hozirgi vaqtda, keng jamoatchilikni toponimik ma'lumotlardan xabardor qilishda turizm sohasining hissasi borligini inkor qilib bo'lmaydi. Bu ishda, soha mutaxassislari eng oson hamda qulay yo'lni izlashadi va nomning mahalliy aholi orasida keng tarqalgan xalqona tilqiniga ko'proq e'tibor berishadi. Masalan, o'ziga xos "etnografik makon" bo'lgan, Boysunga sayyohat uyushtirib turistlarga mintaqqa qo'ng'iro'llarining kundalik turmush tarzi hamda madaniyatiga xos xususiyatlari bilan birga, etnik birlik nomining kelib chiqishi haqida ma'lumot bersa qiziqarli bo'ladi.

Sayyohat tashkilotchilari ko'proq urug' nomini "bobolari qo'ng'ir rangli ot mingani uchun urug'i qo'ng'iro't", deb izohlashadi. Bu albatta, ilmiy izoh emas, balki xalqona talqindir. Qushqadaryolik toponimist olim T.Nafasov nomni shunday izohlaydi: "qo'ng'iro't qadimiy turkiy qabila nomi va unga turkiy, mo'g'ulcha, xunkereyt - "qarg'a" so'zi asos bo'lgan". Demak, urug'ning totemi qarg'a bo'lgan, ya'ni qarg'a qushiga topinuvchilarni - qo'ng'iro't deyishgan.

Surxondaryo viloyati oronimlarning ko'pchiligi hamma uchun tushunarli turkiy nomlardir. Oronimlar orasida qadimiy so'g'd va fers-tojik tiliga mansub nomlar ham ko'p uchraydi. Xo'jaikon, Kuhlilang, Aqbaikalon, Xarkush dovoni, Selgoh, Hisor kabi nomlarni fers-tojik tilida izohlasa bo'ladi. Viloyat hududida ko'plab katta-kichik suv obyektlari mavjud, ularning har biri o'z nomiga ega. Tu'palangdaryo, Sangardakdaryo, Sherobodaryo, Xo'jaipok daryolari eng yirik suv manbalari hisoblanadi.

Sangardakdaryo - Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy yonbag'ridan (3800 m) boshlanadi. Daryo yuqori oqimida juda tor va yon bag'irlari tik vodiyydan tez oqib, yo'lidagi tog' jinstarini pastga qarab yuvib ketishi daryoni nomlanishiga asos bo'lgan. Sangardak

- fors-tojik tilida sang - "tosh", gurdak - "dumalaydi", ya'ni "toshni dumalatib olib ketadigan" daryo degan, ma'noni anglatadi.

Umuman olganda, Surxondaryo viloyati toponimlari O'zbekiston toponimiyasining tarkibiy qismi sanaladi. Viloyat hududida turkiy tillar yordamida tushinishi mumkin bo'lgan toponimlar bosluqa viloyatlarga qaraganda ancha kam. Viloyatda tarixiy (substrat) nomlar ko'p, ular qo'shimcha etimologik tadqiqotlarni talab qiladi.

**Surxondaryo gidronimi haqida.** O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi viloyat nomi. Daryo nomi viloyatga nom bo'lib xizmat qilgan, ya'ni gidronim gidronoykonimga aylangan. Viloyat respublikaning janubi-sharqida, Surxon - Sherobod vodiysida joylashgan. Surxondaryo viloyati ko'hna tarixi, qadimiy madaniyati, yodgorliklari bilan mashhur.

Professor Suyun Qorayev daryo nomi asli Surxobdaryo, ya'ni Qizilsuv bo'lib, keyinchalik o'zgarib ketgan bo'lishi mumkin deydi. Olimning bunday xulosaga kelishiga sabab shuki, daryoning yuqori qismi Denov shahrigacha Qizilsuv deb ataladi. Nonshunos olim bundan tashqari, daryo urug' nomi bilan atalgan bo'lishi ham ehtimoldan xali emas deydi. Chunki turkmanlarning bir urug'i surxi(j) deb atalgan, -on esa tojikcha ko'plik affiksidir. Bizningcha, ikkinchi talqin ishonchli emas.

Surxondaryoni juda loyqa daryolardan biri ekanligi, oqim yo'nalishida qizil tuproqlarni mavjudligi, bahorda suvi ko'payganda suvida qizillik belgilarini paydo bo'lishi daryoni Surxobdaryo (Qizildaryo) deb atashga asos bo'lgan deyish, haqiqatga yaqin. Bundan tashqari, nom qo'llanish jarayonida qisman transformatsiyalashgan, ya'ni mahalliy aholi "b" tovushini qo'llashda nisbatan qulayroq bo'lgan "n" tovushiga almashtirgan bo'lishi mumkin.

#### ✧ Savol va topshiriqlar:

1. Janubiy O'zbekiston toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari haqida referat tayyorlang.

2. Qashqadaryo viloyati substrat toponimlari haqida ma'lumot berib.

3. Surxondaryo viloyati hududidagi etnotoponimlarni to'plang, ularni taqqoslab tahliliy o'rganing.

#### ✧ Test topshiriqlari:

1. Butun umrini Janubiy O'zbekiston toponimlarini o'rganishga bag'ishlagan olim kim?

A. S. Qorayev

B. T. Nafasov

C. H. Hasanov

D. P. G'ulomov

2. Qashqadaryo oronimlari orasida ko'p uchraydigan "qoq" indikator termini qanday ma'noni anglatadi?

A. ko'i

B. ko'imak

C. sho'rxuv

D. sho'rxok

3. Rus olimi, akademik V.V. Bartoldning yozishicha, qadimda daryo Keshro'd deb atalgan. Sharqshunos olim qaysi daryoni nazarda tutgan?

A. G'uzordaryo

B. Shahrisabzdaryo

C. Qashqadaryo

D. To'palangdaryo

4. Surxondaryo viloyati hududida qo'shimcha etimologik tulqiqotlarni talab qiladigan substrat toponimlar .... To'g'ri javobni qo'yib belgilang.

A. kam

B. mavjud emas

C. ko'p

D. noma'lum

5. Nonshunos olim I. Nafasovning yozishicha, qo'ng'irul etnonimi .... ma'noga ega. To'g'ri javobni qo'yib belgilang.

A. bobolari qo'ng'ir rangli ot tingan

B. tog' nomi urug' nomiga asos bo'lgan

C. urug'ning totemi qurg'a bo'lgan

D. boyqo'ng'ir nomining o'zgargan shakli

#### 4.6. SAMARQAND, JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATLARI TOPONIMIYASI

##### ☼ Reja:

1. Samarqand viloyati toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari

2. Jizzax viloyati toponimlariga umumiy ta'rif

3. Sirdaryo viloyati toponimiyasining qisqacha tavsifi

☼ *Mavzuning maqsadi:* Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari toponimiyasining shakllanish qonuniyatlari, rivojlanish bosqichlari va farqlovchi xususiyatlari haqida qisqacha ma'lumot berishdan iborat.

☼ *Tayanch ibora va atamalar:* etnooykonim, gidronim, uqba, bel, qiya, nahar, juyruksoy, tangi, agronim, sha'razak.

**Samarqand viloyati toponimiyasi.** Samarqand viloyati hududi Zarafshon daryosi havzasining o'rta qismida joylashgan. Viloyat toponimiyasining asosiy qismini o'zbekcha nomlar tashkil qiladi. Shu bilan birga so'g'diy, tojikcha nomlar ham salmoqli o'rin egallaydi. Qadimiy Sug'diyona davlatining markazi bo'lgan Samarqandda boshqa mintaqalarga nisbatan sug'diy nomlar ko'p uchmaydi. Viloyatda ikki mingdan ko'proq aholi punktlari mavjud va ularning har biri o'z nomiga ega.

Viloyat oykonimlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri tarkibida etnooykonimlarning ko'pligidir. Masalan, aholi punktlari nomlari kesimida urug'-qabila nomlari G'o'zalkentda - 20 %, Payariqda - 25 %, Ishtixonda - 33 %, Bulung'orda - 40 %, Jomkoyda - 45 %, Qo'shrabotda - 35%, Kattaqo'rg'onda - 30%, Narjayda - 32%, Nurohodda - 23%, Oqdaryoda - 24%, Pastlarg'omda - 31%, Paxtachida - 34%, Toyloqda - 30% va Urgutda -28% ni tashkil qiladi.

Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, o'tmishda mintaqada etnooykonimlar soni bundan ham ko'p bo'lgan. XIX asr oxirida Zarafshon vodiysiga kelgan rus tadqiqotchisi N.F.Simyakovskiy 2800 dan ko'proq qishloqlarni ro'yxatga olgan

va ularning 1/3 qismi etnik guruh nomlari bilan atalgan. Etnooykonimlar soni jihatidan Samarqand viloyati respublikada Janubiy O'zbekiston viloyatlaridan keyin turadi.

Mutaxassislar viloyat tarkibidagi ma'muriy tumanlar nomini ham turlicha talqin qilishgan. Masalan, ana shunday munozarali nomlardan biri Buyuk Ipak yo'lining ustida, Miyonkomning markaziy qismida joylashgan Ishtixon oykonimidir. Ishtixon nomi qachon paydo bo'lgan va qanday ma'noga ega degan savolga hozirgacha uzil-kesil javob yo'q. Shahar markazida joylashgan Ishtixontepa tarixiy yodgorligi, qadimgi shahar o'mi bo'lganligini deyarli harcha olimlar e'tirof etishgan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Ishtixon shahri ilk o'rta asrlarda mustaqil hokimlik markazi hisoblangan. X asrda Ishtixon qal'a, shahriston va rahotdan iborat katta shaharga aylangan. Keyingi asrlarga kelib shahar atrofida ko'plab mevali bog'lar paydo bo'lgan, savdo-sotiq, hunarmandchilik bilan birga dehqonchilik ham yaxshi rivojlangan.

Nomshunos olimlar Ishtixon so'zini turlicha talqin qilishgan. Mahalliy xalq orasida nomning turli rivoyatlarga asoslangan xalqona etimologiyasi ham mavjud. Ulardan birida, Samarqanddan Ishtixongacha quvarda oqizilgan qimizni pndsho tatib ko'rganda xalq "qimizni ichdi xon, xon ichdi" deganidan buyon joy nomi ichdi xon (keyinchalik Ishtixon) deb atalgan emish.

Boshqa bir rivoyatga ko'ra, VIII asr boshida Samarqandni arablar bosib olgach, So'g'd ixshidlari poytaxtni Ishtixonga ko'chirishga majbur bo'lishgan. Binobarin, Ishtixon so'zi Ishtixon so'zining o'zgargan shakli bo'lishi mumkin. Chor Rossiya davrida Miyonkomga ekspeditsiya tarkibida kelgan rus tadqiqotchisi L.Vyatkinning yozishicha, Teng'iz urig'i qadimda jo'yi Shayxon deb atalgan va uning transformatsiyalashuvi natijasida Ishtixon nomi paydo bo'lgan.

Taniqli arxeolog olim G.A.Pugachenkovaning fikricha, Ishtixon nomi Xitoy tarixiy manbalarida Sindixon, arab manbalarida esa Ishtixon shaklida qayd qilingan. Ayrim mutaxassislar, nomning ikkinchi qismidagi "xon" so'zi, joy nomini Turk hoqonligi davri paydo bo'lganligini ko'rsatadi deyishadi. Chunki,

o'sha davrda So'g'd va uning tarkibida bo'lgan Ishtixon ham hoqonlik tarkibiga kirgan.

O.I.Smironovning yozishicha, Ishtixon so'zi sug'dcha, isht - "hasht, ya'ni sakkiz", xon - "kan, kanal" ma'nosini anglatadi. Olimaning keltirgan tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, Ishtixon nomi V-VI asrlarda paydo bo'lgan. E'tiborli tomoni shuki, Ishtixon so'zi ko'p marta izohlangan bo'lsa ham, ammo mutaxassislar orasida yagona xulosa yo'q.

Samarqand viloyati oronimlari tarkibida ushbu hududga xos geografik terminlar ko'p uchraydi. Mintaqada Avg'a, aqba - (Avg'a dovoni), bel - (O'rtabel), guzar - (Qoraguzar), gaza - (Qungaza), qiya - (Qoraqiya), -qir - (Jalqir), tov - (To'ratov) kabi terminlar joy nomlari yasashda ancha sermahsul. Oronimlar mahalliy shevalarda ham yaratilgan. Ularga Jaylov, Jalpaqteva, Shishmo'la, Bolqontov kabi nomlar misol bo'ladi. Viloyatdagi mahalliy o'zbek shevalarida tog' oronimik termini ko'proq tov shaklida tafaffuz qilinadi.

Oronimlar orasida hayonot olami, o'simliklar, urug'-qabila nomlari bilan atalgan oronimik obyektlar ham uchraydi. Ularga Irg'ayli tog'lari, Gujum tog'i, Qarchig'ay tog'i, Alqortepa, Mirishkor tog'i, Chig'atoytoy kabi nomlar yaqqol misol bo'ladi. Viloyatda ayrim metaforik-majoziy nomlar ham bor. Ular qatoriga Ayg'irtepa (ulkan, katta), Qatormoya (moya - "urg'ochi tuya", ko'pincha tuya karvoniga o'xshash qator qoyalar shunday atalgan) kabi nomlarni kiritish bo'ladi.

Viloyat gidronimlari orasida Zarafshon nomini alohida ta'kidlash kerak. Daryo XVIII asrdan boshlab Zarafshon (tojikcha, "zar sochuvchi") deb ataladi. Tarixiy manhalarda daryo Politimet, Naniq, Ro'di Mosaf, Haromkom, Nahri Buxoru, Obi Ko'hak nomlari bilan tilga olingan. Qadimiy gidronimlarga hozirgi Narpay, Payariq, Darg'om kanallarini kiritish mumkin. Narpay - (arabcha, nahr - "katta ariq", "kanal"), Payariq nomi esa Narpay nomining turkiy varianti hisoblanadi.

Zarafshon daryosidan boshlanadigan qadimiy suv inshootlaridan yana biri Bulung'ur kanali. Mutaxassislarning aniqlashicha, Bulung'ur so'zi mo'g'ul tilida "loyqa suv" ma'nosini

bildiradi. S.Qorayevning yozishicha, viloyatda mahalliy shevalarda yaratilgan gidronimlar ko'p. Ular qatoriga Juyruksoy - "tezoqar", Bitovsoy - "boshi berk", Toshovut - "tosh hovuz" kabi gidronimlarni kiritish mumkin. G'aybot, Parandas, Lexana kabi mavhumlashgan nomlar maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladi.

Yilont tumanlari aholi punktlari nomlari kesimida toponimlarning yuzasi (%)



Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati toponimiyasi ko'p asrlik tarixga ega va ular orasida so'g'd, fors-tojik tillariga tegishli nomlar salmoqli o'rin egallaydi. Xususan Samarqand shahri urbonimlarining asosiy qismini tojikcha nomlar tashkil qiladi. Ular qatoriga yuzga yaqin mahalla va guzarlar nomlarini kiritish mumkin. Samarqand shahridagi mahalla va guzarlar nomlari tarkibida kasb-hunar bilan bog'liq bo'lgan tojikcha nomlar ham ko'p. Masalan, Sharbatdor - qandolatchilar, Zardo'zon - zardo'zlar, Kulolon - kulollar, Charnaron - ko'nehilar va hokazo.

Umuman olganda, Samarqand viloyati toponimlari O'zbekiston toponimiyasining ajralmas tarkibiy qismi sanaladi. Hozirda viloyat toponimiyasining asosiy qismini o'zbekcha nomlar tashkil qiladi. Viloyatda yangi tashkil qilinayotgan



geografik obyektlarga berilayotgan nomlarning asosiy qismini amaldagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar talablariga javob beradigan zamonaviy nomlar tashkil qiladi.

**Samarqand toponimi haqida.** Samarqand shahri O'rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biri. Viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. 1925-1930 yillari O'zbekiston poytaxti bo'lgan. Uning bunyod etilgan vaqt va nomining etimologiyasi aniq emas. Shahar Iskandar Zulqarnaynning harbiy yurishlari munosabati bilan yunon solnomalarida miloddan avvalgi 329 yilda Marokanda nomi bilan ilk bor qayd qilingan.

Turli davrlarga tegishli tarixiy manbalarda shahar nomining Samariana, Saramanka, Shamirkent, Sakaana, Samangan, Samakiyan, Sumron, Samaran, Simroyat shaklida tilga olingan. VIII asr boshlariga tegishli so'g'd hujjatlarida Smarakansa, venetsiyalik sayyoh Marko Polo (XIII asr) kitobida nom Samarkan shaklida uchraydi.

§.Qorayevning yozishicha, shahar nomining deyarli barcha variantlari "s" harfi bilan boshlangan, faqat Marokanda bundan mustasno. Demak, yunonlar shahar nomini noto'g'ri eshitganlar, tishlar orasidan sirg'anib chiqadigan "s" tovushini yunonlar ilg'amaganlar desak to'g'ri bo'ladi. Bu fikrni grek filolog olimi Yu.Ivanoglipolus ma'qullagan.

Ayrim Yevropalik olimlar, bu nom qadimdan qolgan, sanskritcha Samar'yaga yaqin, ya'ni "yig'in", "anjuman" so'zidan kelik chiqqan deb izohlaydilar. Ba'zi olimlar shahar nomining birinchi qismi Samar - shaharga asos solgan yoki uni bosib olgan shaxsni ismi bo'lsa kerak deganlar. Lekin, tarixiy manbalarda bunday kishi nomi qayd qilinmagan. Samarqand - "Semizkent", ya'ni "semiz shahar", "katta shahar" ma'nosini bildiradi degan fikr Mirsondning "Ravzat us safo" asarida, ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixoning kundaliklarida qayd qilingan. Biroq Semizkent shaharning asl nomi emas, balki sifati, ta'bir joiz bo'lsa laqabi deyish mumkin.

Samarqand shahrining qadimiy vayronasi hozirda Afrosiyob nomi bilan mashhur. O'tmishda bu joy Hisori ko'hana, Qo'rg'onni qadim deb atalgan. XVII- XVIII asrlarda Tali Afrosiyob

(Afrosiyob tepaligi) deyilgan. Ba'zi olimlar tepalikni sug'dcha nomi Parshavap bo'lgan, tojikchada esa Afrozi-siyoh-ob, ya'ni "Siyob ustidagi tepalik" deb atalgan, keyinchalik nom qisqarib, talaffuzda soddalashib Afrosiyob, ya'ni "Siyob bo'ylari" shaklini olgan deyishadi.

Tarixiy yozma manbalarda Samarqandning yoshi qadimiyligi to'g'risida ko'plab ma'lumotlar topish mumkin. Shu bois, o'rta asrlardan Sharqda ommalashib ketgan maqollardan birida "g'arbda Rim, sharqda Samarqand" deyilgan. Samarqand shahri insoniyat tamaddunidagi buyuk xizmatlari uchun "Boqiy shahar" nomini olgan.

**Jizzax viloyati toponimiyasi.** Viloyatning ma'muriy-hududiy bo'linishi kesimida joy nomlari tahlil qilinganda tumanlar toponimiyasining shakllanishida ham leksik, ham semantik jihatdan muayyan tafovutlar borligi aniqlandi. Masalan, Zomin, Yangiobod, Baxmal tumanlari aholi punktlari nomlari tarkibida turkiy toponimlar bilan birga qadimiy sug'diy va eroniy substrat toponimlar ham uchraydi. G'allaorol, Jizzax va Forish tumanlari toponimiyasi tarkibida etnotoponimlar va joyning geografik xususiyatiga qarab nomlangan geografik obyektlar ko'proq. Viloyatning shimoliy cho'l mintaqasidagi Paxtakor, Do'stlik, Zafarobod, Arnasoy, Mirzacho'l, Zarbdor tumanlarining oykonimiyasi tarkibida antroponimlar va agrounimlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Viloyatning janubiy tog'li qismida joylashgan qishloqlarda aholi qadimdan yashab kelgan, shimoliy cho'l hududlarida esa aholi punktlari asosan, Jizzax cho'lining o'zlashtirilishi natijasida bunyod etilgan. Shu sababdan viloyatning janubiy tog'li hududlaridagi substrat (tubjoy) oykonimlar ko'p asrlar davomida shakllangan bo'lsa, tekislik qismidagi nomlarning asosiy qismini keyingi davrlarda yaratilgan sun'iy nomlar tashkil qiladi.

Mutaxassislarning fikricha, viloyatning tabiiy sharoiti, iqtisodiy- ijtimoiy ko'rsatkichlari, etnografiyasi, geografik terminlari, aholining etnik tarkibi kabi omillar oykonimlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan. Masalan, viloyatning shimoliy tekislik qismida Jizzax cho'lining o'zlashtirilishi natijasida paydo

bo'lgan oykonimlar asosan dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq. Cho'iquvar, Paxtakor, Gulzor, Chamanzor, Navbahor, Yangidala kabi oykonimlar o'sha davr ruhini aks etadi.

Bu nomlar xalqning qacrab yotgan cho'lni obod qilib, dehqonchilikda erishgan yutuqlarining natijasi, ya'ni inson qo'li bilan o'zlashtirilib obod qilingan ma'noni anglatuvchi nomlardir. Bu tur nomlarning paydo bo'lishi xalqning yangi yerlarni o'zlashtirishi, yangi qurilishlar majmuini bunyod qilishi kabi ijodkorlik, cho'iquvarlik, yangi dehqonchilik manzillari yaratishi bilan bog'liq.

Viloyatning tog' oldi hududlarida xalqning tabiatga bo'lgan munosabati, tabiiy hodisalarni anglash darajasi, turli xil landshatlardan foydalanish imkoniyatlari kabi omillar joy nomlarining yaratilishida moddiy, ijtimoiy va lisoniy asos vazifasini bajargan. Natijada, mahalliy aholining moddiy ishlab chiqarish munosabatlarini belgilaydigan Lalmikor, G'allakor, Adinobod, iqlimi va usproq sharoitlariga munosabati natijasida Dovid, Loyqa, Yoyilma kabi nomlar paydo bo'lgan.

Tog'li hududlarda joylashgan aholi punktlari nomlari ko'pincha, mahalliy xalqning o'troq hayotga, turg'un turmush kechirishga o'tish jarayonini o'zida aks etgan. Bunday oykonimlar ko'pincha tarixiylik maqomiga ega, bunga ularning qachon paydo bo'lganligi, nom yaratgan xalqning ma'lumligi, shu turdagi nomlarning boshqa hududlarda ham uchrashi, tilning zamonaviy holati bilan izohlab bo'linmasligi kabi dalillarni ko'rsatish mumkin.

Viloyat oykonimlariga xos xususiyat sifatida ularni gidronimik yoki oronimik obyekt nomlari bilan atalishini ko'rsatish mumkin. Bunday nomlar ularning viloyat aholisi hayotida qadimdan muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Demak, oronimik va gidronimik obyektlar qishloqlarni paydo bo'lishida moddiy asos bo'lib xizmat qilgan, ularni nomlashda esa ma'lum, orientir vazifasini bajargan.

Shu sababdan viloyatning tog'li hududlarida oronim yoki gidronim sifatida shakllangan nomlarning oykonimga o'tishi ko'proq kuzatiladi. Bunday joy nomlari tarkibida tosh, tog', bel, doven, ag'ba, chajir, tangi, soy, buloq, chashma, quduq kabi

geografik terminlar ko'p uchraydi. Suv havzalari nafaqat cho'l, balki tog' oldi va tog'li hududlarda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Ular inson faoliyati va hayotida katta ijtimoiy, moddiy ahamiyatga ega bo'lganligi bois tog'li hududlardagi aholi punktlari nomlari orasida azaldan alohida maqomga ega.

Gidronimiyalarning mahalliy aholi hayotida naqadar muhim ahamiyat kasb etganligini Varg'in, Band, Darg'at, G'o'lba, Koriz kabi aholi punktlari nomidan ham ilg'ab olish mumkin. Masalan, Varg' - qadimiy sug'd tilida «to'g'on», «band» ma'nosini ifodalagan. Qishloq - to'g'on, band yonida joylashganligi sababli unga shunday nom berilgan. Viloyatda boshqa hududlarda kam uchraydigan va joy nomining turidan darak beruvchi baraz - (Takabaraz), beles - (Belesmozor), zayak - (Oqzayak), aydar - (Aydarko'l), zov - (Zovqo'ton), tangi - (Chortangi), chag'at - (Qizilchag'at), jo'na - (Suluvjo'na), g'o'l - (Jillig'o'li) kabi indikator terminlar mavjud.

Viloyat toponimiyasiga aloqador bo'lgan eng qadimiy ma'lumotlar ikki ming yildan ko'proq tarixga ega bo'lgan yozma manbalarda uchraydi. Viloyatdagi tarixiy toponimlarining shakllanishida sharqiy eroniy tillar (so'g'dcha, fors-tojik) muhim ahamiyat kasb etgan. Hozirgi kunda viloyat toponimiyasida turkiy (o'zbekcha) qatlam alohida o'ringa ega. U barcha avvalgi toponimik qatlamlar ustida joylashganligi, eng haquvvat qatlam ekanligi va hududning hamma joyida keng tarqalganligi bilan alohida ajralib turadi.

Viloyat hozirgacha aniqlangan joy nomlarining eng quyi qatlami milodiy yilning boshlariga to'g'ri keladi. Ular qatoriga Xovatog', Savot (Yangiobod), Miq (Zomin), No'stiravon, Navqa (Baxmal), Andagin, Purasht (Forish), Naxrach (G'allaorol) kabi maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan substrat nomlarni kiritish bo'ladi. Qadimiy so'g'd tiliga mansub bu nomlar, ko'pincha asl holda yoki qisman transformatsiyalashib bizgacha yetib kelgan.

Viloyatda ruscha nomlarning paydo bo'lishi XIX asrning oxirida Rossiya tamonidan O'rta Osiyoni bosib olishi bilan bog'liq. O'sha davrda chor hukumati qarori bilan temir yo'l o'tkazilgan va temir yo'l stansiyalarga Obruchev (Dashtobod),

Lomakino (Zarbdor), Milyutinskaya (G'allaorol), Bogarmoye (Lalnikor) kabi rasmiy nomlar bo'lgan. Sobiq Sho'rolar davrida viloyatda tub joy xalqqa yot bo'lgan, o'zga tilning qonun-qoidalariga asoslangan Rassvet, Parts'ezd, Ulyanovo, Kommuna, Ivanovskiy kabi "qizil" nomlar ko'paydi.

O'tgan asrning yetmishinchi yillarida Jizzax cho'li o'zlashtirildi va ko'plab yangi geografik obyektlar paydo bo'ldi. Ularga hukmron mafkura va siyosat ta'sirida kommunistlar partiya va Sho'rolar hokimiyatini tarannum etuvchi nomlar berildi. Kommunizm, Lenin, Marks, Engels, Oktabr kabi nomlar ko'payib ketdi. O'sha vaqtda yangi tashkil qilingan Arnasoy tumani hududidagi barcha aholi punktlariga sobiq Sho'ro davlatining harbiy sarkardalari nomlari (Jukov, Timoshenko, Grechko, Rokossovskiy, Konev, Vasilevskiy va boshq.) berildi.

Mustaqillik davriga kelib geografik obyektlarga davr talabini aks ettiradigan, xalqona, oddiy, sodda hamma uchun tushunarli bo'lgan nomlar berildi yoki ularning tarixiy nomlari qayta tiklandi.

Jizzax viloyati toponimiyasi tarkibidagi suv obyektlari va relef shakllari bilan bog'liq joy nomlarini qiyosiy-tahlili shuni ko'rsatadiki, viloyatga xos oronimik va gidronimik terminlar salmog'ini aniqlab, uni diagrammada ko'rsatdik:



Jizzax viloyatining 1:100 000 masshtabli topografik kartasidan 366 ta oronim va gidronim o'rganildi. Tadqiqot natijalari bo'yicha, viloyat gidronimlarining 20 % i "soy", 9 % i "quduq", 3 % i "buloq" terminlari yordamida paydo bo'lgan. Oronimlar orasida "tog'", "tepa", "jar" toponimlari ko'p uchraydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, joy dengiz sathidan balandlashgan sari tabiiy xususiyatlar bilan bog'liq nomlar soni ortib boradi. Demak, toponimlarning shakllanishiga joyning dengiz sathidan mutlaq balandligi ancha ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, balandlik oshgan sari relef shakllari, gidrografik to'r, joyning o'ziga xos hayvonot dunyosi va o'simliklarining turli-tumanligi ham ortadi. Bu hol tabiiy xususiyatlar bilan bog'liq toponimlar salmog'ining ortishiga ham olib keladi.

Umuman olganda, Jizzax viloyati toponimiyasi boshqa mintaqalarga nisbatan oraliq maqomni egallaydi. Mavjud mahalliy shevalar toponimiyada ham o'z aksini topgan. Viloyatda boshqa hududlarda kam uchraydigan yoki uchramaydigan, joy nomining turidan darak beruvchi mahalliy indikator terminlar ko'p. Viloyatda o'zbekcha toponimlar barcha avvalgi toponimik qatlamlarning ustida joylashgan, hudud bo'ylab keng tarqalgan, eng baquvvat qatlam hisoblanadi.

**Jizzax toponimi haqida.** Jizzax - O'rta Osiyodagi qadimiy shaharlardan biri. Shahar Sangzor daryosi bo'yida joylashgan. Jizzax shahri VII asrdan buyon ma'lum, arablar kelmasdan oldin o'z ahamiyati jihatidan Ustrushonaning eng yirik shaharlaridan biri bo'lgan. Yunon solnomachilari Kiropol va Gazo shaharlarini alohida tilga olishgan. Arxeologlar olimlar Gazo shahri Samarqand va Toshkent oralig'ida joylashganligini ta'kidlashgan. Olimlar Gazoni qadimiy Jizzax deb taxmin qiladilar.

Jizzax kichik qal'a sifatida bir necha qadimiy karvon yo'lining tutashgan joyida vujudga kelgan. Arxeologik ma'lumotlarning guvuhlik berishicha, Jizzax vohasidagi ilk qadimiy shahar, hozirgi Jizzax shahrining sharqiy qismida joylashgan Qaliyatepa o'rnida miloddan avvalgi III-II asrlarda shakllangan. Milodning boshida, taxminan ikki ming yil avval shaharning umumiy maydoni 50 gektarga yetgan, shahriston, ark qudratli mudofaa devorlari bilan

o'rab olingan, uning atrofida suv to'ldirilib qo'yilgan muhofaza xandaqlari bunyod etilgan. Arab istilosi natijasida, ya'ni VIII-asrning ikkinchi yarimida qadimgi Jizzax vayron etiladi. Keyinchalik shahar hayoti Qaliyatepadan 6 km shimoli-g'arbda joylashgan hozirgi O'rda deb nomlangan tepaga ko'chib o'tadi.

Jizzax yozma manbalarda ilk bor islom dunyosi geograf olimlari va sayyohlaridan Ibn Havkal, Muqaddasiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Ustrushonaning Fakkon viloyatidagi shahar deb tilga olingan. Shahar IX-X asrlarda Somoniylar, XI-XIII asrlarda Qoraxoniylar, XIV-XV asrlarda Temuriylar davlati, keyinchalik Buxoro amirligi tarkibiga kiritilgan. Shahar bir necha marta inqirozga uchrab, yana qayta tiklangan. Amir Temur va Temuriylar davrida Jizzax yana ham obodonlashib, savdo - sotiq va strategik ahamiyatni kasb eta boshlagan.

XIX asrning 60-yillarida, ya'ni Rossiya istilosi arafasida Jizzax (O'rda) 100 gektarga yaqin maydonni egallagan, ikki qator mudofaa devorlariga ega, Buxoro amirligi tasarrufidagi Jizzax hokimining ma'muriy markazi, harbiylashgan qal'a-shahar hisoblangan. Rossiya istilosidan keyin, Turkiston general-gubernatorligiga qo'shib olingan Jizzax shahri yangi tashkil topgan Jizzax uyezdining markaziga aylangan.

Nom davr, zamon, ijtimoiy ehtiyoj mahsuli. Nom paydo bo'lgan davr tarixini yaxshi bilmasdan, uning zamiridagi ma'noni anglash qiyin. Bu uchun kamida nomlashga asos bo'lgan ijtimoiy, madaniy, lisoniy omillarni aniqlab olish zarur. Joy nomlangan paytlarda uning ma'nosi va nomlanish sabablari shu nomni qo'yan aholiga aniq ma'lum bo'lgan. Qadimgi Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan hozirgi Jizzax shahri, muhim strategik ahamiyatga ega kichik bir qal'a sifatida ilk o'rta asrlarda paydo bo'lgan va dastlab Dizak deb nomlangani ham shu fikrni tasdiqlaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma» sida Jizzaxni «Dizak» deb ta'riflab, shahar to'g'risida shunday yozgan: «Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzumlar farovon». Jizzax oykonimining kelib chiqishi to'g'risida turli fikr va mulohazalar mavjud. Masalan, H.Hasanov yozishicha,

Jizzax qadimda Dizak deb atalgan. Ma'nosi -diz - qadimgi so'g'd tilida «qal'a, istehkom, qo'rg'on», -ak esa kichkina, ya'ni kichraytirish affiksi, bizdagi -cha qo'shimchasiga to'g'ri keladi. Dizak - «qal'acha» degan ma'noni beradi. Dizak so'zini Jizzax shakliga o'zgarishini S.Qorayev ez, d, j- tovushlarining o'zaro almashishi va munosabati toponimiyada katta ahamiyatga ega. Dizak nomining Jizzax shaklini olishi ham shu qonuniyat mahsulidir», degan xulosaga kelgan.

**Sirdaryo viloyati toponimiyasi.** Viloyat hududi asosan cho'l zonasida joylashgan. Maydoni janubdan shimoli-g'arbgacha tomon pasayib boradigan to'lqinsimon tekislikdan iborat. Mutaxassislarning aniqlashicha, suv obyektlari oz, tog'u-toshlar yo'q, relefi asosan tekislik, tabiiy chegaralar bo'lmagan hududda toponimlar soni ham kam bo'ladi. Bu holat viloyat toponimiyasida o'z aksini topgan.

Sirdaryo viloyati toponimiyasi tarkibida Mirzacho'lni o'zlashtirish bilan bog'liq va bunyodkor xalqimizni qo'lga kiritgan zafarlarini aks etgan nomlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun, S.Qorayevning yozishicha, Oqoltin, Paxtazor, Paxtaobod, Paxtachi, Paxtadala kabi sun'iy nomlar "bayraq" qilib olingan. Mirzacho'lni o'zlashtirish natijasida paydo bo'lgan geografik obyektlarning nomiga qarab, mahalliy aholini qayerdan ko'chib kelganlarini aniq bilsa bo'ladi. Ular qatoriga Farg'ona, Andijon, Samarqand, Navrota, Zomin, Forish, Baxmal kabi nomlarni kiritish mumkin. Ularning har biri nomlarning "ko'chish" qonuniyatiga ya'ni, toponimik transmizatsiya hodisasiga misol bo'ladi.

Viloyat hududida kam bo'lsa ham tarixiy toponimlar uchraydi. Ularning asosiy qismi mintaqaning janubi-g'arbiy tog'oldi hududida joylashgan. Bunday nomlarga Xovos, Boyovut, Sardoba, Sho'razak kabi nomlar misol bo'ladi. Ular orasida Xovos nomi o'zining qadimiyligi va jumboqligi bilan alohida ajralib turadi. Xovos shahri avtomobil va temir yo'l chorrahasida joylashgan.

O'rta Osiyodagi eng kuchli shamollardan biri Xovos shamoli nomi bilan yuritiladi. Xovos qadimiy shahar, u dastlab X asr arab geograf va sayyohlari Istahriy, Ibn Havqal, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. Hozirgi Xovos shahri 1899 yili chor Rossiyasi

tomonidan Ursatevskaya temir yo'l stansiyasi sifatida barpo etilgan. Tuman 1955 yildan - 1966 yilgacha Boyovut, 1966 yildan - 1975 yilgacha Yangiyer tumani nomi bilan yuritilgan. Tuman hududi asosan, viloyatning janubiy qismida joylashgan, relesi notekis. Mutaxassislar tomonidan Xovos nomi turlicha talqin qilingan, ammo ular ishonarli emas va qo'shimcha etimologik tadqiqotlar talab qiladi.

E'tibor berib qarasangiz, joy nomlari asrlar osha yashab, ko'p hollarda o'tmish "guvohlari" sifatida tarixiy voqea-hodisar haqida "hikoya qilib beradi". So'nggi vaqtlarda, Xovos so'zining etimologiyasi haqida quyidagi talqin ilmiy manbalardan aniqlandi. Bobariylar hukmronligi davrida Hindistonda yashab ijod qilgan forsiy-zabon shoir va olim Sirojiddin Alixon Orzuning (1689 - Agr, 1756 - Dehli) "Charug'i hidoyat" lug'atida mahalliy forsiy tilli xalq xavos - so'zini avom, xizmatkor ma'nosida qo'llashini ta'kidlagan.

Hozirgi o'zbek tilida avom so'zi (arabcha) quyidagi ma'nolarda qo'llaniladi: birinchisi, omma, barcha kishilar, oddiy xalq ma'nosini bildiradi; ikkinchisi, ba'zan o'qimagan, bilimsiz kishi ma'nosida ham ishlatilgan. Bu talqin qanchalik haqiqatga yaqinligini vaqt ko'rsatadi.

Viloyat oykonimlari arasida kam bo'lsa ham ayrim etnooykonimlar uchraydi. Boyovut, Mirishkor, Nayman, Puchug'oy, Uvoq, Tojikoyul, Turkoyul kabi aholi punktlari nomlari etnooykonimlarga misol bo'ladi. Tuman nomi bo'lgan Boyovut viloyat hududidagi kam sonli etnonimlardan biridir. Boyovut tumani viloyatning sharqiy qismida, Mirzacho'lning janubida joylashgan.

Tuman nomiga aylangan boyovut - O'zbekiston hududida qadindan yashab kelgan turkiy urug'lardan birining nomi. Rashiddinning "Jome ut-tavorix", Abulg'ozil Bahodirxonning "Shajarai turk" asarlarida Chingizxon qo'shinlari bilan birga kelgan qabilalar orasida boyovut urug'i tilga olingan. Mutaxassislarning yozishicha, boyovut so'zi - "boy", "boylar" degan ma'nolarni anglatadi. Qozoqlarning arg'in qabilasi tarkibida ham bayaut urug'i qayd qilingan. Ba'zi mutaxassislar, jumladan,

boshqird etnolog olimi R.G.Kuzeyev boyovut bilan bayot aslida bir qabila deb hisoblaydi.

Rashiddinning yozishicha, qadimgi vaqtda boyovut ancha katta qabilalardan biri bo'lgan va bir necha tarmoqqa bo'lingan. XIII-XIV asrlarda boyovutlarning katta bir qismi o'zbek, turkman xalqlari tarkibiga kirib, ular bilan aralashib ketgan. Ayrim qo'lyozma nasabnomalarda boyovut qadimiy 92 bovli o'zbek urug'larining biri sifatida ko'rsatilgan.

Boyovut so'zining kelib chiqish tarixiga oid rivoyatlarga asoslangan boshqa talqinlar ham bor. Masalan, rivoyatlardan birida qadimda bu yer otlarga boy bo'lgan va "otga boy", "boy ot" so'zlaridan kelib chiqqan deyilsa, boshqa rivoyatda bu yerlar o'tga boy joylar bo'lgan, boyovut - "boy o't" so'zidan kelib chiqqan deyiladi. XVI asrda yashagan farg'onalik Mulla Sayfiddin Axxikandiyning "Majmu-at-tavorix" asarida boyovut 92 bovli o'zbek urug'laridan biri sifatida qayd qilingan.

Sirdaryo viloyati hududining asosiy qismini egallagan tekislik Mirzacho'l deb ataladi. Mirzacho'l - O'zbekiston va qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Tojikiston) hududidagi tekislik nomi. Mirzacho'l so'zini taniqli o'zbek toponimist olimi H.Hasanov shunday izohlagan: «Mirzacho'l - ruschada boshqa nom olgan: Yujnaya Golodnaya step («Yalang dala»), Severnaya Golodnaya step Qozog'iston hududida bo'lib, Betpakdala deyiladi. Mirzacho'l turlicha izohlab kelinmoqda, bu nom bir Mirzaning ismidan olingan degan fikr ham bor. Agar bu nomga marza va marzak so'zlari asos qilib olingan bo'lsa, mantiqli izoh tug'iladi; masalan; «Qizilqum chekkasidagi kichik cho'l», marza - «chekkadagi yer»; arabcha marzak - «kichik» so'ziga dahldor».

Boshqa taniqli nomshunos olim S.Qorayevning yozishicha, XVI asrgacha bu hudud Jizzax - Chinoz cho'li deb atalgan. XVI asr oxirida hukm surgan Buxoro xoni - Abdullaxon dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-tijorat ishlarini, umuman obodonchilik ishlarini ancha avj oldirgan. U o'z amaldori - mirzosiga Jizzax - Chinoz orasidagi cho'lda karvonsaroylar, ravotlar, machillar, sardobalar qurdirgan.

Hozirgi Jizzax viloyati hududidagi Tuyakirtar kanali qazilib, choʻlning janubiy va markaziy qismlarida katta maydonlarga suv chiqarilgan. Jizzax - Chinoz choʻlida hir qancha irrigatsiya inshootlari ham qurilib dehqonchilik birmuncha rivojlangan. Ana shu davrdan, 1583-1598 yillardan eʼtiboran Jizzax - Chinoz choʻli Mirxonning choʻli (Mirzachoʻl) deb atala boshlagan.

Soha mutaxassisleri orasida Mirzachoʻl nomining ilk shakli Marrachoʻl boʻlgan, keyinchalik xalq talaffuzida Mirzachoʻl boʻlib oʻzgargan, degan talqinlar ham bor. Masalan, P.Gʻulomovning yozishicha, marza - relief shakli, tepasi qabariq shakldagi uzun choʻzilgan halandlik. Marzalar tektonik yoʻl bilan hosil boʻlishi, daryo, dengiz toʻlqini keltirgan qumlardan vujudga kelishi, morena jinrlarining toʻplanishidan paydo boʻlish, kishilar tomonidan bunyod etilishi mumkin.

Ayrim mutaxassislar Mirzachoʻl soʻzining kelib chiqishi Mirzo Ulugʻbekning mamlakatda olib borgan obodonchilik ishlari bilan bogʻliq, choʻl nomidagi Mirza soʻzi Ulugʻbek nomi bilan bogʻliq deb hisoblaydilar. Mirza soʻzining ilk shakli mirzoda, keyinchalik bu soʻz mirzaga aylanib, kishilar ismi sifatida foydalanilgan.

Viloyatdagi suv obyektlaridan nom olgan aholi punktlaridan Sayxunobod va Shoʻrazak kabi nomlar diqqatga sazovor. Shoʻrazak - oʻzak jarlik, chuqurlikdagi jilgʻa. Suyun Qorayev oʻzak soʻzi qadimiy turkiy tildagi oʻkuz - "daryo", ak - "kichik", yaʼni daryocha soʻzining oʻzgargan shakli deb hisoblaydi. Mirzachoʻl da oʻzak suv jildirabgina oqib turgan jilgʻa, shoʻrazak - shoʻr suvli jilgʻacha.

Viloyatdagi antropotoponimlar orasida Usmonobod nomini izohlash maqsadga muvofiq. Aholi punkti mashhur davlat va siyosat arbobi Usmon Yusupov (1900-1966) nomi bilan atalgan. Usmon Yusupov 1937-1950 yillari Oʻzbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi lavozimida ishlagan. 1953-1955 yillari Oʻzbekiston Ministrlar Soveti raisi boʻlgan. 1955-1966 yillari Boyovut tumanidagi Boyovut xoʻjaligida direktor boʻlib ishlagan. U.Yusupov respublika rahbari boʻlgan yillarda

xalq hashari yoʻli bilan yirik suv inshootlari Katta Fargʻona kanali va Kattaqoʻrgʻon suv ombori qurilgan.

Xulosa qilib aytganda, Sirdaryo viloyati toponimiyasi boshqa mintaqalardan katta farq qiladi. Viloyatda toponimlar soni nisbatan kam, ularning asosiy qismini Mirzachoʻlni oʻzlashtirilishi bilan bogʻliq "sunʼiy" nomlar tashkil qiladi. Mirzachoʻlni oʻzlashtirishda butun respublika qatnashgan, uni viloyat toponimlari tarkibidagi koʻchma nomlardan bilsa boʻladi.

**Sirdaryo gidronimi haqida.** Sirdaryo - oʻtmishda turli nomlar bilan atalgan. Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida Yaxartes (Yaksart), baʼzan Tanais, zardushtiylarning muqaddas kitobi "Avesto" da Danu, Yaosha, xitoy transkripsiyasida Yaosha, 10 asrda yozilgan geografik asar "Hudud ul-alam" kitobida Xashart, runiy (turkiy) yozuvlarda Yenchuoʻgʻiz, Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" sida va Hamdulloh Qazviniyning "Nuzhat ul-qulub" asarida Gulzarriyun, urablar kelgandan keyingi koʻpgina solnomalarda Sayxun deb tilga olingan.

Arab geograflaridan Ibn Xardodbeh asarlarida (IX-X asrlar) Xashart va Qanqar, Abu Rayhon Beruniy asarlarida Xasart shakllarida qayd qilingan. Ayni vaqtda, daryo qaysi hududdan oqib oʻtishiga qarab, Obi Fargʻona (Fargʻona suvi), Oʻzgan daryosi, Obi Hujand (Hujand suvi), Nahr ash-Shosh (Shosh daryosi), Banokat daryosi kabi nomlar bilan ham atalgan.

Hozirgi Sirdaryo nomi qachon paydo boʻlganligi haqida Suyun Qorayev shunday yozgan: "Rim tarixchisi Pliniy (milodiy I asr) daryoni skiflar (saklar) Silis deydi. Baʼzi olimlar Silis - Sir soʻzining oʻzginasi deb biladilar. Demak, Sirdaryo qadim zamondayoq oʻrta va yuqori oqimida Yaksart, quyi oqimida Silis (Sir) deb atalgan".

Taʼkidlash joizki, sir - "rang, buyoq", "sariq daryo", "serob daryo", "sirt daryo" degan maʼnoni bildiradi degan xulosani notoʻgʻri ekanligini H.Hasanov alohida taʼkidlagan. Shu bilan birga, S.Qorayevning "bu azim daryo shu atroflarda yashagan sar (silis - sir) qabilasi nomi bilan atalgan deyish ancha haqiqatga yaqin", degan fikriga ham qoʻshilib hoʻlmaydi. Demak, daryo nomi qanday maʼnoga ega degan savol hozirgacha javobsiz qolmoqda.

Ma'lumki, O'rta Osiyo sharoitida azaldan inson suv manbalarga yaqin joyni o'ziga yashash makoni sifatida taulagan. Chunki suv obyektlari inson hayotida qadim zamonlardan buyon katta ijtimoiy, iqtisodiy ahamiyat kash etgan. Binobarin, suv obyektlarini bildiruvchi nomlar sekin - asta ular yashagan joylarni, maskanlarni ham ifoda etgan. Gidronimlarning boshqa geografik obyektlarga nom bo'lib o'tishi hodisasi bor hayotiy voqelik sanaladi.

**4. Savol va topshiriqlar:**

1. Samarqand viloyati toponimlari tarkibida so'g'diy nomlarning ko'pligi sababini izohlang.
2. Jizzax viloyati hududidan boshqa joylarda ham uchraydigan indikator termindlar haqida yozma ma'lumat to'plang.
3. Sirdaryo viloyati toponimiyasi tarkibida "sun'iy" nomlarning ko'payishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?

**5. Test topshiriqlari:**

1. Samarqand viloyati etnonymlar soni jihatidan respublikada ... viloyatlaridan keyin turadi.
  - A. Toshkent vodiysi
  - B. Ferg'ona vodiysi
  - C. Janubiy O'zbekiston
  - D. Quyi Amudaryo
2. Samarqandning qadimiyligiga ishora qilib, "sharqda Samarqand, g'arbda ..." deyilgan. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni qo'ying va belgilang.
  - A. Parij
  - B. London
  - C. Rim
  - D. Afina
3. Jizzax so'zining lug'aviy ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'ratilgan?
  - A. turkiy, jiz - "jazirama", zax - sernam joy
  - B. sog'diy, diz - "qal'a", ak (a'zb, cha) - qo'shimcha
  - C. forsiy, diz - "qal'a", ak (a'zb, cha) - qo'shimcha
  - D. o'zbekcha, jizzax - yozi issiq, qishi sovuq joy.

4. Jizzax viloyatida dastlabki ruscha nomlar qachon paydo bo'lgan?

- A. XIX asr oxirida
- B. XX asr boshida
- C. Qadimdan mavjud bo'lgan
- D. XXI asrning boshida

5. Sirdaryo arablar kelganidan keyin qanday nom bilan atalgan?

- A. Joxsun
- B. Yaksart
- C. Sayxan
- D. Tanais

## AMALIY MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Amaliy mashg'ulotlarning bosh maqsadi talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratilgan. Mashg'ulotning bu turida talabalar turli sohaga oid adabiyotlar, karta va lug'atlardan nomlar haqida ma'lumot to'playdilar, ularni tahlil qilib, jadval to'ldiradilar, diagrammalar yasaydilar, toponimik adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradilar va shunga muvofiq baholanadilar.

Toponimika fani bo'yicha belgilangan amaliy mashg'ulotlar shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi sanaladi. Taklif qilinayotgan amaliy mashg'ulotlar majmuasi nazariy mashg'ulotlar mavzularining deyarli barchasini qamrab olgan va 17 ta amaliy mashg'ulotlar mavzusi quyidagi ko'rinishida taklif qilindi:

1. Toponimik atamalar jadvalini tuzish va ularni ilmiy adabiyotlar yordamida to'g'ri izohlash.

2. Geografik nomlarning turdosh otlarga aylanishi (detoponimizatsiya) va ularning "ikkinchi hayoti" haqida ma'lumotlar to'plash.

3. Toponimlarni hosil bo'lish jadvalini tuzish va ularning paydo bo'lishi bilan bog'liq qonuniyatlar mohiyatini anglab yetish.

4. Toponimlarning mazmuniga ko'ra turlari jadvalini tuzish va ularning toponimlashish jarayonini aniqlash.

5. Tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan hamda oydin va nooydin nomlar, ularning paydo bo'lish sabablari.

6. Turli tillarda eng ko'p qo'llaniladigan (bayanalimal) terminlar jadvalini tuzish va ularni tahlil qilishni o'rganish.

7. Turli tillardagi shahar termini yordamida toponimlar jadvalini tuzish.

8. Toponimik tadqiqotlar. Toponimik ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil qilish.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining geografik nomlar haqidagi Qarorlari, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha respublika komissiyasining ish faoliyatini o'rganish.

10. Yashash hududidagi geografik nomlari va ularning ma'nosi.

11. O'rta Osiyo va O'zbekiston toponimlari.

12. Yevrosiyo toponimlari.

13. Afrika toponimlari.

14. Shimoliy Amerika toponimlari.

15. Janubiy Amerika toponimlari.

16. Avstraliya, Okeaniya va Antraktida toponimlari.

17. Referatlar prezentatsiyasi.

**Izoh:** O'quv reja va fan dasturida mazkur mashg'ulot turiga ajratilgan soat hajmiga qarab mos ishlar tanlab olinadi. Oliy ta'lim muassasasi imkoniyatidan kelib chiqib yangi amaliy mashg'ulotlar kiritilishi mumkin.



## MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA ULARNI BAJARISH BO'YICHA METODIK TAVSIYALAR

Mustaqil ishlar talabalarga ma'ruza darslarida tinglaydigan va amaliy mashg'ulotlarda bajaradigan nazariy bilimlari va malakalariga qo'shimcha ravishda bajarishlari uchun beriladi. Mustaqil ishlarni bajarishda talabalar mustaqil ravishda manba, ma'lumotlar, tahlil natijalari, internet va ommaviy axborot vositalaridan foydalanib, aniq belgilab berilgan mavzularni turli shakllarda topshiradilar.

Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan mavzularni talabalar seminar, referat va og'zaki shaklda topshirishlari mumkin. Topshiriq shakllari mavzular ko'lamini, ahamiyati va ilmiyligi hisobga olingan holda tavsiya etiladi. Mustaqil ishlarni bajarish orqali talabalar nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, tahlil qilish va mustaqil fikrlash malakasiga ega bo'lishadi. Mustaqil ishlarning og'zaki shaklda topshirilishi talabalarda o'z fikrlarini va bilimlarini mustaqil bayon qilish malakasini oshiradi, so'z boyligini ko'paytiradi, nutq madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Seminar shaklidagi topshiriqlar talabalarning yig'ilgan ma'lumotlar tahlilini yozma bayon qilish malakasini, manbalar ustida ishlash, kerakli ma'lumotlarni ajrata bilish ko'nikmalari paydo bo'ladi. Referat shaklidagi topshiriqlar talabalarda muayyan mavzu bo'yicha ilmiy fikrlash, bayon qilish, yozma nutqni shakllantirish malakasini oshirishga yordam beradi. Har xil ko'rinishdagi topshiriqlarni bajarishda ma'lum qoidalarga amal qilish talab etiladi. Xususan yozma shakldagi topshiriqlarda ishni izchil, tartib bilan, tushunarli qilib yozish, muammolarni va ularning yechimlarini ko'rsatish, chizmalar va xaritalar bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil ishlarni bajarish ko'rsatilgan muddat ichida, ya'ni semestr davomida bajariladi. Mustaqil ishlarni baholash joriy va oraliq baholashga mushtarak olib boriladi. Mustaqil ishlar topshiriqlarining ballari joriy va oraliq ballarga qo'shiladi. Toponimika fani bo'yicha belgilangan mustaqil ta'lim mavzulari shu fanni o'rganish jarayonining tarkibiy qismi sanaladi.

Mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini inobatga olib, quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallardan foydalangan holda fanning ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- maxsus adabiyotlardan foydalangan holda fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- o'quv jarayonida foydalaniladigan yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- fanning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liq bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- masofaviy (distanston) ta'limdan foydalanish va h.k.

Kurs bo'yicha mustaqil ta'lim talabalarga oldindan berib qo'yilgan mavzular bo'yicha kurs ishi, referat, xaritalar chizish va tahlil qilish, jadvallar to'ldirish, qo'shimcha ma'lumotlar to'plash orqali amalga oshiriladi.

Taklif qilinayotgan mustaqil ish majmuasi mazkur fanning deyarli barcha mavzulari doirasida shakllantirildi va quyidagi 30 ta mustaqil ish ko'rinishida taklif qilindi:

1. O'zbekiston hududidagi qadimgi turkiy toponimlar tahlili.
2. Geografik terminlar va ularning shakllanish xususiyatlari.
3. Epitoponimlar va ularning vazifasi.
4. Toponimist olim S.Qorayevning toponimik merosi.
5. Tabiiy geografik omillar asosida shakllangan toponimlar tahlili.
6. Mahmud Koshg'ariyning toponimik merosi.
7. Geografik obyektlarni nomlashda mavjud muammolar tahlili.
8. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda geografik nomlarni o'rganish.
9. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida paydo bo'lgan toponimlar.

10. Geografik nomlar klassifikatsiyasi.
11. Diniy va afsonaviy nomlar tahlili.
12. Geografik obyektlarni nomlashning huquqiy asoslari.
13. O'zbekiston gidronimlarining shakllanish xususiyatlari.
14. Antropotoponimlar va ularning hududiy tarqalish qonuniyatlari.
15. Professor H.Hasanovning toponimik merosi.
16. Cho'l zonasi toponimiyasining shakllanish xususiyatlari.
17. "Boburnoma" dagi geografik nomlar tahlili.
18. Iqtisodiy-ijtimoiy omillar asosida shakllangan toponimlar.
19. Tog'li hududlar toponimiyasining farqlovchi xususiyatlari.
20. O'zbekistonda toponimik tadqiqotlarning hozirgi holati.
21. Geografik nomlarning transformatsiyasi.
22. Toponimik tadqiqotlar tarixi.
23. Geografik nomlarning stratigrafik qatlamlari.
24. O'rta Osiyo joy nomlarini o'rganishga hissa qo'shgan olimlar.
25. "Hudud ul-olam" asaridagi geografik nomlar tahlili.
26. Etnotoponimlar va ularning shakllanish xususiyatlari.
28. Toponist olim E.M.Murzayevning toponimik merosi.
29. Oykonomlar va ularning paydo bo'lish sabablari.
30. Maktab geografiya ta'limida joy nomlaridan foydalanish.

**Izoh:** O'quv reja va fan dasturida mazkur mashg'ulot turiga ajratilgan soat hajmiga qarab mos ishlar tanlab olinadi. Fan o'qituvchisi kafedra bilan kelishilgan holda, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, yangi mustaqil ish mazularini shakllantirishi mumkin.

## GLOSSARIY

Toponimikani ham boshqa fanlar kabi o'ziga xos tayanch so'z va iboralari mavjud. Ularni yaxshi o'zlashtirish esa, fan sir-asrorlarini bilib olishni osonlashtiradi. Quyida toponimikada qo'llaniladigan tayanch so'z va iboralarni qisqacha sharhi berilgan.

**Agroonim** – (yunoncha, agros - «dala, ekinzor, shudgor») - toponimning bir turi. Masalan, Bedapoya, Paxtazor, Sholipoya.

**Antroponim** – (yunoncha, antropos - «odam») - atoqli otning bir turi. Odamning ismi, familiyasi, taxallusi, laqabi. Masalan, Navoiy, Hamid Olimjon, Safarota, Hayitqultepa.

**Atoqli ot** – biron obyektini boshqa obyektlardan farq qilish uchun xizmat qiladigan so'z yoki so'zlar birikmasi, onimi. Masalan, Mirzacho'l, Qizilqum, Farg'ona, Qili va boshqalar.

**Geografik obyektlar** – Yerning hozirda yoki o'tmishda mavjud bo'lgan hamda muayyan o'rnatilgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun'iy bo'lgan yaxlit va nisbatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma'muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlar); transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi obyektlari (temir yo'l stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari, vokzallar, ayeroportlar, portlar, pristanlar, ko'priklar, raz'ezdlar, yo'llar, kanallar, suv omborlari, to'g'onlar, dambalar); tabiiy obyektlar (daryolar, ko'llar, muzliklar, tekisliklar, tog'lar, tog' tizmalari, g'orlar, cho'llar, vodiylar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag'irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi.

**Geografik obyektlarning nomlari** – geografik obyektlarning ularni farqlash va aniqlash uchun foydalanadigan o'z nomlari.

**Geografik obyektning nomini belgilash** – yanada normallashtirish maqsadida geografik obyektning nomini aniqlash.

**Geografik obyektning nomini normallashtirish** – geografik obyektning eng ko'p foydalaniladigan va eng maqbul nomini

tanlash, ushbu nom yoziladigan shaklini belgilash hamda tasdiqlash.

**Geografik obyektning nomini o'zgartirish** – geografik obyektning hozirgi nomini ushbu Qonunda belgilangan hollarda va tartibda o'zgartirish; geografik obyektlarning nomlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi - O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi (O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi).

**Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning davlat ekspertizasi** – geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan hamda O'zbekiston Respublikasi "Yergeodezkadastr" davlat qumitasi tomonidan o'tkazilgan toponimik, etnografik, lingvistik, kartografik va boshqa tadqiqotlar majmui.

**Geografik termin** – geografik obyektning turini bildiradigan so'zlar geografik terminlar hisoblanadi. Masalan, adir, qir, ko'l, cho'l, tog', quduq, soy, tekislik va boshqalar. Geografik terminlar turdosh otlar bo'lganida geografik nomdan keyin kichik harflar bilan alohida yoziladi. Ko'proq shevalarda ishlatiladigan terminlar mahalliy geografik terminlar yoki xalq geografik terminlari deyiladi.

**Gibrid nom** – ikki va undan ortiq tillarning leksik va morfologik unsurlaridan tarkib topgan nomlar. Masalan, Toshkamar, Ko'kgumbaz, Xayrobod, Yangikent va boshqalar.

**Gidronim** (yunoncha, gidro - suv, onim – nom, ism) - toponimning bir turi. Tabiiy yoki inson tomonidan bunyod etilgan har qanday suv obyektlari - okeanlar, dengizlar, daryolar, kanallar, suv omborlari, soylar, quduqlar va boshqalar. Masalan, Atlantika, Baykal, Sangzor, Sirdaryo, Aydarko'l, Tuzkon.

**Makrotoponim** ma'lum va mashhur bo'lgan tabiiy geografik obyektning atoqli oti, materiklar, qit'alar, okeanlar, eng katta tekisliklar, tog'lar, tabiiy geografik o'lkalar nomi. Masalan, Yevropa, Turon, Amerika, Osiyo, Oloy, Pomir. Bular ko'pincha

olimlar, sayyohlar tomonidan beriladi va rasmiylashtiriladi. Makrotoponimlar ba'zida yerli aholiga ma'lum bo'lmastligi mumkin, Chunki, ular asosan mikrotoponimlardan foydalanadilar.

**Mikrotoponim** – muayyan hududda ma'lum bo'lgan kichik geografik obyektlarning atoqli otlari. Masalan, buloqlar, ko'priklar, jarliklar, quduqlar, bog'lar va boshqalar. Mikrotoponimlar uchun omonatlik, o'zgaruvchanlik, harakatchanlik xosdir, hamda ular nafaqat geografik tushuncha balki, ma'naviy tushuncha hamdir. Mikrotoponimlar odatda og'zaki nutqda qo'llaniladi, kandan-kam yuzuv ma'lumotlarida ishlatiladi. Tilning o'zgarishi bilan mikrotoponimlar ham o'zgaradi. Ularning ko'pchiligi yuqolib ketishi ham mumkin. Mikrotoponimlar ko'p vaqtda ma'lum hududda yashovchilar ichida uchratiladi va uni yakka shaxs ham yaratishi mumkin.

**Oykonim** – (yunoncha, oykos - uy, turar joy, makon) - toponim turi, aholi yashaydigan har qanday joyning qishloq, ovul, shaharcha, shaharning nomi. Masalan, Toshkent, Nukus, Jizzax, Zomin, Marjonbuloq.

**Oronim** – (yunoncha, oros - «tog'») - tog'lar, qirlar, tepaliklar, dovonlar, daralar va boshqa bir qator orografik obyektlarning nomi. Masalan, And, Himolay, Alp, Pomir, Oloy.

**Toponim** – (yunoncha, topos - joy, makon, onima- nom, ism.) - har qanday geografik obyektning atoqli oti, nomi. Masalan, gidronim, oykonim, urbonim, agroonim.

**Toponimik landshaft** – ma'lum hududda turli davrlarda turli xalqlar tomonidan yaratilgan geografik nomlar majmui.

**Toponimik negiz** – toponimik leksikaning formatsiz qismi: Olma-zar; Zargar-lik; Paxta-kor; Zafar-obod va hokazo.

**Transkripsiya** – (lotincha, transcriptio - «ko'chirib yozish») - boshqa tildagi geografik nomlar (fonemalar)ni o'z tilidagi grafemalar (harflar) bilan ifodalash, yozish. Transkripsiya deganda so'zlarni va matnlarni ularning talaffuzini hisobga olgan holda muayyan yozuv vositalari yordamida yozish, ifodalash usuli tushuniladi.

**Formant** – (lotincha, formans - «hosil qiluvchi») - so'z yasaydigan, lekin, mustaqil ishlatilmaydigan unsur. Toponimlar

tarkibida ayniqsa ko'p uchraydi. Masalan, keng- Nushkent, Yangikent; loq - Toshloq, Qumloq va boshqalar.

**Xalq etimologiyasi** – ilmiy etimologiyaga amal qilinmagan holda, noaniq nomlarning boshqa so'zlar yordamida "tushunarli" qilib o'zlashtirilishi; bunda so'zning fonetik va morfologik tuzilishi ham o'zgarib ketadi; masalan: co'g'dcha Shovg'ar (Qoratog') toponimi Shovqor, Kirgili (urug' nomi) toponimi Qirguli qilib o'zgartirilgan.

**Etnonim** – (yunoncha, etnos - «xalq», onim - «ism, nom») - urug', qabila, elat, xalq, millat va boshqa xil etnik uyushmalar nomi. Urug', qabila, xalq nomi o'zi tamonidan tanlangan yoki o'zgalar tamonidan berilgan bo'lishi mumkin. Masalan, barlos, nayman, qipchoq, jaloyir, laqay va boshqalar.

**Etimon** – (yunoncha, etimon - «haqiqat, so'zning asl ma'nosi») - muayyan nomning tatqiqotchilar aniqlagan dastlabki shakli, ma'nosi.

**Haqiqiy toponim** – bu karta, ma'lumotnomalarga tushgan, aslida mikrotoponimlardan kelib chiqqan tabiiy va sun'iy obyektlarning yakka nomi. Ular har xil xalq va turli tillar mahsulidir, juda ko'p ishlatiladi va o'zi joylashgan hududdan boshqa joylarda ham ma'lumdur.

## FOYDALANGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2017 y., 6-son, 70 modda.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -T.: "O'zbekiston". 2017. 592 -b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: "O'zbekiston", 2017. 488 -b.
4. Абдмуратов К.А. Топонимика Каракалпакия. АКД. Нукус, 1966.
5. Агеева Р.А. Страны и народы: Происие названий. – М.: 1990.
6. Ahmadaliyev Yu.I. Toponimika va geografik terminshunoslik. – Farg'ona. 2018. 136 -b.
7. Басих В.И. Общая топонимика. –Минск, 2006. -200 с.
8. Begaliyev N.B. O'zbek etnonimlari tarixidan. - Samarqand, 2004.
9. Begmatov E. Ismlarning sirlil ulami. -T.: «O'zbekiston», 2014.
10. Bobur ensiklopediyasi. -T.: "Sharq", 2014. 743 b.
11. Geografiya va qadriyatlar. //Ilmiy seminar mat-lari. -T.: 2001.
12. Do'simov Z. Xorazm toponimlari. -T.: «Fan», 1985. -104 b.
13. Жучкевич В. А. Общая топонимика. –Минск, 1980. - 288 с.
14. Закиров А.А. Топонимия Джизакской области. АКД. - М.: 1992.
15. Кадмрова Ш.М. Микропонимы Ташкента. АКД. -T.: 1970.
16. Камолитдин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. -T.: "Шарк", 2006. -192 с.

17. Карасв С. Топонимия Узбекистана с топонимическим словарём. -Т.: "Fan", 2015. -530 с.
18. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. -T.: 2009.
19. Karimov S.A., Bo'riyev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. -T.: "Fan", 2006. -132 b.
20. Kushg'ariy Mahmud. Devonu lug'otit turk.-T.: "Fan", 1967. 545-h.
21. Mirakmalov M.T. Tabiiy geografik terminlarning shakllanishida xalq (mahalliy) atamalarining o'ri. AKD. -T.: 1994.
22. Mirakmalov M.T. Xalq tabiiy geografik terminlari. -T.: 2009.
23. Mirakmalov M.T. Geografiyada toponimika. -T.: 2008.
24. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. -М.: "Мысль", 1974. -382 с.
25. Мурзаев Э.М. География в названиях. -М.: "Наука", 1979. -166 с.
26. Найимов С.Н. Бухоро области топонимияси. -Т.: 1984.
27. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. -T.: 2009. -432 b.
28. Nizomov A. Toponimika. -T.; "Sharq", 2012. -120 b.
29. Никонов В.А. Введение в топонимику. -М.: "Наука", 1965. -178 с.
30. Охинов N. O'zbekiston toponimiyasi. -Qu'qon, 2005. -90 b.
31. Поспелов В. М. Географические названия мира: Топонимический словарь. - М.: ООО "Издательство АСТ", 2001. -512 с.
32. Рахматов Т. Топонимия города Самарканда и его окрестностей. АКД, Ташкент, 1973.
33. Saidniyozov K.M. Amudaryo etagi o'ng sohil toponimlari. AKD. -T.: 1998.
34. Сапаров К.Т., Егинбаева А.Е. Топонимика региона как основа восстановления и развития ландшафтов. — Алматы, 2013. -168 с.

35. Стамм Л.Д. Словарь общегеографических терминов. 1-2 том. -М.: "Прогресс", 2005.
36. Суперанская А.В. Что такое топонимика? -М.: "Наука", 1985.
37. Суперанская А.В. Теория и методика ономастических исследований. -М., "Наука", 1986. -с. 15-25
38. Супруненко П.П., Супруненко Ю.П. Топонимика. -М.: «Терра», 2004.
39. Топонимика в региональных географических исследованиях. -Москва, «Наука», 1984. -110 с.
40. Toshkent shahri va viloyati toponimlari muammolari. // Iltimiy-amaliy konferensiya tezislari. -T.: 1994. -92 b.
41. Ханмагомедов Х.Л. Географический фактор в топонимии. //Вестн. Прикарпат. ун-та. Сер. филол. -2011. № 29. -с. 31-35.
42. Хромов А.Л. Очерки по топонимии и микротопонимии Таджикистана. -Душанбе. "Ирфон", 1975. -85 с.
43. Enazarov T. O'zbek nomshunosligi. -T.: 2015. 225 b.
44. Enazarov T. O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari. //ADD. -T.: 2007. 46 -b.
45. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 jild, -T.: 2000 -2007.
46. O'zbekiston Respublikasi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi 2011 yili 12 oktyabrdagi № O'RQ-303 -sonli Qonuni.
47. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 16 oktyabrdagi № 295-sonli Qaruri.
48. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 4 martdagi № 48-sonli Qarori.
49. O'rinboyev B. Jizzax toponimlarining ta'hiri. -Samarqand, 2007.
50. Qorayev S. O'zbekiston toponimlarini hosil qiladigan asosiy terminlar va boshqa so'zlar lug'ati. -T.: 2001. -176 b.
51. Qorayev S. O'zbekiston viloyatlari toponimlari. -T.: 2005.
52. Qorayev S. Toponimika. -T.: "O'zb. faylasuflar jamiyati", 2006.

53. G'ulomov P.N., Mirakinalov M.T. Toponimika va geografik terminshunoslik. O'quv qo'llanma. -T.: Universitet, 2005.

54. G'ulomov P.N. Toponimlarni turlari va joy nomlarini rayonlashtirish haqida mulohazalar. O'z.GIA. 42-jild. -T.: 2013.

55. Hakimov Q.M. Toponimika. -T.: "Mumtoz so'z". 2016

56. Hakimov Q.M. Jizzax viloyati toponimlari. -Jizzax, 2014.

57. Hakimov Q.M. Kartadagi so'z. -T.: "Olam", 2019. -228 b.

58. Hasanov H. O'rtaosiyolik geograf va sayyohlar. -T.: 1964. -252 -b.

59. Hasanov H. Tanlangan asarlar. -T.: "Vneshinvestprom", 2019.

60. Gelling, Margaret. Ann Cole. The landscape of place-names. Shaun Tyas / Paul Watkins, new edition, 2014.

61. Kerfont Helen. Role of the United Nations in the standardization of geographical names. Utrecht, Netherlands, 2002.

62. Natali Kadmon. Toponymy: The lore, Laws of Language of Geographical Names. Vantage Press, 2001.

63. Mammadov N.G. Toponimika. Baki, 2007. 408 -b.

64. Tucker B., Ruse-Redwood R. Toponymic politics and the rescaling of the Salish Sea // The Canadian Geographer. 2015. Vol. 59. No. 2. Pp. 194-206.

65. Internet manhalari:

wikipediya.uz

dic.academic.ru

edu.nisn.ru/flims/morphothema/14.html

google.com; ya.ru; yahoo.com; yandex; aport; rambler; MSN

http://social.philosophy.ru.ru/

geo.ru

geografiya.cc.uz

uzgeo.uz

www.ziyu.net

## XO'TIMA

Toponimika geografiya, tilshunoslik, tarix fanlari manfaatlari tutashgan joyda rivojlanayotgan mustaqil integral fan hisoblanadi. U barcha yuqorida tilga olingan fanlar metodlaridan kompleks holda foydalanib geografik nomlarni to'liq va har tumonluma o'rganadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bitta geografik nomni o'zi, agar u morfologik va semantik jihatdan shaffof bo'lgan taqdirda ham kerakli toponimik ma'lumotlarni berolmaydi. Shu sababdan, uni kompleks tarzda o'ziga o'xshash nomlar qatorida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Hozirgi davrda toponimik tadqiqotlar izchillik bilan davom etmoqda. Yer yuzidagi millionlab geografik obyektlarning hududiy joylashgan o'rnini nomlar orqali aniqlanadi. Ular yordamida hududiy landshafllarni o'tmishdagi holatini tiklash mumkin. Ma'lumki, har qanday toponim aniq bir informatsiyaga ega va u ko'pincha real voqea-hodisani o'zida aks etadi. Asosiy vazifa geografik nomlarni chuqur o'rganish, tarixiy ma'lumotlarni keng jalb qilgan holda ulardan to'laroq foydalanishdan iborat.

Chuqur differensiyalashgan va detalizatsiyalashgan xalq geografik terminlari ilmiy va ilmiy-baynalmilal terminlarning kengaytirish manbai bo'lib xizmat qiladi. Joy nomi uchun geografik termin va nomlanadigan geografik obyekt o'rtasidagi mavjud genetik aloqa juda muhim sanaladi. Chunki, ko'p hollarda geografik terminlar tabiiy obyektlarning xususiyatlarini o'zida aniq in'ikos etadi. Bunday toponimik terminlar ko'pincha geoinikator vazifasini bajaradi. Muxtasar aytganda, toponimik bilimlar majmui, geografiya, tarix va filologiya fanlarining simbiozidir.

Geografik nomlar ijtimoiy zarurat tufayli aniq bir tarixiy sharoitda paydo bo'lgan, ularning kelib chiqishi juda ko'p hollarda jamiyat hayoti, ma'lum hududda yashagan yoki yashayotgan xalqlar tili bilan bog'liq. Tarixiy sharoit, til va xalqlarni o'zgarishi bilan birga ularni tarqalish areali, ya'ni geografik muhit ham o'zgaragan. Shu sababdan, hech bir mamlakat geografik nomlarida bir xillik kuzatilmaydi.

Ular uzoq tarixiy davr davomida ko'p qatlamli va turli tillarga mansub elementlar sifatida shakllangan. Toponimik areallar hozirgi lingvistik chegaralarni tan olmaydi, ular uzoq tarixiy davrlar davomida xalqlarni mintaqalar bo'ylab harakatlanishidan dalolat beradi. Binobarin, katta hududlar miqyosida joy nomlarini o'zaro taqqoslab o'rganish, toponimlarning asosiy shakllanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Geografik nomlarni qanday yo'l bilan paydo bo'lishidan qat'iy nazar, ularda doimo barcha nomlarga xos bo'lgan umumiy, universal belgini qayd qilish mumkin, ular kishilarni umumiy tafakkurlash xususiyati bilan bog'liq, ya'ni atrofdagi ko'zga yaqqol tashlanadigan real voqealarni tanlash va uni nom sifatida mustahkamlashdan iborat. Nom tanlashdagi bunday harchaga umumiy bo'lgan hodisa geografik nomlarni shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini aniq va har lumonlama o'rganish imkoniyatini beradi.

Toponimikada bahs talab muammolar ko'p. Binobarin, kitobda keltirilgan ayrim faktlar munozarali, ba'zilar asoslangan, hoshqalari esa kamroq ishonarli bo'lishi mumkin. Ammo, shu narsa aniqki, har qanday bahs va munozaralar manfaatdan xoli emas, chunki ular yordamida keyingi ilmiy izlanishlar yo'llari belgilab olinadi va eng muhimi yanada yuqori natijalarni qo'lga kiritishga imkoniyat paydo bo'ladi. Xitoylarda, "nomini eshitgandan ko'ra, yuzini ko'rmoq afzal" degan naql bor, ammo davlat o'tishi bilan yuzini ko'rishni iloji bo'lmaganda, bilimdon qo'lidagi nom uzoq o'tirishga nazar tashlash va qadimgi so'zlarni tiklash imkonini beradi.

Etimografik tadqiqotlarda va xalq og'zaki ijodini o'rganishda geografik nomlarning ham salmoqli o'rni bor. Sababi, nomlar ham xalq ijodini mahsuli, xalq uni xuddi maqol, rivoyat, doston kabi dilu tilida, shuuru tafakkurida saqlab keladi. Nomlarning katta qismi xalq xotirasi orqali hozirgacha yetib kelgan. Shu bois, xalq og'zaki ijodini joy nomlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ular xalq og'zaki ijodida tayanch nuqta, aniq manzil, voqealiklar sodir bo'lgan joy, yurt, mamlakat nomidir.

Tilshunoslik nuqtai nazardan ham geografik nomlar katta ahamiyatga ega. Joy nomlari til taraqqiyotining qiyosan keyingi bosqichlarida turdosh otlar (apellyativlar) dan kelib chiqqan. Toponimlar til lug'at tarkibini bir qismi bo'lishi bilan birga, joy nomlari yasashda muayyan til uchun xos bo'lgan lingvistik vositalardan (modellardan) foydalanadi.

Shu bilan birga, har bir tilda toponim yasovebi o'ziga xos vositalar paydo bo'lgan. Ma'lumki, hozirgi matematika lingvistikasi ko'pincha aloqli otlar va ba'zan toponimlarni tahlil qilib xulosalar chiqaradi. Toponimikaning lingvistik yo'nalishi orqali geografik nomlarning til va jamiyatdagi shakllanish qonuniyatlari, grammatik tuzilishi, to'g'ri yozilishi, etimologik talqini, dialektlarni tarqalish areallari kabi masalalar tadqiq qilinadi.

Toponimikaning hozirgi davrdagi eng muhim vazifalaridan biri, geografik nomlarni qat'iy lashtirish va standartlash hisoblanadi. Geografik obyektlar nomlarini tartibga solish bugungi kunda davlat ahamiyatiga molik masalaga aylandi. Ularni qo'llash ko'lami esa, oddiy fuqarodan to davlat hokimiyati organlarigacha kengaydi. Geografik nomlar milliy qadriyat qatlamlaridan biri sifatida, xalq tarixi, madaniyati, tilini o'zida mujassam etib, milliy birlikni va davlat mustaqilligini mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Toponimik bilimlarni amalda qo'llashning yana bir sohasi, geografik obyektlarning nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish, geografik nomlarni maqbullashtirish, ularni to'la inventarizatsiyadan o'tkazish va davlat reyestrini tuzish hamda toponimik ma'lumotlarni axborot bazasini yaratishda faollik ko'rsatishdan iborat.

Toponimika muhim ma'rifiy funksiyani ham bajaradi. Joy nomlari insoniyat tomonidan yaratilgan tarixiy, ma'naviy va madaniy yodgorlik sanaladi. Shu sababdan, turli davrlar va tillarda paydo bo'lgan toponimlarda sivilizatsiya tarixi o'z aksini topgan. Har yili chop etilayotgan ko'p sonli ilmiy va ilmiy-ummiy nashrlar toponimik ma'lumotlarga qiziqish ortib borayotganligidan dalolat beradi.

Kulosa qilib aytganda, toponimika ilmiy fan sifatida jadal rivojlanmoqda ekan, insoniyat tarixidagi ilmiy, tarixiy, madaniy va milliy qadriyatlarning eng muhim elementlaridan biri bo'lgan geografik nomlar mazkur fanning o'rganish obyekti bo'lib qolaveradi.

## II. O'YALAR

### **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI**

#### **“GEOGRAFIK OBYEKTLARNING NOMLARI TO'G'RSIDA»**

##### **I-bob Umumiy qoidalar**

**1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi va qo'llanish sohasi**

**Ushbu Qonunning maqsadi geografik obyektlarning nomlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.**

Ushbu Qonunning amal qilishi O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan geografik obyektlar nomlarining ulardan O'zbekiston Respublikasida foydalanishga doir qismiga ham tatbiq etiladi.

##### **2-modda. Geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazardan tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

##### **3-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**geografik obyektlar** Yerning hozirda yoki o'tmishda mavjud bo'lgan hamda muayyan o'lmashgan joyi bilan tavsiflanadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sun'iy bo'lgan yaxlit va nishatan barqaror hosilalari. Ular jumlasiga: ma'muriy-hududiy birliklar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar); aholi punktlari va ularning tarkibiy qismlari (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlar); transport va muhandislik - texnika infratuzilmasi obyektlari (temir yo'l stansiyalari, avtostansiyalar, metropoliten stansiyalari,



yokzallar, aeroportlar, portlar, pristanlar, ko'priklar, raz'ezdlar, yo'llar, kanallar, suv omborlari, to'g'onlar, dambalar); tabiiy obyektlar (daryolar, ko'llar, muzliklar, tekisliklar, tog'lar, tog'tizmalari, g'orlar, cho'llar, vodiyalar, daralar, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, yonbag'irlar, foydali qazilmalar konlari) va boshqa shu kabi obyektlar kiradi;

**geografik obyektlarning nomlari** – geografik obyektlarning ularni farqlash va aniqlash uchun foydalanadigan o'z nomlari;

**geografik obyektning nomini belgilash** – yanada normallashtirish maqsadida geografik obyektning nomini aniqlash;

**geografik obyektning nomini normallashtirish** – geografik obyektning eng ko'p foydalaniladigan va eng maqbul nomini tanlash, ushbu nom yoziladigan shaklini belgilash hamda tasdiqlash;

**geografik obyektning nomini o'zgartirish** – geografik obyektning hozirgi nomini ushbu Qonunda belgilangan hollarda va tartibda o'zgartirish; geografik obyektlarning nomlari sohasidagi maxsus vakolatli davlat organi - O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi (O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qo'mitasi);

**geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning davlat ekspertizasi** - geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi tomonidan o'tkazilgan toponimik, etnografik, lingvistik, kartografik va boshqa tadqiqotlar majmui.

#### 4-modda. Geografik obyektlarning nomlariga doir talablar

Geografik obyektga berilayotgan nom:

geografik obyektga eng xos bo'lgan belgilarni aks ettirishi;

nazkur geografik obyekt joylashgan yerdagi geografik obyektlar nomlarining mavjud lizimiga mos tushishi;

mahalliy aholining fikrini hisobga olishi;

qoida tariqasida, ko'pi bilan uchta so'zdan iborat bo'lishi; ushbu Qonun 6-moddasining ikkinchi qismi talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Viloyatlar, tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar ovullar, aholi punktlariga odamlarning ismi-sharifining berishga, shuningdek ularni tarixiy voqealar sharafiga nomlashga, qoida tariqasida yo'l qo'yilmaydi.

Ko'chalar, shohko'chalar, mahallalar, maydonlar, bog'larga va aholi punktlarining boshqa tarkibiy qismlariga ayrim odamlar, jamoat arboblari, siyosiy arboblarning ismi-sharifini berishga, qoida tariqasida, yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan shaxslar bundan mustasno.

Vakolatli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan tashkil etilayotgan geografik obyektlarga ularni tashkil etish to'g'risidagi tegishli hujjatlar bilan ushbu Qonun talablariga muvofiq nom beriladi.

Ma'muriy-hududiy birliklarning nomlari, qoida tariqasida, ularning ma'muriy markazlari nomidan, ushbu ma'muriy-hududiy birliklar joylashgan hudud qismining geografik yoki tarixiy nomidan hosil bo'lishi lozim.

Transport va muhandislik-texnika infotuzilmasi obyektlarining, shu jumladan aeroportlar, yokzallar, portlar, pristanlar, raz'ezdlar, temir yo'l stansiyalarining va boshqa obyektlarning nomlari, qoida tariqasida, ularning yonida joylashgan aholi punktlarining yoki ular tarkibiy qismlarining, boshqa geografik obyektlarning nomlaridan hosil bo'lishi kerak.

Quyidagilarga aynan bir xil nom berilishiga yo'l qo'yilmaydi:

O'zbekiston Respublikasi doirasidagi viloyatlar, tumanlar, shaharlarga;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar doirasidagi shaharchalar, qishloqlar, ovullarga;

bir tuman, shahar yoki aholi punkti doirasidagi bir nechta turdosh geografik obyektlarga.

**5-modd. Geografik obyektlarning nomlarini o'zgartirishga doir talablar**

Geografik obyektning nomlarini o'zgartirishga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

geografik obyektning belgilangan maqsadi jiddiy tarzda o'zgartirishda;

ayrim geografik obyektlarning tarixiy nomlarini tiklash zarur bo'lganda;

agar geografik obyekt geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvotiq kelmaydigan qisqartma so'z, raqam yoki so'z birikmasi bilan belgilangan bo'lsa;

geografik obyektlarga ushbu Qonun 4-moddasining uchinchi qismida nazarga tutilgan shaxslar ismi-sharifini berish zarur bo'lganda;

geografik obyektlarning ushbu Qonun 4-moddasining yettinchi qismida nazarda tutilgan bir xil nomlari mavjud bo'lganda.

**6-modd. Geografik obyektlarning nomlarini belgilash**

Geografik obyektlarning nomlari hududni kartografiya qilish, toponimik tadqiqotlar o'tkazish vaqtida, shuningdek geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlanayotganda:

tegishli davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning hujjatlari;

rasmiy kartografik hamda ma'lumotnoma nashrlarining, statistik, arxivga oid, tarixiy va boshqa manbalarning ma'lumotlari;

mahalliy aholi, shuningdek o'lkashunoslar, geograflar, tarixchilar va boshqa mutaxassislar o'rtasida so'rovlar o'tkazish asosida belgilanadi.

Geografik obyektlarning nomlarini belgilashda:

mahalliy aholi turmushining geografik, tarixiy, milliy, etnik, tilga oid va boshqa xususiyatlari hisobga olinadi;

geografik obyektlar nomlarining yangilishiga olib keluvchi o'xshashligi, ushbu nomlarning hurmatsizlik mazmunida bo'lishi, O'zbekiston xalqining tarixi, an'analari va madaniyati bilan nomuvofiqligi istisno etiladi.

**II-BOB. DAVLAT ORGANLARINING GEOGRAFIK  
OBYEKTLAGA NOM BERISH VA ULARNING  
NOMLARINI O'ZGARTIRISHGA DOIR VAKOLATLARI  
HAMDA VAZIFALARI**

**7-modda. Tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va  
ularning nomlarini o'zgartirish**

Tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimlari itimomnomalari asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi kiritgan taklifga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha komissiya (bundan buyon matnda respublika komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi viloyatlar, Toshkent shahar hokimlarining tumanlar, shaharlar, viloyatlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi itimomnomalarini ko'rib chiqadi hamda ularni tegishli hujjatlar bilan birga xulosa olish uchun respublika komissiyasiga yuboradi.

Respublika komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ularni davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasiga topshiradi. Respublika komissiyasi o'tkazilgan ish yakunlariga ko'ra hamda davlat ekspertizasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa beradi, ushbu xulosa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi respublika komissiyasining xulosasini hisobga olgan holda geografik obyektlarga nom berish yoki ularning nomini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqish uchun kiritadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining takliflarini ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

**8-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan  
tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi  
punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish**

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan tumanlar, shaharlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktalariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish tumanlar, shaharlar hokimlarining taklifiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan tumanlar, shaharlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktalariga hamda ularning tarkibiy qismlariga nom berish va ular nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi tomonidan geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasi (bundan buyon matnda Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

Tuman, shahar hokimi mahalliy aholi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning fikrlarini hisobga olgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktalariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni tegishli hujjatlar bilan birga xulosa olish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasiga yuboradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasi taqdim etilgan hujjatlar har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ularni davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi

Yergeodezkadastr davlat qumitasiga topshiradi. Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasi o'tkazilgan ish yakunlariga ko'ra hamda davlat ekspertizasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa beradi, ushbu xulosa geografik obyektga nom berish va uning nomini o'zgartirish to'g'risida taklif kiritgan tuman, shahar hokimiga yuboriladi.

Tuman, shahar hokimi Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasining xulosasini hisobga olgan holda geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi ko'rib chiqish uchun kiritadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tuman, shahar hokimining taklifini ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

#### **9-modda. Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish**

Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish tumanlar hokimlarining taklifiga ko'ra xalq deputatlari viloyatlar Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi.

Shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga hamda ularning tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish uchun viloyatlar hokimlari tomonidan geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha viloyat komissiyalari (bundan buyon matnda viloyat komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

Tuman hokimi mahalliy aholi, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning fikrlarini hisobga olgan holda shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni tegishli hujjatlar bilan birga xulosa olish uchun viloyat komissiyasiga yuboradi.

Viloyat komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, geografik obyektlarning nomlari

to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ko'rib chiqadi, keyinchalik ularni davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasiga topshiradi. Viloyat komissiyasi o'tkazilgan ish yakunlariga ko'ra hamda davlat ekspertizasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa beradi, ushbu xulosa geografik obyektga nom berish va uning nomini o'zgartirish to'g'risida taklif kiritgan tuman hokimiga yuboriladi.

Tuman hokimi viloyat komissiyasining xulosasiga muvofiq obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida takliflar tayyorlaydi hamda ularni xalq deputatlari viloyat Kengashi ko'rib chiqish uchun kiritadi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi tuman hokimining taklifini ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

#### **10-modda. Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish**

Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga), nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning iltimosnomalari asosida tumanlar, shaharlar Kengashlari tomonidan amalga oshiriladi. Shaharlar tarkibiga kiruvchi tumanlarda takliflar tumanlar hokimlari tomonidan xalq deputatlari shaharlar Kengashlariga kiritiladi.

Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish va tayyorlash uchun tumanlar, shaharlar hokimlari tomonidan geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha tumanlar, shaharlar komissiyalari (bundan buyon matnda tuman, shahar komissiyasi deb yuritiladi) tuziladi.

Tuman, shahar hokimi fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning aholi punktlarining tarkibiy qismlariga (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga) nom berish va

ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi iltimosnomalarni ko'rib chiqadi hamda ularni zarur hujjatlar bilan birga takliflar tayyorlash uchun tuman, shahar komissiyasiga yuboradi.

Tuman, shahar komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ko'rib chiqadi, keyinchalik Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar komissiyasiga kiritish uchun takliflar tayyorlaydi hamda ularni tuman, shahar hokimiga yuboradi.

Tuman, shahar hokimi aholi punktlarining tarkibiy qismlariga (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga) nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi tuman, shahar komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilgan takliflarni tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar komissiyasiga kiritadi, komissiya tayyorlagan materiallar geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi va tegishli xulosa beradi.

Tuman, shahar hokimi tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar komissiyasining xulosasiga muvofiq aholi punktlarining tarkibiy qismlariga (mahallalar, shohko'chalar, ko'chalar, maydonlar, bog'lar, xiyobonlarga) nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risida taklif tayyorlaydi hamda uni xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi ko'rib chiqishi uchun kiritadi.

Xalq deputatlari tuman, shahar Kengashi tuman, shahar hokimining taklifini ko'rib chiqadi va tegishli qaror qabul qiladi.

#### **11-modda. Tabiiy obyektlarga, transport va muhandislik-texnika infratuzulmasi obyektlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish**

Tabiiy obyektlarga, transport va muhandislik-texnika infratuzulmasi obyektlariga nom berish hamda ularning nomlarini o'zgartirish davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy

davlat hokimiyati organlarining taklifiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Tabiiy obyektlarga, transport va muhandislik-texnika infratuzulmasi obyektlariga nom berish hamda ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish respublika komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining takliflarini ko'rib chiqish uchun qabul qiladi hamda ularni tegishli hujjatlar bilan xulosa olish uchun respublika komissiyasiga yuboradi.

Respublika komissiyasi taqdim etilgan hujjatlarni har tomonlama o'rganishni tashkil etadi, geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi nuqtai nazardan ularni davlat ekspertizasidan o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasiga topshiradi. Respublika komissiyasi o'tkazilgan ish yakunlariga ko'ra hamda davlat ekspertizasi natijalarini hisobga olgan holda tegishli xulosa beradi, ushbu xulosa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi respublika komissiyasining xulosasini hisobga olgan holda, geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalasi yuzasidan tegishli qaror qabul qiladi.

#### **12-modda. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha komissiyalarning asosiy vazifalari**

Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish masalalari bo'yicha komissiyalarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston xalqining tarixiy-madaniy qadriyatlari hamda merosi bilan bog'liq geografik obyektlarning nomlari muhofaza qilinishini ta'minlash, asossiz o'zgartirilishining oldini olish;

geografik obyektlarga O'zbekiston xalqining milliy an'analari va mentalitetiga yot bo'lgan nomlar berilishiga hamda ularning nomlari shu ruhda o'zgartirilishiga yo'l qo'ymaslik;

geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish chog'ida mahalliychilik, oshna-og'aynichilik, xizmat mavqacini suliste'mol qilish hollarini istisno etish;

Ushbu Qonun 4-moddasi talablarining hamda geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari boshqa qoidalarining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar komissiyalari tomonidan bajarilishi ustidan nazoratni respublika komissiyasi amalga oshiradi.

Komissiyaning tarkibi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari va xodimlari, fuqarolik jamiyati institutlarining, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining vakillari, shuningdek fan va madaniyat arboblari, ekspertlar, mutaxassislar hamda tegishli faoliyat sohaslarida maxsus bilimlarga ega bo'lgan boshqa shaxslar orasidan shakllantiriladi.

Respublika komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar komissiyalari tegishincha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimliklarining rahbariyati tomonidan boshqariladi.

Respublika komissiyasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar komissiyalarining faoliyatini tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

### **13-modda. O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasining geografik obyektlarning nomlari sohasidagi vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi: respublika komissiyasining, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlar komissiyalarining taqdimnomasiga ko'ra geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan

o'tkazadi ushbu masalalar bo'yicha tegishli xulosalar va tavsiyalarni tayyorlaydi hamda ularga yuboradi;

geografik obyektlarning nomlarini normallashtirish ishlarini amalga oshiradi;

geografik obyektlar nomlarining davlat reyestrini yuritadi;

geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritilgan geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi axborotni yuridik va jismoniy shaxslarga belgilangan tartibda taqdim etadi.

### **14-modda. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish**

Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning davlat ekspertizasi ular geografik obyektlarning nomlariga, mazkur nomlar o'zgartirilishiga hamda belgilanishiga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini aniqlash, shuningdek geografik obyektlarning nomlarini normallashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi tomonidan o'tkaziladi:

geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning davlat ekspertizasi;

respublika komissiyasi tomonidan - tumanlar, shaharlar, viloyatlar, tabiiy obyektlar, transport va muhandislik-texnika infratuzilmasi obyektlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga nisbatan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasi tomonidan-Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga nisbatan;

viloyat komissiyasi tomonidan - shaharchalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga nisbatan tayinlanadi;

O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi davlat ekspertizasi chog'ida toponimik va boshqa tadqiqotlar o'tkazilishini, kartografik, arxivga doir, tarixiy va boshqa

materiallar har tomonlama o'rganilishini tashkil etadi, geografik obyektlar nomlarining normallashtirilishini amalga oshiradi hamda ekspertiza yakunlariga ko'ra geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlarida belgilangan talablarga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi to'g'risida xulosa beradi, ushbu xulosa tegishli komissiyalar murojaat etgan kundan e'tiboran bir oy ichida ularga yuboriladi.

Davlat ekspertizasining xulosasi respublika komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda viloyatlar komissiyalari tomonidan xulosalar berishda hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi davlat ekspertizasini o'tkazish uchun davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar mutaxassislarini, yetakchi olimlarni, fan va madaniyat arboblari, shuningdek tegishli faoliyat sohalarida maxsus bilimlarga ega bo'lgan boshqa shaxslarni jalb etishga haqli.

#### **15-modda. Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga ilova qilinadigan hujjatlar**

Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirishni amalga oshiruvchi organlarga kiritiladigan geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish zarurligining maqsadga muvofiqligining asosi:

geografik obyektning taklif etilayotgan nomi;  
kartografiya materiallari;

geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish bilan bog'liq tegishli hisob-kitoblar hamda xarajatlarning manbalari;

tegishincha respublika komissiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi komissiyasi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar komissiyalarining xulosasi;

ushbu Qonun 14-moddasining ikkinchi qismi talablariga muvofiq o'tkazilgan davlat ekspertizasining xulosasi.

Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish to'g'risidagi takliflarga geografik obyektlarning o'ziga xos xususiyati hamda belgilangan maqsadi hisobga olingan holda boshqa hujjatlar ham ilova qilinishi mumkin.

### **III-BOB. GEOGRAFIK OBYEKTЛАRNING NOMLARINI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH, ULARDAN FOYDALANISH VA ULARNI SAQLASH**

#### **16-modda. Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestri**

Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestri - geografik obyektlarning nomlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish maqsadida yuritiladigan, ushbu obyektlarning nomlariga taaluqli bo'lgan ma'lumotlarning tizimlashtirilgan to'planidir.

O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi geografik obyektlarning nomlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritgan holda amalga oshiradi.

Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirishni amalga oshiruvchi organlar geografik obyektlarga nom berilganligi va ularning nomlari o'zgartirilganligi to'g'risidagi tegishli hujjatlarni Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritish uchun o'n kunlik muddatda O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasiga taqdim etishi shart.

Geografik obyektlar nomlarining davlat reyestriga kiritilgan geografik obyektlarning nomlari haqidagi axborot O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

#### **17-modda. Geografik obyektlarning nomlaridan foydalanish**

Geografik obyektlarning ro'yxatdan o'tkazilgan nomlari:

o'z fauliyatini amalga oshirayotganda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan;

o'quv nashrlarida, kartografik, ma'lumotnoma, ensiklopedik nashrlarda, e'lonlar, reklama, yo'l belgilari, pochta jo'natmalarida foydalanish uchun majburiydir.

Geografik obyektlarning ro'yxatdan o'tkazilgan nomlaridan boshqa holdarda ham qonun hujjatlariga muvofiq foydalanish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan geografik obyektlar nomlarining yo'l belgilaridagi, peshlavhalar va boshqa ko'rsatgichlardagi yozuvlari davlat tilida ifodalanadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Yergeodezkadastr davlat qumitasi bilan kelishilgan holda geografik obyektlar nomlarining rasmiy kataloglari va ma'lumotnomalarini nashr etadi.

#### **18-modda. Geografik obyektlarning nomlarini saqlash**

Geografik obyektlarning nomlari davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Geografik obyektlar nomlarining birini boshqasiga o'zboshimchalik bilan almashtirishga, geografik obyektlarning buzib ko'rsatilgan nomlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

#### **19-modda. Geografik obyektlarning nomlaridan foydalanilishi va ularning saqlanishi ustidan nazorat**

Geografik obyektlarning nomlaridan foydalanilishi va ularning saqlanishi ustidan nazorat belgilangan vakolatlar doirasida:

davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari,  
respublika komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi  
Yergeodezkadastr davlat qumitasi;

fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar,  
muassasalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi.



#### IV-BOB. YAKUNLOVCHII QOIDALAR

##### 20-modda. Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish

Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari va qonun hujjatlari taqiqlanmagan hoshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagilar moliyalashtiriladi:

geografik obyektlarning nomlarini belgilash, normallashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish;

geografik obyektlar nomlarining rasmiy kataloglari va ma'lumotlarini tayyorlash hamda nashr etish.

Aholi punktlarining tarkibiy qismlariga nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish tegishli mahalliy budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Geografik obyektlarga davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining taklifiga ko'ra nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish mazkur organlarning faoliyatini moliyalashtirish nazarda tutilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Geografik obyektlarga xo'jalik boshqaruvi organlarining taklifiga ko'ra nom berish va ularning nomlarini o'zgartirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari, shuningdek mazkur organlar mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

##### 21-modda. Nizolarni hal etish

Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

##### 22-modda. Geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

##### 23-modda. Qonun hujjatlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirish

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; hukumat qarorlarini ushbu Qonunga muvofiqlashtirsin; davlat boshqaruvi organlari ushbu Qonunga zid bo'lgan o'z normativ - huquqiy hujjatlarini qayta ko'rib chiqishlari hamda bekor qilishlarini ta'minlasin.

##### 24-modda. Ushbu Qonunning kuchga kirishi

Ushbu Qonun rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasining  
Prezidenti I. Karimov

Toshkent shahri,  
2011 yil 12 oktabr  
№ O'RQ - 303

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR  
MAHKAMASINING QARORI**

16 oktabr 2012 yil № 295 Toshkent shahri

**«Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston  
Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning  
nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari  
haqida**

«Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish yuzasidan, shuningdek geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi **qaror qiladi:**

**1. Quyidagilar:**

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi to'g'risidagi Nizom 1- ilovaga muvofiq;

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tarkibi 2- ilovaga muvofiq;

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha hududiy komissiyalar to'g'risidagi Namunaviy nizom 3- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Respublika komissiyasi va hududiy komissiyalar o'z vakolatlariga muvofiq qo'yidagilarni ta'minlasinlar:

geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha takliflarni takliflar kiritgan organlarga tegishli xulosalar bergan holda atroflicha o'rganish;

geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha takliflarni ularning geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi yuzasidan davlat ekspertizasidan o'tkazishni tashkil qilish;

geografik obyektlarning tarixiy-madaniy meros, O'zbekiston xalqining ma'naviy-etnik qadriyatlarini bilan bog'liq nomlarini asrash, ularni asussiz qayta nomlashning oldini olish;

geografik obyektlarni O'zbekiston xalqining milliy an'analari va mentalitetiga yot bo'lgan nomlar bilan qayta nomlashga va ularga nom berishiga yo'l qo'ymaslik;

geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlashda mahalliychilik, oshina-og'aynichilik, xizmat martabasini suiiste'mol qilish hollarini istisno qilish;

qaror qabul qilishda xolislik va oshkoralik, shuningdek geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni ko'rib chiqish tartib-qoidasi va muddatlariga rioya qilish;

geografik obyektlarni odamlarning ismlari bilan, shuningdek tarixiy voqealar sharafiga nomlash va qayta nomlash sohasida belgilangan cheklolarga rioya qilish;

mahalliy aholining geografik, tarixiy, milliy, etnik, tilga oid va boshqa xususiyatlarini o'rganish hamda hisobga olish;

bir ma'muriy-hududiy birlik doirasida geografik obyektlarga bir xil nomlar berilishiga yo'l qo'ymaslik;

beriladigan nomlarning geografik obyektlar nomlarining geografik obyekt joylashgan joydagi mavjud tizimiga muvofiqligi;

geografik obyektlar nomlarining yangilashishlarga sabab bo'luvchi o'xshashligini, ushbu nomlar mazmunlarining O'zbekiston xalqining tarixi, an'analari va madaniyatiga to'g'ri kelmasligini nazarda tutgan holda, istisno qilish.

Hududiy komissiyalar rahbarlari zimmasiga geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari so'zsiz bajarilishining ta'minlanishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklansin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari o'n kun muddatda:

tasdiqlangan Namunaviy nizom asosida geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar komissiyalari (keyingi o'rinlarda hududiy komissiyalar deb ataladi) to'g'risidagi nizomlarni ishlab chiqsinlar va tasdiqlasinsinlar;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining raisi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimlari boshchilik qiladigan

hududiy komissiyalarning shaxsiy tarkibini tasdiqlashlar, komissiyalar tarkibiga davlat va xo'jalik boshqaruvi hududiy organlarning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining rahbarlari va xodimlarini, fuqarolik jamiyati institutlarining, fuqarolarning o'ziri o'zi boshqarish organlarining vakillarini, shuningdek fan va madaniyat arboblari, ekspertlarni, mutaxassislarni hamda tegishli faoliyat sohaslariga maxsus bilimlarga ega bo'lgan boshqa shaxslarni kiritsinlar.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi bilan birgalikda:

2013 yil 25 dekabr gacha «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 4-moddasi talablariga muvofiq rasmiy kartografiya va ma'lumotnoma nashrlari, statistika, arxiv, tarixiy va boshqa manbalar ma'lumotlari asosida tumanlar, shaharlar, posyolkalar, qishloqlar, ovullar, aholi punktlari hamda ularning tarkibiy qismlari nomlarini xatlevdan o'tkazish va maqbullashtirish ishlarini amalga oshirsinlar;

amalga oshirilgan ishlar yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorgi Kengeshiga, xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga belgilangan tartibda tegishli takliflar kiritsinlar.

5. O'zbekiston Respublikasi «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi:

navjud bo'linmalar negizida «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasiga idoraviy mansub tashkilotlar boshqaruv xodimlarning soni doirasida Respublika toponimika xizmatini tashkil etsin, unga davlat ekspertizasidan o'tkazish, toponimik va boshqa ilmiy tadqiqotlarni bajarish, geografik obyektlarning nomlarini maqbullashtirish hamda davlat ro'yxatidan o'tkazish, Geografik obyektlar nomlari davlat reyestrini tuzish va yuritish, normativ-huquqiy hujjatlar, geografik obyektlarning nomlari kataloglari hamda ma'lumotnomalarini ishlab chiqish funksiyalarini yuklasin;

rasmiy kartografiya va ma'lumotnoma nashrlari, statistika, arxiv, tarixiy va boshqa manbalar ma'lumotlari asosida geografik obyektlarning nomlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha ilmiy asoslangan, tizimli ishlarni tashkil etsin;

uch oy muddatda geografiya va toponimika sohasi ekspertlarini, shuningdek tegishli tarmoqlar yetakchi mutaxassislarini jalb etgan holda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazishning samarali tizimini ishlab chiqsin hamda joriy qilsin;

uch oy muddatda Geografik obyektlar nomlari davlat reyestrini tuzish va yuritish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni ko'rsin, ma'lumotlarning elektron bazasini shakllantirsin;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan hamda «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonunidan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

6. Belgilab qo'yilsinki, geografik obyektlarning nomlarini belgilash, maqbullashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish, shuningdek ularning rasmiy kataloglari va ma'lumotlarini tayyorlash hamda nashr etish ishlarini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida «Yergeodezkadastr» davlat qo'mitasi uchun har yili nazarda tutiladigan mahlag'lar doirasida amalga oshiriladi.

7. Respublika komissiyasi 2014 yil 1 mart gacha bo'lgan muddatda «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga geografik obyektlarni nomlash sohasidagi ishlarni tartibga solish borasida bajarilgan ishlarning yakunlari to'g'risida axborot va paydo bo'layotgan masalalarni hal etish hamda Qonun talablarining ijro etilishini nazorat qilishga oid tegishli umumlashtirilgan takliflar kiritsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga 2014-2015 o'quv yilidan boshlab, 5440500-«Geografiya» ta'lim yo'nalishlari asosida «Toponimika» mutaxassisligi bo'yicha

magistratura kadrlar tayyorlashni boshlash to'g'risida taktiklar kiritinlar.

9. Quyidagilar:

Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik obyektlarning nomlarini tartibga solish to'g'risida» 1996 yil 31 maydagi 203-son qarori;

Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hukumat komissiyalarini tashkil etish masalalari bo'yicha ayrim qarorlarining o'zgartirilishi, to'ldirilishi va o'z kuchini yo'qotgan deb topilishi to'g'risida» 2000 yil 19 sentyabrdagi 359-son qaroriga 1-ilovaning 4-bandi;

Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlarga va boshqa toponimik obyektlarga nom berish ishlarini tartibga solish to'g'risida» 2004 yil 11 avgustdagi 383-son qarori (O'zbekiston Respublikasi Q1, 2004 y., 8-son, 78-mudda) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 19 oktyabrdagi 483-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qumitasi to'g'risidagi Nizom 8-bandi «b» kichik bandining o'n ikkinchi xat boshi (O'zbekiston Respublikasi QT, 2004 y., 10-son, 97-modda) quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

«Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi taktiklarni davlat ekspertizasidan o'tkazadi, geografik obyektlarning nomlarini maqbullashtirish ishlarini amalga oshiradi, Geografik obyektlar nomlari davlat reyestrini yuritadi».

11. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari A.I.Ikromov zimmasiga yuklatsin.

**O'zbekiston Respublikasining**  
**Bosh vaziri Sh.Mirziyoyev**

Vazirlar Mahkamasining  
2012 yil 16 oktyabrdagi  
295-son qaroriga  
1-ilova

## **GEOGRAFIK OB'EKTLARNI NOMLASH VA QAYTA NOMLASH MASALALARI BO'YICHA RESPUBLIKA KOMISSIYASI TO'G'RSIDA NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda Respublika komissiyasi deb ataladi) geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari ko'rib chiquvchi, shuningdek «Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni talablarining bajarilishini nazorat qiluvchi maxsus organ hisoblanadi.

2. Respublika komissiyasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, shuningdek ushbu Nizomga amal qiladi.

Respublika komissiyasining tarkibi manfaatdor davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlari hamda xodimlaridan, fuqarolik jamiyati institutlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari vakillaridan, shuningdek fan va madaniyat arboblardan, ekspertlardan, mutaxassislardan hamda tegishli faoliyat sohaslarida maxsus bilimlarga ega bo'lgan boshqa shaxslardan shakllantiriladi.

Respublika komissiyasi a'zolarining shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

## **II. Respublika komissiyasining vazifalari va funksiyalari**

3. Quyidagilar Respublika komissiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

geografik obyektlarning O'zbekiston xalqining tarixiy-madaniy qadriyatlari va merosi bilan bog'liq nomlari asralishini ta'minlash, ularning asossiz qayta nomlanishining oldini olish;

geografik obyektlarni O'zbekiston xalqining milliy an'analari hamda mentalitetiga yot bo'lgan nomlar bilan qayta nomlashga va ularga nom berishga yo'l qo'ymaslik;

geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlashda mahalliychilik, oshna - og'aynigarchilik, xizmat martabasini suiste'mol qilish hollarini istisno qilish.

4. Respublika komissiyasi o'ziga yuklangan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

tumanlar, shaharlar, viloyatlar, tabiiy obyektlar, transport hamda muhandislik-texnik infratuzilma obyektlarini nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni atroflicha o'rganishni tashkil etadi hamda tegishli xulosalar beradi, ularni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga jo'natadi;

tumanlar, shaharlar, viloyatlar, tabiiy obyektlar, transport hamda muhandislik-texnik infratuzilma obyektlarini nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning davlat ekspertizasidan o'tkazishini tayinlaydi;

toponimik va boshqa tadqiqotlar o'tkazish, kartografik, arxivga oid, tarixiy va boshqa materiallarni atroflicha o'rganish, geografik obyektlarning nomlarini maqbullashtirish ishlarini muvofiqlashtiradi;

geografik obyektlarni asossiz qayta nomlashning, ularga O'zbekiston xalqining milliy an'analari va mentalitetiga yot bo'lgan nomlar berilishining oldini olish, ushbu sohada mahalliychilik, oshna og'aynigarchilik, xizmatmartabasini suiste'mol qilish hollariga yo'l qo'ymaslik maqsadida geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash jarayoning xolisona hamda oshkora bo'lishini ta'minlash bo'yicha kompleks tadbirlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar komissiyalari (keyingi o'rinlarda hududiy komissilar deb ataladi) tomonidan geografik obyektlarning nomlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining bajarilishi yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

geografik obyektlarning nomlaridan foydalanish va ularni asrash yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

«Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qoidalarini samarali amalga oshirishga qaratilgan boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

## **III. Respublika komissiyasining huquqlari va javobgarligi**

5. Respublika komissiyasi o'ziga yuklagan vazifalarning bajarilishini ta'minlash uchun quyidagi huquqlarga ega:

zarur bo'lganda, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlardan geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni atroflicha o'rganish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar mutaxassislarini, yetakchi olimlarni, fan va madaniyat arboblarni, shuningdek tegishli faoliyat sohaslarida maxsus bilimlarga ega bo'lgan boshqa shaxslarni geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni atroflicha o'rganish uchun jalb etish;

o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, hududiy komissiyalar rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

hududiy komissiyalar qarorlarining qabul qilinishi va ijro etilishi tizimi monitoringini amalga oshirish hamda ularga aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha bajarilishi majburiy bo'lgan yozma ku'rsatmalar kiritish.

6. Respublika komissiyasi o'z faoliyati to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hisobot beradi.

#### IV. Respublika komissiyasining faoliyatini tashkil qilish

7. Respublika komissiyasiga uning raisi hisoblanadigan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri boshchilik qiladi.

#### 8. Respublika komissiyasining raisi:

Respublika komissiyasi faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi va unga yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Respublika komissiyasi a'zolarining vazifalarini belgilaydi va ularga yuklagan vazifalarni bajarish ishlarini muvofiqlashtiradi;

Respublika komissiyasining ish rejalarini, ko'rib chiqish uchun tushgan hujjatlarni ko'rib chiqish jadvallarini tasdiqlaydi;

Respublika komissiyasi majlislarining kun tartibini va chaqirilishini belgilaydi;

Respublika komissiyasi tomonidan qabul qilingan qarorlarning bajarilishi yuzasidan nazoratni tashkil etadi;

Respublika komissiyasining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa ishlarni amalga oshiradi.

#### 9. Respublika komissiyasining a'zolari:

Respublika komissiyasi majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilishda va hal etishda ishtirok etadilar;

Respublika komissiyasiga geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlashning dolzarb masalalari bo'yicha takliflar kiritadilar;

Respublika komissiyasi muhokama qiladigan masalalar bo'yicha xulosalar taqdim etadilar.

#### 10. Respublika komissiyasining kotibi:

Respublika komissiyasining navbatdagi majlisiga barcha zarur hujjatlarning o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;

kun tartibidagi masalalar bo'yicha Respublika komissiyasining majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

majlislarning o'tkaziladigan vaqti va joyini, shuningdek taklif etiladiganlar kontingentini Respublika komissiyasining raisi bilan kelishadi;

Respublika komissiyasining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni majlisining o'tkaziladigan sanasi, vaqti, joyi to'g'risida xabardor qiladi;

Respublika komissiyasi qarorlarining bajarilishini monitoringini yuritadi va uning natijalarini Respublika komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;

Respublika komissiyasining protokollarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan protokollarni Respublika komissiyasining a'zolariga hamda boshqa manfaatdor tashkilotlarga jo'natadi;

11. Respublika komissiyasi o'z ishini o'zi tasdiqlagan rejalar asosida tashkil qiladi va o'z majlislarini zaruratga ko'ra o'tkazadi. Respublika komissiyasining raisi tomonidan Respublika komissiyasi a'zolarining navbatdan tashqari majlisini o'tkazish uchun sabablar va asoslar bayon etilishi lozim bo'lgan yozma iltimosnomalari asosida navbatdan tashqari majlislar chaqirilishi mumkin.

12. Respublika komissiyasining majlisini uning raisi olib boradi. Respublika komissiyasining raisi bo'lmagan taqdirda majlisni Respublika komissiyasi a'zolaridan biri boshqaradi.

Respublika komissiyasining majlisi o'z a'zolarining kamida uchdan ikki qismi qatnashganda qonuniy hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun quorum yig'ilmagan taqdirda, Respublika komissiyasining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi. Yangi majlisni o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

13. Respublika komissiyasining majlisiga ko'rib chiqiladigan masalalarning xususiyatiga qarab davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, boshqa tashkilotlarning rahbarlari hamda mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

#### V. Respublika komissiyasi tomonidan qarorlar qabul qilish va ularning bajarilishini tashkil etish

14. Respublika komissiyasining qarori Respublika komissiyasining majlisida qatnashayotgan a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda Respublika komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Respublika komissiyasining uzil-kesil qarorini qabul qilishda O'zbekiston Respublikasi «Yergeodezkadast» davlat qo'mitasi

toʻmonidan oʻtkazilgan davlat ekspertizasining xulosasi inobga olinadi.

Respublika komissiyasining har bir aʼzosi qabul qilinadigan qarorlar boʻyicha oʻz fikrini yozma ravishda bildirishga haqlidir.

15. Respublika komissiyasining raisi qarorlarni tekzor qabul qilish maqsadida Respublika komissiyasining qarorlarini uning aʼzolari bilan soʻrov oʻtkazish yoʻli bilan kelishilgan ayrim masalalar boʻyicha tasdiqlashi mumkin.

16. Respublika komissiyasining qarorlari Respublika komissiyasi majlisining protokoli bilan rasmiylashtiriladi. Respublika komissiyasi majlisining protokoliga uning barcha aʼzolari tomonidan viza qoʻyiladi, uni kotib imzolaydi, Respublika komissiyasining raisi tasdiqlaydi va u bir hafta muddatda Respublika komissiyasining aʼzolariga hamda manfaatdor tashkilotlarga joʻnatiladi.

17. Respublika komissiyasi protokolining asl nusxasi va unga tegishli materiallar Vazirlar Mahkamasining Ijro etuvchi apparatida saqlanadi.

18. Respublika komissiyasi qabul qilingan qarorlarning bajarilishini muntazam ravishda oʻz majlislarida koʻrib chiqadi.

19. Respublika komissiyasining ish tartibi Reglament bilan belgilanadi. Reglament Respublika komissiyasi tomonidan qabul qilinadi.

20. Respublika komissiyasiga taqdim etilgan hujjatlarni koʻrib chiqish muddati uch oydan oshmasligi kerak.

#### **VI. Respublika komissiyasining aʼributkari**

21. Respublika komissiyasi belgilangan namunadagi, oʻz nomi yozilgan blankalarga ega boʻladi va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining muhridan foydalanadi.

#### **GIDRONIMLAR II QISMI. QILUVCHI TERMINLAR**

**Akratoriya** (lotincha, - «suv») — suv budi.

**Alveduk** (lotincha, -«suv quvuri») — ariq, jar, yoʻllar ustidan oʻtkazilgan osma suv quvuri.

**Auloh** (arabcha, hirligi nuhr) — katta ariq.

**Arashon** (sanskritcha, rasayana — «obi hayot») — issiq mineral suvli buloq.

**Ariq** — suv yoʻli.

**Arna** — katta kanal (Jizzax viloyatida arna - jar).

**Artezian quduq** — parralangʻan va suv otilib chiqadigan teran quduq.

**Afdoq** — katta ariqdan chiqarilgan tarmoq.

**Badoq, badoq** — ariqdan boshlangʻan tarmoq.

**Balchiq** — suyuqroq loy.

**Band** — toʻgʻon.

**Botqoq** — doimo yoki uzoq vaqt zax boʻlib yotadigan joy.

**Boshot** — (basha, tosh beshot) — tosh orasidan chiqadigan buloq.

**Buloq** — yer ostidan chiqadigan tabiiy suv manbai.

**Bulnugʻur** — loyqa suv.

**Boʻgat, boʻgʻot** — ariqdagi toʻsiq, koʻtarma.

**Boʻgʻiz** — ikki suv havzasini birlashtiradigan suv yoʻli.

**Guzar** — kechuv, daryodan kechib oʻtiladigan joy.

**Guldirona, guldiron, gurulloq, gurkirov** — katta shar-shara.

**Gum, gumsay** — chuqur, atrofi baland soylik.

**Dayravot** — daryo boʻyidagi joylar.

**Dam** — suv ravon oqmaydigan, damlanib qoladigan joy.

**Daryo** — tabiiy oʻzandan oqadigan katta suv.

**Daryoliq** — bir zamonlar daryo oqqan soylik.

**Dargʻat** — suv taqsimlagich gidrotexnik inshoot.

**Duob, duoba** — ikki suv qoʻshilgan joy.

**Doʻlob** — suvni balandga koʻtarib beradigan moslama.

**Yob, yop, yab, yap** — ariq (Xorazm).

**Jayxun** — juʻshqin daryo, azim daryo. Amudaryoning arabcha nomi.

**Jilbuloq, jilbuloq** — iliq suvli buloq (qishda).

**Jilgʻa** — jildinib oqadigan soy.

**Jimbuloq** (jimbuloq) – kam suvli buloq.

**Jinnisoy** (jinnisuv, tentaksoy) – baʼzan kuchli toshib turadigan soy.

**Joʻnabuloq** – qiyaroq yerdan chiqqan buloq.

**Jorma, yorma** – yerni yorib ochilgan ariq, quduq.

**Joʻyina** – yangi ariq.

**Juy, joʻy** – soy, ariq.

**Joʻybor** – ariqlari koʻp joy.

**Joʻyak** – ikki pushta orasidagi ariqcha.

**Zax, zak** – sernam joy.

**Zaxkash** – sernam, zax joy.

**Zovur** – zaxni qochirish uchun qazilgan ariq.

**Zagʻoralash** – zovur, oqava tushadigan ariq.

**Zaxbur** – zax suvi oqadigan ariq, zovur.

**Izza** – sernam, zax joy.

**Irmoq** – daryoga qoʻshiladigan soy, jilgʻa.

**Kavsar** – toza, zilol suv.

**Kechik, kechuv** – daryodan, katta soydan kesib oʻtiladigan joy.

**Kom** – ariq.

**Koriz** – bir-biri bilan yer ostida birlashtirilgan quduqlar, yer osti kanali.

**Koʻk suv** – zilol suv, tiniq suv.

**Koʻl** – kichikroq tabiiy suv havzasi.

**Koʻlmak** – halqob suv.

**Koʻlob** – suv yigʻilib qolgan joy, koʻlmak.

**Koʻrbuloq, soʻqirbuloq** – yogʻingarchilik kam boʻlgan yillari qurib qoladigan buloq.

**Nahr** – katta ariq (nar, nor ham deyiladi Narpay, Ulugʻnor kabij).

**Naynova** – qamish, gʻarcdan yasalgan nov; nov - suv oqadigan oʻzaa, tamov.

**Nova** – suv oqadigan ariq, mol suv ichadigan yogʻoch ariq.

**Novadon** – yopiq nov.

**Ob** – suv, daryo, soy.

**Obdon** – koʻlmak, qoq.

**Obi rahmat, obi nayson** – rahmat suvi, navroʻzdan 2-3 kun oldin yogʻadigan barakali yomgʻir.

**Obi siyoh** – qora suv, qoramtir suv.

**Obod** – (aynan «suvli joy») - oʻzlashtirilgan sersuv joy.

**Obxona** – suv manbai yonida qurilgan maxsus bino.

**Obshor** – sersuv joy.

**Odoq** – suvning etagi

**Olish, alish** – katta ariqning qulogʻi, ariqdan suv olinadigan joy.

**Osma quvar** – akkveduk.

**Otquduq** – suvi ot yordamida tartib olinadigan quduq.

**Oqdaryo** – eski oʻzandan oqib turgan daryo.

**Oqova** – partov, tashlandiq suv.

**Oqsuv** – qor va muzliklardan suv olib, koʻpirib, tez oqadigan oqish suv.

**Poynov** – ariq, gidruobyektlarning suv chiqib ketadigan tomoni.

**Roʻd** – soy, daryo.

**Roʻdak** – kichik soy.

**Roʻdxona** – daryo, soy oʻzani.

**Sel** – toshqin suv.

**Selbur** – sel urib ketgan joy.

**Selgoh** – sel kelishi mumkin boʻlgan joy.

**Seldara** – sel kelib turadigan dara.

**Selroha** – sel oʻzani.

**Selxona** – toshqin suv toʻplanib qoladigan soylik.

**Soy** – kichik daryo.

**Suv, su** – tabiiy suyuqlik; daryo, soy.

**Suv ombori** – koʻp suv toʻplanadigan chuqur joy.

**Suv hududi** – akvatoriya.

**Suvot, suvlot** – chorva mollari suv ichadigan joy.

**Tagob, tagop** – yer osti suvi chiqib turgan joy, suv etagidagi maydon.

**Tezob** – tez oqadigan soy.

**Telba suv** – oʻzanini oʻzgartirib turadigan soy, jilgʻa.

**Tomchi** – suvi quyadan tomchilabgina tushadigan buloq.

**Tosh qoq** – togʻlarda, qoya oʻyiqlarida toʻplangan suv.

**Toshqin** – daryo, soy suvining oʻzandan chiqib tevarak-atrofni suv bosishi.

**Xotinsuv** – suvi miqdori bir oz oʻzgarib turadigan kamsuv soy, jilgʻa.



**Chalchiq** – suyuq bulchiq.

**Chashma** – buloq.

**Sharaqsoy** – sharillab tez oqadigan soy.

**Sharildoq, shaldiroq, sharilloq, sharillovuq, sharlovuq** – sharshara.

**Sharsharak** – tepadan sharillab tushadigan suv.

**Shoxob, shaxob, shaxobcha** – daryo yoki soyning irmog'i.

**Shahrro'd** – shaharni suv bilan ta'minlaydigan kanal, nahr.

**Shohro'd** – katta daryo, kanal.

**Egrisuv** – oqim yo'nalishi yonidagi jilg'alarga nisbatan qiyshiq.

**Ersuv** – suvi yil bo'yi kam bo'lmaydigan, uzoqqa oqib boradigan soy.

**Yuguruksoy** – tez oqadigan soy.

**O'jar suv** – tez-tez toshib turadigan suv, soy.

**O'kuz, o'giz, o'g'iz** – katta oqar suv, daryo.

**Qayirma** – suv qayrilib oqadigan joy, muyulish.

**Qayir** – suv labiga yaqin pastlik yerlar.

**Qaynama** – girdoh.

**Qaynar buloq** – suvi otilib, qaynab chiqadigan buloq.

**Qoradaryo** – sun'iy o'zandan oqizilgan daryo, kanal.

**Qorasuv** – tekis yerlarda buloq va sizot suvlardan hosil bo'lgan qoramtir suv.

**Qoq** – cho'llarda bahorgi yog'ingarchilik vaqtida suv to'ladigan sayoz botiq.

**Quvur** – suv oqiziladigan moslama.

**Quduq** – yer ostidan suv olinadigan chuqurlik.

**Quduqcha** – quduq ko'p joy.

**Quloq** – ariqdan, anhordan suv chiqariladigan joy.

**Qo'l** – soyning irmog'i yoki tarmog'i.

**Qo'lat** – soylik.

**Havza** – suvlari bir daryoga qo'shiladigan hudud.

**Haangi suv** – jala yoqqanda soylik jarlikdan toshib oqadigan suv.

**Havuz** – kichik suv ombori.

## ORONIMLAR HOSIL QILUVCHI TERMINLAR

**Aydar** – tepasida bir uyum tosh terilgan qir, balandlik.

**Ayloq** – tog' yaylovi.

**Ayri, ayrilish** – ikkiga ajralgan tog', qir.

**Ayrit** – suvayirg'ich.

**Ayg'ir** – ulkan, katta qoya, tosh.

**Alan** – ariq chetiga chiqarilgan tuproq uyumi.

**Anna** – jar.

**Atav** – orol.

**Asqa, asqar** – baland, yuksak tog'.

**Aqba, ag'ba, ovg'a** – dovon.

**Bayir, boyir** – baland, do'ng, qir.

**Bulqan, bolqon** – past tog', qir.

**Haroz, baraz** – qir, tog'ning yassi tepasi.

**Bel** – tog' qirrasining pastroq qismi, dovon.

**Belas** – yassi tog' tarmog'i.

**Belchagach** – belni past tog'cha, qir.

**Bet, betkay** – yonbag'ir.

**Beshiktosh** – shaklan beshikka o'xshagan qoya.

**Bitov** – boshi berk dara.

**Boldir** – do'ng, tumshuq.

**Burum** – muyulish.

**Burun, murun** – tumshuq, muyulish.

**Bo'ynoq** – tog' tizmalarining tor, siqiq joyi.

**Darvoza** – daradan o'tgan tog' yo'lining kambar joyi.

**Davtosh** – katta tosh.

**Do'lan** – ulkan tog'.

**Do'ng** – yassi tepalik.

**Do'ngsoy** – past yassi tepalik.

**Yetimtog'** – yakka turgan pastroq tog'.

**Yetimqum** – yakka qumlik.

**Yona, jona** – qiya yonbag'ir.

**Yor** – jar, yorma.

**Yorma** – yerni chuqur yorib ochilgan ariq.

**Jiyg'a** – kichik soylik.

**Jirindi** – suv o'yg'an kichik jarlik.

**Jo'na** – cho'zinchoq tepalik qirasi.

**Jo'nag'ar** – tog' qirasi.

**Kamchik, kemtik** – tog' qirrasining past joyi.  
**Keraga** – cho'zinchoq qoya.  
**Kindik** – adir, qirlarning markaziy qismi.  
**Kunas, kunash** – seroftob joy.  
**Kungaboq** – oftobro'y, kunga qaragan joy.  
**Kungay** – kunga qaragan, oftobro'y yonbag'ir.  
**Kunchiboq, kunshuvoq** – janubga, oftobga qaragan (berkay).  
**Ko'tal** – dovon.  
**Ko'tarma** – tuproq, toshdan yasalgan tepalik.  
**Ko'h** – tog'.  
**Ko'hak** – kichik tog', qir.  
**Ko'histon** – tog'lar o'lkasi.  
**Marza** – chegara, uvat.  
**Mag'ara** – qadimiy imoratlarining do'ppayib turgan qoldiqlari.  
**Narvon** – zinapoyasimon yonbag'ir, shoti ham deyiladi.  
**Nishab** – qiya.  
**Nov, nova** – ariq, tarnov.  
**Novar** – nov shaklidagi toshloq, tik soylik.  
**Odantosh** – shakli odam gavydasiga o'xshagan qoya.  
**Oynatosh** – ko'zguga o'xshash yaltiroq tosh.  
**Olatov** – ola-bula tog'.  
**Oshuv** – dovon.  
**Oqtapa** – oq tuproqli tepalik.  
**Oqtosh** – oq tusli tosh, kvars.  
**Oqqum** – o'simliksiz yalang ko'chma qum.  
**Parida** – odam yiqilib uchib tushishi mumkin bo'lgan tik qoya.  
**Past** – quyi, etak.  
**Pitov** – boshi berk dara, soylik.  
**Rash, irash** – ariq chetiga uyulgan tuproq.  
**Reg** – qum.  
**Regzor** – qumlik.  
**Registon** – shaharda qum to'shalgan maydon.  
**Rosh** – uvat, marza, chel.  
**Sayhon** – ochiq maydon, tekislik.  
**Sakirtma** – pog'ona-pog'ona tosh.  
**Sang** – tosh.  
**Sangzor** – toshloq maydon.  
**Sangiston** – tushloq joy.  
**Sangloq** – g'o'la toshli soylik.

**Sandiqtoosh** – shaklan sandiqqa o'xshash tosh, qoya.  
**Sengir** – tik qoya, o'simlik bilan qoplangan baland tog' qirasi.  
**Sina, siyna** – ko'krak shaklidagi halandlik, qir, tog'.  
**Sig'alon** – tog' yonbag'irlaridagi to'plangan silliqlanmagan parcha toshlar.  
**Sochtepa, chochtepa, choshchepa, shoshchepa** – sun'iy tepalik.  
**Supa** – tog'da tekis maydon.  
**Sug'ch** – tog'ni o'tish joyidagi sun'iy toshlar uyumi.  
**Taypoq** – yassi, yalpoq maydon.  
**Tal** – tepalik.  
**Tallak** – tepacha.  
**Tangi** – tor dara.  
**Tarnov** – ariqcha.  
**Teva** – tepa, tepalik.  
**Temirqovuq** – serqatnov daraning eng kambar, qoyali qismi.  
**Tosh** – alohida turgan qoya.  
**Toshzor** – toshloq yer.  
**Toshloq** – sertosh maydon.  
**Toshqoq** – tog'lardagi tosh o'yiqlik va unda hosil bo'lgan ko'lmak.  
**Tuz** – tekislik.  
**Tumshuq** – muyulish.  
**To'sh, do'sh** – tog' bag'ridagi do'ppaygan balandlik.  
**Tuyatosh** – tuyaday katta xarsangtosh.  
**To'man** – pastki, quyi, etak.  
**Uvat** – ekin maydoni chegarasi, marza.  
**Uloq** – chopqich - ko'pkari chopish uchun qulay tekis maydon.  
**Uchma** – tik qoya, odam yiqilib tushadigan buzuq jarlik.  
**Xandaq** – uzun chuqurlik, transheya.  
**Chalqa** – adirlardagi tekis maydon.  
**Chag'at** – oftobga qaragan chag'ir toshli tik yonbag'ir.  
**Chel** – marza.  
**Chem** – to'g'on, qo'rg'on.  
**Chep** – g'ov, to'siq.  
**Ching, chink** – jarlik.  
**Chig'anoq** – daryo tirsagi.  
**Chat** – tog' tarmoqlari tutashgan joy.  
**Chatqol** – tog' yoki daraning qo'shilgan yoki tarmoqlarga ajralgan joyi.

**Choh** – chuqur, o'ra, quduq.  
**Cho'nag'ar** – jo'na, ya'ni cho'zinchoq tepalikning qirasi.  
**Shuqshuq** – qalin-qalin tosh qatlamlari.  
**Shiram** – tog' etagidagi cho'zinchoq qir.  
**Shovqar** – qora tog'.  
**Egarbel** – dovon.  
**Egartosh** – shakli egarga o'xshagan o'rta qismi egilgan qoya, tosh.  
**Enkayma** – nishab qiyalik.  
**O'ba** – baland joyga, ba'zan tekislikka terib qo'yilgan tosh uyumi.  
**O'gaytosh** – yalang erda cho'qqaygan kichikroq qoya.  
**O'zak** – soy, jarlik, suv tarmog'i.  
**O'y** – pastlik, hotqoqlik.  
**O'ydiq** – chuqur joy.  
**O'ypot** – pastlik, tevarak atrofdan chuqurroq joy.  
**O'ra** – chuqurlik, xandaq.  
**O'r** – balandroq joy.  
**Qazg'anaq** – chuqurlik.  
**Qayirma** – yo'l, muyulish.  
**Qumrov** – atrofi tog'-qir bilan o'ralgan berk joy.  
**Qapchig'ay** – tor dara.  
**Qarim** – do'nglik, tepalik.  
**Qatlamatosh** – yupqa qatlamlardan iborat tosh, gilli slanets.  
**Qashat** – jarlik yoqasi.  
**Qahlag'a, qohlag'** – serqatnov daraning eng tor joyi.  
**Qir** – balandlik.  
**Qirang, qirpang** – qirning qirasi.  
**Qisq, qisilish** – daraning o'tish qiyin kambar qismi.  
**Qiya** – nishab yonbag'ir.  
**Qovoq** – baland qirg'oq, yalang jarlik.  
**Qorastov** – past tog', yozda qor yotmaydigan tog'.  
**Qorstepa** – asli qorovullepa, yovni kuzatib turadigan tepalik.  
**Qoxli** – tog'lardagi tosh o'yiqlik va unda to'plangan qor-yomg'ir suvi.  
**Quy** – pastlik, quyilik.  
**Qo'lat** – jarlik, chuqurlik.  
**G'o'rum, qo'rum** – tog' tepasidan qulab tushgan toshlar uyumi.  
**Ho'r** – tepalik.

## O'ZBEKISTON ETNONIMLARI

Abiz	Beshkal	Chelak
Achamayli	Beshkaltak	Chemsaroy
Achchi	Besho'g'il	Chibar
Alako'ylak	Beshota	Chig'atoy
Alelicha	Beshqo'ton	Chigil
Alipli	Beshquvi	Chiljuvut
Aqay	Beshsari	Chilkas
Arg'in	Bo'taqora	Chillikli
Arlot	Bo'gajili	Chimhoy
Asaka	Bo'ja	Chingiz
Avjin	Bo'kalay	Chinoz
Avoqli	Bo'ronboy	Chiriq
Avshar	Bo'yin	Chirkas
Axtachi	Bo'zchi	Chirqirovuq
Aymat	Bog'lon	Chiyonli
Ayronchi	Bolg'abosgan	Cho'qman
Ayteke	Bolg'ali	Cho'michli
Badir	Boqihachcha	Cho'michtamg'ali
Badroqli	Boybo'ri	Cho'pq
Bag'ish	Boyg'undi	Cho'tqora
Bag'anali	Boylar	Choldar
Bag'lan	Boymoqli	Cholmo'yin
Bahrin	Boyovut	Cholqishloq
Balxi	Bugach	Chortkesar
Barak	Burqut	Chovchi
Barlos	Chag'ir	Chovdur
Batosh	Chag'ruk	Chuvalachi
Baxmatchoyi	Chalamang'il	Chubat
Bayot	Chanchuvli	Chumchuqli
Beguzuv	Chang'arochchi	Chuvama
Beklar	Chaparashli	Churash
Beshbegi	Chegana	Churman
Beshbola	Chekmo'lla	Chuvulloq
Beshjuz	Chektamg'a	Chuyut

Davlay	Isaboy	Kasovli
Do'rmon	Isari	Kattaming
Duvlat	Ishqili	Kavraksolin
Echkilar	Iyarli	Kelachi
Egarehi	Iynachi	Kelasqang'li
Elaton	Jadik	Kenagas
Eltamg'ali	Jag'altay	Kenjajuz
Enaka	Jag'albayli	Kerayit
Erganakli	Jalmat	Kesamir
Ezanxo'ja	Jalong'ochsaroy	Kirey
Esat	Jaloyir	Kiyikchi
Eshakchi	Jamansha	Ko'rto'g'ay
Eshbachcha	Jamonsaroy	Ko'kqang'li
Eshbo'ldi	Jarat	Ko'kto'nli
Ettiqashqa	Jarg'oq	Ko'nchi
Ettiurug'	Jastabon	Ko'rpachuvish
Evalak	Jat	Ko'rpali
G'arovli	Javli	Ko'sa
G'o'rojin	Javog'i	Ko'ztamg'ali
G'uralas	Jetiqashqa	Kovon
Gala	Jettiuruv	Kuchchekli
Go'balak	Jilontamg'ali	Kulburun
Gudraybiy	Jobuvchisolin	Kunchibog'
Gulsaroy	Jonsit	Kushkavutqirg'
Gurlan	Julun	Kuyabosh
Gurtak	Junni	Lapakqiyot
Hakka	Juyrat	Lattaband
Havash	Juyrot	Loqay
Hofiz	Kadan	Makay
Hosilbosh	Kal	Makayqang'li
Ilanji	Kalamush	Mang'it
Ilanjisaroy	Kalsari	Marqa
Ilonli	Kaltatoy	Mashkop
Imom	Karchin	Mavlush
Ingichka	Kashi	Maydon
Irg'oqli	Kashmiri	Merkit

Mexayum	O'ris	Oyinni
Miattari	O'roqli	Oytamg'ali
Minjirsaroy	O'tamayli	Parchayuz
Mirishkor	O'tarchi	Pashqurt
Mirzato'p	O'yuvli	Paytavabosh
Mirzayor	Oboqli	Pichoqchi
Mirzoyi	Ochmang'it	Po'ladchi
Misit	Og'ar	Po'lasherali
Mixin	Olaqanot	Potos
Miytan	Olaqop	Puchuqoy
Mo'g'ol	Olato'n	Qahat
Mo'llanlik	Olehin	Qalmoq
Mojorsaroy	Olmachi	Qamaychi
Moltop	Olmasuvon	Qang'li
Moshlar	Oltitamg'asaroy	Qanjig'ali
Moyna	Oltio'g'il	Qaraman
Muazzamoni	Oqbaroq	Qarapchi
Mulkush	Oqbaytal	Qarg'a
Munduz	Oqboy	Qarluq
Musobozori	Oqbug'ra	Qarmish
Naqi	Oqchepkan	Qarqarali
Nayman	Oqdantuqqan	Qashqari
Naymansaroy	Oqchki	Qatag'on
Nebo'sa	Oqman	Qaychili
Neko'z	Oqmang'it	Qayrangli
Niyozjov	Oqmo'yin	Qayroqli
No'g'ayvacha	Oqqang'li	Qiltamg'ali
Norin	Oqqipchoq	Qipchoqsaroy
Nuduchi	Oqqo'yli	Qirg'ili
O'choqli	Oqto'nli	Qirg'izsaroy
O'g'in	Oqtoyloq	Qirg'
O'g'uz	Orday	Qirqigit
O'lmas	Orlat	Qirqsadaq
O'ramas	Orolli	Qirqtamg'a
O'ray	Os	Qishliq
O'raztoy	Ossaroy	Qiyot

Qizilbosh	Qorason	Sarkach
Qiziloyoq	Qoratamg'ali	Sarmish
Qizilqalpoq	Qoratayloq	Saroy
Qo'g'ay	Qoraunas	Sartulli
Qo'ltamg'ali	Qoraupa	Sartyuz
Qo'ng'irbuy	Qoraxoni	Saxtiyon
Qo'ng'iroi	Qorayantoq	Sayyot
Qo'ng'irotsaroy	Qoraymovut	Sevas
Qo'shtamg'ali	Qovchin	Shag'al
Qonxo'ja	Qozoyoqli	Shag'araq
Qora	Qulchan	Sherbachcha
Qoraabdal	Quldov	Sherdantuuqqan
Qorabag'ish	Quljamon	Sherqang'li
Qorabag'anali	Qullar	Shigarak
Qorahayir	Qulonchi	Shirin
Qorahoy	Qunas	Shix
Qorabura	Quralas	Shodmonto'bi
Qoraboyli	Qurama	Shomon
Qoracha	Quraman	Sirgali
Qorachapon	Qurqozon	Sirtisuluv
Qorachivar	Qursoq	Siyroqli
Qurakasmak	Qutchi	Sq'loqli
Qurakesak	Quyonguloq	Soboloq
Qurakisa	Ramadon	Solin
Qorako'sa	Ramazon	Solor
Qoramang'it	Saltir	Soqov
Qoramo'yin	Sandiqli	Sug'umbuy
Qoramarcha	Saribosh	Sulaymon
Qoramurut	Sarig'qatag'on	Sulduz
Qorapichoq	Sario'roqli	Surun
Qoraqang'li	Saripichoq	Tama
Qoraqo'yli	Sariqang'li	Tamaguzar
Qoraqulonchi	Sariq	Tamayrat
Qorarsuq	Sarishirin	Tarag'ay
Qorasadaq	Saritamg'ali	Tariqbosh
Qorasiyroq	Sariyymovut	Taroqli

Tavg'ach	Tumar	Xandakli
Tegana	Tupqora	Xatob
Telov	Turan	Xidirli
Temirchi	Turg'oq	Xidirsha
Tentak	Turi	Xitayuzi
Tig'iriq	Turk	Xoldorqipchoq
Tilav	Turkman	Xontushti
Tilavmat	Tushniyoz	Xurosoni
Tiraovul	Tutamg'ali	Yag'mo
To'qman	Tuvaloq	Yalang'och
To'g'ali	Tuxsi	Yalpoqbosh
To'g'iz	Tuyabo'yin	Yamharak
To'lang'it	Tuyachi	Yangiqo'rg'ay
To'polos	Tuyoqli	Yapag'i
To'por	Uchqiz	Yarat
To'pqora	Uchtamg'ali	Yashiq
To'qboy	Uchuruv	Yubu
To'pchoq	Ugat	Yobusariq
To'qman	Ukrach	Yomonsaroy
To'qmang'it	Ungut	Yomonturkman
To'qchura	Urganjiy	Yumaloqbosh
To'qsari	Usmoni	Yuz
To'rsari	Uvolay	Zarman
To'rg'a	Uvoq	Zarmas
Tobin	Uvoqtamg'ali	Zaxnayman
Tog'ayto'pi	Uyas	
Tolibachcha	Uyg'ur	
Toqchi	Uymovut	
Tortuvli	Uyrat	
Toshkandi	Uyshovut	
Toybaday	Uyshun	
Toyloq	Uz	
Toz	Uzun	
Tugal	Voqimli	
Tulkichi	Voxtamg'ali	
Tuma	Xalaj	

## TEST TOPSHIRIQLARI:

1. "Geografik obyektlari nomlari haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A. 2010 y. 16-oktabr
- B. 2011 y. 12-oktabr
- C. 2012 y. 16-oktabr
- D. 2013 y. 12-oktabr

6. Oykogidronimlar bu ...

- A. Hidronimik obyektlar nomi
- B. Aholi punktlari nomlari bilan ataladigan gidroobyektlar
- C. Aholi punktlari nomlari bilan bog'liq bo'lmagan gidronobyektlar
- D. To'g'ri javob berilmagan

3. Baland, past, katta, kichik, yuqori, quyi, yangi, ko'hna, eski, oq, qizil kabi terminlar qanday turdagi toponimlarda ko'p uchraydi?

- A. Aholining kasb-hunari bilan bog'liq nomlar tarkibida
- B. Obyektning belgi-xususiyati, tomon, o'rin-joy, hajm va boshqa xususiyatlar bilan bog'liq nomlar tarkibida
- C. Joyning geografik o'rnini bildiruvchi toponimlar tarkibida
- D. Foydali qazilmalar, ularning geografik o'ri, turlari va xususiyatlarini bildiruvchi toponimlar tarkibida

4. Toshkent so'zining eng to'g'ri ta'rif berilgan qatorni belgilang.

- A. Choch, shosh so'zlarining tosh so'ziga aylanishidan hosil bo'lgan
- B. Tosh qal'a, tosh shahar so'zlaridan kelib chiqqan
- C. Toshga hech qanday aloqasi yo'q
- D. Buzilmas, qattiq mustahkam, shahar.

5. Indikatorlar (toponimikada) nima?

- A. Joy nomlaridan hosil bo'lgan geografik terminlar
- B. Toponimlarni o'zgartiruvchi terminlar
- C. Geografik nomlardan paydo bo'lgan yangi so'zlar
- D. Toponimlar hosil qiluvchi geografik terminlar

6. Geografik obyektning manzilini belgilovchi nomni toping?

- A. Shimoliy dengizi
- B. O'lik dengizi
- C. Qizil dengizi
- D. Kaspiy dengizi

7. Joyning reliefi bilan bog'liq paydo bo'lgan geografik nomni aniqlang.

- A. To'ron, Turkiston, Movarounnahr
- B. Yangiqo'rg'on, Kattaqo'rg'on, Chimqo'rg'on
- C. Supatog', Tovoqsoy, Arnasoy
- D. Quruqsoy, G'ovasoy, Jinnisoy

8. Qanday geografik obyektlarga qo'yilgan nomlar uzoq davr saqlanadi?

- A. Antroponimlar
- B. Hidronimlar
- C. Oykonomlar
- D. Oronimlar

9. O'zbekiston toponimiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan birini aniqlang.

- A. Ijtimoiy nomlar ko'p
- B. Kasb-hunar bilan bog'lik nomlar kam
- C. Antroponimlar yo'q
- D. Etnonimlar ko'p

10. Odam nomi bilan bog'liq toponimni toping.

- A. Kanberra
- B. Islomobod
- C. Brazzavil
- D. Montevideo

11. Bir-biriga teskari ma'noli geografik nomlar qanday ataladi?

- A. Antroponim nomlar
- B. Arealli nomlar
- C. Antonim nomlar
- D. Sinonim nomlar

12. Foydali qazilmalar bilan bog'liq toponimlar qatorini aniqlang.

- A. Qarovulbozor, Angren, Buxoro
- B. And, Nebitdog', Solikamsk
- C. Olmaliq, Uchquduq, Zarafshon
- D. Polvontosh, Olamushuk, Ko'kaydi

13. Urug' nomi bilan bog'liq qatorni belgilang.

- A. O'ttiz
- B. Qirq
- C. Ellik
- D. Oltmish

14. Toponimiya nima?

- A. Ma'lum hududdagi joy nomlari yig'indisi
- B. Joy nomlarini o'rganadigan fan
- C. Aholi turar joylari
- D. Noma'lum nom

15. Toshkent shahrining qadimgi nomini belgilang.

- A. Shosh
- B. Choch
- C. Barchasi to'g'ri
- D. Toshkand

16. H.Hasanov joy nomlarini bunyodga kelishiga qarab, shartli ravishda necha turga bo'lgan?

- A. 9 ta
- B. 8 ta
- C. 5 ta
- D. 12 ta

17. Daryo, suv ma'nosidagi so'zlar guruhini toping.

- A. O'kuz, river, rio.
- B. Nahr, jayhun, don.
- C. Misi, idil, reka
- D. Barcha javoblar to'g'ri

18. O'zlashma (kalka) nomlar bu...

- A. Tarjima qilingan nomlar
- B. Ma'nosi bir xil nomlar
- C. Ma'nosi bir ammo, ikki tilda ikki xil ataladigan nomlar
- D. Ma'nosi turlicha ammo, ikki tilda turlicha yozitadigan

nomlar

19. Toponom qatorini belgilang.

- A. Vulkan, geyzer, karst.
- B. Tapa, dasht, cho'l
- C. Soy, daryo, buloq
- D. Tog', qir, tangi

20. Gibrilid nomni ko'rsating.

- A. Yangikent
- B. Yangiqishloq
- C. Kattasoy
- D. Kattaqishloq

21. Etnonim qanday nom?

- A. Urug', qabila, xalq nomi
- B. Kishilarni taxallusi bilan bog'liq nom
- C. Shahar nomi
- D. O'simlik bilan bog'liq nom

22. Toshbaqa orollari bu...?

- A. Kanar orollari
- B. Azor orollari
- C. Kapri orollari
- D. Galapagos orollari

23. Toponimlar birinchi navbatda jamiyatda sodir bo'layotgan qanday o'zgarishlarni o'zida aks etadi?

- A. Siyusiy o'zgarishlarni
- B. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni
- C. Ilmiy-texnikaviy o'zgarishlarni
- D. Fan taraqqiyotini

24. Astana shahri ilgari qanday nom bilan atalgan?

- A. Aqmola
- B. Selinograd
- C. Akmolinsk
- D. Barchasi to'g'ri

25. Oykonim bu ...

- A. Aholi manzilgohlari nomi
- B. Shahar ichidagi obyektlar nomi
- C. An'anaviy nom
- D. G'orlar nomi

26. "Geografik nomlar ma'nosi" asari muallifi kim?

- A. H.Hasanov
- B. T.Nafasov
- C. S.Qorayev
- D. M.Mirakmalov

27. A.Xromov iborasi bilan aytganda, O'rta Osiyoning birinchi toponimisti bu...

- A. Muqaddasiy
- B. Ibn Rushd
- C. Ibn Havqal
- D. Yo.Hamaviy

28. Hozirgi Beruniy shahri ilgari qanday nom bilan atalgan?

- A. Xiva
- B. Kat
- C. Urganch
- D. To'rtko'l

29. Ma'lum hududdagi joy nomlari yig'indisi bu....

- A. Toponimiya
- B. Toponimika
- C. Toponomika
- D. Toponim

30. Amudaryoning qadimiy nomini belgilang.

- A. Sayxun
- B. Edil
- C. O'kuz
- D. Yaksart

31. Kishi nomi bilan bog'liq bo'lmagan toponimni belgilang.

- A. Vellington
- B. Montevideo
- C. Dreyk
- D. Brazzavil

32. "Safarnoma" asari muallifi kim?

- A. Mahmud Koshg'ariy
- B. A.Beruniy

- C. Nosir Xisrav
- D. M.Narshaxiy

33. Geografik nomni paydo bo'lishiga asosiy sabab ....

- A. Ijtimoiy ehtiyoj tufayli
- B. Zaruriyat tufayli
- C. Manzilni belgilash uchun
- D. Barchasi to'g'ri.

34. Qoratog' bu ...

- A. Past tog'
- B. Qorsiz tog'
- C. Qorong'u tog'
- D. Barchasi to'g'ri

35. «Yer - insoniyat tarixi geografik nomlar bilan yozilgan kitobdir» degan ibora kimga tegishli?

- A. E.Murzayev
- B. N.Nadejdin
- C. H.Hasanov
- D. S.Qorayev

36. "Har qanday toponimik tadqiqotlar geografik terminlarni o'rganishdan boshlanmog'i kerak" degan ibora muallifi kim?

- A. E.Murzayev
- B. M.Mirakmalov
- C. N.Nadejdin
- D. H.Hasanov

37. So'g'dcha "kat" so'zi qanday ma'noga ega?

- A. Shahar, qishloq, aholi maskani
- B. Daryo, soy, buloq
- C. Tog', adir, tepa
- D. Urug', qabila, elat

38. "Hudud ul-olan" asari muallifi kim?

- A. Ibn Havqal
- B. M.Koshg'ariy
- C. Hofiz Tanish Buxoriy
- D. Noma'lum



39. Toponimik termin bu ...

- A. Joy nomlari tarkihida qatnashib, ular ifodalangan obyektini bildiruvchi so'z
- B. Toponim asosini tashkil etadi va obyektini turini ifodalaydi
- C. Toponim asosini tashkil etuvchi turdosh ot
- D. Barchasi to'g'ri

40. Gibrilid nomlar bu ...

- A. Ikki va undan ortiq tillardan tashkil topgan murakkab nomlar
- B. Bir tilli murakkab nomlar
- C. Qadimiy turkiy toponimlar
- D. Geografik termin asosida paydo bo'lgan nomlar

41. Abbreviatura nima?

- A. Relief shaklini anglatuvchi nomlar
- B. Urug', qabila nomlari
- C. Geografik nomlarni qisqartirilgan shakli
- D. Toponimlarni o'zgargan shakli

42. «O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan» asari muallifi

kim?

- A. F.Murzayev
- B. M.Mirakmalov
- S. N.Nadejdin
- D. H.Hasanov

43. Tinch okean deb nom bergan dengizchi - sayyohni

belgilang.

- A. F.Magellan
- B. X.Kolumb
- C. J.Kuk
- D. R.Skott

44. Toponimik pozitivlik qonuniyati mazmuni nimadan

iborat?

- A. Nom real voqealikni aks etadi
- B. Nom real voqealikni aks etmaydi
- C. Nom tasodifiy paydo bo'lgan
- D. Nom berilgan vaqtda aniq ma'no kash etgan

45. Kasb-hunar bilan bog'liq bo'lmagan geografik nomni belgilang.

- A. Ohangaron
- B. Shohimardon
- C. So'zangaron
- D. Sarrofon

46. Toponimika integral ilmiy yo'nalish, "chegaraviy" fan degan tushuncha qanday ma'noga ega?

- A. Geografiya, filologiya va tarix fanlarining manfaatlari tutashgan joyda paydo bo'lgan.
- B. Lingvistika, tarix va etnografiya fanlari negizida shallangan.
- C. Tarix, falsafa va iqtisodiyot nazariyasi fanlarining qirasida paydo bo'lgan.
- D. Geografiya va kartografiya fanlari asosida paydo bo'lgan.

47. Kanada nomi qanday ma'noga ega? To'g'ri javob qatorini belgilang.

- A. shahar
- B. qal'a
- C. qishloq
- D. ovul

48. Markaziy Osiyoga maxfiy sayohat qilib, "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" kitobini yozgan olim kim?

- A. N.Nadejdin
- B. V.Bartold
- C. H.Vamberi
- D. V.Vyatkin

49. "Toponimikaga kirish" asarining muallifi kim?

- A. F.Murzayev
- B. V.Nikonov
- C. V.Juchkevich
- D. A.Xromov

50. Tilshunos toponimist olimlar qatorini belgilang.

- A. E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Do'simov
- B. A.Muhammadjonov, O.Bo'riyev, A.Nabiyev
- C. H.Hasanov, S.Qorayev, M.Mirakmalov
- D. P.G'ulomov, A.Soliyev, Q.Hakimov

51. Quyidagi ta'rif qaysi toponimik qonuniyatga tegishli?

Geografik obyektning tabiiy yoki ijtimoiy-iqtisodiy alomatlarini, ya'ni real voqea-hodisalarni o'zida aks etadi.

- A. Nisbiy negativlik
- B. Toponimik pozitivlik
- C. O'zlashma nomlar
- D. Xalqona etimologiya

52. F. Magellan sayohatidan keyin geografiya olamida qanday yangilik bo'ldi?

- A. Dunyo okeanining bir butun ekanligi aniqlandi
- B. Yerning shar shaklida ekanligi aniqlandi
- C. Tinch okeanning eng ulkan okean ekanligi aniqlandi
- D. Atlantika eng sho'r okean ekanligi aniqlandi

53. Antarktidani qaysi mamlakat dengiz sayyohi kashf etgan?

- A. Fransiya
- B. Italiya
- C. Germaniya
- D. Rossiya

54. Detoponimizatsiya nima?

- A. Geografik nomlarni terminlarga aylanishi
- B. Toponim hosil qiluvchi mahalliy termin
- C. Geografik nomning qisqartma shakli
- D. Terminlarni geografik nomga aylanishi

55. Beruniyning «Saydana» asarida qancha nom tilga olingan?

- A. 300 ta
- B. 400 ta
- C. 350 ta
- D. To'g'ri javob yo'q

56. Xato nomlar qatorini belgilang.

- A. Afrika, Atlantika okeani
- B. Amerika, Tinch okean
- C. Avstraliya, Shimoliy Muz okeani
- D. Xuroson, Movarounnahr

57. "Geografik nomlar imlosi" asari muallifi kim?

- A. S. Qorayev
- B. T. Nafasov
- C. Z. Do'simov
- D. H. Hasanov

58. Bxarat qaysi davlatning mahalliy nomi?

- A. Hindiston
- B. Pokiston
- C. Bangladesh
- D. Nepal

59. Speleonim bu ...

- A. O'simliklar nomi
- B. Qishloq va shaharlar nomi
- C. G'or, ungurlar nomi
- D. Shaharlarning maxsus nomlari

60. Toponimik tadqiqotlarda tarixiy usul tarafdori bo'lgan olimni belgilang.

- A. I. Hasanov
- B. N. Nadejdin
- C. A. Popov
- D. A. Muhammadjonov

61. Muhammad Narsbaxiy asarining nomini belgilang.

- A. Tarixi Buxoro
- B. Mehmonnoma Buxoro
- C. Tarixi mulki Ajam
- D. Tarixiy Toshkandiy

62. Joy nomlari tarkibidagi "chek" so'zi qanday ma'noga ega?

- A. Xon va uning oila a'zolariga tegishli yerlar
- B. Ruhoniylar va mashhur kishilarga tegishli yerlar
- C. Har qanday kishilarni xususiy yerlari
- D. Barcha javoblar to'g'ri

63. Substrat toponim bu ...

- A. Qadimgi xalqlar tomonidan qo'yilgan nom
- B. Maxsus etimologik tadqiqotlarni talab qiladigan nom
- C. Hozirgi tillar yordamida izohlab bo'lmaydigan nom
- D. Barcha javoblar to'g'ri

64. Rus olimi V.P.Semyonov-Tyan-Shanskiy aholi punktlari nomlarini nechta kategoriyaga bo'lgan?

- A. 7 ta
- B. 8 ta
- C. 11 ta
- D. 5 ta

65. "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" kitobi muallifini belgilang.

- A. M.Mirakmalov
- B. H.Hasanov
- C. Q.Hakimov
- D. S.Qorayev

66. Toponimikada indikator so'zi qanday ma'noga ega?

- A. Ko'chma ma'noda ishlatadigan so'z
- B. Yozilishi va talaffuzi an'anaviy bo'lgan nom
- C. G'orlar va ungular nomi tarkibidagi so'z
- D. To'g'ri javob yo'q

67. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida" gi № 295-qarori qachon qabul qilingan?

- A. 2012 yili 16 oktyabrda
- B. 2011 yili 16 oktyabrda
- C. 2013 yili 16 oktyabrda
- D. 2010 yili 16 oktyabrda

68. "Kartadagi so'z" asarining muallifi kim?

- A. V.Nikonov
- B. E.Murzayev
- C. M.Mirakmalov
- D. A.Superanskaya

69. Qadimiy turkiy toponimlar tarkibidagi "baliq" so'zi qanday ma'noni anglatgan?

- A. Shahar
- B. Tog'
- C. Tekislik
- D. To'g'ri javob yo'q

70. Qaysi olim, "Arab yozuvi tufayli shaharlar va boshqa obyektlarning nomlari tanib bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketdi" deb yozgan?

- A. A.Beruniy
- B. P.G'ulomov
- C. A.Forobiy
- D. H.Hasanov

71. Qanday hollarda geografik nomlar ajratib yoziladi?

- A. Geografik nom oldida qandaydir sifat kelganda
- B. Ikkinchi tarkibiy qismi o'simlik nomidan iborat bo'lganda
- C. Ikkinchi tarkibiy qismi qandaydir son kelganda
- D. Barcha javoblar to'g'ri

72. Geografik obyekt nomining rasmiy va umumiste'molda bir xil yozilishini qat'iy lashtirish, qonunlashtirish, ... deyiladi.

- A. Transkripsiya
- B. Standartlashtirish
- C. Transliteratsiya
- D. Transomizatsiya

73. Rossiyada qaysi olimni ilmiy toponimika asoschisi deyishadi?

- A. A.Vostokov
- B. E.Murzayev
- C. V.Nikonov
- D. V.Semyonov-Tyan-Shanskiy

74. Toponimik terminlar bu....

- A. Barcha joy nomlari
- B. Joy nomlari hosil qiluvchi terminlar
- C. Joy relctfiga mos terminlar
- D. Joy nomlari tarkibida qatnashib obyekt turini bildiradigan terminlar

75. Ag'ba, dovon, bel, ko'tal, do'ng qaysi toponimik terminlar turiga mansub?

- A. Geomorfologik
- B. Litologik
- C. Hidrologik
- D. Oykonomik

76. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo'yicha viloyat komissiyasining raisi kim?

- A. Toponimist olim
- B. Viloyat hokimi
- C. Institut rektori
- D. Soliq boshqarmasi boshlig'i

77. Shahar ma'nosidagi so'zlar guruhini toping.

- A. kent, grad, vil.
- B. pol, burg, shtad.
- C. pur, laun, kar.
- D. Barcha javoblar to'g'ri

78. Metaforik nomlar qatorini belgilang.

- A. O'lik dengizi, Ajal vodiysi, Borsakelmas oroli
- B. Mak-Kinli, Ulan-Ude, Ulan-Bator
- C. Sahroi Kabir, Gohi cho'li, Quraqum cho'li
- D. Chirchiq, Parkent, G'azalkent

79. Daryo nomlari bilan atalgan mamlakatlarni belgilang.

- A. Senegal, Gambiya
- B. Gollandiya, Daniya
- C. Kolumbiya, Braziliya
- D. Indoneziya, Vetnam

80. Kaspiy dengizi qadimda qanday atalgan?

- A. Xazar dengizi
- B. Xorazm dengizi
- C. Xuroson dengizi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

81. Amudaryo irmoqlari nomlarini belgilang.

- A. Chirchiq, Norin
- B. Sirdaryo, So'x
- C. Qoradaryo, Chu
- D. Vaxsh, Panj

82. Arxipelag so'zining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan.

- A. To'da orollar
- B. Bir-biridan uncha uzoq bo'lmagan orollar
- C. Bir butun deb hisoblangan orollar
- D. Barcha javoblar to'g'ri

83. O'zbekistondagi eng katta cho'l nomi.

- A. Qarshi cho'li
- B. Qizilqum
- C. Mirzacho'l
- D. Qoraqum

84. "Nomini eshitgandan ko'ra, yuzini ko'rmoq afzal" degan naqi qaysi xalqqa tegishli?

- A. Hind xalqiga
- B. Xitoy xalqiga
- C. Rus xalqiga
- D. O'zbek xalqiga

85. «Geografiya toponimikani debochasi va doyasi» degan xulosa kimga tegishli?

- A. T.Nafasov
- V. S.Qorayev
- C. M.Mirakmalov
- D. T.Enazarov

86. Toponimlarni ilk bor topoformentlar yordamida o'rgangan olim kim?

- A. V.Juchkevich
- B. S.Qorayev
- C. N.Oxunov
- D. A.Vostokov

87. Joy nomlari tarkibidagi to'qnovchilik kasbiga aloqador nomni belgilang.

- A. Parchabof
- B. Yo'rmado'z
- C. Charnagar
- D. To'g'ri javob berilmagan

88. Toponimik tadqiqotlarda statistik usul qanday afzalliklarga ega?

- A. Nom haqidagi tasavvurni konkretlashtiradi
- B. Aniq xulosa chiqarishga ko'maklashadi
- C. Nomlarni foiz nisbatlarini chiqarishga yordam beradi
- D. Barcha javoblar to'g'ri

89. Noma'lum nomlarda ayrim elementlarni takrorlanishi nimadan darak beradi?

- A. Bir tipga xosligidan
- B. Bir xil omillar asos bo'lganligidan
- C. Etnik daxldorligidan
- D. To'g'ri javob berilmagan

90. Toponimlarni paydo bo'lishi, turg'unlashishi yoki qayta nomlanishi qanday o'zgarishlar bilan bog'liq?

- A. Siyosiy
- B. Iqtisodiy
- C. Ijtimoiy
- D. Barcha javoblar to'g'ri

91. Toponimlarni yonma-yon kelishi, ularni bir-biriga nisbatan nom olishi qaysi qonuniyat mahsulidir?

- A. Xalqona etimologiya
- B. Qatorlar qonuni
- C. O'zlashma nomlar qonuniyati
- D. Nisbiy negativlik qonuniyati

92. «Aholi punktlarining mahalliy nomlarida geografik manzara aks etadi» nomli asar muallifini aniqlang.

- A. H.Hasanov
- B. F.Murzayev
- C. V.Semenov-Iyan-Shanskiy
- D. V.Bartold

93. "Joy nomlari tabiat va jamiyat ko'zgusidir"- degan iborani muallifi kim?

- A. M.Mirakmalov
- B. S.Qorayev
- C. H.Hasanov
- D. T.Nafasov

94. Afrika qit'asining nomi qanday ma'noga ega?

A. Afrigi ("g'orda yashaydigan odamlar") qabilasi nomi bilan bog'liq

- B. Afri (grekcha) - so'zi sovuq emas ma'nosini anglatadi
- C. Afrika nomli sayyoh kashf etgan
- D. Janubiy Afrika Respublikasi nomidan olingan

95. Antarktidani qaysi davlatning sayyohlari kashf etgan?

- A. Fransiya
- B. Italiya
- C. Germaniya
- D. Rossiya

96. Avstraliya so'zi qanday ma'noga ega?

- A. Noma'lum yer
- B. Janubiy yer
- C. Janubiy mamlakat
- D. Noma'lum orol

97. Amerikani "Yangi dunyo" deb atashni kim taklif qilgan?

- A. A.Vespuchchi
- B. M.Valdzemyuller
- C. S.Kubot
- D. X.Kolumb

98. Jizzax so'zining lug'aviy ma'nosini aniqlab belgilang.

- A. So'g'd tilida "kichik qal'a"
- B. Turkiy tilda "zax joy"
- C. Arab tilida "issiq joy"
- D. Lug'aviy ma'nosi aniq emas

99. Joy nomlari hudud tabiatini aks etishidan maqsad nima?

- A. Tabiatdan oqilona va unumli foydalanish maqsadida
- B. Foydali o'simliklarni aniqlash uchun
- C. Hudud tabiatiga ta'siri kuchaytirish maqsadida
- D. Tabiatni muhofaza qilish maqsadida

100. Toponimik tadqiqotlarda kartografik metodni keng qo'llagan olim kim?

- A. Ye.Pospelov
- B. N.Nadejdin
- C. A.Popov
- D. S.Qorayev

## MUNDARIJA

So'z boshi .....	3
<b>I BOB. TOPONIMIKANING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI</b>	
1.1. Kirish .....	6
1.2. Toponimika va geografik terminshunoslik .....	16
1.3. Toponimikaning rivojlanish tarixi .....	27
1.4. Toponimik tadqiqotlar .....	43
1.5. Geografik terminlar .....	52
<b>II BOB. GEOGRAFIK NOMLARNING TURLARI</b>	
2.1. Toponimik sinf (klass) lar, ularning tavsifi va turlarga ajratish mezonlari .....	60
2.2. Tabiiy-geografik omillar asosida shakllangan toponimlar .....	78
2.3. Etnotoponimlar va antropotoponimlar .....	94
2.4. Kash-hunar, savdo-transport, afsonaviy va diniy e'tiqodlar bilan bog'liq nomlar .....	107
2.5. Toponimika va landshaft .....	120
<b>III BOB. AMALIY TOPONIMIKA</b>	
3.1. Toponimikaga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar .....	132
3.2. Geografik nomlarning yozilishi va talaffuzi .....	148
3.3. Geografiya ta'limi va toponimika .....	168
<b>IV BOB. O'ZBEKISTON VILOYATLARI TOPONIMIYASI</b>	
4.1. O'zbekiston toponimiyasiga umumiy tavsif .....	181
4.2. Toshkent viloyati va Toshkent shahri toponimiyasi .....	194
4.3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro va Navoi viloyatlari toponimiyasi .....	206
4.4. Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlari toponimiyasi .....	224

4.5. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari toponimiyasi .....	239
4.6. Samarqand, Jizzax va Sirdaryo viloyatlari toponimiyasi .....	248
Tavsiya etilgan amaliy mashg'ulotlar mavzulari .....	266
Mustaqil ish mavzulari va ularni bajarish bo'yicha metodik tavsiyalar .....	268
Glossariy .....	271
Adabiyotlar .....	275
Xotima .....	279
Ilova .....	283
Gidronimlar hosil qiluvchi terminlar .....	313
Oxonimlar hosil qiluvchi terminlar .....	317
O'zbekiston etnonimlari .....	321
Test topshiriqlari .....	326

Hakimov Qo'chqor Mahkamovich,  
Mirakmalov Mirali Turonboyevich

# TOPONIMIKA

Darslik

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 2020

**Muharrirlar:** Abdukamol Abdujalilov  
**Texnik muharrir:** Yunusali O'rinov  
**Badiiy muharrir:** Shoimov Zuxriddin  
**Musahhiha:** Dilfuza Beknazarova  
**Dizayner:** Yunusali O'rinov

Nash.lits. № 2013-975f-3e5e-d1e5-  
64E3-8537-2366, 20.08.2020 y.

Terishga 24.08.2020-yilda berildi. Bosishga 7.11.2020-yilda  
ruxsat etildi. Bichimi: 60x84 1/16. Ofset bosma. «Times New  
Roman» garniturasida. Shartli b.t. 21.5. Nashr b.t. 19.99.  
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №26.  
Bahosi shartnoma asosida.

«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 100190, Toshkent shahri,  
Yunusobod-9, 13-54. e-mail: tafakkur\_avlodi@mail.ru

«Tafakkur avlodi» MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Tushkent shahri, Olmazor tumani, Nodira ko'chasi, 1-uy.  
Telefon: +99890 000-33-93